ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

5-son

(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT		
	4	Yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasiga har birimiz mas’ulmiz
TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
B. Saidov	6	Vatanparvarlik tarbiyasi muammosining ilmiy-psixologik tadqiqiga doir ayrim mulohazalar
B. Xusanov	12	Yoshlarda ma’naviy tarbiya uzviyligini ta’minlash masalalari
M. Axmedova	16	Milliy qadriyatlar vositasida o‘smirlarni badiiy-estetik rivojlantirishda gender yondashuvni qo‘llashning pedagogik imkoniyatlari
M. Xamudov	20	Bo‘lajak rahbarlarda siyosiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari
D. Abduvaliyeva	23	Bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligi rivojlanishining xususiy metodik-texnologik shart-sharoitlari
M. Usmonova	27	Milliy va umuminsoniy fazilatlarning ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilari tarbiyasidagi o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati
A. Daukeeva	30	O‘qituvchilarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirish
M. Pulatova	35	Pedagogning innovasion kompetentligini shakllantirish strategiyasi samaradorligini oshiruvchi pedagogik shart-sharoitlar
M. Muhammadieva	39	Shaxs faoliyatlari integratsiyasi jarayonida mas’uliyatlilikni shakllantirishning o‘ziga xos mezonlari
Sh. Giyasova	42	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirishni samarali usullari
M. Kazakova **K. Ergashova**	47	O‘quvchilarning axloqan hamda psixologik rivojlanishida tarbiya darslarining o‘rni
G. Qosimova	51	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida olamning tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning umumiy qonuniyatlari
TA‘LIM VA TARBIYA METODIKASI		
N. Komilova **M. Qo‘ldasheva**	54	Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish mexanizmlari
I. Ortiqova **Z. Avezmurotova**	59	O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda o‘zlashtirish faoliyatini tashkil etish metodlari
TA’LIM SIFAT: MAZMUN VA MOHIYAT		
D. Abduraxmonova	64	Milliy ta’lim dasturida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozuv savodxonligiga qo‘yiladigan talablar
ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI		
M. Raximqulova	70	Boshlang‘ich ta’limda “steam” yondashuv – innovatsion texnologiyalardan biri sifatida
Q. Eshqorayev	77	Informatika o‘qitish texnologiyalari va loyihalash kursini klasterli yondashuv orqali o‘qitish
R. Tuxtasheva	82	Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limning interaktiv muloqot bilan uzviy bog‘liqligi
D. Jumabayev **Sh. Xudayberdiyev**	87	Klasterli ta’lim muhitida o‘qituvchining pedagogik komponentlarini takomillashtirish shakllari
MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI		

D. Qurbonova	93	Temuriy malikalar ma’naviy merosi asosida talaba qizlarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni takomillashtirishda oila, ta’lim muassasalari va mahalla hamkorligi
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
Z. Xatamov	99	Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida sog‘lom turmush tarzini innovatsion klaster asosida shakillantirish
		MAKTABGACHA TA’LIM
G. Gaynazarova	104	Maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyachilarini metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari
M. Alimardonova	107	Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlari va ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida kognitiv vazifalaridan amaliy foydalanish
		TA’LIMDA MUTOLAA MADANIYATI
D. Muminova	111	Ta’lim oluvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik asoslari
		PSIXOLOGIYA
O. Aslonova	116	Rivojlantiruvchi ta’lim mazmunining psixologik asoslari va uning o‘qitish jarayonida namoyon bo‘lish xususiyatlari
M. Xo‘jamberdiyeva	120	Eydekologiya tamoyillaridan foydalanishning psixo-fiziologik jarayonlari mazmuni
		KORREKSION PEDAGOGIKA
G. Salixova	124	Oilada nogironligi bo‘lgan o‘smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligi
		XALQ PEDAGOGIKASI
J. Mamatov	129	G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning matematika faniga qo‘shgan hissalari va binom formulasi
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
А. Абдурахманова	134	Развитие личностных убеждений в системе образования
З. Абдурахманов	139	Дидактические аспекты подготовки магистров специалистов в условиях ифровизации образования

YOSHLARNING VATANPARVARLIK TARBIYASIGA HAR BIRIMIZ MAS'ULMIZ

Vatanni sevish, uni sog‘inib yashash insoniyat fitratida mavjud bo‘lgan nozik hisdir. Biror sabab bilan boshqa yurtlarga ketgan kishi kindik qoni tomgan diyorini qumsab ma'yus tortishi va u haqda biror qayg‘uli xabar eshitganda qalban ezilishi bor gap.

Tarixdan ma'lum, birorta xalq boshqa bir xalqni o‘ziga tobe qilmoqchi bo‘lsa, avvalo, uning vatanini bosib olib, vayron qilgan, o‘zlarini esa qulga aylantirgan, Vatanini dushman qo‘liga o‘tganini ko‘rgan millat uchun bundan ortiq xo‘rlik va azob yo‘q. Zero, Vatan tushunchasi inson uchun har narsadan aziz va muqaddasdir.

Inson qayerda dunyoga kelsa, o‘sha yer uning uchun Vatandir. Kindik qoni to‘kilgan joy unga hamma narsadan qimmatli.

Alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy hazratlarining quyidagi so‘zlari ona Vatanni sevgan har bir kishining qalbida g‘ayrat va shijoat uyg‘otadi: “Har bir kimsaga ma'lumdirki, hayot olamida insonning eng sevgan, qadrli, qimmatli to‘rt narsasi bordur. Bu to‘rt narsaga ega bo‘lmagan kishilar insonlik sharafidan mahrum bo‘lurlar. Ular: ozodlik va erkinlik, mehnat bilan topilgan molga o‘zi egalik qilmog‘i, tug‘ilib o‘sgan ona Vatani hamda asrlar bo‘yi asrab-avaylab kelayotgan muqaddas dini”. Allomalar aytganlaridek: “Kishining vafodorligi uning o‘z Vatani uchun qayg‘urishidan, do‘stlarini sog‘inishidan va umrining zoye ketkazgan lahzalariga o‘kinib yashashidan bilinadi”. Insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoyiligi Vatanni himoya qilishi, yurt taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo‘lishi hamda elning tinch va farovon hayot kechirishiga imkon darajada hissa qo‘shish bilan o‘lchanadi.

Barchamiz uchun tabarruk bo‘lgan uch so‘z bor: Imon, Vatan va Istiqlol. Bu so‘zlarning mazmun mohiyatini bugun har birimiz yurakdan his etib turibmiz.

Alixonto‘ra Sog‘uniy “Vatan va ilm yoki yetti yulduz” nomli she'rida quyidagilarni bayon qiladi:

Eshit endi Vatan o‘g‘li, mendin nasihat,
Qabul qilsang kelur boshinga davlat.
Vatan asli seningdur O‘zbekiston,
O‘g‘izdin qolmish erdi bu guliston.
Vatan ahli Vatan merosxo‘ridir,
Otodin qolsa mol farzandnikidir.
Onodur bu Vatan ahlini so‘rsang,
Seni tug‘mush budur yaxshi tushunsang.
Chiqarmish senuchun turli yemishlar,
Ko‘tarmish yelkasida yozu qishlar.
Tiriklar bu Vatan bo‘yniga mingay.
O‘liklar ham oning qo‘yniga kirgay.
Vatanni do‘st tutish imondin ermish,
Oningchun Haq rasulidin naql bo‘lmish.
Vatanni sevmaganlar bizdan ermas,
Buni kim bilmasa, imonga kirmas.

Darhaqiqat, hozirgi g‘oyat murakkab hamda tahlikali zamonda tinchlik-osoyishtalikning qadriga yetish, uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash va mustahkamlashdek o‘tkir talablar yurtimizda yashayotgan har bir mo‘min-musulmon, har bir inson uchun har qachongidan ham dolzarb bo‘lib turibdi. Bu haqda so‘z yuritganda, bugun yoshlarni bilimli va zukko, sog‘lom dunyoqarashga ega, odob-axloqli, imon-e’tiqodli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash jamiyatda uchrayotgan ko‘plab muammolarni bartaraf qilish va ularning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlash joiz.

Kishi ma’nan qanchalik boy bo‘lsa, u ezgu qadriyatlarda shunchalik sobit turadi. El-yurt taqdiriga daxldorlik bilan yashaydi. Tinchlik-totuvlikning mohiyatini anglab, ahamiyatini tushunib, uni asrab-avaylashga hissa qo‘shadi. Axborot texnologiyalari o‘ta tezkorlik bilan rivojlanayotgan, nanotexnologiyalar shiddat bilan hayotga kirib kelayotgan, internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar xilma-xil, to‘g‘ri-noto‘g‘ri ma’lumotlarni kechayu kunduz tarqatayotgan hozirgi davrda bu ish nihoyatda murakkab hamda qiyin ekani rost. Bugun farzandlarimizni nazoratsiz yolg‘iz qo‘ysak, ular bo‘sh vaqtlarini telefon, kompyuter bilan mashg‘ul bo‘lib o‘tkazsa, yoshlar tarbiyasidagi muammolar, ularning ongu dunyoqarashiga suqilib kirgan illatlar yanada ildiz otadi.

Bugun jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishni nafaqat mas’ul tashkilot vakillari, balki har bir ota-ona o‘zi uchun dolzarb vazifa, deb bilmog‘i lozim.

Dono xalqimiz “yaxshining sharofati, yomonning kasofati” deb bejiz aytmagan. Bugun olis o‘lkalardan yoshlar uchun turli yo‘llar bilan, asosan, global tarmoq orqali eksport qilinayotgan “qadriyat”lar, yurish-turishu o‘zini tutish, insonlararo muomala-munosabatga oid ko‘rsatmalar ongu qalbga qaratilgan xurujlardir, desak, aslo xato emas. Bu xususda shoirlarimizning ibratli so‘zlari ham bor:

Birinchi g‘ishtni qiyshiq qo‘yarkan me’mor,
Osmonga yetsa ham, qiyshiqdir devor.

Shunday ekan, toki hali suyagi qotib ulgurmagan yoshlarning beg‘ubor olamiga, g‘o‘r ma’naviyatiga kimlardir jiddiy zarar yetkazib qo‘ymasidan oldin o‘z farzandlarimizni o‘zimiz tarbiyalashimiz kerak.

Har bir ota, har bir ona o‘z farzandiga odob-axloq namunalarini, kindik qoni to‘kilgan mislsiz Vataniga muhabbatni, bobo-buviga ehtirom-hurmatni, mehr-itoatkorlikni, oila a’zolariga rahmdillik va mehribonlikni, o‘z jufti haloliga sadoqatni, qo‘ni-qo‘shnilarga oqibat va chiroyli munosabatni, qavm-qarindoshlarga saxovat-muruvvatni, sinfdosh-kasbdoshlarga chin do‘stlik va yordam berishni, atrofdagi odamlarga insonparvarlik va samimiylikni, hayvon-parranda-hasharotlarga nisbatan rahm-shafqatni uqtirishi, yuqtirishi, tushuntirib, singdirishi muqaddas burch, ham qarz, ham farzdir. O‘ylaymizki, bu vazifalarni amalga oshirish hech birimizga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Zero, shu sifatlarning hammasi farzandlarimizning qonida bor. Bu xususiyatlar ajdoddan avlodga, qondan qonga tarbiya orqali o‘tib kelmoqda. Faqat yoshlar kamolotiga bugun yanada e’tiborli bo‘lsak, zimmamizdagi burchni, vazifani sidqidildan bajarsak, ogohlik va hushyorlikni boy bermasak, ko‘zlangan natijalarga, albatta, erishamiz.

Mustaqillik ne’mati bizga nasib etdi. Erkin va obod, inson qadri aziz bo‘lgan Vatanda baxtiyor umr kechirayapmiz. Bu baxtni asrab qolish, uning mustahkamligi uchun fidokorlik ko‘rsatish shu yurtda yashayotgan har bir insonning burchidir.

Baxtiyor SAIDOV,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri

VATANPARVARLIK TARBIYASI MUAMMOSINING ILMIY-PSIXOLOGIK TADQIQIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya

Maqolada xalq ta'limi sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari, o'quvchi-yoshlar dunyoqarashini zamon talablari asosida rivojlantirish, vatanparvarlik tushunchasi, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish, shaxsda zarur individual-psixologik xususiyatlarni tarkib toptirish masalalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, yoshlarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiy-lashtirish, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil qilishda interfaol uslublardan foydalanish, maktab o'quvchilarida ekologik tafakkurni tarkib toptirish, ushbu masalalarda mutafakkirlar, yozuvchi va shoirlar, olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar, dunyoqarash, vatanparvarlik, vatanparvarlik tarbiyasi, zarur individual-psixologik xususiyatlar, yoshlarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish, interfaol uslublar, ekologik tafakkur, mutafakkirlar, yozuvchi va shoirlar, olimlar.

В статье подробно описаны социально-психологические условия развития народного образования, формирования мировоззрения учащихся и молодежи с учетом требований времени, понятия патриотизма, осуществления патриотического воспитания, формирования необходимых индивидуально-психологических качеств. Также, в статье представлены сведения о профессиональной социализации молодежи, использование интерактивных методов в организации воспитательных процессов в общеобразовательных учреждениях, формирование экологического мышления у обучаемых, кроме этого представлены мнения мыслителей, писателей и поэтов, ученых по этим вопросам.

Ключевые слова. Социально-психологические условия, мировоззрения, патриотизм, патриотическое воспитания, индивидуально-психологические качества, профессиональная социализация молодежи, интерактивные методы, экологическое мышления, мыслители, писатели, поэты, ученые.

The article describes in detail the socio-psychological conditions for the development of public education, the formation of the worldview of students and youth, taking into account the requirements of the time, the concept of patriotism, the implementation of patriotic education, the formation of the necessary individual psychological qualities. Also, the article presents information about the professional socialization of young people, the use of interactive methods in the organization of educational processes in educational institutions, the formation of ecological thinking among students, the opinions of thinkers, writers and poets, scientists on these issues are presented.

Key words. Socio-psychological conditions, worldviews, patriotism, patriotic education, individual psychological qualities, professional socialization of youth, interactive methods, ecological thinking, thinkers, writers, poets, scientists.

Hozirgi globallashuv sharoitida jahonning barcha mamlakatlarida iqtisodiy va siyosiy sohalarda ko'zga tashlanayotgan o'zgarishlar respublikamiz xalq ta'limi sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlariga e'tibor qaratish, o'quvchi-yoshlar dunyoqarashini zamon talablari asosida rivojlanti-

rish, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish bilan bir qatorda ularni turli destruktiv ta’sirlardan asrash masalasiga ham e’tibor qaratishni taqozo qilmoqda.

Jahonda Iroq, Misr, Liviya kabi mamlakatlarda bo‘lib o‘tgan noxush voqealar fuqarolarda vatanparvarlik xususiyatini rivojlantirish qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. Davr Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlatimiz istiqboli uchun jonkuyar, fidokor, vatanparvar, vijdonli, o‘z xizmat va fuqarolik burchini sidqidildan bajaradigan, shaxsiy va kasbiy sifatlari talab darajasida shakllangan insonlarni tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Bu kabi muhim strategik maqsadlarni samarali amalga oshirishda esa ta’lim, xususan, xalq ta’limi tizimi xodimlari oldida turgan vazifalar murakkabdir. 2005-yilda Andijonda bo‘lib o‘tgan voqealar, 2022-yili Qozog‘istonda sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar, Qoraqalpog‘istondagi voqealar ortida maxsus ishlayotgan xorijiy mutaxassislar turgani barchaga ma’lum bo‘lib, yoshlarni ularning ta’siriga tushib qolmasligi masalasi tanlangan mavzuning bugungi kunda o‘ta dolzarbligini ko‘rsatadi.

Jahon ilm-fanida ta’lim tizimining maqsadga muvofiq tashkil etilishi va boshqarilishi, takomillashtirilib borilishi, bunda ta’lim subyektlaridan biri hisoblangan maktab o‘quvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirish, ularda yot g‘oyalarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitetni tarkib toptirish, mazkur psixologik-pedagogik jarayonning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayni jihatdan hozirgi kunda xalq ta’limi tizimida safarbarlikni ta’minlashda o‘quvchi-yoshlar vatanparvarligini shakllantirishning psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga molik muammolardan biri hisoblanadi.

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘zgarayotganligi, destruktiv mazmundagi axborot oqimining ko‘payayotganligi shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligini ta’minlashda o‘ziga xos muammolarni yuzaga keltirib, individual, guruhiy va jamiyat darajasida tegishli ishlar olib borilishini taqozo etmoqda. Bunda esa vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish, shaxsda zarur individual-psixologik xususiyatlarni tarkib toptirishning ahamiyati kattadir.

Prezidentimiz Shovkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosiga tayanamiz. Yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kamol toptirish, ularni sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytiramiz”[1].

Zamonaviy urushlarning o‘tmishda bo‘lib o‘tgan urushlardan farqi kattadir. Zamonaviy urushlarda yetakchi rol texnika zimmasiga yuklatiladi. Qaysi tomonning quroli, texnikasi kuchli bo‘lsa, qaysi armiyada texnikadan foydalanish mahorati yuqori bo‘lsa va nihoyat qaysi taraf aholisi, askarlari shaxsida vatanparvarlik xususiyatlari ko‘proq, yorqin ifodalangan bo‘lsa, o‘sha armiya g‘olib bo‘ladi. Zamonaviy texnikani esa katta yoshlilarga nisbatan yoshlar yaxshiroq boshqaradilar. Ularning faoliyatini harakatlantiruvchi kuch esa yoshlar qalbidagi vatanparvarlik bo‘ladi. Shu sababli ham hozirgi kunda O‘zbekiston mustaqilligini ko‘z qorachig‘idek asrash, Vatan chegarasining daxlsizligini himoya qilishda yoshlar o‘zining sharafli vatanparvarlik burchini bajarishga tayyor bo‘lishlari shart. Bugungi tahlikali davrda bunday ehtiyoj doimo kutilmagan tarzda paydo bo‘lishi mumkin va har bir davlat bunday holatga doimo tayyor bo‘lishi lozim. Bu borada yoshlar oldiga qo‘yiladigan vazifalarni bajarishga ijtimoiy-psixologik hamda individual-psixologik jihatdan to‘liq shay deb bo‘lmaydi. Demak, eng nozik masala sa-

[1]https://xs.uz/uzkr/post/prezident-davlatimiz-el-yurtimizga-nisbatan-dushmanlik-kajfiyatida-bolgan-bunday-kuchlarning-har-qandaj-yovuz-fitna-va-harakatlariga-oz-vaqtida-va-keskin-zarba-berishga-qodirmiz.

farbar qilingan yosh askarlarning yangi vazifalarini bajarishga tayyor emasligidir. Kutilmaganda, favqulodda harbiy holat, vaziyat yuzaga kelganda harbiy xizmatga chaqiriluvchilarni dushman bilan kurashga safarbar qilish Mudofaa vazirligi vakolatida bo‘lsa, yoshlarni jismoniy, g‘oyaviy, mafkuraviy, irodaviy-psixologik nuqtayi nazardan tayyorlash, ulardan yurtiga sodiq vatanparlarni shakllantirish ko‘proq Xalq ta’limi vazirligining vazifasidir. Chunki vatanparvarlik singari ma’naviy-axloqiy xususiyat yoshlar asosan maktabda ta’lim olgan vaqtlarda shakllanadi, mustahkamlanadi.

Mamlakatimizda o‘quvchilar va yoshlar davlat va jamiyat diqqat markazida ekanligi sababli mustahkam huquqiy asosga ega kuchli yoshlar siyosati olib borilmoqda. Demografik ma’lumotlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, mamlakat aholisining 18,9 mln. nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. Biroq, olib borilayotgan ishlar natijalarini ko‘ngildagidek, deb bo‘lmaydi. Masalan, respublikada 39 088 nafar yoshlar notinch oilalarda istiqomat qilmoqda, 368 nafar yoshlar turli zararli noformal guruhlar, oqimlar ta’siriga tushib qolgan. Xususan, 2020 yilning yanvar-noyabr oylarida qayd etilgan 39 244 ta jinoyatning 11 469 tasi yoki 34,8 foizi yoshlar tomonidan sodir etilgan[2].

Bunday tahdidlarning oldini olish, O‘zbekiston mustaqilligini saqlab qolish uchun avvalo, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mavjud muammolarni ilmiy tadqiq etish va tahdidlarga zamonaviy javob berish taqozo etiladi.

Hozirgi vaqtda vatanparvarlik tushunchasining mafkuraviy jihatdan o‘ziga xos idrok etilishiga qaramay, mazkur tushunchani ilmiy-psixologik nuqtayi nazardan o‘rganish zarurati kuchayib bormoqda. O‘zbekistonlik va xorijlik olimlar ushbu muammo borasida muayyan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Psixolog olimlar M.Davletshin, E.G‘oziyev, G‘.Shoumarov, B.Qodirov, V.Karimova, N.Safaev, A.Jabborov, Sh.Barotov, Z.Nishonova, B.Umarov, R.Samarov, U.Qodirov, A.Saidov, Z.Abdurahmonova, H.Jabborov, E. Boqiyev va boshqalar[3] milliy o‘zini o‘zi anglash, vatanparvarlik, o‘zini o‘zi boshqarish va nazorat qilish, o‘zini o‘zi psixologik muhofaza qilish fenomenlarining psixologiya ilm-fanida turli yo‘nalishlar nuqtayi nazaridan o‘rganilishi borasida izlanishlar olib borishgan.

T.Abdullayeva, I.Jabborov, Q.Nazarov, D.Raximboyeva, M.Xayrullayev,

[2] https://lex.uz/docs/5234746

[3] Safaev N.S., Davletshin M.G. Etnopsixologiyaning dolzarb muammolari / Metodik qollanma. – T.: TDPU, 2001.– 16 b.; G‘oziyev E.G‘.Sotsial psixologiya. Darslik, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti – T.: Noshir, 2012. – 316 -b.; Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, «O‘zAJBNT» markazi, 2002. – 205 b.; Safayev N.S. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи: Dis. d-ra. psix. nauk. – T.: UzNU, 2005. – C 159 .; 1001 savolga psixologning1001 javobi. G‘.Shoumarov umumiy tahriri ostida. –T., 2021; Qodirov B.R. Tashxis markazlari va psixologik xizmat masalalari //Yangi turdagi o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari. – T., 1998. – 16-19- b.;Barotov Sh.R O‘quvchi shaxsi va sinf jamoasini psixologik tahlil qilish usullari. – Buxoro, 1993. – 29- b.; Umarov B.M. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari: psixol. fan. doktori... diss.: 19.00.05. – T., 2009. – 332- b.; Nishonova.Z.T. Psixologik xizmat (o‘quv qo‘llanma) –T., 2006. – 156- b.; Jabborov A.M. ‘‘Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari’’. –T.: Zarqalam 2006 y - 48 b.; Jabborov X.X. O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari. Psixologiya fan. fal.dok. PhD dis.avtoref: 19.00.05/ –T., 2019.-49 b.; Qodirov U.D. Yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan. dok. DcS dis.avt: 19.00.05/ –T., 2019.- 66-b; A.Saidov. Oilada yoshlarning sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi tasavvurlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan. dok. DcS dis.avt: 19.00.05/ –T., 2022.; Abduraxmanova Z.E. Yoshlarda milliy birlik tuyg‘usi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol.fan. nom. dis.avt. – T., 2006. - 129 b; G‘oziyev E. Oliy maktab psixologiyasi. – T., O‘qituvchi, 1997; Samarov R., Qodirov U. Harbiylik – sharafli kasb. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: “Fan” nashriyoti, 2006; Boqiev F. E. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mudofaa ongining o‘rni: funksional yondashuv.Psixologiya.fanlari.bo‘yicha falsafa dok.diss.. –T., 2021.

M.Xolmatova, P.Xudoybergenova, X.Shayxova, E.Yusupov, N.O‘rinboev, Z.Qodirova va boshqalar shaxs ma’naviyati, madaniyati, uning ijtimoiy faolligini oshirishda ma’naviy madaniyatning roli, sog‘lom tafakkur tarzi bilan sog‘lom tarbiya tizimini takomillashtirib borish masalalari, yoshlar kamolotida milliy ong, milliy g‘ururning o‘rni, vatanparvarlikning falsafiy jihatlarini tadqiq etganlar. Ularning tadqiqotlarida inson ma’naviy axloqining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan tashqi ijtimoiy muhit, axloqiy ong, burch hissi, oilada milliy qadriyatlarning o‘rni masalalariga e’tibor qaratilgan[4].

Yoshlarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish, bu boradagi zamonaviy yo‘nalishlar, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil qilishda interfaol usullardan foydalanish, maktab o‘quvchilarida ekologik tafakkurni tarkib toptirish vositasida vatanparvarlikni shakllantirish, ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismlarini ilmiy-pedagogik tadqiq etish yo‘nalishlarida R.Ishmuhamedov, M.Inomova, O.Jamoldinova, S.Yo‘ldosheva, U.Maxkamov, A.Munavvarov, O.Musurmonova, S.Nishonova, X.Norbo‘taev, S.Tursunov, Sh.Sharipov, D.Sharipova, N.Egamberdiyeva, M.Yuldashev kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar[5].

Shaxs hissiy-emotsional sohasi rivoji borasida L.S. Vigotskiy, L.I. Bojovich, S.L. Rubinshteyn, G.X. Shingarov; shaxslararo munosabatlar tuzilmasining o‘ziga xos komponentlari, o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasini amalga oshirish shart-sharoitlari va mexanizmlari yo‘nalishida V.N. Myasishchev, V.A. Yakovlev; hissiyotlar, tuyg‘ular tabiati, kategoriyalari haqida V.K. Vilyunas, K.E. Izard, Z. Freyd, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev, A.V. Petrovskiy, D.I. Feldshteyn, D.B. Elkonin, L. Kolberg, E. Erikson va boshqalarning ishlari tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tashkil etdi.

Vatanparvarlik mavzusi tadqiq etilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mazkur muammoga uzoq va yaqin xorij olimlari, tadqiqotchilari tomonidan katta e’tibor qaratil-

---

[4] Abdullaeva T.U. Национальное и интернациональное в сфере быта. –T.: Fan, 1991.; Jabborov I.O‘zbek xalqi etnografiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 320- b.; Nazarov K.N. Qadriyatlar tizimi barqarorlik va o‘zgaruvchanlik dialektikasi: akmeologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari. Dis....fal. fan. d-ri. – T., 1995. - 311 b.; Raximboeva D.A. Семейно-бытовые традиции в формировании национального сомосознания молодежи (на материалах Республики Узбекистан) : Avtoref. dis. kand. filos. nauk. – T., 1993. – C –154 s.; Xayrullaev M.M. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. – T.: Uzbekistan, 1995. – 240- b.; Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2000; Xudoybergenova P.T. Milliy turmush tarzi, uning mustaqillik yillarida taraqqiyot xususiyatlari: Dis....fal.fan. nomz. – T., 2005.– 169 b.; Shayxova X. Sog‘lom turmush tarzi va yoshlar kamoloti. – T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008. - 60 b.; Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. – 184 b.; O‘rinboyev N.U. Barqaror taraqqiyotni taminlashda sog‘lom turmush tarzining o‘rni. Avtoref. dis. ... fal. fan. nomz. –T., 2005. - 23 b.; Кадырова З. Проблемы повышения социальной активности молодежи Узбекистана в условиях всестороннего реформирования общества. Dis. ... d-ra. filos. nauk. –T., 2001.

[5] R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T., 2013, 279- b; Jamoliddinova O. Yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Avtoref. dis. ...ped. fan. doktori. – T., 2015. – 78- b.; Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Dis. ...ped. fan. d-ri. – T., 1998. 316-b.; Yo‘ldosheva S. O‘zbekistonda sog‘lom avlodni ma’naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslari: Dis. ... ped. fan. nomz. – T., 2001.-119 b.; Mahkamov U. Yuqori sinf o‘quvchilarida axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari: Dis. ... ped. fan. d-ri. – T., 1998. – 286- b.; Munavvarov A. Oila pedagogikasi. – T.: O‘qituvchi, 1994. - 112 b.; Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari: Dis. ... ped. fan. d-ri. – T., 1993. – 364 - b.; Tursunov S. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida “sog‘lomlashtirish maktabi” pedagogik tizimini rivojlantirish: Dis. ... ped. fan. d-ri. – T., 2011. – 343 -b.; Sharipova D. Научные основы гигиенического воспаления обучающихся: Avtoref. dis. ... d-ra ped. nauk. -T., 1990;Norbo‘taevX.B. “Maktab o‘quvchilarida ekologik tafakkurni tabiiy fanlararo sinxron va asinxron aloqadorlikda rivojlantirish’’. Pedagogika fan. dok. (DcS) dissertatsiyasi avtavtoreferati. –T., 2020.; Egamberdiyeva N. O‘quvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishni.ng zamonaviy yo‘nalishlari. – T.: ‘Fan va texnologiya, 2009. – 48- b.

gan. Faylasuf-mutafakkirlar, yozuvchilar, shoirlar N. Alekseev, N.A. Berdyaev, B.P. G. Gegel, I.A. Ilina, L.P. Korsavina, I. Krondshtadskiy, S. Levitskiy, O. Platonov, G.V. Plexanov, V.G. Belinskiy, N.A. Dobrolyubov, V.V. Mayakovskiy, A. Ostrovskiy, A.S. Pushkin, N.G. Chernishevskiy, M.A. Sholoxov; psixologlar V.M. Bexterev, S.L. Rubinshteyn, G.X. Shingarov, P.M. Yakobson; pedagoglar N.K. Krupskaya, G.M. Muxametzyanova, V.N. Suxomlinskiy, K.D. Ushinskiy va boshqalar asarlarida ushbu mavzuga doir fikrlar bildirilgan. Oxirgi o‘n yilliklarda vatanparvarlik tarbiyasining o‘ziga xos jihatlari xususida I.I. Valieva, L. Kamenkova, Z.T.Gasanov, G.A. Konovalova, V.I. Lutovinov, N.V. Maksimenko, I.M. Povarova, G.I Vasilev, A.L.Juravlev, A.V.Yurevich va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan[6].

Vatanparvarlik masalasi Sharq mutafakkirlari, yozuvchi va shoirlar, shu bilan birga O‘zbekistonlik olimlar tomonidan turli fanlar yo‘nalishida ancha keng o‘rganilgan ilmiy muammolardan hisoblanadi. Yurtimizda dunyoga kelib, o‘z ilmiy-ijodiy faoliyati bilan dunyoga mashhur bo‘lgan allomalarimizning vatan, vatanparvarlik haqidagi fikrlari, asarlari o‘quvchi-yoshlar uchun ibrat vazifasini o‘tashi mumkin. Ular nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissalarini qo‘shgan insonlardir. O‘zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari uchun o‘z yurti, tarixi, o‘tmishda yashagan ota-bobolari faoliyati bilan haqli ravishda g‘ururlanishi o‘zlarida vatani taqdiri uchun daxldorlik tuyg‘usi rivojlanishiga muhim hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Vatanparvarlik – bu, shaxsning vataniga bo‘lgan muhabbati, sodiqligi, uning manfaati uchun har qanday xizmatga shayligi va vatanni himoya qilishda, zarur bo‘lsa jonini fido qilishga tayyorligidir. Vatanparvarlik tug‘ilgan joyiga bo‘lgan mehrdan boshlanib, shaxs yetuk yoshga yetganda umumdavlat doirasidagi vatanparvarlikni anglash yuzaga keladi. Vatanparvarlik – bu, har bir millat va davlatning mavjud bo‘lishi, ravnaqi, rivojlanishini belgilovchi asosiy ijtimoiy ustunlardan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, Sharq mutafakkirlarining qarashlarini o‘rganish, ularning fikr-

[6] П.Божович Л.И. Проблема развития мотивационной сферы ребенка // Изучение мотивации поведения детей и подростков.– М., 1972.; Вилюнас В.К. Специфика процессов мотивационного обусловливания психики человека // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 14. Психология 1998. – № 2.– С. 25-32.; Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 2002. 720 с.;Шингаров Г.Х. Эмоции и чувства как форма отражения действительности. – М., Наука, 1971. – 223 с.; Мясищев В.Н. Социальная психология личности. Л., 1974.; Яковлев В. А. Научные основы нравственного воспитания школьников. Тамбов, 1975. – 190 с.; Вилюнас В.К. Инстинкт в свете эмоциональной концепции мотивации // Вестн, Моск. ун-та. Сер. 14. Психология 1997. - №1. - С. 3-13.; Леонтьев А.Н. Лекции по общей психологии. Учеб. Пособие для вузов / Под ред. Д. А. Леонтьева, Е.Е. Соколовой. –М.: Смысл, 2000. – 511 с.;Фельдштейн Д.И. Психология развития личности в онтогенезе. -М.: Педагогика. 1989. 208 с.; Эльконин Д.Б. Психическое развитие в детских возрастах. – М., Воронеж, 1995.; Бердяев. Н.А. Судьба России. — М.: Сов. писатель, 1990. 346 с.; Гегель Г.В.Ф. Сочинения. – М.: Госполитиздат. Т. 3, 1956. 371 с.; Ильин Е.П. Эмоции и чувства. СПб: Питер, 2001. – 752 с.; Якобсон П.М. Почему надо воспитывать чувства детей. – М., “Просвещение”. 1964.; Сухомлинский В.А. Рождение гражданина 2-е изд. – М.: Молодая гвардия, 1971. – С. 56.; Ушинский К.Д. Собр. соч. Т. 2. М.-Л., 1948. – С. 160.; КаменковаЛ. Как воспитать патриота // Народное образование. 1999. – № 5. – С. 246-250.; Гасанов З.Т. Педагогика межнационального общения.Учеб.пособие для студентов вузов. – Махачкала, 1999.-390 с; Кривых С.В., Коновалова Г. А. Педагогические основы патриотического воспитания школьников: Научное издание. -Новокузнецк: Изд. ИПК, 2002. 100 с.; Кром М. Сколько лет патриотизму? // Родина. 1994. № 10. – С. 16-20.; Лутовинов В.И., Родионов Е.Г. Патриотическое воспитание молодежи в современных условиях: проблемы и направления их решения. – М.: ВУ, 1995. – 200 с.; Максименко Н.В. Патриотическое воспитание учащихся -важнейший аспект этнопедагогической подготовки будущих учителей // Нач. школа. 2000. – № 7. – С. 3-5.; Поварова И.М. Воспитываем патриотов (Патриотическое воспитание младшего школьного возраста) // Начальная школа. 1984. – № 12.– С. 18-21.; Корнеева Е.И. Фольклорные праздники и развлечения в патриотическом воспитании дошкольников: Сред. дошк. возраст: Дис. канд. пед. наук.: 13.00.01. – М., 1995.- 181 с. Библиогр.: С. 152-167.; Журавлев, А.Л. Патриотизм как объект изучения психологической науки / А.Л. Журавлев, А.В. Юревич. // Психологический журнал. – 2016. – Т., 37. – № 3. – С. 88-98

larini ta’lim-tarbiya jarayonida, amaliyotda qo‘llash hozirgi davr uchun ham juda ahamiyatli hisoblanadi. Ular o‘z fikrlarining tasdig‘ini hayotda aytaylik, maxsus, ilmiy tadqiqot natijalari sifatida qo‘llamagan bo‘lsalar-da, mualliflardagi keng tafakkur, mushohada asarlaridagi g‘oyalarning asrlar davomida dolzarb bo‘lib kelishini ta’minlagan. Ularning ma’naviy merosiga asoslangan holda ish ko‘rishni, fikrlarini amalda keng qo‘llash, foydalanishni hozirgi kunimizning o‘zi taqozo etmoqda. Shu sababli allomalar va mutafakkirlarning boy ilmiy, madaniy merosini mukammal, chuqur, izchil tahlil qilib, ularning psixologik, ijtimoiy-psixologik, pedagogik jihatlarini yoritib berishimiz, ulardan ma’naviyatimizni yuksaltirish yo‘lida foydalanishimiz oldimizda turgan eng muhim vazifalardandir.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi fikrlarni hisobga oladigan bo‘lsak, vatanparvarlik xalqlar orasidagi do‘stlik, baynalmilallik tarbiyasi bilan birga olib borilishi kerak. Shu sababli ham vatanparvarlik bilan xalqlar orasidagi do‘stlikni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar ko‘p millatli O‘zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega.

Maqsadga muvofiq tarzda olib borilgan kompleks chora-tadbirlar o‘quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usi rivojlanishiga, yigit-qizlarning harbiy-vatanparvarlik faoliyati mazmuniga doir yangi bilim va ko‘nikmalarni qiziqish bilan o‘zlashtirishlariga, bo‘lajak davlat xizmatchilarini haqiqiy vatanparvar mutaxassislar sifatida shakllanishlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Yoshlar mafkuraviy tushunchalar bilan tarbiyalanar ekan, ularda dastlab vatanparvarlik ruhini shakllantirmoq muhimdir. Zero, milliy qadriyatlar xalqimizning azaliy an’nalari, udumlari, ona tili, ruhiyatiga asoslanib, ertangi kuniga ishonch uyg‘otadi. Insonlar o‘rtasida mehr-oqibat, insof, diyonat, adolat, ma’rifat, vatanparvarlik tuyg‘ularini paydo qiladi.Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishda ilg‘or milliy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va mezonlar, xalq pedagogikasi, marosimlar, bayramlar, o‘yinlar, tarbiya texnologiyalaridan yoki interfaol uslublardan foydalanilishi o‘quvchida o‘z yurtiga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, oilaparvarlik, kasbiy fidoyilikning shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. G‘. Shoumarov umumiy tahriri ostida. –T., 2021.
2. Abduraxmanova Z.E. Yoshlarda milliy birlik tuyg‘usi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psixol.fan. nom. dis.avt. – T., 2006.– 129-b;
3. Barotov Sh.R. O‘quvchi shaxsi va sinf jamoasini psixologik tahlil qilish usullari. – Buxoro, 1993. – 29-b.;
4. Jabborov A.M. “Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari” – T.: Zarqalam, 2006 y – 48-b.;
5. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O‘zAJBNT” markazi, 2002. – 205-b.;
6. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat (o‘quv qo‘llanma) –T., 2006. – 156-b.
7. Safayev N.S., Davletshin M.G. Etnopsixologiyaning dolzarb muammolari / Metodik qo‘llanma. - T.: TDPU, 2001.– 16-b.
8. Qodirov U.D. Yoshlarni destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan. dok. DcS dis.avt: 19.00.05/ –T., 2019. – 66-b;
9. G‘oziyev E.G‘. Sotsial psixologiya. Darslik, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. – T.: Noshir, 2012. – 316-b.

Baxtiyor XUSANOV,
Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi
“Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati raisi

YOSHLARDA MA’NAVIY TARBIYA UZVIYLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarda ma’naviy tarbiya uzviyligini ta’minlash masalalari haqidagi fikrlar ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim ustuvor vazifalaridan biri har tomonla yetuk barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Mamlakat, inson, millat, ma’rifat, islohot, ma’naviy tarbiya, ta’lim, renessans, targ‘ibot.

В данной статье проведен научный анализ мнений по вопросам обеспечения преемственности духовного воспитания молодежи. Также был освещен вопрос воспитания и воспитания всесторонне развитого гармонично развитого поколения, являющегося одним из важнейших приоритетов проводимых реформ в сфере образования и воспитания в нашей стране.

Ключевые слова. Страна, человек, нация, просвещение, реформа, духовное просвещение, образование, ренессанс, пропаганда.

This article provides a scientific analysis of opinions on the issues of ensuring the continuity of spiritual education of young people. The issue of education and upbringing of a comprehensively developed harmoniously developed generation, which is one of the most important priorities of the ongoing reforms in the field of education and upbringing in our country, was also highlighted.

Key words. Country, person, nation, enlightenment, reform, spiritual enlightenment, education, renaissance, propaganda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarimizning muhim ustuvor vazifalaridan biri har tomonla yetuk barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish asosiy maqsad hisoblanadi. Har qanday xalq va millat kelajagining poydevori bilim dargohlarida yaratiladi. Zero, xalqning ertangi kuni qanday bo‘lishi albatta, farzandlarini bugungi kunda qanday ta’lim va tarbiya olishiga bevosita bog‘liq. Bugungi zamon talabi farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim-tarbiya sohasini asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan tub islohotlari uzviyligini muntazam davom ettirish orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish va uning mazmun-mohiyatini jamiyat hayotida chuqur singdirish va tatbiq etish startegik vazifa sifatida belgilandi. Bu haqda fikr yuritganda Prezident Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”,-deya ta’kidlagani bejiz emas. Zero, yurtimizda ilm-fan, ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

Shu o‘rinda, davlatimiz rahbarining 2020-yil 25-yanvarda Oliy Majlisga qilgan murojatnomasida Sharq donishmandlarining: “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”degan hikmatli so‘zlarini misol keltirib, zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanib borayotganini, nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerakligini, ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish holatlari kuzatilishini ta’kidlab o‘tgani bejiz emas, albatta.

Mamlakatimizda keyingi yillarida maktablardagi ma’naviy-ma’rifiy muhit, o‘qituvchi kasbining obro‘yi, nufuzini oshirish, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan soha vakillarining jamiyatdagi o‘rni va maqomini oshirish uchun moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish ishlarini amalga oshirish kun tartibidagi asosiy masalaga aylanib bormoqda.

Yoshlarimizni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli qaroriga ko‘ra, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” qabul qilingan edi. Mazkur konsepsiyasiga ko‘ra, yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta’minlash, ma’naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to‘g‘ri tashkil etish, go‘daklar va bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlarini belgilash ko‘rsatib o‘tilgan edi.

Shuningdek, konsepsiyada yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish, homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, uzluksiz ta’lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o‘zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish kabi bir qator asosiy vazifalar sifatida e’tibor qaratilgan.

Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi tarbiyaga yangicha va tizimli yondashuvni taqoza etmoqda. Bu esa bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni talab etadi. Bu borada, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Ma’lumki, har qanday mustaqil davlat mustahkam ma’naviy poydevorga ega bo‘lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Shu maqsadda biz “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” doirasida umumta’lim maktablarida birinchi marta “Tarbiya” fanini joriy etmoqdamiz”, - deya ta’kidlab o‘tgan edi. Binobarin, mazkur yo‘nalish doirasida amalga oshiriladigan ishlar o‘zining istiqboldagi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e’tibor qaratish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida 2019- yil 23- avgust kuni bo‘lib o‘tgan xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so‘z bordi. Mazkur

yig‘ilishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to‘xtalar ekan:“Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi”, - deya ta’kidlagani ayni haqiqatdir. Zero, dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasidan ma’lumki, jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta’lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasiga qaratilgan e’tibor bilan baholanadi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida bugungi O‘zbekistonning peshqadam yoshlari davlat, ota-onalarining maqsadli, uzluksiz tarbiyalari tufayli turli sohalarda, jahon miqyosida mislsiz yutuqlarni qo‘lga kiritayotganligi yangi davr shiddati ta’lim-tarbiyaga o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘yishni taqoza etmoqda. Mazkur konsepsiyada tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmasligi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazish aytib o‘tilgan. Konsepsiya o‘z oldiga tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni oliy maqsad sifatida belgilaydi. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya” konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma’naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Dunyoviy taraqqiyotdan ma’lumki, tarbiya va ta’limni bir-biridan alohida ajratib bo‘lmaydi, bu ikki jarayon o‘zaro uyg‘un, uzluksiz asosda tashkil etilsagina o‘zining ijobiy samarasini beradi. O‘tmishdan ma’lumki, sharq xalqlarida tarbiya borasida ulkan ma’naviy meros yaratilgan. Bu meros asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib sayqallanib yosh avlodni barkamolligini taminlash uchun xizmat qilib kelmoqda. Buyuk qomusiy olim Yusuf Xos Hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madorni, tanadan quvvatni, ko‘zdan nurni, dildan oromni talab qiladi. Uning ta’kidlashicha, agar insonning o‘zida go‘zal fazilatlar bo‘lsa, ularni boshqalarga o‘rgatishi lozim. Lekin odob-axloq, rasm-rusum, odat va ahloqni hosil qilish uchun zo‘r kuch va harakat kerak bo‘ladi.

O‘rta asr allomasi Ibn Sinoning oldiga yosh ota-ona o‘z farzandlarini tarbiyalab berishlarini iltimos qilishganida, Ibn Sino bolani qachon tug‘ilganini so‘ragani va ularning bola tarbiyada kech qolgani haqidagi fikr aytib kelinadi.

Buyuk adib va davlat arbobi Alisher Navoiy bola tarbiyasi haqida fikr bildirar ekan, tarbiya va ta’lim ishlari o‘qituvchi hamda ota-onalar tomonidan olib borilishi lozimligini ta’kidlab o‘tadi. Mutafakkir o‘qituvchining talabchan bo‘lishi, bolalarning puxta bilim olishlari va ularda axloqiy sifatlarning shakllanishida muhimligini aytib o‘tadi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi o‘zida dunyoning ilg‘or pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligiga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Konsepsiyada yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning “xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”, Xitoyning yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o‘rganilgan. Turkiyaning buyuk davlat arbobi Mustafo Kamoldan tarbiya haqida so‘rashdi: Agar jumhuriyat prezidenti bo‘lmaganingizda kim bo‘lar edingiz? Mustafo Kamol o‘ylamasdan turib dedi: Tarbiya vaziri bo‘lar edim!

Otaturk ana shunday fikrlar edi. U o‘zining istaklariga mos avlodni tarbiya qilishni istadi.

Otaturk tarbiya vaziri... U oshpazga o‘xshaydi. U yo ovqatni zaharlab seni o‘ldiradi. Yoki shirin ovqat tayyorlab sening sog‘lig‘ing va ofiyatingga sabab bo‘ladi. Tarbiya vaziri... U muhandisga o‘xshaydi. U yo yosh avlodni buzib yo‘q qilib tashlaydi. Yoki uni uyg‘otib shu bilan birga millatni ham uyg‘otadi. Shuning uchun hukumat va nizomlar bu “mansab”ga ma’lum me’yorlar asosida tanlangan kishilarni qo‘yishadi. Tarbiya vazirining siri va uning millat taqdirida tutgan o‘rniga misol qilib Yaponiya, Singapur, Olmoniya va Finlandiya davlatlarini keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya qancha erta boshlansa samarasi shuncha yuqori bo‘ladi ota-onaga hurmat, insoniylik fazilatlari oilaviy qadriyatlarga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4676839

4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. http://uza.uz/oz/politics/prezident-shavkat-mirziyeevning-zbekiston-respublikasi-musta-31-08-2020

5. Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur https://uza.uz/oz/politics/maktab-talimini-rivozhlantirish-umumkhal-arakatiga-aylanishi-23-08-2019

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4676839

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4676839

8. Usanov Sh., Axmedova Sh. Qizlar tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2018. B.16

Matluba AXMEDOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI mustaqil izlanuvchisi

MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA O‘SMIRLARNI BADIIY-ESTETIK RIVOJLANTIRISHDA GENDER YONDASHUVNI QO‘LLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy qadriyatlar vositasida o‘smirlarni badiiy-estetik rivojlantirishda gender yondashuvni qo‘llashning pedagogik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, milliy qadriyatlar shaxsning tili, tarixi, urf-odatlarida aks etishi ifodalangan.

Kalit so‘zlar. Milliy qadriyatlar, o‘smir yoshdagi o‘quvchi, gender farqlar, gender yondashuv, mentalitet, milliy g‘urur, madaniy-ijtimoiy an’analar, badiiy-estetik tarbiya, ijtimoiy xulq-atvor, gender madaniyat.

В данной статье рассматриваются педагогические возможности использования гендерного подхода в художественно-эстетическом развитии подростков через национальные ценности, показано, что национальные ценности отражаются в языке, истории, обычаях человека.

Ключевые слова. Национальные ценности, школьник-подросток, гендерные различия, гендерный подход, менталитет, национальная гордость, культурно-социальные традиции, художественно-эстетическое воспитание, социальное поведение, гендерная культура.

This article discusses the pedagogical possibilities of using the gender approach in the artistic-aesthetic development of teenagers through national values, and shows that national values are reflected in the language, history, and customs of a person.

Key words. National values, adolescent student, gender differences, gender approach, mentality, national pride, cultural and social traditions, artistic and aesthetic education, social behavior, gender culture.

Ta’lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o‘z diqqat-e’tiborini alohida shaxsga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Pedagogika fanida qadriyatlarni ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq etuvchi alohida fan sohasi – pedagogik aksiologiya mavjud bo‘lib, so‘nggi yillarda mazkur yo‘nalishda alohida izlanishlar olib borilmoqda.

“Qadriyat tushunchasining kelib chiqishi shuni ko‘rsatadiki, unda uch asosiy belgi birlashadi: narsa va hodisalarni baholashga doir insonning amaliy hamda emotsional munosabatini ta’riflash; insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalarni tavsif etish; insonlar orasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hodisalarni ta’riflash. “Qadriyat” tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyatlarning turli ko‘rinish (iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy)larini ajratib ko‘rsatish, inson tabiati, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab yetish, bilish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga imkon beradi”.

Milliy qadriyatlar – millatning tili, tarixi, urf-odatlarida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar – millatga mansub bo‘lgan umumjahon taraqqiyoti qonuniyatlaridan biri hiso-

blanadi. Milliy qadriyatlar – o‘z millatidan, o‘z yurtidan faxrlanish, o‘zbek davlati fuqarosi ekanligidan g‘ururlanish kabilardir.Shuningdek, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda moddiy va ma’naviy hamda shaxsiy qadriyatlar uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tarixdan yaxshi ma’lumki, insoniyat hayoti moddiylik va ma’naviy komillik omuxtasi sifatida mavjud bo‘lib kelgan. Biroq mazkur ikki kuchning odamning kundalik hayoti va faoliyatida qanday o‘rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, bir-birini inkor etuvchi turli qarashlar azaldan mavjud bo‘lgan va bunday tortishuvlar hozirgacha davom etmoqda.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida badiiy-estetik rivojlantirish haqida fikr yuritganda, e’tiborimizni, eng avvalo, o‘zbek xalqining mentaliteti bilan bog‘liq jihatlariga qaratamiz. “Mentalitet – (lotincha mentalis- aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma’naviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, ularning o‘ziga xos tarixiy an’analari, urf-odatlari, diniy e’tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog‘langan bo‘ladi”. Chunki ushbu tushunchaning tahlili o‘quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida badiiy-estetik rivojlantirish tizimini vujudga keltirish uchun nihoyatda muhimdir.

Biz ilgari surayotgan o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida badiiy-estetik rivojlantirishni nazarda tutuvchi didaktik konsepsiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘smir shaxsining milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish va unga amal qilishga yo‘naltirilgan faoliyati hamda uning badiiy-estetik rivojlanishi. Bu har ikkala jarayon o‘zaro aloqadorlikda amal qiladi.

Mazkur aloqadorlik qonuniyati ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. Qadriyatlarni o‘zlashtirish faoliyati o‘quvchi shaxsini bevosita badiiy-estetik jihatdan rivojlantiradi. O‘quvchilarning badiiy-estetik jihatdan rivojlanishlari esa ularning qadriyatlarni o‘zlashtirish va qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyatlari jarayonida amalga oshadi.

2. O‘qituvchi o‘quvchilarning milliy qadriyatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatlarini tashkil etishda ularning badiiy-estetik va ma’naviy-axloqiy rivojlanganlik darajalari, gender xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida badiiy-estetik rivojlantirish o‘z navbatida gender yondashuvni talab etadi.

“Gender” atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan bo‘lib, “jins” ma’nosini bildiradi. Jinsiy farqlarga xos munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o‘rganilgan bo‘lsa-da, yangi atamaning paydo bo‘lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirgan.

“Gender tarixi”, “Gender psixologiyasi”, “Falsafaning gender tomonlari”, “Gender antropologiyasi”, “Gender sotsiologiyasi”, keyinchalik esa “Gender pedagogikasi” kabi fan tarmoqlari shakllandi.

“Gender” tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o‘g‘il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Mazkur tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog‘liqdir.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: “Gender” inglizcha so‘z bo‘lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlari ma’nosini anglatadi. Bu tushuncha erkaklar va ayollar o‘rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy

tavsiflarning butun majmuini hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog‘liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi”.

Sotsiologlar esa, gender tushunchasiga quyidagicha yondashadilar: “Gender” ijtimoiy, biologik holat bo‘lib, erkak va ayolning jinsiy munosabatlari majmuasi hisoblanadi”.

Psixologlar ham gender tushunchasiga o‘ziga xos tarzda yondashganlar: “Psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog‘liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko‘rinishidir”.

Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug‘ma, qaysi biri esa ta’lim va tarbiya jarayonida rivojlanganligi to‘g‘risida keskin munozaralar bormoqda. O‘g‘il va qiz bolalarning har bir xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma’lum bo‘ladi. Bu farqlar orasida psixologlar qizlar o‘g‘il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq deb ta’kidlashadi. O‘g‘il bolalarda qizlarga qaraganda o‘ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni yengilroq qabul qilishib, o‘zgaruvchan muhitga tez moslashishadi. O‘g‘il bolalar har bir holatni umumiy tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o‘rganib, keyin unga baho berishadi”.

Pedagogik ma’noda gender – o‘g‘il va qiz bolalarning murakkab ta’limiy sotsiomadaniy birligi bo‘lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, o‘quv faoliyatidagi o‘zaro teng va farqli jihatlarini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim-tarbiya tizimida “gender” tushunchasi faqat qizlarga taalluqli emas, chunki u o‘z xususiyatiga ko‘ra o‘g‘il va qiz bolalar orasidagi munosabatlarni tavsiflab beradi. Mazkur tushuncha ta’lim jarayonida o‘g‘il va qiz bolalarning jinsiy mansubligiga asoslanib taqsimlangan o‘quv faoliyatining bajarilishini ifodalaydi. Pedagogikada bunday yondashuvning qaror topishi o‘g‘il va qiz bolalarga istiqbolda – mikrosotsiumda ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy jihatdan o‘zligini namoyon qilish imkonini beradigan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Gender pedagogikasiga oid tadqiqotlar o‘g‘il va qiz bolalarga kelajakda ijtimoiy hayotda erkak va ayol sifatida qanday mavqeni egallash lozimligini o‘rgatishga yo‘naltirilishi kerak.

Genderni belgilashga nisbatan mavjud yondashuvlar va nuqtayi nazarlarning xilma-xilligiga qaramay, ikkita konsepsiyani ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu konsepsiyalar quyidagilardan iborat:

1) genderning ijtimoiy tuzilishi nazariyasi;

2) gender tizimi nazariyasi.

Genderga ijtimoiy jihatdan bo‘lgan yondashuv quyidagilardan iborat bo‘ladi: biologik nuqtayi nazardan jins muayyan jamiyatda qaror topgan jinsga xos bo‘lgan vazifalar va o‘g‘il hamda qiz bolalarning o‘ziga xos xatti-harakatlari, o‘zaro hamkorligining ijtimoiy me’yorlari bilan bog‘liq bo‘lgan turli-tuman ko‘rinishlari. O‘g‘il va qiz bolalarning o‘zaro hamkorligi tushunchasi I.Goffman tomonidan kiritilgan bo‘lib, o‘g‘il va qiz bolalarning ma’naviy-madaniy qiyofalarini ifodalaydi. Ushbu yondashuvga muvofiq ravishda gender muayyan jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlarning o‘lchovi sifatida namoyon bo‘ladi.

Gender yondashuvda bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan ierarxiyasi, yetakchiligi va hukmronligidan voz kechish g‘oyasi ifodalanishi lozim. Aks holda, jinslararo tenglik va o‘ziga xoslik pedagogik jihatdan ta’minlanishi kerak. Bugungi kunga kelib shu narsa tan olinganki, hech qanday boshqa tadqiqot va ta’lim strategiyalari yevropada, jumladan, Amerikada akademik ta’lim tuzilmalarining o‘zgarishiga bu qadar kuchli ta’sir

ko‘rsata olmagan.

Ta’limda gender tenglik tamoyillarining o‘yin mashg‘ulotlari va erkin faoliyat ko‘rsatish muhitida amalga oshirilishi ta’minlanadi. Bunda o‘zaro hurmat va muloyimlik ustuvorlik qiladi. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda o‘zgarishlarni rejalashtiradilar, muvaffaqiyatlarni nazorat qilib rag‘batlantiradilar, mavjud muammolarni muhokama qilib, ularni hal etish choralarini izlaydilar. Shuning uchun ham ta’lim jarayoni ochiqlik, moslashuvchanlik, ilg‘or tajribalardan foydalanish va muqobil yechimlarni izlashni taqozo etadi. Bu esa tanqidiy fikrlash, ijod erkinligi va insoniy sifatlarni qadrlashga undaydi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda gender madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu uning katta kishilar, boshqa jins vakillari bilan munosabatlarida qaror topadi. Shaxslararo munosabatlarga kirishish, mazkur jarayonda o‘zining o‘rnini bilish o‘g‘il va qiz bolalarda individuallikning turli sohalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi va ularning gender ijobiy yoki salbiy gender ijtimoiylashuvi uchun shart-sharoit yaratadi.

Tahlillar asosida milliy qadriyatlar vositasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni badiiy-estetik rivojlantirishga gender yondashuvni tatbiq etishning quyidagi o‘ziga xosliklari aniqlashtirildi:

1. Demokratlik. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish va ijtimoiy hayotda ularning teng huquqligini ta’minlaydi, ular biri-biriga qarama-qarshi qo‘yilmaydi, hamkorlik munosabatlari asosida birgalikda harakat qilishadi.

2. Tabiat bilan uyg‘unlik. O‘smir yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalarning shaxsiy tengligi hayotiy faoliyat jarayonida ularning biologik va fiziologik o‘ziga xosliklari va farqlarini inkor etilishini bildirmaydi. Farqlarning qabul qilinishi o‘z jinsining vakili sifatida ijtimoiy-madaniy faoliyatda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning qobiliyatlarini to‘liq namoyon qilishlari uchun ta’limning turli shakl, metod va vositalaridan foydalanishni talab etadi;

3. Vaqt me’yorlariga rioya qilish. Ta’limga gender yondashuvda o‘qituvchi va ota-onalar harakatining birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qoida oila bilan o‘zaro birgalikdagi faoliyat ta’lim va tarbiyaning maqsad, vazifalariga mos ravishda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarga talab va hurmatning birligi, inson huquqlarini hurmat qilishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy shart-sharoit ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirilayotganligi bilan tavsiflanadi. Bu jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yangi strategiyasi bilan bog‘liqdir. Bugun zamonaviy, sifatli ta’lim fuqarolik jamiyatini qurish uchun nihoyatda zarur. Ko‘zlangan natijalarga erishish uchun jahon talablarga javob beradigan zamonaviy kompetensiyalarni o‘zlashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. V jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – 540-b.

2. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi: / rus tilidan qisqar. tarjima. Oliy o‘quv yurtlari uchun. – T.: O‘zbekiston, 2003. – 411-b.

3. Falsafa qisqacha izohli lug‘at /Mualliflar: M.N.Abdullaeva, M.Abdurashidov, U.Abilov va boshq. Mas’ul muharrir: A.Jalolov. – T.: Sharq, 2004. – 384-b.

Mirjalol XAMUDOV,
Jizzax shahridagi Prezident maktabi jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

BO‘LAJAK RAHBARLARDA SIYOSIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada rahbar shaxsi va uning siyosiy kompetentligining o‘ziga xos jihatlari muhokama qilingan. Shuningdek, siyosiy kompetentlik muammosining nazariy-metodologik masalalari, paydo bo‘lish shart-sharoitlari, ushbu masalada tadqiqot olib borgan olimlarning ishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Rahbar, ijtimoiy psixologiya, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, kompetentlik, rahbarlik, tahlil, metodlar.

В данной статье рассматривается личность лидера и специфика его политической компетентности. Также анализируются теоретико-методологические вопросы проблемы политической компетентности, условия ее возникновения, работы ученых, проводивших исследования по данному вопросу.

Ключевые слова. Младенчество, лидерство, социальная психология, политическое сознание, политическая культура, компетентность, лидерство, анализ, методы.

This article discusses the personality of a leader and the specifics of his or her political competence. Also, the theoretical and methodological issues of the problem of political competence, the conditions of its emergence, the work of scientists who have conducted research on this issue are analyzed.

Key words: infancy, leadership, social psychology, political consciousness, political culture, competence, leadership, analysis, methods.

Butun dunyoda boshqaruvni takomillashtirishning asosiy maqsadi rahbarlarga yangi muhit talablari asosida tayyorlash. Barcha sohalarida ularning erkin faoliyatini ta’minlash, rahbar-yoshlarning, xalqaro munosabatlarda yetakchi hisoblangan siyosiy kompetentlik xususiyatini shakllantirishdan iborat. O‘zbekistonda shaxslararo munosabatlarning tobora zamonaviy tus olishi, ya’ni rahbarlar va o‘qituvchilar almashinuvi, oliy ta’lim muassasalar hamkorligi, xalqaro konferensiyalar, turizm sohasining rivojlanishi bo‘lajak mutaxassisdan siyosiy kompetentlik xususiyatlarini talab qilmoqda.

Faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar va siyosatshunoslar siyosatdagi yangi hodisalarga e’tibor bera boshladilar. Unda rahnamolar, qirollar, prezidentlar va siyosat olamining vakillari bilan bir qatorda xalq ommasining ham o‘rni borligini e’tirof etishgan. Bu mavzuga birinchilardan bo‘lib fransuz olimi G.Lebon o‘zining “Xalqlar va omma psixologiyasi”, “Olomon psixologiyasi” asarlari orqali e’tiborini qaratgan. G.Lebon ommada shaxsning individualligi, kuchi va barqarorligini yo‘qotuvchi xavf mavjud deb baholaydi. Ommaning turlari ichida ayniqsa olomonga alohida ta’rif berib unga xos tajovuzkorlik, jazava, mas’uliyatsizlik kabi xususiyatlarni ta’kidlab o‘tgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar esa ommaviy xulq-atvor nafaqat salbiy xarakterga, balki ijobiy jihatlarga ham egaligini ta’kidlaydilar. Siyosiy kompetentlik shakllanishiga psixoanaliz nazaryasi tarafdori G. Lassuelning “Psixopatologiya va siyosat” asari ham katta hissa qo‘shgan.

XX asr boshlarida e'lon qilingan P. I. Kovalevskiyning "Tarixdan psixiatrik etyudlar" kitobida ko'plab mashhur siyosiy arboblar shoh Daviddan Petr I gacha, Suvorovdan Janna D. Arkkacha va Napoleonning psixologik portreti tavsiflab berilgan. A. A. Bodalyev o'zining "Qanday qilib mashhur va buyuk bo'lish mumkin" deb nomlangan kitobida ko'plab mashhur kishilarning siyosat maydoniga kirib kelish tarixi haqida fikr yuritadi. Shuningdek, ushbu muammoga doir B.F.Porshnev, Yu.N.Davidov, V.D.Parigin, Yu.F.Zamoshkin kabi sotsiologlar, tarixchilar, psixologlarning ilmiy tadqiqot ishlari e'lon qilindi.

Yaqin-yaqinlargacha juda ko'plab olimlar siyosiy kompetentlikning mustaqil kategoriya sifatida e'tirof etilishiga shubha bilan qarashgan, siyosiy muammolarni tahlil qilishda psixologiyani kutilmagan fenomen sifatida qabul qilishgan. Psixologlar esa yangi fanning predmetini aniqlashda juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishgan.

Siyosiy kompetentlikni predmet sifatida o'rganish borasidagi bahs-munozaradagi muhim xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, siyosiy kompetentlikning psixologik tarkibiy qismini nima tashkil etishi kerak?

Ikkinchidan, siyosiy kompetentlikning tarkibiy qismlari sifatida siyosiy xulq-atvor, siyosiy tafakkur, siyosiy madaniyat, siyosiy ongni o'rganadigan mutaxassislar tadqiqot vositasi sifatida siyosiy va psixologik statistika va sotsiologik metodologiyadan foydalanishgan, siyosiy psixologik maxsus metodologik asosga ega bo'lmagan.

So'nggi yillarda fanlararo oraliqdagi muammolarga bag'ishlangan ko'plab nashrlar paydo bo'ladi. Ularda shaxsning siyosatda rivojlanish qonuniyatlari, siyosiy madaniyatning mamlakat taqdiriga ta'siri, shakllangan tarixiy mentalitet (aql-idrok)ning millat taraqqiyotiga ta'siri muammolari aks ettirilgan.

Siyosiy kompetentlikning predmeti tarkibiga kirgan fenomenlarini aniqlash masalasi ham munozaralidir. Masalan, G. G. Delining fikricha, siyosiy psixologiya makrosiyosiy jarayonlarni emas, balki siyosatchilar psixologiyasini o'rganishi kerak.

M. Xermann, J. Knutson, X.Yulau kabi siyosiy psixologlar fikricha, siyosiy kompetentlikning vazifasi siyosat subyektlari shaxsining xulq-atvor va kognitiv (bilish) soha bilan bog'liq jihatlarini o'rganish, uning qonuniyatlari, mexanizmlari, shart-sharoitlari, omillarini tadqiq etishdan iborat.

Jamoalardagi o'zaro munosabatlar yuqoridan pastga yoki aksincha bo'lib, jamoa a'zolarining aniq mavqelari, boshliq bilan bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu borada "Rahbar" va "Boshliq" tushunchalari o'rtasidagi farqlar haqida gapirish lozim. B. D. Parigin bu ikki tushunchani farqlab shunday yozadi.

1. Lider asosan guruhdagi shaxslararo munosabatlarni boshqarsa, rahbar shu guruhdagi rasmiy munosabatlarni boshqaradi.

2. Liderlik kichik guruhlargagina mos bo'lgan xodisa bo'lsa, rahbarlik haq-huquqlari katta guruhlar doirasida ham sodir bo'lishi, amalga oshirilishi mumkin.

3. Agar liderlik stixiyali, betartib jarayon bo'lsa, rahbarlik maqsadga qaratilgan, jamiyatda ishlab chiqilgan normalar, tartiblar asosida saylovlar oqibatida sodir bo'ladigan xodisadir.

4. Liderlik rahbarlikka nisbatan vaqtinchalik hodisa bo'lib, guruh a'zolarining kutishlari, ularning kayfiyatlari, faoliyat yo'nalishiga qarab, uzoqroq muddatda yoki qisqa muddatda ro'y beradi.

5. Rahbarning liderdan farqi shundaki, u liderda yo'q bo'lgan jazolash va rag'batlantirish tizimiga ega bo'lib shu asosda o'z xodimlariga ta'sirini o'tkazishi mumkin.

6. Lider guruhda u yoki bu qarorlar, ko‘rsatmalar, tashabbuslarni o‘z ixtiyoricha, bevosita chiqarishi mumkin, rahbarda esa bu yo‘nalishda ko‘plab rasmiy ko‘rsatmalar, rejalar, normalar, buyruqlar mavjudki, ular doirasidan chiqib ketish qiyin.

7. Liderning faoliyati faqat kichik guruhlar doirasida amalga oshirilsa, rahbar shu guruhdagi kengroq ijtimoiy doiradagi jamiyatning vakili bo‘lganligi uchun, uning vakolatlari ham keng, faoliyat imkoniyatlari ham ortiqdir.

Liderlik hodisasi to‘g‘risida gap ketar ekan, liderlik nazariyalari haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tish lozim. Hozirgi kunga qadar liderlik to‘g‘risida asosan uchta nazariya mavjud.

Birinchisi “liderlik sifatlari nazariyasi” dir yoki xarizmatik nazariya mavjud. Uning mohiyati shundaki, hamma ham lider bo‘la olmaydi, ayrim shaxslarda shunday sifatlar yig‘indisi tug‘ma mavjud bo‘lib, ular uning guruhda lider bo‘lishini taminlaydi. Masalan, 1940-yilda amerikalik K. Berd 79 sifatdan iborat bo‘lgan liderlik qirralari ro‘yxatini tuzdi. Bu ro‘yxatda jumladan, tashabbuskorlik, muloqotga kirisha olish, yumor xissi, o‘ziga ishonch, tez va aniq qaror qabul qila olish, tashkilotchilik kabi sifatlar ham bor edi. Lekin bu nazariyalarning xatoligi shunda ediki, birinchidan, u yuqoridagi sifatlar qanday qilib namoyon bo‘ladi-yu, qanday shakllanishini tushuntirib bera olmaydi, ikkinchidan, so‘rovlar mobaynida birorta sifat ham mutlaq ko‘p marta qayd etilmaydi.

Ikkinchi nazariya liderlikning vaziyaga bog‘liqligi nazariyasidir. Bu yerdagi asosiy g‘oya – lider vaziyatni mahsuli degan g‘oyadir. Har bir odamda liderlik sifatlari bor, lekin ayrim vaziyatlar ayrim shaxslarni o‘zlarini ko‘rsatishlari, lider bo‘lishlari uchun qulay hisoblanadi.

Yuqoridagi ikki nazariyani tanqid qilish natijasida paydo bo‘lgan uchinchi nazariya liderlikning sintetik nazariyasidir. Bu nazariya liderni guruhiy munosabatlarning bevosita mahsuli deb qaraydi, liderning ro‘yobga chiqishida guruhning birlamchi rolini ilgari suradi.

Rus psixologi A.N. Leontevning faoliyat konsepsiyasiga tayangan holda, liderlikni faoliyat mahsuli, guruhning ushbu faoliyatga munosabati va guruhda qabul qilingan normalar va ijtimoiy kutishlarga kim ko‘proq javob berishiga qarab liderni aniqlash mumkin deb ko‘pchilik tomonidan ma’qul yondashishlardan biri deb qabul qilinmoqda. Yuqorida keltirib o‘tilgan qarashlar rahbar shaxsi yoki jamoada liderlarning kometentligini shakllantirishda ijtimoiy-psixolgik yondashuvlarning o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Demak, lider yoki rahbar hech qachon yolg‘iz bo‘lmaydi, u shu jamoa a’zolarini u yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki rahbar jamoa a’zolarining psixologiyasi, ularning kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va hakozolarni hammadan ham yaxshi biladi, ular ichida eng tashabbuskoridir. Obro‘lilik shaxsning shunday xususiyatidirki, u boshqa shaxslarga ham hissiy-emotsional, ham irodaviy ta’sir ko‘rsata olish qobiliyatiga ega. Norasmiy obro‘lilik, ya’ni shaxslararo munosabatlar mahsuli sifatida orttirilgan obro‘ juda samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. Лебон, Г. Психология народов и масс. (1995). “Макет”.
4. Стефаненко, Т. Этнопсихология. (1999) М. Академический проект.
5. G‘aniev, E. Oliy maktab psixologiyasi. (1997). – T., – O‘qituvchiI nashr.
6. Андреева, Г. Социальная психология. (1999). М. Аспект пресс.

Dilsora ABDUVALIYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING INTELLEKTUAL-IJODIY KOMPETENTLILIGI RIVOJLANISHINING XUSUSIY METODIK-TEXNOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik jarayonda intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirishning xususiy metodik-texnologik shart-sharoitlari haqida fikr yuritilgan. Xususan, pedagogik ta’lim tizimida moslashuvchanlik, harakatchanlik, optimallik tamoyillarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetentlik, intellektual-ijodiy kompetentlik, moslashuvchanlik, optimallik, shart-sharoitlar, tamoyil, harakatchanlik

В данной статье рассматриваются методические и технологические условия развития интеллектуально-творческой компетентности будущих учителей в педагогическом процессе. В частности выделены особенности принципов гибкость, мобильность, оптимальность в системе педагогического образования.

Ключевые слова. Компетентность, интеллектуально-творческая компетентность, гибкость, оптимальность, условия, принцип, мобильность,

This article discusses methodological and technological conditions for the development of intellectual and creative competence of future teachers in the pedagogical process. In particular, the features of the principles of flexibility, mobility, optimality in the system of teacher education are highlighted.

Key words. Competencecompetence, intellectual and creative competence, flexibility, optimality, conditions, principle, mobility.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirishga yordam beruvchi xususiy metodik-texnologik (didaktik) shart-sharoitlar guruhi pedagogik ta’limning turli darajalarida innovatsion ta’lim dasturlarining amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Ijodiy rivojlantiruvchi ta’lim makonining tizimini shakllantiruvchi komponenti – bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirish uchun intilishlarini hosil qiluvchi yaxlit pedagogik jarayondir. Pedagogik jarayon: moslashuvchanlik, harakatchanlik, umumiy innovatsion va individual ta’lim dasturlarining optimalligi kabi qonuniyatlarga asosan kelib chiqqan tamoyillar asosida qurilsagina shunday pedagogik jarayonga aylanadi.

Moslashuvchanlik tamoyili pedagogik kasbga moslashishning umumlashtirilgan ta’lim tizimi doirasida individual ta’lim yo‘nalishlarining xilma xilligiga; darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni tanlashga; asosiy kurslar va tanlov bo‘yicha kurslarni ajratib ko‘rsatish orqali o‘quv rejalarining variativligiga; ta’lim-ijodiy faoliyatning jamoaviy va tabaqalashtirilgan-individual shakllarini birlashtirishga; kasbga moslashishning yagona darajasidan pedagogik ta’lim mazmunining didaktik jihatdan o‘zaro aloqada bo‘lgan

integratsiyasi va differensiatsiyasiga, o‘qituvchilarning kasbiy, intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirishning an’anaviy o‘qitish metodlaridan muqobil va mualliflik texnologiyalarining xilma xilligiga o‘tishga yo‘naltiradi.

Moslashuvchanlik o‘zgarayotgan sharoitlarga tezkor tarzda javob bera olish va tez moslashish qobiliyati sifatida ifodalanadi. Uzluksiz pedagogik ta’limning turli bosqichlarida yaxlit pedagogik jarayonni amalga oshirishda moslashuvchanlik uning tarkibiy jihatidan ham, o‘zining mazmun va texnologik tarkibiy qismlarida ham namoyon bo‘ladi. Tarkibiy moslashuvchanlik pedagogik jarayonning qurilishida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy, intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirishning funksional tuzilishi, tipologiyasi va qonuniyatlariga yo‘naltirilganlikni taqozo etadi. Pedagogik kasbga moslashishning bosqichma-bosqich o‘quv dasturining amalga oshirilishining ilmiy asoslangan mantig‘i bo‘lajak pedagog-talabalarning tipologik afzal ko‘radigan jihatlarga tezkorlik bilan javob berish va individual o‘quv dasturlarini loyihalashtirish imkonini beradi.

Moslashuvchanlik tamoyiliga amal qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirish jarayoni pedagogik kasbga moslashishning umumlashirilgan ta’lim yo‘nalishining dialektik birligini va o‘quvchilarning individual ta’lim yo‘nalishlarining harakatlanuvchan tarkibini hisobga olgan holda eksperimental tarzda tashkil qilinishi lozim. Shunga muvofiq, tajriba-sinov ishida o‘quv rejasi tarkibining harakatchanligi o‘quv kurslarini ijodiy o‘zini rivojlantirish uchun bo‘lajak pedagog-talabalarning maqsad-qadriyatni gavdalantirishini hisobga olgan holda tezkor bir-biri bilan “bog‘lash” orqali ta’minlanadi.

Pedagogik jarayonning mazmun jihatdan moslashuvchanligi pedagogik ta’lim mazmunini tabaqalashtirish va integratsiya qilish imkonini beradi. Bunday imkoniyat o‘quv materiali tanlanishining davriyligi va modulliligi tufayli ta’minlanishi lozim. Masalan, talabalar bilan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining moslantiruvchi (adaptiv) bosqichi maktab hayotining epizodlarida yashiringan va tahsil oluvchila rintiutsiya darajasida, ta’sir qiluvchi va ratsional jihatlarning o‘zaro aloqasida tushuniladigan o‘qituvchi mehnatining asosiy asoslari atrofida mazmunli qurilgan. Bunda pedagogik mehnat asoslarini oqilona tushunish umumiy tasavvurlar shaklida kechadi.

Pedagoglar ta’lim bosqichida pedagogik guruhlarning tahsil oluvchilar ibilan ishlashda, eksperimentni olib boruvchilar asosiy e’tiborni ta’lim berishning assotsiativ texnologiyasiga, ya’ni pedagogik mehnatning asoslarini intuitiv tushunchalar darajasida “sensor-perseptiv-kognitiv” (sezgi-qabul qilish-bilish) tarzda o‘zlashtirish orqali ta’lim berishga qaratdilar. Keyingi pog‘onalarda an’anaviy tushuntirish-tasviriy o‘qitish metodikasi “o‘qituvchining o‘quvchiligi” tajribasini refleksiya qilish metodlari hisobidan ham va har bir darsda ta’lim-ijodiy, ta’lim-tadqiqot, ilmiy-tadqiqot faoliyatini o‘zi tashkil qilishni ham refleksiya qilish tajribasi hisobidan; pedagogik kasbga moslashishning kontekst-faoliyatga asoslangan ta’lim texnologiyalari; o‘yin, muammo-evristik, qidiruv-tadqiqot usullari hisobidan sezilarli tarzda boyitiladi.

Texnologik moslashuvchanlikka shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kasbga moslashishni individuallashtirish tufayli ham erishiladi. Intellektual-ijodiy kompetentlikning rivojlanishiga: pedagogika, psixologiya, estetika bloki fanlar va ularni o‘qitish metodikalari bo‘yicha alohida kurslar bo‘yicha individual o‘quv-ijodiy ish dasturini tanlash imkoniyati yordam beradi. Bo‘lajak pedagoglar pedagogik kasbga moslashish o‘quv dasturini turli murakkablik darajalarida, turli hajmlarda, zamonaviy axborot manbalaridan foydalangan holda o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Pedagogik kasbga moslashishning sifatini nazorat qilish va baholash talabalarn-

ing hisobotlarining an'anaviy imtihon tizimi doirasida ham, ''portfolio'' innovatsion texnologiyasi vositasida ham shuningdek, ta'lim sifatini modul-reyting asosida baholash mantig'ida ham amalga oshirilishi tufayli variativligi bilan ta'minlanadi.

Terminologik yondashuv innovatsion ta'lim dasturlarining harakatchanlik tamoyilini amalga oshirishning muhim jihatlaridan biri bo'ladi. Unga ko'ra kursning, o'quv fanining mazmuni, mashg'ulot mavzusi o'rganilayotgan ilm-fanning izohli lug'ati shaklida taqdim etilgan. Individual terminologik glossariylarni yaratish mexanizmi fanning asosiy kategoriyalarini o'zlashtirish va konsentrik doiralar tamoyili asosida mazmun jihatdan yaqin bo'lgan, tahsil oluvchining til madaniyatini kengaytiradigan va boyitadigan asosiy tushunchalarni tuzishdan iborat bo'ladi. Shu bilan birga, umuman o'quv fani bo'yicha va uning har bir mavzusi bo'yicha tushunchalar daraxtini (shajarasini) tuzish amalga oshiriladi.

Kreativ pedagogika kursini o'rganishda terminologik yondashuv talabaning ilm talab qiladigan terminologiya bilan ishlashga safarbar etilishini, mumtoz va innovatsion pedagogik kategoriyalar va asosiy tushunchalar yordamida kategorial fikrlashni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarida harakatchanlik tamoyilini amalga oshirishning yana bir elementi ''kognitiv vizuallashtirish'' (bilish bilan tasavvur qilish, namoyish qilish), ya'ni o'quv axborotini jipslashni ta'minlaydigan sxemalar, jadvallar, grafiklar va boshqalar bo'ladi. Shunday qilib, bo'lajak pedagog-talabalarni tayanch konspektlari, tushunchaga asoslangan sxemalar, grafiklar tuzish texnologiyasi bilan tanishtirish, so'ngra ularni mustaqil tuzishga o'rgatish, bo'lajak o'qituvchilarni matnli axborot modellarini yaratish, o'quv ilmiy matnlarini qayta ishlash va grafik shaklda taqdim qilishga, ya'ni o'quv-ijodiy faoliyatga safarbar etadi.

Pedagogik ta'limning ilmiy kursi pog'onasida kasbga moslashishning bundan avvalgi pog'onalaridan farqli ravishda bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirishning harakatchanligiga tahsil oluvchini mustaqil tadqiqot ishlariga jalb etish bilan ham erishiladi. Tadqiqotchi-talaba uchun eng yaxshi ko'rgazmalilik – bu o'qitish jarayonida fanni tushunarli tarzda tahsil oluvchilarga bayon qilish usuli emas, balki fanning o'zini tadqiq qilishni namoyish qiluvchi o'qituvchi hisoblanadi. Aynan jadal ilmiy faoliyat bo'lajak pedagog-talabalarni o'ziga jalb qiladi va birga olib ketadi. O'z o'qituvchisining ilmiy maktabiga kirish bo'lajak pedagog-talabalarga mustaqil izlanish ishiga jalb bo'lish orqali ilmiy-pedagogik ijodning uzluksizligini ta'minlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirish uchun biz taklif etayotgan texnologiyaning harakatlanuvchanligi tahsil oluvchilarni blok sxemalar majmuini: mantiqiy, ishlab chiqarish, freym modellarni; mavzular daraxti, individual ish uchun kompyuterda tayyorlangan tayanch konspektlari bilan ta'minlashdan iborat. Bunday mediatrenajerlarning ma'nosi matn yoki izoh beruvchi axborotning miqdori minimum bo'lganda va grafik vizual axborot uzluksiz ''oqimi'' sharoitida tahsil oluvchilar o'zlaring barcha intellektual, intuitiv-ongosti va ehtiyoj-motivatsion sohalaridagi barcha zahiralarni o'zlari uchun talqin qilingan "kashfiyotlar-bilimlar" zanjirining o'rganilayotgan materialning mohiyatini ham, xususiy tomonlarini ham talqin qilingan ko'rinishda yechish va yaxlit tushunish uchun safarbar qilishdan iborat.

Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirishning ped ta'lim texnologiyasining innovatsionligi faoliyatga asoslangan va shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvning, ratsional va emotsional jihatdan to'yingan, reproduktiv va ijodiy jihat-

larning optimal birga kelishi, ijodiy rivojlanish va o‘zini takomillashtirishni boshqarish, o‘quv-ijodiy faoliyatning sezib bo‘ladigan va intuitiv tartib-taomillariga optimal ta’sirni loyihalash va amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

Innovatsion ta’lim texnologiyasini ishlab chiqishda biz optimallashtirishning universal Innovatsion ta’lim dasturlari mazmunini loyihalashtirishning. Hamda uni uzluksiz pedagogik jarayonda amalga oshirishning optimalliligining o‘ziga xos xususiyati uni ishlab chiqargan mutaxassislar va ekspermentni amalga oshiruvchilarning ta’limning an’anaviy va innovatsion metodlarini birlashtirib qo‘llash, ya’ni insonning fikrlash faoliyatining evriologikligidan kelib chiqib tahlil va sintezni, nazariy va amaliy, mantiqiy va intuitiv, ratsional va emotsional, fantastik va real, reproduktiv va ijodkorlik tomonlarni birlashtirishga intilishlaridan iborat.

Pedagogik kasbga moslashish jarayonini optimallashtirish pedagogik tafakkurning “kategorial” apparatini ishlab chiqish uchun asosga aylanadi; buning natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar strategik, taktik va vaziyatli pedagogik vazifalarni hal qilishning turli yo‘llarini ishlab chiqishga, o‘z qarorlarini baholashning konstruktiv tamoyillari va mezonlarini refleksiya qilishga qodir bo‘lgan tadqiqotchiga aylanadi. Pedagogik kasbga moslashish jarayonini optimallashtirish ham birgalikda ijod qilishni rag‘batlantiruvchi metodik usullar, ish shakllari, talabaning intellektual-ijodiy kompetentliligini o‘zi dolzarblashtirish metodlari orqali; ichki zahiralarni, intellektual-ijodiy imkoniyatlarni faollashtirish, shuningdek, talabaning o‘quv tajribasini o‘zi umumlashtirishining guruhiy usullari orqali ta’minlanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbga moslashishni optimallashtirishda test shaklidagi nazorat-o‘lchov materiallari muhim rol o‘ynadi.

Shunday qilib, pedagogik ta’lim tizimida moslashuvchanlik, harakatchanlik, optimallik tamoyillarini amalga oshirishga asoslangan pedagogik kasbga moslashish jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual-ijodiy kompetentliligini rivojlantirishga bevosita ta’sir qiluvchi alohida metodik-texnologik yoki didaktik sharoitlar guruhi vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреев, А. Знание или компетенции? / А. Андреев // Высшее образование в России. – 2005. — № 2.

2. Коджаспирова, Г.М. Педагогический словарь / Г.М. Коджаспирова, А.Ю. Коджаспиров. – М., 2001

3. Компетентностный подход в педагогическом образовании / под ред. И.С.Батраковой. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2006.

4. Морозов А.В. Креативная педагогика и психология / А.В. Морозов, Д.В. Чернилевский. – М., 2004

5. Нестеров, ВВ. Педагогическая компетентность: учебное пособие / В.Ш.Нестеров, А.С. Белкин. — Екатеринбург: Учебная книга, 2003. С— 188.

6. Петрова, Т.Н. Этнопедагогическое пространство семьи как система социализации личности / Т.Н. Петрова, Д.Е. Иванов // Системное понимание педагогической действительности: история, теория, практика: сб. науч. тр. — Чебоксары: ЧГПУ им. И.Я. Яковлева, 2000. – С. 98-100.

7. Юнг, К.Г. Психологические типы / К.Г. Юнг. – М., 1952

Matluba USMONOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati tarix fani o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

MILLIY VA UMUMINSONIY FAZILATLARNING IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-INTERNAT O‘QUVCHILARI TARBIYASIDAGI O‘ZIGA XOS O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda respublikamizda tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari haqida fikr ilgari surilgan. Shuningdek, muallif dastlab oilada shakllanadigan milliy va umuminsoniy fazilatlar, bugungi kunda oiladan ajratib o‘qitilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilarida pedagoglar tomonidan qanday singdirib borillishi bo‘yicha o‘z tavsiyalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Milliy va umuminsoniy fazilatlar, ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilari, oila, axloqiy madaniyat.

В данной статье была высказана мысль о педагогических возможностях воспитания национальных и общечеловеческих качеств у учащихся созданной сегодня в нашей республике специализированной школы-интерната. Также автор дал свои рекомендации о том, как национальные и общечеловеческие качества, которые изначально формируются в семье, усваиваются педагогами у учащихся специализированных школ-интернатов, которые сегодня обучаются отдельно от семьи.

Ключевые слова. Национальные и общечеловеческие качества, воспитанники специализированной школы-интерната, семья, нравственная культура.

In this article, an idea was expressed about the pedagogical possibilities of educating national and universal human qualities in students of a specialized boarding school created today in our republic. The author also gave his recommendations on how national and universal qualities, which are initially formed in the family, are assimilated by teachers from students of specialized boarding schools, who today study separately from the family.

Keywords. National and universal human qualities, pupils of a specialized boarding school, family, moral culture.

Milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash, ajdod-avlodlar vorisiyligini ta’minlash, jahon talablariga mos kadrlar tayyorlash, rivojlangan davlatlar qatorida bo‘lishda ta’lim tizimi alohida o‘rin kasb etadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-iyul 2021-yildagi PQ-5188-sondagi “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq yurtimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy fazilatli qilib tarbiyalash ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Bugungi tarbiya bu – innovatsiya, yangicha ong, yangicha tafakkur va amaliy harakat demakdir. Bugungi shiddatli o‘zgarishlarni hammadan ko‘proq his etadigan farzandlarimiz zamon

talablariga uyg‘un bo‘lish bilan birga, o‘zligini, milliy qadriyatlarini ham hech qachon unutmasligi kerak”[1].

Boshqa tomondan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllangan fazilatlar insonning ongli hayotini tashkil etishning muhim vositasidir. Ular insonlar hayotini mazmunli, maqsadli va baxtli qilishga qodir. Bu nafaqat uzoq o‘tmish, balki hozirgi zamon nuqtayi nazaridan ham juda o‘ziga xos va qimmatlidir. Albatta, bularning barchasidan ta’lim-tarbiya jarayonida ijodiy va tizimli foydalanish uchun insondan jiddiy mehnat, onglilik, sog‘lom fikr talab etiladi. Milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarbiyaviy ishlarga ijodiy tatbiq etish ta’lim-tarbiyaning barcha qiyinchiliklari, inson hayotida baxtiyorlikni ta’minlashning kalitidir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar insonparvarlik va vatanparvarlik, muloqot madaniyati va odob-axloq: xayrixohlik va to‘g‘rilik, hayo va xushmuomalalik, go‘zal axloq va yaxshi xulq-atvor, rostgo‘ylik va halollik, mehr-oqibat, xayrixohlik va boshqalar kabi yuksak insoniy fazilatlarni o‘zida aks ettiradi.

Milliy va umuminsoniy fazilatlar inson hayotining qonunlari va qoidalari bilan oldindan belgilab qo‘yilgan bo‘lib, ularga ko‘ra jamiyat va uning a’zolarining rivojlanishini ta’minlaydigan zamondoshlar tarbiyasi amalga oshirilishi kerak. Pedagogik muammolar asosida milliy va umuminsoniy fazilatlarning ana shu sohalari bugungi kunda zamonamizning ko‘plab pedagogik qoidalariga mos keladigan ta’lim g‘oyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ma’lumki, O‘zbekistonda keyingi yillarda bu yo‘nalishda madaniyatning ko‘p asrlik tarixi: ta’lim va tarbiyani o‘rganish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilib, ularning salmoqli qismi jahon hamjamiyatining mulkiga aylangan. Respublikamiz mustaqillikka erishgani sharofati bilan o‘tgan totalitarizm tuzumida sun’iy ravishda yaratilgan sir pardasini ko‘tarib, o‘sha ilmiy kashfiyotlardan nafaqat ilmiy haqiqatni o‘rganish, balki xalqimizga tegishli bo‘lgan materialda foydalanish imkoniyati paydo bo‘ldi, bular milliy g‘urur, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi ijobiy insoniy axloqiy fazilatlarni tarbiyalashdir.

Jamiyatimizda yuzaga kelayotgan yangi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar jarayonida komil insonni tayyorlash va tarbiyalash muammosi muhim o‘rin tutadi. Zero, ijtimoiy hayotning yangilanishi va rivojlanishi jarayonida har bir inson, komil inson hayoti muhim o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan xalq pedagogikasining milliy axloqiy fazilatlarini ushbu muhim masalaga jalb etgan holda komil inson tarbiyasini pedagogik qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Aynan ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy fazilatlarni bugungi kunda pedagoglarimiz qay tarzda olib bormoqdalar? Qanday pedagogik usul va vositalardan foydalanmoqdalar, bu o‘z natijasini bermoqdami? Pedagogik jarayon maqsadli tashkil etilgandagina ta’lim jarayonida o‘quvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratilgan bo‘ladi. Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda o‘quvchilarning yoshligidan boshlab yaxshi sifatlarini shakllantirib borishga jiddiy e’tibor berish lozim, hayotiy masalalarni hal qilishda pedagogning bilimi, ma’naviyati, o‘zini tutishi, yurish-turishi katta ahamiyatga egadir. Ta’lim muassasida yuksak g‘oyaviy-tarbiyaviy bilimlarni oshirish orqali bolalarning Vatan tuyg‘usi bilan yashash fazilatini, milliy mas’uliyatini shakllantirish

[1] Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488-b.

mumkin.

Ayni shu ma'noda mas'uliyat odamning har bir amali, faoliyati mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda, uning o'zi va oilasi uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas'uliyatni his qilgan odam o'z ishini doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi. Bunga erishishning eng qulay yo'li, avvalo pedagoglarning g'oyaviy bilimlarini oshirish, ularda sog'lom tafakkur va yangi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti, boy madaniy-tarixiy meros, milliy urf-odat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar g'oyalari asosida ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashning samarali pedagogik shakl va metodlarini tashkillashtirish ilmiy ishning asosiy maqsadidir.

Milliy va umuminsoniy g'oyasining ijtimoiy-siyosiy jihatdan amalga oshirilishi, "... ajdodlarning milliy urf-odatlari, urf-odat va marosimlarini hurmat qilmagan o'sha xalq mustaqillik merosidan foydalanib, yangi davlat va davlatchilik barpo etishga hissa qo'sha olmaydi. O'zbek xalqi milliy urf-odatlar, ezgu urf-odat va marosimlarga rioya etishi tufayli jahon hamjamiyatida hurmat qozondi".

Mashhur ingliz olimi Jeyms Freyzer o'zining "Oltin shoh" asarida an'ana va marosimlarni hisobga olishning ahamiyati masalasini ham ko'rib chiqadi. Uning fikricha, agar haqiqatni izlash kabi, hatto madaniyati past xalqlarning ham urf-odat va marosimlarini hurmat qilsak, juda aqlli ish tutamiz"[2].

Bugungi kunda tashkil etilayotgan ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilarining milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalash texnologiyasi (tayyorgarlik, maslahat, yakuniy) kasbiy omillar (ijtimoiy, madaniy, motivatsion) va milliy va umuminsoniy fazilatlar integratsiyasi asosida takomillashtirilishiga asosiy e'tibor qaratilishi;

Xalq pedagogikasi an'analari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, ta'limotlarida o'z ifodasini topgan eng samarali etnopedagogik g'oyalar, usul, usul va uslublarning yosh avlodni tarbiyalashda aniqlash;

ta'limning milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllangan fazilatlardagi o'rnini, o'zbek xalqi pedagogik tafakkuri rivojidagi rolini aniqlash lozim kerak deya xulosalayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-iyul 2021-yildagi PQ-5188-sondagi "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

2. Mirziyoyev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488-b.

3. Фрезер Дж. Золотая ветвь. – М- Издательство политическая литература, 1980, – С.298. Зарубин И.И. Материалы и заметки по этнографии долины Бартанга. – Петроград, Рос.

[2] Фрезер Дж. Золотая ветвь. – М- Издательство политическая литература, 1980, – С.298. Зарубин И.И. Материалы и заметки по этнографии долины Бартанга. – Петроград, Рос.

Aydin DAUKEEVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, “Psixologiya” kafedrasi dotsenti v.v.b.

O‘QITUVCHILARDA AKMEOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini rivojlantirishning akmeologik kompetensiyasi nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligi va kasbiy faoliyatni professional tarzda amalga oshirish qobiliyati sifatida belgilanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalt so‘zlar. Bo‘lajak o‘qituvchi, shaxs, akmeologiya, kompetensiya,nazariy va amaliy tayyorgarlik.

В статье высказывается мысль о том, что акмеологическая компетентность развития личности будущего педагога определяется как единство теоретической и практической подготовки и умения профессионально осуществлять профессиональную деятельность.

Ключевые слово. Акмеология, компетентность, будущего учителя, теоретической и практической подготовки.

The article suggests that the acmeological competence of the personality development of a future teacher is defined as the unity of theoretical and practical training and the ability to professionally carry out professional activities.

Key words. Acmeological, competence, future teacher's, theoretical and practical training.

Shaxsning rivojlanishi faoliyat jarayonida yuzaga keladi. Ma’lumki, shaxs faoliyati uning mohiyatini rivojlantiradi va namoyon etadi. Shaxs unda shakllanadi, ijodiy xususiyatlar va fazilatlarni egallaydi va shu bilan birga faoliyatning o‘ziga o‘zgartiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Ammo har qanday faoliyatning boshida insonni harakatga undovchi sabablar bo‘lishi kerak. Mavzu anglanmagan ekan, uning uchun asosiy maqsad va niyatlar shakllanmasa, u bu faoliyatni amalga oshira olmaydi. Harakat faoliyatning tabiatiga ta’sir qiladi: u energiya, harakat o‘lchovi, vijdonlilik darajasi, natijaga bo‘lgan harakat darajasi, subyektning psixologik holatini aniqlaydi. Binobarin, faoliyatning samaradorligi shaxsning qaysi qadriyatlarni rag‘batlantirishiga, uning ishining motivatsiyasiga bog‘liqdir. Faoliyat motivi ehtiyojning tashqi ifodasi bo‘lib, o‘z navbatida, u faoliyatning boshlang‘ich mexanizmi hisoblanadi. Shuning uchun akmeologik kompetensiyani kasbiy faoliyatga yo‘naltirish bo‘lajak o‘qituvchini ushbu faoliyatni takomillashtirishga undovchi mexanizmlardan biridir.

A.A.Derkachning fikricha, faqatgina tanlangan faoliyat bilan shug‘ullana-digan odamda haqiqiy professionallik vujudga kelmaydi. Yuqori professionallikgarchi ma’lum bir faoliyat sharoitida rivojlangan insonning maxsus qobiliyatlari, shuningdek, tegishli bilim va ko‘nikmalarisiz rivojlanmasa ham, bu mumkin emas, ammo bunga erishish uchun eng muhim shart bu –shaxsning umumiy qobiliyatlarini kuchli rivojlantirish va umumiy o‘zgarishlarni yaratishdir. Insoniy qadriyatlar shaxsning axloqiy tarbiyasini anglatadi. Bizning fikrimizcha, bo‘lajak o‘qituvchining akmeologik kompetensiyasi nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligi va bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatni professional

tarzda amalga oshirish qobiliyati sifatida belgilanadi. Ushbu konsepsiya professional muammolarni hal qilish jarayonida mutaxassis faoliyatining samaradorligini ta'minlaydigan kasbiy ko‘nikmalarning kombinatsiyasi orqali aniqlanadi. Yuqorida aytilganlarga asos lanib, akmeologik kompetensiyaning quyidagi elementlarini farqlashimiz mumkin:

– o‘qitiladigan fan sohasidagi maxsus va kasbiy kompetensiya;

– talabalarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish usullari sohasidagi uslubiy kompetensiya;

– aloqa sohasidagi psixologik qobiliyat;

– introspeksiya sohasidagi otopsixologik qobiliyat.

Bo‘lajak o‘qituvchining professionalligi olingan bilimlarni mustaqil ravishda umumlashtirish va tizimlashtirish qobiliyatiga asoslangan pedagogik, psixologik, tadqiqot kompetensiyasini birlashtiradi. Pedagogik faoliyat pedagogik va maxsus bilimlarning butun majmuasini, vazifaning o‘zaro bog‘liqligi va uni hal qilish vositalarini sintez qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xosligi, uning serqirraliligi talabadan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda ko‘p mashaqqatli ishlarni talab qiladi, bu jarayon muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun kasbga barqaror turtki berilishi kerak.

Faoliyatning aksiologik mexanizmi alohida ahamiyatga ega. Faoliyatni tartibga soluvchi sifatida qadriyatlar muammosi subyekt–obyekt munosabatlari sifatida aksiologik munosabatlarning metodologik mazmunini uzoq vaqt saqlab qoldi. Bundan tashqari, ushbu subyekt bahosi ularning tashqi voqeligiga – jamiyat dunyosiga, ideal dunyoga (shu jumladan, unda ifodalangan qadriyatlarga) e'tibor berish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan.

Subyektiv qadriyatlar konsepsiyasidan shaxsiy qadriyatlar konsepsiyasiga o‘tish nafaqat tashqi, balki uning ichki dunyosi bilan ham faol bog‘liq bo‘lgan mavzuni, ularning rolini ochib beradi. Shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish xabardorlik jarayonlarining dinamikasi va kognitiv-shaxsiy harakatlarning semantik doirasiga o‘tish bilan bog‘liq, deb ta'kidlash mumkin. Ushbu shakllanish kamida ikkita tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi: shaxsiy ma'nolarning o‘zi va shaxsiy qadriyatlarning shakllanishi. Faqat kasbiy faoliyat subyekt uchun shaxsiy ma'noga ega bo‘lganda, uning ahamiyatini anglab yetgandan keyingina u muvaffaqiyatli takomillashadi.

Talaba ba'zi bir fanga bo‘lgan ehtiyojni anglashi lozim (bilimda, harakatning yangi usullari). U ushbu predmetni kasbi uchun, hozirgi paytda yoki kelajakda kerak bo‘lganidek taqdim qilishi kerak. Olingan ma'lumotlar natijasida uning ehtiyojini qondirishga qodir obyekt uning ongida aks etadi – uning ehtiyoji haqidagi bilim paydo bo‘ladi. O‘qituvchi talabaning diqqatini predmetning ehtiyojiga yo‘naltirishi kerak: talaba o‘zi uchun muhim bo‘lgan ma'lumotni oladi va uning asosida ehtiyoj aktuallashadi. Buning asosini biz I.P.Pavlovning ta'limotlarida topamiz. Uning fikricha, tananing ahamiyatlilik omiliga oid qoidalarning psixologlar tomonidan ishlab chiqilishini rag‘batlantiradigan hayotiy emas, balki biror-bir ogohlantiruvchi vosita o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish, deb ta'kidlaydi. Shuning uchun o‘qituvchi ish boshlashdan oldin talabalarga bo‘lajak faoliyatining ma'nosini ochib berishi, olingan bilim, ko‘nikma va bajaradigan ishlarning nazariy, amaliy va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashi kerak.

Tashqi sabablar, ya'ni o‘qituvchi tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar ehtiyojni ro‘yobga chiqaradi, odamni muayyan harakatlarni bajarishga undaydi, ammo talabaning o‘zi ham harakat qilishga qaror qiladi. Subyektiv pozitsiyada sodir bo‘ladi, ya'ni shaxsning subektiv pozitsiyasi akmeologik kompetensiya mexanizmlaridan biridir.

Faoliyat predmeti bo‘yicha shaxsning shakllanishi nafaqat uning ijtimoiy-tarixiy

shakllarini o‘zlashtirish jarayonida, balki faoliyatni tashkil qilish va uning faoliyatida ham sodir bo‘ladi. Biror shaxs sifatida uning faoliyatini tashkil etish uni safarbar qilish, faoliyat talablari bilan muvofiqlashtirish, boshqa odamlarning faoliyatiga aralashish bilan bog‘liq. Ushbu lahzalar faoliyatni tartibga solishning shaxsiy usulini, uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixologik fazilatlarni ochib beradi. Faoliyat doirasiga kiritish subyektdan butun faoliyat davri uchun kuchlarni hisoblashni, ayniqsa, kutilmagan qiyinchiliklar, hodisalar va h.k.ni talab qiladi. Birinchi bosqichda stressni talab qiladigan faoliyat turlari mavjud, boshqalari oxirgi bosqichlarda, ba’zilari esa kutilmagan va aniqlanmagan vaqtda maksimal faollikni talab qiladi. Ma’lumki, har bir shaxsning psixikasi individual vaqt xususiyatlariga ega (aqliy jarayonlarning tezligi, vaqt ketma-ketligini o‘zgartirish, harakatpassivlik va boshqalar). Shaxsning faoliyatini tashkil qilish uning psixikasining vaqtinchalik parametrlariga tayanishni o‘z ichiga oladi. Vaqt o‘tishi bilan ularning faoliyati optimallashadi.

Yaxshi tashkil etilgan faoliyat maksimal tejamkorlik jarayoni va shaklini aniqlashga imkon beradi, qayta taqsimlashda vaqtni tejashga olib keladi. Hatto oddiy faoliyat, agar bu subyektning o‘zi tomonidan tashkillashtirilmagan bo‘lsa, odamning haddan tashqari kuch sarf qilishiga sabab bo‘ladi, to‘planib, charchoq va g‘azabga aylanadi. Faoliyatni tashkil qilish, hatto qiyinchiliklar yuzaga kelsa ham, subyektga o‘zining asosiy yo‘nalishini bajarishga yordam beradi. Bir tomondan faoliyat voqealari, talablari, vazifalari va shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlari, ikkinchi tomondan, o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmi bu kabi tashkilotning asosiy funksional mexanizmi hisoblanadi. O‘z-o‘zini tartibga solish tufayli salbiy holatlar (charchoq, stress) orttirib olinadi, eng yuqori aqliy xarakatlar asosiy faoliyat davrlariga to‘g‘ri keladi, faoliyat motivatsion yoki ixtiyoriy mexanizmlar bilan quvvatlanadi. Ko‘rinib turibdiki, motivatsion faoliyat, ya’ni subyektga qiziqish, ijobiy his tuyg‘ularni keltirib chiqaradi, qoniqish hissini tug‘diradi. Kasbiy faoliyatdan qoniqish da’volar darajasi, motivlar tabiati va professional faoliyat muvaffaqiyatlarining o‘zaro bog‘liqligi bilan belgilanadi. Agar qoniqish nafaqat individual natija bilan, balki qo‘shma kasbiy faoliyatda ishtirok etish, ijtimoiy qo‘shilish, boshqa odamlar bilan muloqot natijasida yuzaga kelsa, mamnuniyat oshishi mumkin. O‘zini tasdiqlash istagi insonning tug‘ma hissi hisoblanadi. Bu shaxsni rivojlantirishning tabiiy mexanizmi. Eng yaxshisi, bu mexanizm psixologiya fani tomonidan identifikatsiya va izolyasiya g‘oyasida ishlab chiqilgan.

Identifikatsiya birovni boshqa odam, guruh, namuna bilan hissiy (va boshqa har qanday) identifikatsiya qilish jarayoni sifatida taqdim etiladi. Bu shaxsni moslashtirish, ijtimoiylashtirish mexanizmi bo‘lib, boshqa odamlarga diqqatni jalb qilish, ular bilan o‘zini tanishtirish, xatti harakatlarini ularning fikri bilan taqqoslash, insoniy munosabatlar, his-tuyg‘ular, qadriyatlar dunyosiga qo‘shilishda namoyon bo‘ladi. Aniqlanishicha, qobiliyatning rivojlanishi ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlar shakllanishini, masalan, insonga va o‘ziga nisbatan hissiyot va faol axloqiy munosabatini belgilaydi. Identifikatsiyalash jarayonida kishi me’yorlar, qoidalarni, ya’ni odamlar orasida yashashni o‘rganadi. Shu bilan birga, o‘zini tanib olganda, odam “o‘rtacha” bo‘lib, boshqalarga o‘xshab ketishi, boshqalarning fikriga bog‘liq bo‘lishi, o‘zini, shaxsiy xususiyatini yo‘qotishi mumkin. Bu kabi ikkinchi mexanizm bo‘lmaganda, izolyasiya bo‘lar edi. Izolyasiya bu – alohida shaxs sifatida o‘z tabiati va insoniy mohiyatini himoya qilib, boshqalardan ajralib, go‘yo ulardan vaqtincha yashirinib yurgan odam o‘zini oddiy “biz”dan ajratib, shaxsga aylanish imkoniyatiga ega bo‘lishi. Izolyasiya jarayoni har doim ma’lum bir avtonomiyaga ega bo‘lish, odamning “o‘ziga xosligi”ni anglash, boshqalardan mustaqillik istagi, o‘ziga

nisbatan qarshilik hissidir. Obyektiv ravishda, izolyasiya shaxsni individuallashtirish mexanizmi sifatida ishlaydi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson uchta yo‘nalishda rivojlanishi mumkin:

1. Doimiy, giperbolik, boshqa odamlar bilan tanishishga tayyorlik.
2. Boshqa odamlardan begonalashish yo‘nalishi bo‘yicha.
3. Shaxsning ichki va ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq ravishda identifikatsiya qilish va ta’minlashning uyg‘un o‘zaro ta’siri.

Aynan shu yo‘nalish insonga jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlarni o‘zlashtirishga, boshqa odamlarning ma’naviy dunyosiga qo‘shilishga, lekin ayni paytda ularning o‘ziga xosligini, boshqalardan farqini anglashga, dunyoda o‘zligini ifoda etishga imkon beradi.

Tabiiyki, dunyo haqida o‘z g‘oyalari tizimini yaratgan, o‘z hayotiy qadriyatlar tizimini ishlab chiqqan, yetuk, ijtimoiy jihatdan aniqlangan odamgina o‘z xususiyatlarini, boshqa odamlarga o‘xshashligini va ulardan farqini, uning o‘ziga xosligi va faoliyatidagi ijodiy ifodasini chinakam anglay oladi. Biroq bu jarayonning shakllanishi akmeologik kompetensiyani yaxshilaydigan sharoitlarni yaratish kerak bo‘lgan universitetda amalga oshirilishi kerak.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, akmeologik kompetensiyaning mohiyati kelajakda mutaxassisni kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga yo‘naltirishdir. Kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish bu – kasbiy mahorat darajasini oshirish va tashqi ijtimoiy talablarga, kasbiy faoliyat shartlariga va shaxsiy rivojlanish dasturiga muvofiq kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni rivojlantirishning ongli, yo‘naltirilgan jarayoni sanaladi. Bu jarayonning markazida shaxsiy professionallik darajasi (“Men haqiqiy professionalman”) va uning tasavvur qilingan (modellashtirilgan) holati (“Men ideal professionalman”) o‘rtasidagi ichki ziddiyatlarni doimo yengib o‘tishning psixologik mexanizmi yotadi. Ongda shaxsiy va uning “men”i, jamoat fikriga bo‘lgan talablari o‘zaro bog‘liqdir. Shuningdek, “men-konsepsiya” va o‘z-o‘zini munosib topadigan ideal “men” g‘oyasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik odamlarni shaxsiy o‘sishga, shu jumladan, kasbiy o‘sishga undaydi. Shu munosabat bilan biz “men konsepsiya”ga ta’sirni akmeologik kompetensiya mexanizmi sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan fazilatlar kasbiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularni rivojlantirmasdan haqiqiy mutaxassis bo‘lib yetishib bo‘lmaydi. Biroq, bu professional shuhratparastlik, kasbiy burch va mas’uliyat hissi professional zinapoyaga ko‘tarilishni rag‘batlantiradigan mexanizmlardir.

Biz ushbu ishni o‘rganish natijalari bilan asoslaymiz. O‘tkazilgan so‘rov-da qatnashganlarning 80 foizga yaqini yuqori kasbiy darajaga ega ekanliklarini ta’kidladilar. Har qanday kishi o‘z faoliyati sohasida kompetensiyali mutaxassis sifatida tanilishga intiladi. Uning ichki maqsadi, o‘zidan oshib ketish istagi: “men” bugungi kunda “men”dan yaxshiroq bo‘lgan professional – kechagi mutaxassis. Bu har doim professionalizm pog‘onasini yangi, yanada yuqori pog‘onaga ko‘taradigan odamni astoydil kasbga intiluvchi mehnatkash qiladi.

Biz ambitsiyani, shaxsiy va kasbiy o‘sish uchun yaratib bo‘lmaydigan ehtiyojni, yaratishga yo‘naltirilganlikni odamlar manfaati uchun yaratuvchilik sifatida ko‘rib chiqishga e’tibor qaratishimiz kerak. Tashqi tomondan shuh-ratparastlikning namoyon bo‘lishi haqida eslash kerak. Martaba va haqiqiy martaba evaziga karera qurayotgan odamlarni ajratish kerak. Bunda shaxs faoliyatidagi rivojlanish va unga erishilgan muvaffaqiyat uning shaxsiy va subyektiv-faol (birinchi navbatda, kasbiy) rivojlanishi

bilan bog‘liqdir. Shunday qilib, motivatsiya tabiati va ambitsiyalarga asoslangan xatti-harakatlar, maqsadlar asosidagi qadriyatlar juda muhimdir.

Talabalarda kasbiy burch, kasbiy mas’uliyat va aniqlik tuyg‘ularini shakllantirish biz uchun juda muhim, chunki aynan ana shu shaxsiy fazilatlar mutaxassisga yomon niyatda ishlashga imkon bermaydi. Uning turli tomonlarini rivojlantirish faylasuflar, psixologlar, o‘qituvchilar va boshqa bilim sohalari vakillari (Mitina, Klyutkin, Stankin) tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu muammoni o‘rgangan faylasuflar oldin ijtimoiy mohiyatiga to‘xtalib, uning obyektiv va subyektiv tomonlarini ajratib ko‘rsatgan holda-ushbu ikki jihatning o‘zaro bog‘liqligi odamlarning tashqi obyektiv majburiyatlari va ularni bajarish uchun obyektiv ehtiyojlar bilan belgilanishini ta’kidlaganlar; burchning tartibga soluvchi va shakllantiruvchi funksiyalari mavjudligini qayd etganlar, ijtimoiy talablarni ichki e’tiqodga, shaxsiy ehtiyojga, inson faoliyati motiviga aylantirishning asosiy mexanizmlarini aniqlaganlar.

Shaxsni qo‘zg‘atadigan motivlarni o‘rganib, A.Maslou shaxsning o‘zini o‘zi anglash nazariyasini ishlab chiqdi. A.Maslouning so‘zlariga ko‘ra, motivlar tizimidagi har qanday oddiy odamda “salohiyat, qobiliyat, iste’dodlarni doimiy ravishda yangilab turish, vazifani amalga oshirish (yoki kasb, taqdir), aniqroq bilish va o‘z shaxsini qabul qilish” sifatida belgilangan o‘zini o‘zi namoyon etish istagi ustunlik qiladi.

Muallif shaxs asosiy ehtiyojlarining beshta guruhini ajratib ko‘rsatadi:

1) fiziologik;

2) xavfsizlik ehtiyojlari;

3) aloqalar va sevgiga bo‘lgan ehtiyoj;

4) tan olish, hurmat qilish va o‘zini hurmat qilish ehtiyojlari;

5) o‘zini o‘zi namoyon qilish zarurati.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining shaxsiy kasbiy faoliyatiunga turli kasbiy faoliyatlarni samarali bajarish, o‘quvchilarni o‘qitish va rivojlantirish texnologiyasini xilma-xil va juda muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, bo‘lajak o‘qituvchi uchun hal qiluvchi omillar quyidagilardir: ochiqlik, hamdardlik, ijodkorlik, g‘ayrat, o‘zini tuta bilish, maqsadga erishishdagi qat'iyatlilik, professional mehnatsevarlik, kasbga intilish, kasbiy burch hissi, insoniylik, adolat, pedagogik xushmuomalalik, aqliy barqarorlik va boshqalar.

Shunday qilib, kasbiy o‘zini o‘zi faollashtirish bo‘lajak o‘qituvchi akmeologik kompetensiyasining mexanizmi bo‘lib, uning o‘z professional xususiyatlarini tan olish, o‘qitish jarayonida va keyingi kasbiy faoliyatida faol namoyon bo‘lishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Просвещение, 1977. – С. 304.

2. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.,1996. – С. 308.

3. Деркач А.А. Акмеология: личностное и профессиональное развитие человека: Методолого-прикладные основы акмеологического исследования. Кн1. Москва., 2000.– С.392.

4. Стог Л.И. Осознание студентами педагогического вуза и учителями своего профессионального долга //Формирование личности специалиста в вузе. – Грозный, 1989.– С.165.

Muhabbat PULATOVA,
Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
‘‘Fakultetlararo pedagogika’’ kafedrasi o‘qituvchisi

PEDAGOGNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYASI SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz innovatsion ta’lim muhitida pedagogning innovasion kompetentligini rivojlantirish strategiyalari hamda mustahkamlovchi o‘zaro aloqadorlikdagi boshqaruv va pedagogik shart-sharoitlari yuzasidan fikr mulohazalar bildirilgan .

Kalit so‘zlar. Texnologiya, innovatsion kompetensiya, pedagog-o‘qituvchilar salohiyati, ta’lim oluvchilar salohiyati, ta’lim berish jarayoni, texnik vositalari, ta’lim texnologiyalari, ta’lim jarayonini boshqarish, sifat darajasi, tezkor harakatlanish, zarur axborot.

В этой статье обсуждаются стратегии педагогической инновационной компетентности в непрерывной инновационной среде обучения и идея выявления управленческих и педагогических условий во взаимоотношениях.

Ключевые слова. Технология, инноватсионная компетентност, учителя, обучающиеся, учебный протсесс, технологии обучения, управление учебным процессом, быстрое качественное действие, необходимая информация.

This article discusses strategies for pedagogical innovative competence in a continuous innovative learning environment and the idea of identifying managerial and pedagogical conditions in a mutually reinforcing relationship.

Key words. Technology, innovative competence, teachers, students, educational process, learning technologies, educational process management, fast qualitative action, necessary information.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini, xususan umumiy o‘rta ta’lim tizimini takomillashtirish, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish, o‘quv tarbiya jarayoniga o‘qitishning ilg‘or shakllari va usullarini joriy etish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish, muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish”[1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Shuningdek, xorijiy tajribalar, xususan, rivojlangan davlatlarda ta’lim tizimi rivojlan-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5712-son Farmoni

tirish tendensiyalari o‘ziga xos xarakterga ega. Jumladan, “Mak Kinzi” kompaniyasining “Dunyoning eng yaxshi ta’lim tizimlari qay tarzda ilgari chiqadi” nomli ma’ruzasida ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning ta’limdagi yuqori natijalarga quyidagi uch omil hisobidan erishishi asosli ravishda ta’kidlangan:

1. O‘qituvchilik faoliyatiga iqtidorli kishilarni jalb qilish.

2. O‘qituvchining har bir o‘quvchiga teng e’tibor qaratishi orqali ta’lim olishda tenglik siyosatini amalga oshirish.

3. Pedagoglarning samarali kasbiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish[2].

Bu omillarning xususiyati, u yoki bu tarzda, ta’lim muassasasi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bizningcha, pedagoglarning samarali kasbiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ahamiyat jihatidan birlamchi omil hisoblanadi. Shu bois uzluksiz innovatsion ta’lim muhitida pedagogning innovatsion kompetentligini shakllantirish strategiyasini mustahkamlovchi o‘zaro aloqadorlikdagi boshqaruv va pedagogik shart-sharoitlar tashkil etadi. Jumladan:

- sohaning turli tuzilmaviy komponentlarida pedagogning innovasion kompetentligini shakllantirish jarayonining metodologik, me’yoriy va ilmiy-uslubiy ta’minoti;
- pedagogning eksperimental ishlanmalar (izlanishli tadqiqot va tatbiqli tadqiqot faoliyatlari), amaliy tadqiqotlar (loyihaviy tadqiqot faoliyati), fundamental tadqiqotlar (ilmiy tadqiqot faoliyati) shaklida tadqiqot faoliyatida ishtirok etishi.

Uzluksiz ta’limning innovatsion sohasini institutsional rasmiylashtirish va unda pedagogning innovatsion kompetentligini shakllantirish strategiyasini yuqori sifatli me’yoriy ta’minotsiz amalga oshirish mumkin emas. Me’yoriy ta’minot deganda ta’limning innovasion sohasini yaratish va faoliyat yuritishini ta’minlashga yordam beradigan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etishni tushunamiz. Pedagogning innovatsion kompetentligini shakllantirishning ilmiy-uslubiy ta’minoti faoliyat asosida bo‘ladi, ya’ni o‘qituvchilar uchun bolalar ta’lim-tarbiyasi jarayonida rejalashtirayotgan o‘zgarishlarni amalga oshirish zarurligini anglatadi.

Pedagogning innovasion kompetentligini shakllantirishning ilmiy-uslubiy ta’minotini muvaffaqiyatli tashkil etishning muhim sharti – metodologik, nazariy va konseptual asoslarni to‘g‘ri tanlashdir.

Metodologik asoslar – yondashuvlar bilan, nazariy asoslar – tamoyillar bilan, konseptual asoslar – ma’nolar, g‘oyalar, strategiyalar bilan belgilanadi.

Biz uchun ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlashni ishlab chiqish va tashkil etishning Pedagog innovasion kompetentligining ilmiy-uslubiy ta’minotini tashkil etishning asosiy tamoyillari quyidagilar deb hisoblaymiz:

1. Innovatsion pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini individuallashtirish tamoyili.

2. Innovatsion pedagogik faoliyatni uzluksiz va parallel qo‘llab-quvvatlash tamoyili (qo‘llab-quvvatlash bazaviy pedagogik jarayon bilan bir vaqtda ishlab chiqiladi).

Innovatsiyalar sharoitida uslubchi ma’lum bir tarzda maqsadga erisha olmaydi va yangi harakatlar tizimini yaratishga majbur bo‘ladi, chunki amalga oshirilishi kerak bo‘lgan faoliyat hech qachon hech kim tomonidan yaratilmagan, real voqelikda uning namunalari yo‘q va shunga ko‘ra ularni ta’riflab bo‘lmaydi. Shuning uchun ham metodik faoliyat mahsuldorligi faqat bo‘lajak faoliyatni birgalikda loyihalash va uni o‘qituvchi bilan amalga oshirish asosida paydo bo‘ladi.

[2] Barber M., Mourshed M. How the world best-performing school systems come out on tor // McKenzie Review. September, 2007

Uslubchi yangi faoliyat tartibini yaratish uchun quyidagilarni bilish lozim:

1) yangi faoliyatga oid manbalarning turi va xususiyatlari;

2) ushbu mahsulotni olish uchun zarur vositalar;

3) harakatlar xarakteri va ularning tartibi.

Turli ixtisosliklar metodistlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning asosiy va eng mahsuldor turi hamkorlik hisoblanadi. Ularning o‘zaro aloqalarining predmeti uslubiy mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqish va ularning har biri o‘z faoliyatida foydalanishi mumkin.

Aniq, eng yaqin harakat rejasi o‘quv mavzu mazmunining qisqacha bayoni sifatida belgilanadi. Uni aniqlash uchun biz “dastur tasavvurlari tushunchasidan foydalanamiz.

Dastur tasavvurlari – subyektning kelgusi faoliyat haqidagi tasavvurlaridir. Bu ta’rifda subyekt – dastur tasavvurlari eltuvchisi paydo bo‘lganiga e’tibor qaratamiz. Ular (dastur tasavvurlari) subyektlar tafakkurida shakllanadi. Shunga asoslanib, biz individual ta’lim dasturini subyektning o‘z ta’limi haqidagi dastur tasavvurlari sifatida belgilaymiz.

Individual ta’lim dasturi pedagogning ta’lim vazifalari va mazmuni (axborot, bilim, ish usullari), uni rivojlantirish uchun ketma-ketlik va harakatlar (jumladan, hamkasblar bilan birgalikda), ta’lim vazifalarini hal qilish uchun sarflanadigan vaqt va attestasiya tartiblari haqidagi fikrlarini o‘z ichiga oladi.

Pedagoglarning individual ta’lim dasturlari nafaqat o‘quv vazifalari bilan, balki o‘quv materialini o‘rganish shakllari, usullari, uni o‘tishining izchilligi, hamkasb-o‘qituvchilar tanlovi bilan ajralib turadi. Pedagogning individual ta’lim dasturini yaratish joyi sifatida maktabning uslubiy faoliyatining sohasi xizmat qiladi.

Maktabning uslubiy faoliyati pedagoglarning individual ta’lim dasturlari asosida yaratilsa, u holda unda, fikrimizcha, kamida uch sohani ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir: refleksiv, ta’lim va tashkiliy-boshqaruv. Refleksiv soha individual ta’lim dasturlarini yaratish uchun, ta’lim – ularni amalga oshirish uchun, tashkiliy-boshqaruv – ushbu jarayonlarni boshqarish uchun zarurdir.

Bundan kelib chiqadiki, innovasion ta’lim muhiti – bu o‘quv jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirishni ta’minlaydigan yangi zamonaviy mazmunlar, vositalar, usullar, metodlar, texnologiyalar majmuidir.

Dasturiy yondashuv mantiqidan harakat qiladigan subyektlar uchun maqsadlarga, kelajakdagi vaziyatlarga ishonch hosil qilish va yanada samarali harakatlar uchun biroz noaniqlik qoldirish muhimdir. Faoliyatni dasturiy tashkil etish g‘oyasida refleksiya biz qanchalik samarali harakat qilishimizni kuzatish imkonini beradi.

Loyiha vaziyatning hozirgi (real) holatini istalgan kelajak bilan bog‘laydi.

Ta’limda loyihalashtirish ko‘pincha har qanday o‘zgartiruvchi harakat sifatida tushunilganligi sababli, ogohlantirish qilish kerak. Pedagogik voqelikni o‘zgartirish kelajak haqidagi tasavvurlar, vaziyatning hozirgi holatini tahlil qilish, individual va jamoaviy refleksiya asosida amalga oshirilsa, loyihalashtirish haqida o‘ziga xos ma’noda gapirishimiz mumkin.

Amalga oshirilayotgan harakatlarning doimiy refleksiyasi ham muhim jihat bo‘lib, loyihani amalga oshirishda paydo bo‘lgan qiyinchiliklarga o‘z vaqtida javob berish va uni amalga oshirish rejasini moslashtirish imkonini beradi.

Bunda, birinchi navbatda, umumiy prinsiplarni amalga oshirishda o‘qitishning asosiy didaktik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi nazarda tutiladi: o‘qitish va o‘qishning birligi, mazmun va jarayon jihatlarining birligi, didaktika uchun o‘rganish va qurish

obyekti bo‘lgan o‘rganish jihatlarining birligi”. Shunday qilib, yuqorida belgilangan daraja qolgan barchalari uchun bazis (poydevor) bo‘ladi.

O‘quv predmeti darajasida, rejalashtirilayotgan natijalarga erishishni ta’minlaydigan, blok-modulli tamoyili bo‘yicha refleksiv-faoliyat yondashuv asosida uchinchi avlod oliy professional ta’limning federal davlat ta’lim standartlari doirasida qurilgano‘quv dasturlariloyihalashtiriladi.

O‘quv materiali darajasida o‘quv predmetlari mazmunini o‘zlashtirishni ta’minlovchi, xususan, o‘quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishga imkon beruvchi didaktik vositalar loyihalashtiriladi.

O‘qitish jarayoni darajasida o‘quv guruhi xususiyatlarini hisobga olgan holda jamoaviy fikrlash faoliyati texnologiyasi doirasida o‘qish usullari loyihalashtiriladi.

Shaxs tuzilishi darajasida pedagogning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi individual ta’lim va ishlab chiqarish dasturlari loyihalashtiriladi.

Tadqiqot faoliyatining bu turini amalga oshirishda sub'ekt “o‘qituvchi-amaliyotchi” pozitsiyasidan “o‘qituvchi-tadqiqotchi” pozitsiyasiga o‘tadi, bu esa pedagogik va tadqiqotchilik faoliyatlarining sintezidan kelib chiqadi. Pedagog, bu lavozimda bo‘la turib, pedagogik amaliyotni fan prizmasi orqali o‘zgartiradi. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirish o‘qituvchining tadqiqot kompetentligining eng yuqori ko‘rinishidir va bu darajaga hamma ham erishmaydi.

Qo‘shimcha kasbiy ta’lim tizimida pedagoglarga o‘z pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish va o‘quvchilarning tadqiqot faoliyatini tashkil etish, hamda pedagoglarning amaliy tadqiqot ishlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri va masofaviy hamrohligi bilan bo‘lgan masalalari bo‘yicha malaka oshirishning amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini taklif etish lozim.

Shu tariqa, ilmiy adabiyot tahlili va innovatsion ta’lim amaliyoti asosida biz shuni aniqladikki, pedagogning innovasion kompetentligi shakllanishining metodologik, me'yoriy, ilmiy-uslubiy ta’minoti, yangi tushuncha va mazmunlarni, o‘quv faoliyatining taxminiy asosini, individual ta’lim dasturini, rejalashtirilayotgan ta’lim natijalariga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim muhitini yaratish; ta’lim mazmunini besh darajada (umumiy nazariy tasavvur, o‘quv predmeti, o‘quv materiali, o‘quv jarayoni, shaxs tuzilmasi) loyihalashtirish; pedagogning tadqiqot faoliyatida eksperimental ishlanmalar (izlanish-tadqiqot va tatbiq etish-tadqiqot faoliyatlari), amaliy tadqiqotlar (loyiha-tadqiqot faoliyati), fundamental tadqiqotlar (ilmiy-tadqiqot faoliyati) ishtirok etishi boshqaruv va pedagogik shart-sharoitlar bo‘lib, ular birlikda va o‘zaro aloqada pedagogning innovatsion kompetentligining shakllanish strategiyasini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- jild. – T: O‘zbekiston, 2017. – 570-b.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019-y.

Manzura MUHAMMADIYEVA,
Qarshi davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

SHAXS FAOLIYATLARI INTEGRATSIYASI JARAYONIDA MAS’ULIYATLILIKNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS MEZONLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada shaxs mas’uliyati, mas’uliyatli shaxsning sifatlar, shaxsda mas’uyatlilikni shakllanganlik mezonlari haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, kichik maktab yoshdanoq mas’uliyatlilikni tarbiyalash muammosi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Mas’uliyat, shaxs, shakllantirish, mezon, tavsif, qadriyat, ko‘rsatkich, integratsiya jarayoni.

В данной статье дается мнение о личной ответственности, качествах ответственного человека, критериях формирования ответственности у человека, а также освещается проблема воспитания ответственности с младшего школьного возраста.

Ключевые слова. Ответственность, личность, формирование, критерий, характеристика, значение, показатель, процесс интегрирования.

This article gives an opinion on personal responsibility, the qualities of a responsible person, the criteria for the formation of responsibility in a person, and also highlights the problem of educating responsibility from primary school age.

Key words. Responsibility, personality, formation, criterion, characteristic, value, indicator, integration process.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida faoliyatlar turlari integratsiyasi asosida mas’uliyatlilikni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish uchun ularga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni, umumiy o‘rta ta’lim sohasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish qonuniyatlariga tayanish orqali o‘rganishni zarurat, deb hisobladik.

Mas’uliyatli bola intizomliligi, muloqotda ochiqliligi, samimiyligi, adolatliligi, tartibliligi va javobgarligi bilan farqlanadi. Shu bilan birga, madaniyatli, tartibli, notanish holatga nisbatan, begona insonlar bilan uchrashganda oqilona ehtiyotkorlikni namoyon etadi, jamiyat tomonidan yaratilgan yurish-turish qoidalarini bajarishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyatlilikning shakllanganligi kundalik hayotdagi holatlarga nisbatan ular o‘zlaridagi ma’naviy qadriyatni, axloqiy mazmunni namoyon etishlarida kuzatiladi. Natija quyidagi shartlar asosida amalga oshishi mumkin, agar o‘quvchi:

– mos ravishda ma’naviy-qadriyatli munosabatlar, axloqiy me’yorlar haqida yetarli bilimga ega bo‘lsa;

– o‘z faoliyatida mas’uliyatlilikning o‘rnini to‘g‘ri anglasa;

– bilim olishga nisbatan mustaqillik va intizomlilikni namoyon etsa, munosabatlarda axloqiy tuyg‘ularga tayansa;

– axloqiy me’yorlarga qat’iy amal qilsa;

– amaliy tajribani to‘plashga imkon beruvchi turli faoliyatlarga ma’naviy me’yorlardan foydalanishga tizimli ravishda qo‘shiladi.

“Kichik maktab yoshidagi bolalar mas’uliyatliligi” tushunchasiga aniqlik kiritishga harakat qilamiz, mazkur muammo bo‘yicha tadqiqot ishlarini o‘rganib, tahlil qilib, unga o‘z harakatlariga ma’naviy qoidalar pozitsiyasidan refleksiyaga tayyorlik holatini aks ettiruvchi shaxs sifati tarzida ta’rif beramiz.

Mas’uliyatlilikni shaxslik tavsiflari quyidagilardan iborat:

· refleksiya (o‘z-o‘zini nazorat qila olish, o‘z-o‘zini baholay olish, o‘z-o‘zini tahlil qila olish);

· mustaqil holda maqsadga qarab intilish, tashabbuskorlik;

· o‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishga tayyorlik;

· javobgarlik.

Mas’uliyatlilikni ijtimoiy tavsiflari esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

· ijtimoiy maqsadlarga egalik;

· tashqi ta’sirlar va motivatsiya;

· subyekt-subyekt munosabatlari.

Ijtimoiy mo‘ljallanganlik murakkab tuzilmani namoyon etib, o‘zida bola uchun ahamiyatli mazmunni ajrata olish funksiyasini amalga oshiradigan bilish va emotsional komponentlarni jamlaydi. Bu o‘z mohiyatiga ko‘ra bolaning ichki faoliyati bo‘lib, eng avvalo, boshqa insonni idrok etish, uning emotsional holati, yaxlit holatini tahlil etish va baholash, uni rivojlana borishidan hayratlanish bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy mo‘ljallar ko‘rsatkichlarini tadqiqotchilar quyidagilarga ajratishadi:

– axloqiy qoidalar va me’yorlar haqidagi bilimlarning mavjudligi;

– bola diqqatini holatning predmet yoki ijtimoiy mazmuniga yo‘naltirilganligi;

– emotsional komponentning ifodalanganligi;

– harakatlarning dominanta tipi (uning yordamida bola boshqalar bilan kontaktni amalga oshiradi).

Ijtimoiy mo‘ljallar o‘zida bilim va jamiyat hayotidagi hodisalar haqidagi tasavvurlarni jamlaydi.

Qadriyatli mo‘ljallar esa bolaning aniq ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Qadriyatli mo‘ljallar – inson intilishlarini predmetli yo‘nalishining umumiy vektorini va belgilangan qadriyatlarni aks ettirib, qadriyatlar tizimini tavsiflaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda qadriyatlarni paydo bo‘lish shartlaridan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– xatti-harakatlar va faoliyatda kattalar tomonidan ahamiyatlilarining ma’qullanishi;

– bolalarda umumiy tasavvurlar asosida ma’qullangan xatti-harakatlar va faoliyatni ifodalab berishga o‘rgatish;

– o‘z xatti-harakatlari va faoliyatini tashkil etish usullariga bolani o‘rgatish;

– bolani refleksiya usullariga o‘rgatish;

– bolani unga yaqin kishilari muammolarini yechishga va u bilan bog‘liq turli faoliyat turlariga jalb etish.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil qilishga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni hisobga oladigan bo‘lsak, kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxsiy sifatlarni shakllantirish subyekt-subyekt munosabatlari asosida amalga oshishi lozim.

“Ma’lumki, bolaning qiziqishlari sinchkovlik shaklida namoyon bo‘ladi, ya’ni sinchkovlik asta-sekinlik bilan nisbatan turg‘un mazmunga ega bo‘ladi va tasavvurlar bilan

boshqariladi. Dunyoni anglash, uning sirlarini bilishga intilish shunday qiziqishlardan biridir. Bola bu qiziqishlarini “nega?”, “nima uchun?”, “qayerdan?”, “qanday?” kabi savollar asosida qondirishga harakat qiladi. U dunyo sirlarini, atrof-olam sirlarini tushunishga harakat qila boshlaydi, yangiliklar uni o‘ziga jalb etadi. Maktabga o‘tish yoshida bolada kattalar ta’siri ostida maktabga borib o‘qish qiziqishi yuzaga keladi.

Agarda boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi mashg‘ulotlar qiziqarli bo‘lib, o‘quvchilarda ijobiy emotsional munosabatni uyg‘ota olsa, ular bilim va ko‘nikmalarni rejali idrok etishlari mumkin. Bilim olishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish zarurati, bilish vazifasi bilan qo‘zg‘atilib bilish faoliyatiga yo‘naltiriladi va u mazkur yosh davri uchun xosdir. Shu sababdan ham pedagog o‘z oldiga o‘quvchilarda bilishga qiziqishni rivojlantirishni, bilish faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirishni maqsad qilib qo‘yar ekan, unga nisbatan ijobiy emotsional munosabat sharoitini yaratishi lozim.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda mas’uliyatlilikni tashkil etuvchilaridan biri sifatida faoliyatning tashqi motivatsiyasini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, qachon holat bola uchun ahamiyat kasb etsa, tasavvur anglanganlik holatiga o‘tadi, ya’ni bolada uni yechimini topish uchun ehtiyoj hosil bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi bunday qo‘shimcha stimullar bolalar uchun zaruratdir.

Pedagogik va psixologik manbalar tahlili kichik maktab yoshidagi bolalar faoliyatida ijobiy motivatsiya hosil qilish uchun quyidagi manbalardan foydalanishni maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

– tashqi ta’sirlarning jozibadorligi;
– noaniqlik, mo‘jizalarga bo‘lgan qiziqish;
– yordam olishga bo‘lgan ehtiyoj;
– bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish;
– tabiat va jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan talablar.

Mas’uliyatlilik tarkibida murakkab integrativ ta’lim sifatida faoliyatni tashkil etilishini ajratib ko‘rsatish zarur, deb hisoblaymiz. XXI asrda faoliyatni tashkil eta olish ko‘nikmasi ta’lim mazmunining tarkibiy elementi hisoblanadi va u universal ko‘nikmalar tarkibiga kiritilgandir. Faoliyatni tashkil etish bu – maqsadga erishish jarayonini o‘zi uchun tashkil etish ko‘nikmasidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z-o‘zini tashkil etishning ba’zi-bir malakalariga ega bo‘ladilar – foydali ishlarni topish, maqsadli faoliyatli bo‘lish kabilardir. Bolalarda “xohlayman” pozitsiyasidan “kerak” pozitsiyasiga o‘tish holatlari shakllanadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, shaxsning mas’uliyatlilik fazilati davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun ijtimoiy zaruriyat hamda pedagogik jarayon oldida turgan kechiktirib bo‘lmas masaladir. Kichik maktab yoshidagi bolalarda mas'uliyatlilikni shakllantirish jarayonining o‘ziga xosligini shaxslik va ijtimoiylik tavsifiy tizimlarida shaxsning sifatlari, deb qarashimiz mumkin. Ular esa o‘z navbatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyatlilikning shakllanganligini baholash mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J. IV. / Tahrir hay’ati: T.Mirzayev va b.q. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 608 b. 537-b.

2. Umarova M.X. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi. Ped. fan. nom. ... diss. – T., 2009. – 212-b.

3. Матюхина М.В. Изучение и формирование мотиватции учения у младших школьников: Учебное пособие. ВГПИ. – Волгоград, 1983. – С. 168.

Shaxnoza GIYASOVA,
Samarqand davlat universiteti, ‘‘Boshlang‘ich va texnologik ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJODIY QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISHNI SAMARALI USULLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirishda didaktik materiallardan foydalanish amaliy ahamiyati yoritilgan. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda bilish doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda ularni o‘qish jarayonida tadbiq etish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Bilim, malaka, ko‘nikma,ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, innovatsion texnologiyalar, jarayon.

В данной статье освещается подготовка учеников начальных классов к творческой деятельности. Согласно современным требованием существуют ряд этапов творческой деятельности. Автор статьи предлагает рекомендации по улучшению подготовки к творческой деятельности. Среди них выделяются такие рекомендации как: необходимость учета личностных особенностей учеников, усиление воспитательной работы и др.

Ключевые слова. Знания, навыки, умения, способности, творчество.

The article deals with the guest ions of preparation of the innovative activates in the example. According to the contemporary requirements, several stages of innovative activities exist. The authors of the article propose recommendations on the improvement of preparation to the innovative activities. Among Hem, such recommendations as; necessity of consideration of personal characteristics of pupils, string Honing of education worth and others can be Signified.

Key words. Knowledge, skills, abilities, abilities, creativity.

Mamalakatimiz Prezidenti o‘z ma’ruzalarida ta’kidlaganlaridek, “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb hunarlarni egallagan mustahkam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash” muhim axamiyat kasb etadi.

Mazkur muammoni hal etishda uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim, shuningdek, mazkur ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning kasb malakasi va pedagogik mahorati muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimini mukammallashtirish O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekiston respublikasiing “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida shaxs rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki ishbilarmon, o‘z bilim va imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyotiga to‘liq sarflay oladigan, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy faol mutaxassis yetishib chiqmas ekan, jamiyatda tub o‘zgarishlar bo‘lishi qiyin. Respublikadagi har bir o‘quv dargohi o‘zining ta’lim tizimini mukammallashtirishga harakat qilmoqda. Yangi avlod darsliklarining yaratilishi, ta’limda reyting tizimining joriy etilishi, turli yo‘nalishlardagi nazoratlar, ta’lim

jarayonida faol o‘qitish metodlaridan foydalanish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, har qanday ish uslubi joriy etilganda ham, o‘quvchi shaxsi, uning bilimga intilishi, mustaqil mushohada qilishi, ijodiy fikrlash imkoniyatlari asosiy muammo bo‘lib qolaveradi. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya mazmuni yangilanib bormoqdaki, “ijodiy qobiliyat” kategoriyasining keng talqin qilinishiga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Bu esa o‘z navbatida: mustaqilligimizni his eta oladigan, o‘zligini anglab yetadigan fuqorolarni tarbiyalash, jamiyat, davlat va oila oldidagi mas’uliyatni anglaydigan yetuk, aqlli, intellektual, kreativ fikrlaydigan shaxsni shakllantirish kabi vazifalarni qo‘yadi. Bir qator olimlar:

“Ijodiy qobiliyat – ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarga nostandart fikrlashga jalb etish, muntazam ravishda bu ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonidir” deb hisoblaydilar. O‘zbek olimasi V. Karimova ta’kidlashicha: “Qobiliyatlar – shaxsdagi shunday individual, turg‘un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko‘rsatkichlari, yutuqlarini ta’minlaydi”

Bizning fikrimizcha, ijodiy qobiliyat bolaning yosh davridanoq shakllantirilishi va har tomonlama rivojlanishida tarbiyaning asos qirrasi deb qaralishi lozim.Ijodiy qobiliyat o‘quvchilarning g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlarini shakllanishida muhim o‘rin egallaydi.

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yaxlit pedagogik jarayonda muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonning mohiyati, uning o‘rni va rolini bolaning shakllanishi jarayonining umumiy tuzilishida aniqlash osonroq. O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish o‘zaro bog‘liq ikki faoliyatni – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda bolaning ongi shakllana boradi, his-tuygulari rivojlanadi, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko‘nikmalar hosil qilinadi.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, ulardan birinchisi, bolaning ko‘p qirrali jarayonda ishtirok etishidadir. Bunda tarbiya maskani, oila, jamoatchilik, mahalla, ommaviy axborot vositalari, bolalar teatri, adabiyot va san’at ishtirok etishi muqarrar.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim xususiyatlaridan biri, bolaning ijodiyotda turli qirralarini namoyish etishga yo‘l ochib berish. Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish deganda bolalarda tabiatdan berilgan aqliy kuchlar sezgilar, ruhiy holatlar, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo‘ya olish hamda ko‘zlagan maqsadiga yetishish qobiliyati tushuniladi. Ingliz mutafakkiri Jon Lokk o‘zining “Tabiat qonuni borasidagi tajribalar asarida” “Agar hissiyotdan aqlga narsalar qiyofasi yetkazib berilmasa, u holda tafakkur uchun hech qanday material berilmagan bo‘ladi va aql bilishni taraqqiy ettirishi borasida tosh, yog‘och, qum va hokazo qurilish materiallarisiz me’mor bino qurishda qanchalik ish qila olsa, shunchagina ish bajaradi” -, deb ta’kidlaydi.

Bolalarda bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion qiziqish tomonlariga ko‘proq e’tibor berish lozim. Ana shu bolalar bilan olib boriladigan ishning xarakterli xususiyati ular psixikasining ojiz tomonlariga passivlik bilan moslanish emas, balki o‘quvchilar maksimal darajada voyaga yetishi uchun ularning aqliy rivojlanishiga aktiv ta’sir ko‘rsatish prinsipi bo‘lmog‘i kerak. Tarbiyachi ayrim bolalarda o‘zining o‘rtacha ekanligi, qobiliyatsizligi va hatto mukammal emasligi haqida paydo bo‘ladigan tasavvurga faollik bilan qarshilik ko‘rsatishi lozim. Ta’lim bunday o‘quvchilarning individual xususiyatlariga muvofiqlashmaydi, balki o‘quvchining o‘zi toboro tezlashib va murakkablashib borayotgan ta’lim protsessiga ko‘proq moslashadi. Shunday ekan, zamonaviy

pedagoglarning asosiy vazifasi barcha bolalarning qobiliyati maksimal darajada va har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlarni aniqlashdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqur qiziqishni, moyilligi va qobiliyatini namoyon qilayotgan bolalarni ham aniqlash va ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish zarur.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning yana bir xususiyati shundaki, bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, unda bolaning o‘zi ham faol ishtirok etadi. O‘quvchi tarbiyaning faqat obyektigina emas, balki atrofdagi voqealarga ta’sir etuvchi subyekt hamdir. Shuning uchun tarbiyachi bolaning ichki imkoniyatlarini, istak va xohishlarini, intilishini, unga bo‘layotgan boshqa ta’sirlarni, tashqi axborot manbalarini hisobga olishi zarur. Bunda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradigan hamkorlik munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik – faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan tortib, to namoyon bo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har bir shaxsning ijodkorlik fazilatlarining shakllanishi aynan maktabda boshlanadi. Zero, maktabda turli salohiyat va qobiliyatga ega bolalar ta’lim oladi va bolalardagi ana shu layoqatni va salohiyatni rivojlantirish maktab o‘qituvchilarining birinchi galdagi vazifasidir. Bolalardagi ijodiy qobiliyatning har qanday kurtaklari ta’lim-tarbiyadan tashqarida, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste’dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o‘z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o‘tkir zehnli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo‘lib hisoblanadi. Bu davlatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish g‘oyasiga mos keladi.

Bolaning ijodiy zakovatini o‘stirish masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo‘lib borishi bilan belgilanadi.

Huquqiy demokratik va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda tarbiyaning vazifasi har tomonlama yetuk, erkin va mustaqil fikrga ega bu komil insonni va yetuk kadrlarni tarbiyalashdir. Demak, tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkoniyatini beradi.

Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to‘g‘risida va insonning hayotda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tasavvurlari o‘zgarmoqda, tafakkuri va olamni tushunishning yangi usullari shakllanmoqda, ma’naviy amaliy o‘zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o‘tish yuz bermoqda.

O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida uning aqliy intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayonida ijodiy qobiliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish o‘ta dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Chunki kelajakda mamlakatimizning tayanchi bo‘lgan yoshlarni har tomonlama kamol toptirishimiz, aql-zakovatlarini o‘stirishimiz ko‘p jihatdan maktab tarbiyalanuvchilari bilan olib borayotgan

ishlarimiz, tadbirlarimizga bog‘liq. Shu jihatdan bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini tarbiyalash jarayoni Pedagogika fani konsepsiyasi talablaridan kelib chiqqan holda yondashishni talab qiladi. Sharq mutafakkirlari ham o‘zlarining didaktik asarlarida yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berishda ularning ijodiy kobiliyatini rivojdantirishda aqliy qobiliyatini, ilmiy salohiyatini, iste’dodini takomillashtirishga e’tibor berganlar. Masalan, buyuk Jaloliddin Davoniy insonning aqliy qobiliyati, ilmiy o‘quvi, iste’dodi, salohiyatini tarbiyalashda quyidagilarga e’tibor beradi:

Birinchisi – zukkolik. Zukkolikni tarkib toptirish uchun insonda natijaga erishishda tajriba va harakatchanlik talab etiladi. Ikkinchisi – fahm tezligi. Fahm tezligini tarbiyalashda inson diqqatini zarur va muhim narsalarga, ya’ni hal etilayotgan masalalarning ichidan eng muhimini ajratib olish qobiliyati. Uchinchisi – zehn o‘tkirligi. Hal etilayotgan muammoni qiyinchiliksiz, oson yo‘l bilan hal etish. To‘rtinchisi – bilimlarni tez egallash qobiliyati. Bunda bilimlarni egallashda butun diqqatini o‘rganilayotgan muammoga qaratish va uni o‘zlashtirib olishga erishish. Beshinchisi – qo‘yilgan muammoni tez anglab olishga butun diqqatini qaratish. Oltinchisi – o‘rgangan bilimlarini esda saqlash qobiliyati. Yettinchisi – xotirani mustahkamlash qobiliyati.

Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan barcha ishlar faoliyatni ijodkorlikka yo‘naltiradigan ilmiy bilish masalalari bilan bog‘liq ekan. O‘quvchilar ijodiy qobiliyatni rivojlantirish tizimli, maqsadga muvofiq, yangicha yondashuv asosida samarali natijalarga erishish mumkin. O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ta’limni insonparvarlashtirish, hamda differensial yondashuv, ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish va o‘z-o‘zini anglash, ta’limda tarixiy tajribalardan foydalanish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish o‘ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatga ega bo‘lib, bular o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq holda muammoli vaziyatlar yaratish, mashg‘ulotlarga maqsadli yondashuv, o‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, xohish va istaklarini hisobga olish, axloqiy-estetik hissiyotini tarbiyalash, bilimlar tizimini, malaka va ko‘nikmalarini faoliyatning turli shakl va metodlarini egallab olishga yo‘naltiriladi. Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, ulardan birinchisi, bolaning ko‘p qirrali jarayonda ishtirok etishidadir. Bunda tarbiya maskani, oila, jamoatchilik, mahalla, ommaviy axborot vositalari, bolalar teatri, adabiyot va san’at ishtirok etishi muqarrar.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning muhim xususiyatlaridan biri, bolaning ijodiyotda turli qirralarini namoyish etishga yo‘l ochib berish.

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish deganda bolalarda tabiatdan berilgan aqliy kuchlar sezgilar, ruhiy holatlar, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo‘ya olish hamda ko‘zlagan maqsadiga yetishish qobiliyati tushuniladi.

Ta’limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o‘qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to‘g‘risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvafaqqiyat qozonadi.

Biroq ichki munosabatlar, ular o‘rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo‘lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir.

Ma’lumki, inson o‘z g‘oya, fikr, qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo‘llaydi va qayta yaratadi. Faoliyat – atrof olamga nisbatan insonning ziga xos faol munosabatidir. Chunki insonning hayotda namoyon bo‘lishining muhim shakli uning voqea-

hodisalarga bo‘lgan faol ishtirokidir. Har qanday faoliyatda hayotiy tajriba to‘planadi, insonda o‘z atrofini o‘rab olgan borliqni bilish jarayoni kechadi, ma’lum bilimlar egallab olinadi, malaka va ko‘nikmalar hosil bo‘ladi, natijada inson faoliyati rivojlanadi. Shaxs rivojlanishiga irsiyat, muhit, tarbiyaning ta’siri bilan birga unga faoliyatning ta’siri ham o‘ta muhimdir. Faoliyat jarayonida inson shaxsining har tomonlama yaxlit rivojlanishini atrof olamga munosabati shakllanadi. Inson faoliyati maqsadga muvofiq amalga oshishi uchun uni to‘g‘ri tashkil etish va to‘g‘ri yo‘naltirish lozim. Lekin ko‘p hollarda shaxsning rivojlanishi imkoniyatlaridan foydalanilmaydi. Tarbiyalanuvchilar ko‘pincha ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatini faol tashkil eta olmaydi, hayotda sust harakat qiladilar. O‘quvchilar faoliyatining asosiy turlariga o‘yin, o‘qish, mehnatni kiritgan holda uning asosiy yo‘nalishlarini bilish, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik, emotsional faoliyatlariga ajratish mumkin. Faoliyat faol va passiv bo‘ladi, faqat faol faoliyat insonning barcha imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Bunday faoliyat insonda qoniqish hosil qiladi, inson kuch-quvvatga to‘ladi.

O‘qishda faollik ijtimoiy tajribalarni tezroq o‘rganib, anglab olishga, kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga, o‘zini o‘rab turgan atrof-olamga munosabatini shakllantirishga olib keladi. Bilish faolligi esa bolaning intellektual rivojlanishini ta’minlaydi. Mehnatda faollik shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishga undaydi, uni yanada muvaqqiyatli mehnat qilishga yo‘llaydi. Rivojlanayotgan shaxsni doimiy faollikka ancha murakkab va qiyin kechadi. Zero, o‘quvchining turli yoshda uning faoliyati o‘zgarib turadi. Shuning uchun bu borada maktabdagi ommaviy tadbirlar bilan birga har bir o‘quvchining invidual va yosh xususiyatlarini hisobga oladigan ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. “Inson qobiliyati va iste’dodi muvaffaqiyatlarga erishishining asosiy sharti ham insonning faolligidir”. Chunki o‘qituvchi o‘quvchini o‘qitish jarayonida uni boshqarib boradi. Shuning uchun ham o‘quvchi o‘z faoliyatida o‘ziga ahamiyatli bo‘lgan, o‘ziga jalb eta oladigan hayot mummolari bilan shug‘ullana borib, ma’naviy va axloqiy jihatdan rivojlanadi. Inson shaxsining har tomonlama kamol topishida, ularning bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishida, atrof-olamga munosabat shakllarini va xulqi, odob me’yorlarini egallab olishida faoliyatning o‘rni katta.

Har qanday faoliyat, maqsad, uslub, natija va jarayonlardan iborat bo‘ladi. U bir tomondan jismoniy harakatlarga bog‘liq bo`lsa, ikkinchi tomondan aqliy harakat vositasida ongda sodir bo‘ladi. Mehnat, o`yin, o`qish inson faoliyatining asosiy turlari sanaladi. Inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur sharoit, ana shu sharoit jarayonida hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni zlashtiradi, malaka va ko`nikmalar hosil qiladi. Ana shular yordamida faoliyat rivojlanadi. Ijodkorlik esa sifat jihatdan yangi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni bo‘lib, u o`zida insonning mehnatda namoyon bo‘lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ta’limda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish vazifalaridan biri ham o‘qishga bo‘lgan ijodiy munosabatni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O`zbekiston, 2017 – 286-b

2.Ibragimov X, Abdullayeva Sh. Pedagogika. – T.: Fan, 2004. – 22-28-b.

3. Shermatov M. Muammoli ta’lim imkoniyatlari. - Maktabda o‘zbek, rus tillari va adabiyoti, 1991. №3. 23-24-betlar.

Marhabo KAZAKOVA,
Qarshi davlat universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Kamola ERGASHOVA,
Qarshi davlat universiteti, pedagogika instituti magistratura yo‘nalishi talabasi

O‘QUVCHILARNING AXLOQAN HAMDA PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDA TARBIYA DARSLARINING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida joriy etilib o‘qitilib kelayotgan “Tarbiya” darslari hamda “Tarbiya” darslarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviyatini shakllantirishdagi psixologik xususiyatlarini tarbiyalashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, ma’naviy-axloqiy kamolotiga, hikmat, psixologik xususiyat, sivilizatsiya, ma’naviy tahdid, sharq mutafakkirlari.

В данной статье освещается урок “Воспитание”, внедряемые и проводимые в общеобразовательных школах, а также значение уроков “Воспитание” в формировании духовно-психологических особенностей учащихся начальных классов.

Ключевые слова. Образование, духовно-нравственная зрелость, мудрость, психологические особенности, цивилизация, духовная угроза.

In this article, the “Tarbiya” lessons introduced and taught in general education schools, as well as the importance of “Tarbiya” lessons in forming the spirituality and psychological characteristics of elementary school students, are highlighted.

Key words. Education, spiritual and moral maturity, wisdom, psychological characteristics, civilization, spiritual threat.

Jahon sivilizatsiyasining har bir bosqichida insoniyatni ma’naviy va axloqiy kamolotiga erishish masalasi dolzarb hisoblangan. Ma’naviy tahdidlar, axloqiy buzilishlar global miqyosda kuchayib borayotgan taraqqiyotning bugungi bosqichida ham insonlar ma’naviy immunitetini, axloqiy sifatlarini rivojlantirishga va bunda Sharq mutafakkirlari ma’naviy merosidan samarali foydalanishga zarurat sezilmoqda. Chunki, Sharq mutafakkirlari ijodida inson ma’naviy-axloqiy kamolotiga erishishning har qanday ijtimoiy makon va zamon uchun universal bo‘lgan mezonlari mavjud bo‘lib, ularni bugungi kun nuqtayi nazaridan tahlil etish hamda amaliyotda foydalanishni yangi bosqichga ko‘tarish yuqoridagi muammolar yechimida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonimizda maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylandi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish, ta’limni isloh qilish, maktab infratuzilmasini takomillashtirish, o‘qituvchilik kasbining mavqeini va ta’lim sifatini oshirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni har jihatdan yetuk, intellektual salohiyatli, ertangi kunimiz suyanchi va tayanchi bo‘la oladigan, barkamol insonlar sifatida kamol toptirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Shu o‘rinda buyuk ajdodlarimizning ilmiy-nazariy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ezgu an’analarimiz ruhida tarbiyalash bo‘yicha islohotlar izchil davom ettirilmoqda. “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas

sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak” - degan edi davlatimiz rahbari 2018-yil 29-dekabrda o‘tkazilgan Oliy Majlisga Murojaatnomasida.

Bu borada bolalar yozuvchisi el suygan adib Xudoyberdi To‘xtaboyevning jahon miqyosida e’tirof etilgan yoshlar tarbiyasiga oid sog‘lom e’tiqod, yuksak ma’naviyat g‘oyalarining mazmun-mohiyatini bugungi kun nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy tarbiyasining shakllanishi uzoq o‘tmishga borib tarqaladi. Ikki buyuk daryo Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan bu el va Vatan turkiy tilli xalq sifatida Turon va Turonzaminga voris hisoblanib, o‘z kelajagi hisoblangan yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga, ma’naviy-axloqiy dunyoqarashiga alohida e’tibor qaratib, jahonga tengsiz aql-zakovat sohiblarini taqdim eta olgan. O‘zbek xalqining kelib chiqishi va davlatchiligining shakllanishini hamda tarbiyashunosligining paydo bo‘lishi va rivojlanishini tarixchi olimlarimiz tadqiq qilganlar, uning madaniyati, ma’naviyati, dini, urf-odatlari, qadriyatlari, tili, ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, turmush tarzi, san’ati turkiy xalqlar bilan mushtarakligini e’tirof etadilar va bu xalq o‘zini mustaqil millat - o‘zbek xalqi deb biladi va ta’kidlaydilar.

Milliy pedagogikamizda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muhim tarixiy ildizini Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalariga oid ta’limoti tashkil etadi. Markaziy Osiyo jannatmakon o‘lka, shajarasi boy makon bo‘lishi bilan birga, dunyoga minglab jahonshumul zotlarni yetkazib bergan, ilm-fan, madaniyat, ma’naviyati boy, umumbashariy taraqqiyotga hissa qo‘sha olgan markazlardan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekistonning jahonga dong‘i ketgan, bashariyat ilm-fani rivojiga hissa qo‘shgan allomalari, me’mor-muhandislari, san’atkorlari, shoir va olimlari bo‘lganki, ular jahon ma’naviyati, ma’rifatiga ulkan hissa qo‘shgan. Ularning ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy ta’limotini o‘rganish, undan yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun foydalanish katta ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoning buyuk allomalari va ma’rifatparvarlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Voiz Koshifiy va boshqa Markaziy Osiyo mutafakkirlari xalqimizning madaniyatini rivojlantirishga, ma’naviyatini boyitishga ulkan hissa qo‘shganlar. Ular yaratgan asarlarda insonning oriflik, fozillik, komillik darajasi va uni tarbiyalashning maqsad va vazifalari aniq ifodalab berilgan. Allomalarimizning fikricha inson: birinchidan, ilmdan orttirilgan xislat, ikkinchidan, ichki va tashqi ko‘rinishdan topilgan haqiqat, uchinchidan, aql tufayli hosil qilingan xulq-atvor, to‘rtinchidan, molu-mulkdan ham ziyoda bo‘lgan salomatlik kabi fazilatlarga ega bo‘lsagina fozillik, komillik pog‘onasiga qadam qo‘yadi. Bunday fazilatlar faqatgina ma’naviy-axloqiy shakllangan kishidagina bo‘lishi mumkin. Zero, ma’naviy-axloqiy tarbiya zamirida aql-farosat, ilmu odob, xushfe’llik, poklik, halollik, vijdonlilik, mehnatga muhabbat, Vatanga sadoqat kabi insoniy fazilatlar yotadi. Istiqlol sharofati bilan xalqimiz ma’naviy-ma’rifiy hayotida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Xususan, mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq Sharqona etika tamoyillariga xos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga oid qarashlar rivojiga ham alohida e’tibor qaratildi.

Sharq mutafakkirlari tomonidan inson kamolotiga bag‘ish-langan va pand-nasihatlarga boy didaktik asarlar yaratilgan. “Mahobhorat”, “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, “Qutadg‘u bilig”, “Mahzanul asror”, “Matlaul anvor”, “Axloqi Muhsiniy” ana shular jumlasidandir. Ana shu an’anaga ko‘ra yaratilgan “Mahbubul qulub” asarida Navoiy o‘z zamonasidagi barkamol insonga xos fazilatlarni aks ettirgan. U 39 xil ijtimoiy guruhga

mansub kishilarning axloqu odobi haqida so‘z yuritgan: butun umrini ilohiyot sirlarini bilishga bag‘ishlagan muhaddislarni, kuch-g‘ayratini osmon sir-asrorini kashf etishga bag‘ishlagan munajjimlarni, ishq yo‘lida jonini fido qilgan kishilarni, el-yurtda obro‘ qozongan shoxlar va hokazolarni tasvirlagan.

Tarbiya jarayoni o’zaro bog‘liq ikki faoliyatni – o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o‘quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg‘ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o‘quvchida jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi.Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi fanining predmeti bolajak o‘qituvchi-tarbiyachilarga kelajak avlodni manaviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash sanatining qirralari, shakl va yo‘llari hamda bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi. Tarbiya metodikasi fanining o‘rganish obyektini esa talim muassalaridagi uzluksiz talim-tarbiya jarayoni tashkil etadi. Tarbiya jarayonini tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsadi bolajak o‘qituvchi va tarbiyachilarning Tarbiya ish va tadbirlarning mazmunli bolishini taminlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyat va urf-odatlardan keng foydalanishga. Tarbiya ta’sirga ega bo‘lgan manbalarni ajrata bilishga qaratilgandir.

Yangi O‘zbekiston bag‘rida o‘sayotgan barkamol avlodni maktab davridanoq ajdodlarimiz ma’naviy merosidan nafaqat bahramand bo‘lish balki ma’naviy meros zamiridagi purma’no hikmatlar ma’no-mazmumini, mag‘zini chaqa oladiga bo‘lib o‘sishlari uchun katta imkoniyat bazalari ochib qo‘yilgan. Buning yaqqol dalili sifatida umum ta’lim maktablaridagi “Tarbiya” darslari va darsliklarining boshlang‘ich sinfdan boshlab o‘tilayotganini aytib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich sinflarda o‘tilayotgan G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi tomonidan chop etilgan “Tarbiya“ darsligini yangicha yondashilgan va mukammallashtirilgan qo‘llanma, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu darslik chiroyli ko‘rinishga egaligidan tashqari, mavzular yaxshi tanlangan. 1-2-sinf ‘‘Tarbiya“ darsligiga jamoat joylarida o‘zini tutish, o‘zini himoya qilish, tashqi ko‘rinish va muomala odobi, ekologik madaniyat va to‘g‘ri ovqatlanish kabi bugungi kunga mos, dolzarb mavzular kiritilgan. 3-sinf “Tarbiya” darsligida yuqoridagi mavzulardan tashqari, elektron manbalardan to‘g‘ri foydalanish, shaxsiy gigiyena va madaniyat, insoniy fazilatlar, kasb tanlash, iqtisodiy bilimlar mavzulari ochib berilgan.

Darslikda “O‘quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar”, “Oila davrasida”, “Ijodiy faoliyat”, “Bilasizmi?”, “Odob durdonalari”, “Birgalikda bajaramiz”, “Hikmat” kabi sahifalar bor. Har bir mavzuni yoritishdan oldin “O‘quvchilarni faollashtirish uchun savol va topshiriqlar” sahifasida mavzuga mos savollar berilgan. Savollarga javob berish uchun, tabiiyki, o‘quvchilardan fikrlash talab etiladi. Bu esa u yoki bu mavzuga tanqidiy yondashib, mulohaza yuritish, o‘z shaxsiy fikrini erkin bayon etish ko‘nikmasini rivojlantiradi. “Bilasizmi” sahifasida qo‘shimcha qiziqarli ma’lumotlar berib boriladi.

“Odob durdonalari” va “Hikmat” sahifalaridan esa mavzuga oid hikmatli so‘zlar joy olgan. “Ijodiy faoliyat” sahifasida o‘quvchi o‘z ustida ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Bu darslikning boshqalardan asosiy farqi, yangicha yondashuv – psixologik jihatdan o‘quvchilar o‘z ustida ishlashi va o‘zlarini anglash, nazorat qilish kabi xususiyatlarni rivojlantiruvchi topshiriqlar berilgan.

2-sinf “Tarbiya” darsligida 18-mavzu “Yaxshi va yomon odatlar”. Bunda mavzuni ochib beruvchi hikoya keltirilgan bo‘lib, o‘quvchilar undagi yaxshi va yomon odatlar haqida fikrini bayon etishi, hikoyaning davomini qanday bo‘lishi haqida o‘ylashi talab etiladi. “Ijodiy faoliyat” sahifasi “Yomon odatlardan qanday qutilish kerak?” nomi ostida psixologik topshiriq berilgan: Ikkita alohida varoq olib, biriga o‘zingizning yaxshi odatlaringizni, ikinchisiga yomon odatlaringizni yozing. Ikkinchi varoqni hech kimga ko‘rsatmay, mayda-mayda bo‘lakchalarga bo‘ling. Shunday maydalanki, undagi yozuvni o‘qib bo‘lmasin. So‘ngra uni hovliga olib chiqib ko‘mib qo‘ying. Birinchi varoqni esa “Tarbiya” fani daftaringizga yopishtiring. Har safar siz yomon deb hisoblagan odatlarni qilmoqchi bo‘lsangiz, o‘zingizga “Men yomon odatlarni ko‘mib qo‘yganman, qaytib bu ishni qilmayman”, deb ayting. Shu tariqa yomon odatlardan qutulasiz. Bu boladagi salbiy odatlarni bartaraf etishning samarali usullaridan biri.

Bugungi kunda o‘quvchilar orasida asabiylik, stress, jizzaxlik kabi holatlar tez-tez kuzatilmoqda. Avval, darsliklarda psixologik bilim va ko‘nikmalar berilmagan. Oiladagi turli muammolarda yoki murakkab vaziyatga tushganda maktabda, ko‘chada noto‘g‘ri harakat qilish holatlari haqida eshitib qolamiz. Tarbiya darsligida psixologik yondashuv asosida yangi mavzular kiritilishidan maqsad o‘quvchi-yoshlarga bilim hamda tarbiya berishdan tashqari, psixologik ko‘nikmalarni hosil qilishdan iborat. Chunki, har qanday holat vaziyatga psixologik jihatdan to‘g‘ri yondashilsa, murakkab vaziyatlardan chiqish o‘quvchilar uchun qiyin bo‘lmaydi. Xulosa qiladigan bo‘lsak, “Tarbiya” darslari va darsliklari orqali o‘quvchilar bilimli bo‘libgina qolmay, psixologik jihatdan vaziyatga to‘g‘ri baho berilishi o‘quvchilar orasida salbiy vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish, to‘g‘ri fikrlashni o‘rgatish uchun qo‘yilgan fundamental asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi Xalq so‘zi. 29.12.2018
2. Zohidov V. Ulug‘ shoir ijodining qalbi. – T.: O‘zbekiston, 1970.
3. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003.
4. Kazakova M.K. Komil inson haqida Aziziddin Nasafiyning pedagogik qarashlari Mug’allim hamuzluksiz bilimdandur ilmiy-metodik jurnal №3 2018. ISSN 2181-7138.

Gavhar QOSIMOVA,
Qashqadaryo viloyati Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi, ''Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim'' kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA OLAMNING TABIIY-ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING UMUMIY QONUNIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-olamni bilishi jarayoni ijtimoiy bilishning bog'liqligi va atrof-olamni bilishning umumiy qonuniyatlari bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun idrok etishning va diqqat, xayol, fikrlashning o'ziga xosliklarini hisobga olish lozimligi haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Ilmiy, olam, fan, tushuncha, idrok, tabiat, bilish, tabiiy, shaxs, tabiatshunoslik, tafakkur, o'quvchi.

В статье рассматривается процесс познания окружающего мира учащимися начальных классов и взаимосвязь социального познания. Наряду с общими закономерностями познания окружающего мира, было упомянуто о необходимости учета особенностей восприятия и внимания, воображения, мышления у младших школьников.

Ключевые слова. Наука, Вселенная, наука, понимание, восприятие, природа, познание, естественный, личность, естествознание, мышление, читатель.

The article examines the process of cognition of the surrounding world by primary school students and the relationship of social cognition. Along with the general laws of cognition of the surrounding world, it was mentioned the need to take into account the peculiarities of perception and attention, imagination, thinking in younger schoolchildren.

Keywords. Science, universe, science, understanding, perception, nature, cognition, natural, personality, natural science, thinking, reader.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy ilmga asoslanib tafakkur qilish atrof olamni o'rganish jarayonida fanlararo sintezga asoslangan integrativ tafakkur singari rivojlanishi ham kerak. Tabiiyki, kichik yoshli o'quvchilar real voqelik qonuniyatlarini va turli o'quv predmetlarida ularning aks etishi usullarini birdaniga tushuna olmasligi mumkin, ammo maktabgacha va maktab yoshida ularning shaxsiy tajribasi bosqichma-bosqich maqsadli tizimlashtirilsa va integratsiya qilinsa, ularni o'rab atrof olam haqidagi bilimlari muayyan tizimi va uni o'rganish usullari tizimi o'zlashtirib boriladi. Shunga ko'ra, bolaning tuyg'uli tajribasini jiddiy assimilyatsiya qilish, uni tabiat qonuniyatlari asosida shakllantirish vazifasi turadi. Bundan ko'zlangan maqsad boshlang'ich ilmiy abstraksiyani o'rganish paytida tahsil oluvchilarning subyektli tasavvurlari bilan ziddiyatlar bo'lmasligi kerak. Ham ekologik, ham ma'no yasovchi g'oyalar, tabiat qonuniyatlari, tabiat haqidagi asosiy tushunchalar atrof olam va tabiatshunoslik borasidagi bilimlarning o'ziga xos integratori bo'lib xizmat qilishi kerak. Insonning butun ijodiy faoliyati fikrlashning noan'anaviy tarzini, muammoni noodatiy ko'rish yo'rig'ini, fikr-xayoli mulohaza yuritishning birlamchi tarzidan chetga chiqishini taqozo etadi.

“Ijodiy tafakkur qilish prinsipial jihatdan yangi bilimni ochish, shaxsiy original g‘oyalarni generatsiyalash bilan bog‘liq, aksincha begonalarning fikrlarini baholash bilan emas”.

Boshlang‘ich sinflar o‘quvchisining ijodkorligi – “ular tomonidan original mahsulot, buyumning yaratilishi (shuningdek, masalani yechish, insho yozish va hokazo), bular ustida ishlash jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlar, ko‘nikma va malakalar mustaqil qo‘llanadi, shu jumladan, ularni ko‘chirish, ma’lum faoliyat usullarini kombinatsiyalash yoki masalani yechishga yangi yondashuvni yaratish amalga oshiriladi”.

Fikrlash aktining eng muhim o‘ziga xosligi shundan iboratki, “tafakkur qilish jarayonida ochilajak yangilik jarayonning boshlang‘ich bosqichlariga nisbatan shunday sanaladi”. Yangilik darajasidan kelib chiqib mahsulotni produktiv va reproduktivga bo‘lishadi. Ma’lumki, G‘arb psixologiyasida reproduktiv fikrlash jarayoni produktiv fikrlash tarziga zid qo‘yiladi.

Tabiiyki, atrof olamni bilish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari fan sohasida ochilgan qonuniyatlarni o‘rganadi, biroq ular ijodiy fikrlashni o‘stirishning maxsus pedagogik shart-sharoitlarini yaratish chog‘ida o‘quv materiali va o‘z tajribasiga tayanib subyektiv kashfiyotlarga qo‘l urmaydi. Bundan tashqari, bolaning fikrlash faoliyati faqat maqsadga muvofiqlik mavjud ekaniga daxldor emas, ayniqsa turli o‘quv fanlari vositasida tabiatni aks ettirish chog‘ida erkin ijodiy maqsad qo‘yishga tayanadi. Boshqa so‘z bilan aytganda, rivojlanish istiqbolidagi faoliyat o‘laroq ijodiy fikrlash tushunchasi har doim ham qo‘yilgan maqsadga yetish, dasturlar va normalarni ro‘yobga chiqarish borasida individning faolligi bilan cheklanmasligi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy ilmga asoslangan fikrlash tarzi o‘sishi jarayonida uning mazmuniy komponenti sifatida tabiat haqidagi tushunchalar maydonga chiqadi. Atrof olamning tabiiy-ilmiy manzarasini aks ettiruvchi tushunchalar tabiat qonuniyatlarini ijtimoiy ilmiy bilish jarayonida ayro olingan va tabiiy siklli maktab kurslari mazmuni negizi sanalgan alohida fanlarda bilimning shakllaridan biri sifatida insoniyat tomonidan qayd etilgan. Faoliyat tamoyiliga muvofiq ravishda bilish faoliyatdan tashqarida mavjud bo‘lishi mumkin emas va bilim uning tarkibiga kiradi, demak, “tushuncha ham borliqning aksi, ham fikrlash amalining vositasi sanaladi”, aqliy xatti-harakatlar esa uning operatsion komponentlari hisoblanadi. Atrof olam haqidagi bilimlar muayyan fikrlash operatsiyalarini ro‘yobga chiqarish jarayonidagina o‘zlashtirilishi mumkin, fikrlash operatsiyalari shakllanishi esa muayyan mazmundor material, ya’ni tabiat haqidagi o‘quv materiali asosida amalga oshadi. Atrof olam borasidagi tushunchalarni ham tabiat ilmiga asoslangan fikrlash va aqliy xatti-harakatlarning mazmuniy komponenti, ham operatsion komponent sifatida ajratib ko‘rsatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tushunchaviy fikrlashi borasida so‘z ochishga imkon beradi.

Tushunchaviy fikrlash atrof-olam haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishni va muayyan tizimda uni bilishning usullarini egallashni nazarda tutuvchi tizimli fikrlash asosini o‘zida ifoda etadi. Shu bilan birga qayd etish lozim, agar tabiat to‘g‘risidagi bilimlar tizimini o‘zlashtirishning umumiy yo‘li umumiydan xos gatomon borishi kerak bo‘lsa, aniq tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida umumiy va xosning nisbati ularning mazmuniy komponentiga bog‘liq bo‘lishi kerak. Bola fikrining abstraktdan aniqga tomon yuksalishi tabiat haqida boshlang‘ich sinf o‘quvchisining atrof olamning tabiiy ilmiy manzarasi borasidagi bilimlariga qo‘shilgan har qanday tushunchani o‘rganish chog‘ida ham hozir bo‘lishi kerak. Fikrlash tarzini o‘stirishda operatsion komponent – aqliy xatti-harakatlar bolaning faoliyatida namoyon bo‘luvchi psixik tasavvur mavjud bo‘lagining asosiy usullarini aks ettiradi. Inson tafakkurini yuzaga chiqaruvchi omil o‘zaro aloqa

qiladigan obyektdir. Ushbu o‘zaro muloqot – tafakkurdagi, bilishdagi eng asosiysi. Biroq obyekt tafakkurni bevosita emas, balki fikrlash faoliyatining ichki qonunlari: tahlil, sintez, abstraksiya va umumlashtirish orqali aniqlab beradi.

Shunday qilib, tabiatni idrok etish va o‘rganish paytida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yosh va individual shaxsiy xususiyatlarni hisobga olgan holda tabiiy ilmlarga asoslangan fikrlash tarzi rivojlana oladi. Fikrlashning bu turib oshqalari bilan bir qatorda bilishning muayyan sohalarini – tabiatni o‘rganishda rivojlanadi va ham nazariy va empirik tafakkurning birligi, ham integratsiyalangan, ijodiy, tushunchaviy tafakkur o‘laroq ta’rif etiladi. Fikr-mulohazalarning mantiqiyligi va mustaqilligi, atrof olamning asosiy o‘zaro aloqalarini va tabiat haqidagi bilimlar boshlang‘ich tizimini tushunish, tabiatga va o‘z o‘ziga nisbatan emotsional-qadrlash munosabatini ifoda etish, tabiatni ijodiy faoliyatning turfa vositalari yordamida tasvirlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy ilmlarga asoslangan fikrlash tarzi rivojining asosiy ko‘rsatkichlari sanaladi. Kuzatish chog‘ida tabiatni “o‘ychan” idrok qilish, modellashtirish, ilmiy tushunchalarga asoslangan subyekt tajribasiga tuzatish kiritish shunaqangi tafakkur rivojining asosiy vositalari sanaladi. Ulardan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining atrof olamni bilishi sensorli qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish hamda modellashtirishning turli ko‘rinishlarini bajarish qobiliyatini rivojlantirish uchun foydalanish mumkin. Ushbu qobiliyatlarning shakllantirilishi – atrof olamning tabiiy-ilmiy manzarasini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish uchun zarur. Bundan tashqari, “modellashtirishning ichki ideal formalari shakllanganligi darajasi” aqliy qobiliyatlarning rivojlangani darajasidan dalolat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining atrof olamni bilishi jarayoni ijtimoiy bilish bilan bog‘liq, unga o‘xshash, ammo tabiiyki, aynan mos emas. Atrof olamni bilishning umumiy qonuniyatlari bilan bir qatorda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun uni idrok etishning o‘ziga xosliklari, diqqat, xayol, fikrlashning o‘ziga xosliklari tavsiflidir, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida atrof olamning tabiiy-ilmiy manzarasiga asoslanib subyekt qiyofasini shakllantirishda buni hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Суровикина С.А. Теоретико-методологические основи развития естественнонаучного мишления учашихся в протсессе обучения физике: диссертатсия ... доктора педагогических наук: 13.00.02, Челябинск, 2006 Сластенин В.А. Педагогика : Инновационная деятельность// М.: Издательский центр “Akademiya”, 1997.

2. Turdiqulov E., O‘quvchilarda umumbashariy ekologik // dunyoqarashni shakllantirish. Monografiya. Fan-2010.

3. To‘xtayev A.S. Ekologiya / Pedagogika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 144-b.

4. Yoziyeva U.L. Tabiatshunoslik darslarida amaliy ishlarni tashkil etish metodikasi. Qarshi: Nasaf, 2020.

Nilufar KOMILOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti, ''Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya''
kafedrasi professori, g.f.d.
Maxmuda QO'LDASHEVA,
Namangan davlat universiteti, ''Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi'' kafedrasi katta o'qituvchisi

IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarb masalalari, innovatsion o'quv topshiriqlaridan foydalanish va ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim tizimi, "Uchinchi renessans" davri, innovatsiya, iqtisdiy va ijtimoiy geografiya, innovatsion ta'lim, amaliyot, texnologiya, o'qituvchi, o'quv topshirig'I, maqsad, o'zlashtirish.

В данной статье рассматриваются проводимые в нашей стране реформы в системе образования, стратегия и механизмы инновационного развития нашей страны, приведены актуальные вопросы использования инновационных технологий в обучении экономической и социальной географии, методические рекомендации по использованию и разработке инновационных учебных заданий.

Ключевые слова. Система образования, эпоха "третьего возрождения", инновация, экономика и социальная география, инновационное образование, практика, технология, учитель, учебное задание, цель.

In this article, the reforms carried out in the education system in our country, strategies and mechanisms for the innovative development of our country, topical issues of the use of innovative technologies in teaching the subject of economic and social geography, instructions on the use and development of innovative educational tasks are given.


Key words. Education system, period of "third Renaissance", innovation, economic and social geography, innovative education, practice, technology, teacher, teaching assignment, goal, masteringю

Mamlakatimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, Yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida ta'lim tizimida ham keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Bu sohada muhim farmon va qaror, konsepsiyalar va dasturlar ishlab chiqildi. Zero, ushbu islohot va o'zgarishlar orqali O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni "Uchinchi renessans" poydevorini yaratish maqsad qilingan. Bu borada mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda. Ya'ni o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish,

o‘zlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda. Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan bog‘liq”. Shuning uchun ham maqsadda ta’limning rivojlanishi har doim ikkita muhim fazilat – konservatizm va yangisiga intilishning o‘ziga xos kombinatsiyasi bilan ajralib turadi. Alohida olingan holda , bu fazilatlar muqarrar ravishda turg‘unlikka, vaqt talablaridan orqada qolishga yoki an’analar, xavfli tajribalar, proyeksiyalar bilan uzilishga olib keladi. Faqat sog‘lom konservatizmning birligi va yangi ehtiyojlar va sharoitlarga e’tibor qaratish, ya’ni innovatsion rivojlanish, ta’limning mustahkamligi va dinamizmini beradi, uning o‘zgaruvchan ijtimoiy funksiyalarini ta’minlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsiya “yangilik” tushunchasi ajratib ko‘rsatiladi. Innovatsiya odatda pedagogik voqelikning elementi sifatida tushuniladi, u taqdim etilganidek, hali bu imkoniyat uchramagan. Innovatsiya – yangilikning tashuvchisi, uni yoyish, amaliyotga olib chiqish vositasi (yangi loyihalar, dasturlar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv yurtlarining turlari va boshqalar). Amaliyotda ildiz otib, yangilikni (yoki yangiliklar to‘plamini) olib boradigan yangilik amaliyotni o‘zgartiradi, yangilaydi, uni yanada samarali qiladi. Innovatsiya-pedagogik amaliyotda yangiliklarni tarqatish. Shunday qilib, innovatsion ta’lim amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan (1-rasm).



1-rasm. Dars jarayonini samarali tashkil qilish mexanizmlari


O‘qituvchi o‘quv jarayonining faol subyekti sifatida maqsad qo‘yadi:
– o‘quvchilarning o‘quv va bilim faoliyatini faollashtirish;
– charchoq va qiyinchiliklarni yo‘qotish;
– mavzuni sifatli o‘zlashtirish;
– ilmiy qiziqishni rivojlantirish;
– iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning amaliy yo‘nalishi darajasini oshirish.
Ta’lim tizimida, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanini o‘qitishda inno-

vatsion ta’limning yangi modelini amalga oshirishning ustuvor vazifalaridan biri ta’lim oluvchilarning yutuqlarini baholashning shaffof obyektiv tizimini yaratish orqali ta’lim xizmatlari sifati va talabini baholash mexanizmlarini shakllantirishdan iborat. Bunday sharoitda fanning ichki uzluksiz sifatini nazorat qilishning shaffof tizimini yaratish dolzarb masala hisoblanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani ichidagi ta’lim sifatini monitoring qilishda innovatsion o‘quv topshiriqlari ta’lim oluvchilarning joriy o‘quv faoliyatini tezda baholash va yakuniy natijaga erishish uchun o‘quv jarayonini o‘z vaqtida sozlash imkonini beradi. Fan ishidagi monitoring tizimi uchun iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanidan o‘quv topshiriqlari ishlab chiqiladi.

Masalan,

1. Berilgan chizmadagi shakllarning ichiga azot o‘g‘iti ishlab chiqaruvchi mamlakatlarni jahonda tutgan o‘rniga ko‘ra raqamlar asosida joylashtiring. 1) AQSh, 2) Xitoy, 3) Niderlandiya, 4) Germaniya, 5) Hindiston 6) Rossiya, 7) Polsha, 8) Fransiya, 9) Qatar, 10) Quvayt, 11) Norvegiya, 12) BAA, 13) Kanada, 14) Ukraina, 15) Saudiya Arabistoni.



Javob: 1) AQSh, 2) Kanada, 3) Niderlandiya, 4) Norvegiya, 5) Rossiya, 6) Saudiya Arabistoni, 7) BAA, 8) Quvayt, 9) Qatar, 10) Fransiya, 11) Germaniya, 12) Polsha, 13) Ukraina, 14) Xitoy, 15) Hindiston

2. Quyidagi shakl asosida kimyo sanoatining ayrim tarmoqlarining rivojlanishi yetakchi bo‘lgan mamlakatlarini aniqlang hamda shakl ichiga mamlakatning nomi bosh harfini belgilang.


2.1. Eng yirik Sintetik kauchuk ishlab chiqarish korxonalari joylashgan mamlakatlar.

2.2. Kimyoviy tola ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi mamlakatlar.


2.3.Parfyumeriya ishlab chiqarish tarmog‘i rivojlangan eng yirik mamlakatlar.

2.4. Farmasevtika tarmog‘i rivojlangan yetakchi mamlakatlar.

2.5.Kaliy o‘g‘iti qazib olish bo‘yicha jahonda yuqori o‘rinni egallaydigan mamlakatlar.



3. Hozirgi vaqtda jahon kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish davlatlar va hududlar o‘rtasida qanday ta’minlanganligini diagramma yordamida aniqlang. Yevropa, AQSh, Yaponiya, Fors ko‘rfazi, boshqa mamlakatlar misolida.



O‘quvchilarni o‘quv faoliyatining to‘liq subyekti qilish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o‘qitish samaradorligini oshirish uchun geografiya o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurati tug‘iladi. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o‘qitishni takomillashtirish talabalarga tabiat va jamiyatga xos bo‘lgan hodisalarni to‘liq tasavvur qilish imkonini beradi. Fanni o‘qitish asosida talabalarda iroda, qat’iyatlilik, burch va mas’uliyat hissi, estetik ideallar ijtimoiy va shaxsiy hayotga nisbatan rivojlanadi. Ilmiy dunyoqarash – shaxsning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlaydigan birinchi omil. Bu tabiat va jamiyatga xos bo‘lgan bilim va qonunlarga asoslangan ilmiy-amaliy tafakkurida ma’lum yo‘nalishlar paydo bo‘ladi

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, innovatsion texnologiyalardan foydalanish iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslariga o‘ziga xos jozibadorlik baxsh etadi. Shuningdek, ishlab chiqilgan innovatsion o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya faniga bilim va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish usullaridan biri sifatida ularning aqliy faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh. ‘‘Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – T., 2021-yil. 237-bet.

2. Баранский. Н.Н. Методика преподавания экономической географии. – М.: Учпедгаз, 1960.

3. Бахир М.А. Методика оценки географической компетентности учащихся (на примере курса ‘‘экономическая и социальная география мира’’). – Санкт-Петербург : 2015.

4. Vahobov H., O. Mirzamahmudov. Geografiya o‘qitish metodikasi. – Namangan. 2016. – 4-11-betlar.

5. Vahobov H., Tillaboyeva M.Iqtisodiy geografiya asoslari. (o‘qituvchi kitobi) – T.: O‘qituvchi, 2001. – 4-5-betlar.

6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.– R. 4.

7. Komilova N., Jumaxonov Sh. “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi”. Darslik. “Universitet” 2020-yil.

8. Jo‘raev R, Zunnunov A. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash. Sharq nashriyoti. – T., 2005. – 52-b.

Iqbol ORTIQOVA,
Xiva Prezident maktabi geografiya fani o‘qituvchisi
Zebo AVEZMUROTOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktaranti

O‘QUVCHI SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMDA O‘ZLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODLARI

Annotatsiya

Yosh avlodni tarbiyalashda ta’limning muhim jihatlarini o‘quvchi ongiga yetkazib berishda juda ko‘p faktorlar o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq. Maqolada o‘quvchi bilim olishi uchun auditoriya bilan qanday ishlash kerakligi, o‘quvchiga motivatsiya berish orqali bilim berish tushuncha ko‘nikmalari yoritilgan. Sinfda ijobiy muhitni yaratish albatta muhim, shundagina o‘quvchini bilimga bo‘lgan ishtiyoqi yanada kuchayadi.Shuningdek, aynan shu mavzu xususida bilim berish, xulosa chiqarish, tahlil qilish, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. An’anaviy ta’lim, motivatsiya, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim, paradoks, ijodiy muhit, ijodiy hisobotlar, ilmiy fantastika darsi, treninglar, muzyorar metodi, muzokora va mushohada, ilm olish bekatlari.

Много факторов зависит от умения учителя донести важные аспекты образования до сознания ученика при воспитании подрастающего поколения. В статье описывается, как работать с аудиторией, чтобы ученик мог учиться, и навыки передачи знаний путем мотивации ученика. Важно создать положительную атмосферу на занятиях, только тогда у ученика повысится энтузиазм к знаниям. Также, говорится о передаче знаний, подведении итогов, анализе, личностно-ориентированном обучении по данной теме.

Ключевые слова. Традиционное образование, мотивация, личностно-ориентированное образование, парадокс, творческая среда, творческие отчеты, урок фантастики, тренинги, метод ледокола, переговоры и наблюдение, учебные станции. иммерсивное обучение, парадокс, творческая среда, творческие отчеты, урок фантастики, тренинги, метод ледокола, переговоры и наблюдение, учебные станции.

Many factors depend on the teacher's skill in conveying the important aspects of education to the student's mind in raising the young generation. The article describes how to work with the audience so that the student can learn, and the skills of imparting knowledge by motivating the student. It is important to create a positive atmosphere in the classroom, only then will the student's enthusiasm for knowledge increase. The article talks about imparting knowledge, drawing conclusions, analysis, student-oriented education on this topic.

Key words. Traditional education, motivation, student-oriented education, paradox, creative environment, creative reports, science fiction lesson, trainings, icebreaker method, negotiation and observation, learning stations. immersive education, paradox, creative environment, creative reports, science fiction lesson, trainings, icebreaker method, negotiation and observation, learning stations.

Hozirda o‘qituvchi dars berish shakllari ozroq yangicha tusga o‘zgardi.O‘qituvchi darsda asosiy yo‘naltiruvchi ya’ni o‘quvchiga bilim berishi emas, balki bilim olishga undashi o‘z ustida shug‘ullanishiga ruhlantiruvchi shaxs sifatida shakllanishi talab qilinyapti. An’anaviy ta’limdan kelayotgan pedtexnologiya o‘zini oqla-

madi. Doim o‘qituvchi dars jarayonida so‘zlab berishi, o‘quvchidan so‘zlagan mantnini takrorlatishi, ma’lumotlarni yod olishi qayta takror aytib berishi mavzudagi matnlarni yodlatish, raqamlarni alohida yodlatish va hokazo. Bu ta’lim mutlaqo samarasiz ekanligi, jamiyatga nafi tegmayotganligi ko‘rinib qoldi.

Xo‘sh qanday ta’lim berish kerak?

O‘quvchi qachon o‘zi ustida mustaqil ishlay oladi?

O‘quvchini qanday qilib mustaqil tadqiqot qiluvchi, g‘oya yaratuvchi shaxs qila olamiz?

O‘quvchi qanday g‘oyalar ustida ishlashi kerak?

Tadqiqotlar nima uchun kerak?

Xulosalash o‘quvchiga nimaga kerak degan savollar hozirgi kunda juda dolzarb bo‘lib turibdi. Maktab dars jarayonlarida ko‘proq savol-javob metodi keng qo‘llaniladi. Savol berganda ham savolni to‘g‘ri mohirona qo‘llash o‘quvchini mantiqiy fikrlashini oshiradi.

1. Nima uchun keyingi paytlarda insoniyat o‘rtasida har xil kasalliklar ko‘payib ketmoqda ? Sabab – Xulosa – Yechim?

2. Javob: Atrof muhitni ifloslanishi,chiqindilarni ko‘payib ketishi ,globall iqlimning o‘zgarishi –Xulosa: bir nechta omillar ta’sirida muhitga qarab kasalliklarni ko‘payishi aniqlanadi. Yechim: Tabiatdan oqilona foydalanish, inson o‘ziga e’tiborli bo‘lib yurish.

3. Pandemiya davrida ko‘proq qaysi hududlarda kasalliklar avj oldi.

4. Nega O‘zbekistonning janubiy va sharqiy hududlarida dehqonchilik qilish qulay faktorlar ko‘p?.

5. Aynan bizning eksportniyorlarimiz orasida Rossiya, Xitoy ,Koreya davlatlari nima uchun yuqori o‘rinlarda?

6. Xorazm viloyatining Gurlan Yangibozor tumanlarida sholichilikda yuqori va sifatli hosil yetishtirishning sababi nimada?

7. Foydali qazilmalarning ko‘p yoki kam bo‘lishini sababi nimada?

8. Xorazmda paxsa loysuvoqdan uylar qurilishda inson uchun qulay bo‘lgan qanday vosita ko‘zda tutilgan?

9. Investorlarni chekka huddudlarga investitsiya kiritishini foydali va zararli tomonlari nimada?

10. O‘zbekiston hududida suv tanqisligining vujudga kelishiga sabab nima?

11. Nima sababdan ayrim hududdagi o‘quvchilar ayrim fanlardan doimo yuqori natijaga erishadi?

12. Xayotimizda bir xil xato va kamchiliklarning doimo takrorlanib kelishiga nima sabab bo‘ladi.

O‘quvchiga bilim berma, bilim olishga yo‘naltir, o‘z ustida o‘zi ishlab o‘zi o‘rgansin, xato kamchiligini tushunsin, to‘g‘ri xulosa chiqarsin oqibatda, o‘zi uchun eng to‘g‘ri yechimga kelsin. Xo‘sh bunday tafakkurni o‘quvchiga qanday singdirishimiz mumkin. Buning uchun o‘quvchiga to‘g‘ri yo‘ldan qanday ketishini ko‘rsatishimiz kerak xolos. Hozirgi metodikamizda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limdan ko‘proq foydalanishimiz kerak.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda dars shakli.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlari o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish usul va metodlari bilan uzviy bog‘liq. Bunday o‘quv mashg‘ulotlarining shakllari turlicha.Ular orasidan alohida e’tibor dars jarayonida o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligining tadqiqot-izlanish metodlari hamda dialogli shakllariga qaratiladi, shuningdek, ko‘rgazmali,

tasviriy, reproduktiv va boshqa metodlar ham qo‘llaniladi. Bunday mashg‘ulotlarning shakl va usullari bevosita shaxs faoliyatiga yondashuv konsepsiyasi va tamoyillariga mos kelib, ular bola ichki dunyosi, tafakkuri va shaxsiy hayotiy tajribasini maksimal darajada faollashtirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda o‘quv faoliyatiga rag‘bat uyg‘otish orqali o‘quvchilarni bilim egallashga yo‘naltirib, bunday shakl va usullarda tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning shaxsiy bilimi, tajribasi va hissiyotlarini rivojlantirishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib qoladi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim amalga oshiriladigan ayrim noan’anaviy dars shakllarini keltiramiz:

Sho‘ng‘ish darsi – ma’lum bilimlarni egallash uchun eng qulay muhitda bo‘lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni faol o‘rganish mashqlaridan iborat.

Musobaqa darsi – o‘quvchilarning o‘zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Konsultatsiya darsi – dars jarayonida o‘quvchilarning o‘zaro hamda o‘qituvchining konsultatsiyalarini tashkil etish orqali darsni o‘zlashtirish mashqi.

Ijod darsi – o‘quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Sinov darsi – o‘quvchilarning o‘zlashtirishini turli shakllarda sinash tashkil qilinadigan dars.

Ijodiy hisobotlar darsi – o‘quvchilarning ayrim mavzular bo‘yicha mustaqil o‘rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti.

Umumlashtirish darsi – ilgari o‘tilgan mavzular bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish mashqlarini o‘tkazish darsi.

Ilmiy-fantastika darsi – o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlari asosida ijodiy xayol, taxminlar o‘ylab topishlari mashqini o‘tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

Haqiqatni izlash darsi – dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o‘quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishni tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o‘zlashtirishni ta’minlash darsi.

“Paradokslar” darsi – o‘quvchilarning faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida o‘rganilayotgan mavzuni har turli “paradokslarga” bog‘lab bayon qilish hamda tegishli tahlillar o‘tkazish asosida to‘g‘ri xulosalarni aniqlash darsi.

Seminar darsi – yangi dars mavzusiga doir savollar bo‘yicha o‘quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to‘g‘risida ma’lumotlarni tinglash orqali sinfdagi barcha o‘quvchilar darsni o‘zlashtirishlarini va bilimlarini mustahkamlashni ta’minlash darsi.

Ekskursiya darsi – bu darslarda o‘quvchilarni turli obyektlar: muzey, ziyoratgoh, korxona, ustaxona, tabiat obyektlari, ilmiy muassasa, kollej, litsey va boshqalarga olib borish va tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog‘lash va kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta’minlanadi. Juda uzoqdagi va borish qiyin bo‘lgan obyektlarga, ular to‘g‘risida filmlar, turli ko‘rgazmali va boshqa materiallar mavjud bo‘lgan hollarda, ularni o‘quvchilarga namoish etib, tushuntirish orqali videoekskursiyalar tashkil etish ham mumkin.

O‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish, ijobiylashtirish va rivojlantirish.

O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini ta’lim-tarbiya jarayonida hisobga olish, ularning shaxsiy sifatlarini bilish, tahlil qilishga yakka tartibda yondashishda hozirgi yosh psixologiyasi va pedagogikasining qoidalari va talablaridan kelib chiqiladi. Bunda o‘quvchilarning bir-birlariga nisbatan tayyorgarliklari, qiziqishlari va fanlarni turlicha

o‘zlashtirishlari bilan farqlanishini hisobga olish asosiy masalalardan hisoblanadi.

O‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish asosida shu sifatlarni ijobiylashtirish va rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun darsda o‘quvchilarga mustaqil vazifalar berish, ularning mustaqil xulosalar chiqarishlarini, bir- birlaridan o‘rganishlarini tashkil qilish, ularning o‘qishlari uchun qulay muhit yaratishga alohida e’tibor berish talab qilinadi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limdan amalda foydalanish masalalari.

Maktabda pedagogik jamoa yoki metod birlashmalar miqyosida o‘qituvchilarning o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishda o‘quvchi shaxsini o‘rganish yo‘nalishlari, muloqot usullari, darsda o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari, fanlarni turlicha o‘zlashtirishlaridagi farqlarni hisobga olish, qulay muhit yaratish, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga erishish va boshqa masalalar bo‘yicha nazariy, metodik va amaliy tajribalar bilan tanishish, o‘rganish, ommalashtirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlarni vaqti-vaqti bilan o‘tkazib borish lozim. Bu mashg‘ulotni mavjud sharoit va imkoniyatlarga muvofiq bahs-munozara, trening, ishchanlik o‘yini yoki seminar kabi shakllardan birortasi bo‘yicha o‘tkazish tavsiya qilinadi.

O‘quvchilar bilan ijobiy muhit yaratish

Trening mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalar:

– ishtirokchilarga treningda ijobiy/pozitiv muhitni yaratishga ta’sir etuvchi omillarni haqida tushunchaga ega bo‘ladilar;

– o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatida salbiy va ijobiy vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni amaliy mashg‘ulotlar orqali farqlay oladilar;

– mashg‘ulotlarda xilma-xillikka, ijobiy muhitni yaratishga erishish bo‘yicha tajriba almashadilar.

Materiallar:

– qog‘oz (bo‘laklarga qirqilgan, har 5-6 kishidan iborat guruhga 20 tadan);

– qaychi;

– posterlar (har 5-6 kishiga 1 ta);

– rangli markerlar;

– proyektor + noutbuk.

Mashg‘ulot 1 – “Muzyorar” – “?”

Davomiyligi: 10 daqiqa

• Qatnashchilar rangli qog‘ozga ismlari va hayotlariga ta’sir ko‘rsatgan qator asar nomini yozishlari kerak.

• Qog‘ozni samalyot shaklida buklab, uchirishlari lozim.

• Har bir ishtirokchi samalyotlardan birini oladi va uning egasini topadi. (Egasini topish uchun “Ismingiz nima” yoki Sizning ismingiz ……mi?” savollarini beriladi).

• Samalyot egasiga ushbu asar kitob uning hayotiga qanday ta’sir qilganligi haqida suhbat olib boradi.

Munozara

Maqsadi: tanishtiruv mashg‘ulotiga refleksiya qilish

Davomiyligi: 10 daqiqa

Ishtirokchilar o‘zaro tajriba almashishlariga zamin yaratish maqsadida trener quyidagi savollarni berib ishtirokchilarni munozara qilishga undaydi:

• Bunday mashg‘ulotlar tashkil etishdan maqsad nima?

• Ushbu mashg‘ulotning afzalliklari nimada? Noqulayliklari-chi?

• Bunday mashqlar bajarish sinfda nega muhim dib o‘ylaysiz?

• Yana qanday mashqlar orqali o‘quvchilar bir-birlari haqida ko‘proq ma’lumotga

ega bo‘lishlariga imkon yaratishimiz mumkin? bu (o‘quvchilar bir birlari haqida bilishlari) nima uchun kerak?

Mashg‘ulot 2 “Mushohada va muzokara”

Maqsad: O‘quvchilarni individual va juftliklarda fikr almashishga o‘rgatish.

Davomiyligi: 10 daqiqa.

Savol: Sinfda pozitiv muhit yaratishning yana qanday usullarini bilasiz?

• qatnashchilarga savol doskada yoziladi va ushbu savolga javob berishlari uchun 1 daqiqa beriladi;

• ishtirokchilar yonidagi ishtirokchi bilan 1 daqiqa davomida fikr almashishadi;

• valantyor juftliklar butun guruhga javoblarini taqdim qilishlari mumkin.

Trener ishtirokchilarni qo‘yidagi savollar orqali munozaraga undaydi. Ushbu jarayonda ishtirokchilar o‘zaro tajriba almashish imkoniga ega bo‘ladilar.

1. Ushbu mashq qanday ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi?

2. O‘quvchilar individual, juftlikda yoki guruhda ishlashlarining afzalliklari nimada? Noqulayligi-chi?

Mashg‘ulot 3 “Ilm olish bekatlari”

Maqsadi: Guruhlarda muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmasini shakllantirish.

Materiallar: Muammoli vaziyatlar tushirilgan A4 formatidagi varoq (Ilova 1)

Davomiyligi: 20 daqiqa.

• 4-5 ta stol ustiga muammoli vaziyatlar yozilgan varoqlar qo‘yiladi.

• Har bir guruhda kotiba belgilanadi.

• Ishtirokchilar guruhlarda muammoga yechim topishadi, kotiba yozib oladi.

• Birinchi muammoli vaziyatni o‘rganib chiqqandan so‘ng ishtirokchilar guruh bo‘lib keying “bekat”ga o‘tib, u yerdagi muammoli vaziyatni muhokama qilishlari kerak.

• Shunday tarzda har bir “bekat”da to‘xtaladi.

• Eng so‘nggi “bekat”da ishtirokchilar qolishadi va valantyor guruhlar ulardagi muammo yechimlarini auditoriya bilan bo‘lishishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Charter on Geographical Education. Available online: http://www.cnfg.fr/wp-content (accessed on 17 October 2018).

2. Day, T.; Spronken-Smith, R. Geography education: Fieldwork and contemporary pedagogy. In International Encyclopedia of Geography: People, the Earth, Environment and Technology; Richardson, D., Castree, N., Goodchild, M.F., Kobayashi, A., Liu, W., Marston, R.A., Eds.; Wiley-Blackwell: Hoboken, NJ, USA, 2017. [CrossRef]

3. Massey, D. For Space; Sage: Thousand Oaks, CA, USA, 2005.

4. Knight, S. Risk and Adventure in Early Years Outdoor Play: Learning from Forest Schools; Sage: London, UK, 2011.

5. Eames, S.; Higgins, P.J.; Nicol, R. Learning Outside the Classroom: Theory and Guidelines for Practice; Routledge: London, UK, 2012.

6. Scoffham, S.; Barnes, J. Happiness matters: Towards a pedagogy of happiness and well-being. Curric. J. 2011, 22, 535–548. [CrossRef]

Dinora ABDURAXMONOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

MILLIY TA'LIM DASTURIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING YOZUV SAVODXONLIGIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada og'zaki va yozma nutq malakasini yuksaltirish o'quvchilarga lingvistikaga oid nazariy ma'lumotlarni singdirishga yo'naltirilgan Ona tili va o'qish savodxonligi darslarining zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish metodlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Lingvistika, nutqiy vaziyat, tayanch kompetensiya, yozma nutq, og'zaki nutq, tinglab tushunish.

В данной статье описаны методики обучения родному языку и читательской грамотности на основе современных подходов, направленных на совершенствование навыков устной и письменной речи и привитие учащимся теоретических сведений по языкознанию.

Ключевые слова. Языкознание, речевая ситуация, базовая компетенция, письменная речь, устная речь, аудирование.

This article describes the teaching methods of Mother Language and Reading Literacy classes based on modern approaches aimed at improving oral and written speech skills and inculcating theoretical information about linguistics.

Key words. Linguistics, speech situation, basic competence, written speech, oral speech, listening comprehension.

Milliy dasturda o'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Ona tili fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga o'rgatadi. O'quvchiga faqat grammatik qoidalar emas, balki nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirishni o'rgatish nazarda tutiladi.

A.Urazimbetova "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish"[1] mavzusidagi tadqiqot ishida "Savodli va nutqiy kompetentlik ustida ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-metodik faoliyatining asosiy yo'nalishi tayanch kompetensiyalarini shakllantirishdir.-deb tushuntiradi. Bu ona tilini amaliy o'rgatish, muntazam va izchil o'rgatish, namunalar va maxsus mashqlar asosida o'rgatish, nutqiy xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash, adabiy-badiiy nutq shaklini o'rgatish orqali amalga oshiriladi".

[1] Urazimbetova A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. dok. (PhD) diss. – T., 2021. – 166 b.16-bet

Og‘zaki nutq malakasi talabiga ko‘ra o‘quvchi:

– o‘zbek adabiy tili me’yorlariga amal qilgan holda turli nutqiy vaziyatlarda ravon so‘zlay olish;

– mavzu yuzasidan nutq tayyorlay olish va uni bayon qilish, mavzu doirasidagi fikr va g‘oyalarini taqdimot ko‘rinishida namoyish qilish;

– munozaralarda ishtirok etish, fikrlarni umumlashtirish va munosabat bildira olish;

– badiiy matnni yoddan ifodali aytish, bunda ohang, ovoz tovlanishlari va to‘xtam (pauza) dan o‘rinli foydalana olishi lozim.

Yozma nutq malakasiga ko‘ra o‘quvchi:

– o‘z fikr va hissiyotlarini imlo, punktuatsion, uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda to‘g‘ri, izchil, ifodalash, shuningdek, ma’lumotni belgilangan hajm talabiga ko‘ra yoza olish;

– turli maqsad va har xil o`quvchiga mo‘ljallangan matnlarni yoza olish, xususan, ma’lum narsa/hodisa haqida yozma ma’lumot yetkaza olish;

– materiallarni tartiblash va umumlashtirish, fikr va dalillarni tafsilotlar bilan asoslab yoza olish;

– yozma nutqining ta’sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalarni o‘rinli qo‘llay olish;

– matnning izchilligini ta’minlash va saviyasini oshirish uchun so‘z va grammatik vositalarni to‘g‘ri qo‘llay olish;

– imlo, uslub va punktuatsion me’yorlarga rioya qilishi lozim [2]

Bu kompetensiyalar umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilarining Ona tili fanidan egallashlari lozim bo‘lgan talablar hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchisiga ona tili fanidan qo‘yiladigan talablar bo‘yicha 1-sinf o‘quvchilariga quyidagicha talablar belgilangan[3]:

1.Og‘zaki nutq talablari:

– unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish;

– x va h, o‘ va u tovushlarini og‘zaki nutqda farqlash (dasturda berilgan matnlar asosida);

– tengdoshlari va kattalar bilan suhbatga kirisha olish, suhbatlashish odobiga rioya qilish (bir-birini hurmat qilish, so‘zga chiqishni istashini hurmat bilan so‘rash, mavzu yoki matn yuzasidan navbat bilan gapirish);

– rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlash;

– o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gapira olish;

– matnni qayta bayon qila olish.

2.Savod chiqarish va yozma nutq talablari:

– fikr ifodalashda bir-biriga o‘xshash (satr osti, satr usti harflari) harflarni farqlab yozish;

– yozma nutqda x va h harflarini to‘g‘ri qo‘llash;

– bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qilish;

– husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 15–20 ta so‘zdan iborat diktant yozish;

– yil davomida o‘rganilgan fanlarga oid atamalarni farqlash va ularni to‘g‘ri yoza olish;

– berilgan rasm asosida, odam yoki ma’lum voqeani tasvirlab, 2–3ta gap tuzib yoza olish;

[2] Umumiy o’rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Ona tili (1-11 sinf).8-bet.

[3] Umumiy o’rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Ona tili (1-11 sinf).8-bet.

– turli mavzularda tabriknoma yoza olish.

X.G‘ulomovaning “Husnixat va uni o‘qitish metodikasi”[4] o‘quv qo‘llanmasida o‘quvchilarning yozuvni o‘rganish talablari quyidagicha bayon etilgan: “Inson o‘z fikrini boshqa kishilarga og‘zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu ikki shaklining o‘xshash va farqli tomonlari mavjud bo‘lib, ular o‘z o‘rnida afzalliklarga ega. Og‘zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitilish uchun mo‘ljallanadi. U kishilaming nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog‘och, teri, metall, qog‘oz kabilarga ko‘rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo‘yiladi. Yozuv kishilarning o‘zaro fikr almashishi va bilimlami egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog‘laydi, uzoq davrlar mobaynida saqlanadi.Yozuv tufayli kishilar fikri, insoniyat qo‘lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi”.

O‘quvchi maktabga kelguniga qadar o‘g‘zaki nutqning, deyarli barcha talablarini, qisman yozma nutqqa oid elementar narsalarni – harfni tanish va yoza olishni bilib oladi. Maktab davrida o‘qituvchi yordami bilan bu malakasini rivojlantirishga kirishadi.

Savod o‘rgatishning birinchi davrida, ya’ni harf o‘rgatiladigan qismida o‘quvchilar narsalar shaklini, har xil chiziqlarni chizish va bo‘yashni bajarsalar, keyinchalik harflarni yozishni boshlashadi. Bunda harflarning qiyaligi, katta-kichikligi, yuqori va pastki qismi satrga moslab yoziladigan harflarni yozishni o‘rganishadilar. O‘quv yilining yarmiga kelib, 1-sinf o‘quvchilari Milliy dasturda belgilangan malaka talablariga ko‘ra satr osti va satr usti harflarni farqlay olishi, x va h harflarini yozuvda ajrata olishi va bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila olishi lozim.

“Husnixat va uni o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasi muallifi o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan malaka borasida quyidagilarni yozadi: “Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni husnixatga o‘rgatish ehtiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni husnixat bilan yozishga o‘rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini, o‘qitish usullarini, yozuviga o‘rgatishning gigiyenik shartlarini, o‘quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish, kamchiliklarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur”.[5]

Maktab o‘qituvchilari uchun chiqarilgan “Alifbe. Metodik qo‘llanma” da Alifbe darsligiga qo‘yilgan nazariy-amaliy talablarda quyidagi fikrlar o‘rinli bayon qilingan: Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo‘ygan bolaning ta’lim jarayoniga moslashish imkoniyatlarini o‘rganish, alifbegacha bo‘lgan davrda o‘quvchilarni savod o‘rgatishga tayyorlash, ularda gapni so‘zdan, so‘zni bo‘g‘inlardan va nihoyat bo‘g‘inlarni alohida tovushlardan tashkil topganligi haqida tushunchani tarkib toptirish – savodga o‘rgatish alifbegacha bo‘lgan davrdan to alifbe davri tugagunga qadar davom etadi. Chunki o‘quvchining tovush, bo‘g‘in, so‘z va gapning o‘zaro aloqadorligi, uyg‘unligi va yaxlitligini to‘g‘ri idrok etishi orfografik savodxonlikka, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, bola nutqining rivojlanishi va o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Dastlab bola so‘zni idrok etishi, so‘ng so‘zni bo‘g‘inga, bo‘g‘inni tovushlarga ajrata olishi, gapni so‘zlardan, matnni gaplardan

[4] G‘ulomov.X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. Oily o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma – T.: ‘‘Iqtisod-moliya” 2007. – 76-b.

[5] G‘ulomov.X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. Oily o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma – T.:”Iqtisod-moliya” 2007. – 76-b. 3-bet.

farqlay olishi lozimdir.[6]

R. Safarova muallifligida nashr etilgan ushbu qo‘llanmada tahlil-tarkibning savodga o‘rgatish davridagi bosqichlari quyidagicha sanab o‘tiladi: Tahlil: matndan gapni ajratib olish; gapni so‘zlarga bo‘lish, birorta so‘zni tanlash; so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish; bo‘g‘indan tovushni ajratish, uning bosma va yozma shaklini ko‘rsatish hamda o‘rgatish. Tarkib: kesma harfdan bo‘g‘in va so‘z tuzish; tuzilgan so‘zni bo‘g‘inlab o‘qish; bir necha so‘zlarni o‘qish; yaxlit gapni o‘qish; yaxlit matnni o‘qish.

Shunday qilib, bolalarni savodga o‘rgatishda tahlil-tarkib qilishga undovchi mantiqiy topshiriqlardan foydalanib, o‘quvchilarda fikr rivojlantiriladi. Fikrlash jarayonida o‘quvchilar tafakkur yuritish orqali qator mantiqiy amallarni bajaradilar. Ya’ni so‘zning tovush tarkibini, so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlarni, bo‘g‘inlarning ochiq yoki yopiqligini tahlil qiladilar. O‘quvchilar so‘zlarni, ularning elementar belgilariga asoslangan holda yaxlit, ajralmaydigan bo‘laklarga ajratadilar. Tahlil o‘quvchilardagi mavjud ko‘nikmalarga, so‘zning tovush tarkibi orasidagi elementlarning assotsiativ (o‘zaro bog‘lanishli) aloqalarini anglash tajribasiga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Respublika Ta’lim markazi tomonidan nashr etilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligining 1-qismi 9 bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim “Mening oilam”[7] deb nomlanadi.

Darslikning 6-sahifasida “Rasmga qarang” shartli belgisi ostida rasmni kuzatish va har biriga mos so‘zni topish so‘ralgan. Rasm bilan bog‘liq “Bir rasmga bir nechta so‘z mos kelishi mumkinmi? Nega shunday? Sizning oilangizda kimlar bor?” kabi savollarga javob topilgandan so‘ng “O‘quvchi daftariga yozing” shartli belgisi ostida “Oila a’zolaringizni bildiruvchi so‘zlarni yozing” topshirig‘i berilgan.

Bu vaqtda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan mashq daftari ustida ishlashga to‘g‘ri keladi. Mashq daftarining[8] 3-sahifasida “Oila a’zolaringizni bildiruvchi so‘zlarni yozing” deb nomlangan topshiriq va topshiriq ostida so‘zlarni yozish uchun joy qoldirilgan.

Birinchi sinf o‘quvchilarining aksariyati hali harfni ham tanimasligi mumkin bo‘lgan paytda yozuv bilan bog‘liq topshiriq qiyinchilik tug‘dirishi mumkindir, biroq o‘qituvchining yordami va mahorati bu yerda muhim rol o‘ynaydi. Yozuv mlakasini to‘liq egallay olmagan o‘quvchilar bilan og‘zaki bajarish, bajarilgan topshiriq doskada yozlib, ko‘chirib olish imkoniyatini berish va shu kabi usullar yordamida topshiriqni bajarishga erishish mumkin.

Topshiriqni bajarish bilan o‘quvchilar so‘zdagi harflarning joylashish tartibini, satr osti va satr usti yozilishi va eng muhimi, fikr bildirish malakasini egallaydilar.

K.Qosimovaning “Ona tili o‘qitish metodikasi”[9] darsligda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qo‘yilgan malaka talablari quyidagicha tushuntiriladi: Savod o‘rgatish davrida o‘qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o‘qish va yozish ko‘nikmasi deyiladi. Bu ko‘nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko‘nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko‘nikmaga aylanmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o‘quvchi harflarni tanib, ularni o‘qiy olmasligi mumkin. Yozish ko‘nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya’ni yozish jarayonida partada to‘g‘ri o‘tirish,

[6] Safarova R. va boshq. Alifbe. Metodik qo’llanma (matn): o’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. –T: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 96 bet. 8-bet.

[7] Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism.Darslik. 1-sinf uchun.I.Azimova [va boshq]. T.: Respublika ta’lim markazi, 2021.– 104-b.

[8] Azimova I. [va boshq.] 1-sinf uchun mashq daftari .– T..: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 72-b.3-bet

[9] Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili oqitish metodikasi. Boshlang`ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Noshir, 2009. –352 b.15-bet.

ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo‘yish kabilar ham o‘rgatiladi”.

Olima o‘z tadqiqotlarida boshlang‘ich sinflarda ko‘nikma va malaka talablari qanday shakllantirilishini quyidagicha tushuntirib o‘tadi: “O‘qish va yozish ko‘nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o‘quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o‘ylab o‘tirmay, so‘z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o‘qish va yozish malakasi harakatning o‘ylab o‘tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o‘qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi”.

O.Qurbonova o‘zining tadqiqot ishida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmalariga qo‘yilgan talablar haqida quyidagilarni yozadi: “O‘qish hamda yozish nutqiy malaka bo‘lib, o‘qitish jarayonida takrorlanib turishi ta’lim samaradorligini oshirishda o‘z o‘rniga ega. O‘quvchilarda dastlabki nutqiy kompetensiyalar umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida, asosan, ona tili darslari orqali hosil qilinadi. Nutqiy kompetensiyalar o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarda yoshligidanoq izchil holatda rivojlantirilib boriladi. Nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘quvchilar nutq shakllari va til birliklaridan qanday foydalanishni o‘rganib boradilar. Insonlarning ijtimoiy hayotdagi, jamiyatdagi o‘rni va mavqeini belgilaydigan mezon ham uning nutqidir. Shunga ko‘ra, til ta’limida o‘qituvchilar oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni belgilangan talab darajasida rivojlantirishdir”[10].

O‘quvchilar mashq daftarlariga belgilangan tartib bo‘yicha opa, aka, oyi, dada, singil so‘zlarini yozishadi. Albatta, yozish asnosida kamchiliklarga ham yo‘l qoyilishi mumkin. Biroq o‘qituvchi o‘quvchilarning yozuvdagi kamchiliklarini ularning nutqiy mushohadorliklari bilan to‘ldirib keta olishi kerak. “Aka” so‘zi nimani anglatishi, o‘quvchilardan kimlarning akasi borligi, uning ismi, nechanchi sinfda o‘qishi yoki qayerda ishlashi, nima bilan qiziqishi, qanday harakterga egaligi va hakozolar bo‘yicha so‘ralganda barcha o‘quvchilar gapirib berisha olishadi. Og‘zaki nutq muvaffaqiyatli va qiziqarli amalga oshirilgandan so‘ng endi uni yozma ifodalash zarurati va istagi o‘quvchilarning yozma nutqiy imkoniyatlarini bir muncha oshiradi.

Nutqning og‘zaki va yozma ko‘rinishlari “bir-biriga minglab o‘tishlar bilan bog‘langan”. Buni og‘zaki nutqning ham, yozma nutqning ham asosida ichki nutq yotishi bilan izohlash mumkin bo‘lib, aynan uning yordamida fikr shakllanadi. Fikr – arabcha so‘zidan olingan bo‘lib, tafakkur, g‘oya; aql, o‘ylash, o‘y, xayol, mulohaza degan ma’nolarini bildiradi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida fikr biron narsa, hodisa yoki kimsa haqida o‘y, xayol deb ta’riflanadi.[11]

U.Masharipovaning “Innovatsion ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi”[12] nomli disseratsiyasida og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatib beriladi:

1. Og‘zaki nutqda so‘zlovchi va tinglovchi bir-birini ko‘rib turadi, bu esa suhbatdosh reaksiyasiga bog‘liq ravishda suhbat mazmun-mundarijasini o‘zgartirish imkonini beradi. Yozma nutqda bunday imkoniyat mavjud emas: yozayotgan odam ehtimoliy o‘quvchini xayolan tasavvur qila olishi mumkin, xolos;

10 Qurbonova.O. 10-11-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2021. – 166 b.30-bet.

11 O‘zbek tilining izohli lug‘ati, – T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007, 5 jild, 687 bet. 43-bet.

12 Masharipova U. Innovatsion ta'lim sharotitda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi: ped. fan. dok. (PhD) diss. – Toshkent, 2017. – 163-b.

2. Og‘zaki nutq eshitish orqali, yozma nutq esa – ko‘rish orqali qabul qilishga mo‘ljallangan. Og‘zaki nutqni harflar orqali ifodalash, odatda, maxsus texnik vositalar yordamida amalga oshirilsa, yozma nutqda o‘quvchi yozilgan matnni istalgan marta qayta o‘qish imkoniga ega bo‘ladi. Xuddi shuningdek, yozayotgan odamning o‘zi ham yozilgan matnni takror-takror takomillashtirish imkoniga ega. Bundan tashqari, og‘zaki nutq qog‘ozda yoki texnik vositalar yordamida yozilishi mumkin;

3. Yozma nutq muloqotni aniq, qayd qilingan holatga keltiradi. U o‘tmish, hozir va kelajak odamlari muloqotini bog‘lab turadi, ish yuzasidan muloqot va ilmiy faoliyat asosi sifatida namoyon bo‘ladi, og‘zaki nutq esa ko‘pincha noaniqligi, tugal emasligi, umumiy fikrni yetkazib berishi bilan ajratib turadi.

Yozma nutq og‘zaki nutqga qaraganda til mavjudligining paydo bo‘lish vaqtiga qaraganda kech paydo bo‘lgan. Ifodalilik nuqtayi nazaridan ham og‘zaki nutqda bir qancha murakkab tafovutlar mavjudki, bu qiyinchiliklar o‘quvchilarning fikr bildishlarini biroz cheklashi ham mumkin. Biroq o‘qituvchi yozma nutqiy ifodalilikni shunday tashkil etishi kerakki, o‘quvchilar beixtiyor yozishni xohlashlari, uni yaxshi ko‘rib ham qolishlari kerak.

O‘qituvchi yuqoridagi mashq asosida har bir o‘quvchidan akasi yoki opasi, singlisi bilan bog‘liq uchta eng yaxshi xislatni yozishni burishi mumkin. “Eng oxirgi kunlarda oyisining qilgan uchta yaxshiligini yozing” topshirig‘i berilishi ham mumkin. “Bir hafta mobaynida sizning xursand bo‘lishingizga sabab bo‘ladigan uchta sababni yozing” kabi topshiriqlar o‘quvchini yozishga bo‘lgan qiziqishini yuzaga chiqaradi.

Darslikdagi rasmda oila-a’zolarining rasmlari berilgan bo‘lib, o‘quvchilardan sodda shaklda oila shajarasini yozishni mashq qildirish ham yaxshi samara keltiradi. O‘quvchilar dastlab ota-onaning ismini yoki rasmini, keyin aka va opalarni, undan keyin o‘zi va singillarini, yana qarindoshlarni ham shajaraga kiritishga harakat qilishadi. Bu jarayon o‘quvchilarning nutqni egallashga bo‘lgan harakatlarini bir muncha osonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Ona tili (1-11 sinf).
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, – T.: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007, 5 jild, 687-bet.
3. Urazimbetova.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. dok. (PhD) diss. – T., 2021. – 166 b.
4. G‘ulomov.X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. Oily o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma- T.:”Iqtisod-moliya” 2007. – 76-b.
5. Safarova R. va boshq. Alifbe. Metodik qo‘llanma (matn): o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 96-bet.
6. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 1-sinf uchun.I.Azimova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 104-b.
7. Azimova I. [va boshq.] 1-sinf uchun mashq daftari . – Toshkent.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 72-b.
8. Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili oqitish metodikasi. Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Noshir, 2009. – 352-b.

Maxbuba RAXIMQULOVA,
Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi dotsenti

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "STEAM" YONDASHUV – INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN BIRI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada talim tizimiga kirib kelayotgan innovatsion texnologiya va STEAM yondashuv orqali o'quvchilar bilimini yanada rivojlantirish yo'llari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar. STEAM, innovatsiya, model, muammoli vaziyat, tadqiqot

В данной статье представлена информация о способах дальнейшего развития знаний учащихся посредством внедрения инновационных технологий в образовательную систему и подхода STEAM.

Ключевые слова. STEAM, инновация, модель, проблемная ситуация, исследование,

This article provides information about innovative technologies that are part of the education system and ways to further develop students' knowledge through the STEAM approach.

Key words. STEAM, innovation, model, problem situation, research.

Mamlakatimiz kelgusi taqdiri, har tomonlama kamol topgan iqtidorli yoshlarimizning bilim saviyasiga, ta'limning ustuvor yo'nalishlaridagi faolligiga bog'liq. Ta'lim tizimida ham ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda o'quv dasturlarining ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirishni, o'quv yuklamalari va fanlarni qaytadan ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish kabi masalalar qo'yildi. Xalq ta'limi vazirligida juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. O'quvchilarda kompitensiyalarni shakllantirib, ular orqali kreativ, tanqidiy va mantiqiy fikrlashga, ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga erishishimiz kerak bo'ladi.

Ta'lim tizimida xalqaro talablarga mos islohatlarni amalga oshirishda STEAM yondashuv amaliyotga tadbiq etish, ta'limga innovatsion yondashuvlarni joriy etishning bir ko'rinishi bo'ladi. Barkamol avlodni yetuk inson qilib tarbiyalash va ta'lim berish o'qituvchining oldida turgan muhim vazifalardan biridir. O'quvchi bilim olish jarayonida duch kelgan muammolarni yechimini topishga qiziqadi. Ba'zan yechimini topolmay qiynaladi. O'quvchiga bu muammolarning yechimini topishda STEAM yo'nalishlari yordam beradi. O'quvchi duch kelgan har bir muammoni yechimiga yo'l topganida bir pog'ona o'sadi, dunyoqarashi kengayadi, bilim marralarini zabt etaveradi. Muammoga duch kelishdan qo'rqmaydi, aksincha unga yechim topadi. STEAM ko'p qirralidir. Uning qisqartmasi asosan fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaga qaratilgan bo'lsa ham, tarix, adabiyot, musiqa kabi fanlar bilan ham uzviy bog'liqdir.

Hozirgi kunda yangiliklar, ta'lim sohasidagi innovatsiyalar, ma'lumotlar oqimining o'sib borishi hayotning barcha sohalarida rivojlanishni yuzaga keltirmoqda. Kundalik hayotni ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvni STEAM ta'limini joriy etadi. Bunday yondashuvdan maqsad – ta'lim berish

orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda maktab jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik raqobatbardoshlikni targ‘ib qilishga qaratilgan.

O‘quvchilarning qiziqishlari asosida ta’limni tashkil etish samarasi yanada yaqqol namayon bo‘lib bormoqda. Bunday qiziqishlarni amalda sinab ko‘rish uchun yanada murakkabroq bilim, ko‘nikma, malakalarni egallash va kompetensiyalarni shakllantirish zarur bo‘ladi. Bu o‘rinda nafaqat bilish va uddalay olish, balki tadqiqot olib borish va ixtiro qilish talab etiladi. STEAM ta’limi DTS asosida beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatish orqali sinfdagi dars mashg‘ulotlari orqali va maktabdan tashqari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, ijodkorligini tarbiyalash yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Aynan, Milliy dasturimizda ham STEAM mazmuni aks etgan.

Mamlakatimiz tayanchi bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama bilimli va intellektual salohiyatga ega, o‘zining g‘oyalari bilan dadil harakat qilishga undaydigan milliy ta’lim dasturlari bugun pedagog xodimlarning diqqat markazida turibdi. Ulardagi har bir yangilik, shubhasiz, o‘qituvchilarni qiziqtiradi va ularni o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashga, o‘z fanini puxta o‘rganishga yo‘naltiradi. Avvalgi o‘quv dasturlari mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo‘lib, o‘qitish metodikasi yodlatishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, yangi Milliy o‘quv dasturining mazmuni esa 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat bo‘lib, o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Savodxonlik	Kompetensiyalar	Xarakter sifatlari
		
Til bilish	Kreativ fikrlash	Qiziquvchanlik
Matematik savodxonlik	Kreativlik	Tashabbuskorlik
Tabiiy-ilmiy savodxonlik	Kooperatsiya	
Moslashuvchanlik		
AKT savodxonligi	Komunikatsiya	Liderlik
Moliyaviy savodxonlik		Qat’iyatlilik
Fuqarolik va madaniy savodxonlik		Ijtimoiy va madaniy xabardorlik

O‘quv dasturlarida baholash jarayoni faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida esa o‘quvchilarda shakllangan ko‘nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o‘quv yuklamalari optimallashtirilib, o‘quvchilarning qiziqishiga ko‘ra fanlarni tanlab o‘qish imkonini beruvchi variativ o‘quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni yaratiladi.

Milliy o‘quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o‘qitiladi. Ya’ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo‘naltirilgan tarzda kiritilgan.

Masalan, yangi dastur asosida ishlab chiqilgan tabiiy fanlar negizida ham integrasiya asosida STEAM yondashuv mavjud, Ya’ni, tabiiy fanlar o‘z ichiga biologiya, giografiya, fizika va astronomiya, kimyo, matematika predmetlarini qamrab oladi hamda ularning integratsiyasini ta’minlaydi.

Milliy o‘quv dasturi asosida STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o‘tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o‘z g‘oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta’lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi.“Loyihalar metodi”ni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, farqini ajrata olish, ijodkorlik, sog‘lom muloqot, bahs-munozara, vaziyatni to‘g‘ri baholay olish kabi ko‘nikmalari shakllanadi.

Ya’ni:

Loyihalash texnologiyasi	**Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi**	**STEAM ta’lim texnologiyasi**
Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va muammoni hal etish yo‘llarini ko‘rsatish	Hamkorlikda o‘qitish darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o‘z fikrini bayon etish, asoslash, mantiqiy fikr yuritish ko‘nikmalari shakllantiriladi	STEAM- integratsiyalashgant a’limnio‘zida mujassam etadi. STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosda o‘quvchilarga ta’lim tarbiyaberish. Fanlararo bog‘lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan.

Misol tariqasida. “Loyihalar metodi”ni qo‘llash asosida dars namunasini keltirib o‘tamiz:


1-sinf. Tabiiy fanlar. 7-bob. YER VA KOINOT.

Quyosh yer yuzini yoritadi va isitadi. Quyosh nuridan tog‘, yaylov, o‘rmon va cho‘llardagi o‘simliklar o‘sadi. Yer quyoshga qaraganda juda kichik. Ona zaminimiz – Yer sharsimon shaklga ega. Yer yuzini o‘rganish uchun globusdan foydalanamiz. Oy katta va chiroyli. Oyda kislorod yo‘q. Oy kunduzi quyoshga yaqin, kechqurun uzoq bo‘ladi. Quyosh, yer va oy ular jonsiz tabiatning tarkibiy qismlaridir. Biz bugungidarsimizda guruhlarda guruhlarga bo‘linib, ishlaymiz. Bunda bir-birimizni fikrimizni tinglaymiz, kerakli joyda maslahatlahamiz, do‘stona faoliyat yuritamiz.

1-guruh.Quyosh tasvirini o‘zingiz tasavvur qilgan rangda bo‘yang. Quyoshga ta’rif bering va u haqida qo‘shiq kuylab bering.

Quyosh

Quyosh buncha shoshasan,
Bulutlardan oshasan.
Botmay tursang bo‘lmasmi?
Yoki onang kunmasmi?
Shoshma, bir oz, botmay tur,
‘‘Yotog‘inga’’ ketmay tur.
Botmay tursang, juda soz,
O‘ynab olaman bir oz.
So‘ngra mayli botsang ham,
Yotog‘inga ketsang ham!





2-guruh. Oy tasvirini bo‘yang. Oy haqida ma’lumot va maqollardan ayting.





3-guruh.Gaplarni mos so‘zlar bilan to‘ldiring. Shu so‘zlarni qatnashtirib, “Tabiat va men” mavzusida qisqagina hikoya tuzing.


O‘simliklar _____ o‘sadi.
Tunda _____ ko‘rinadi.
Kunduzi _____ nur sochadi.
Odamlarda _____ da yashaydi.
Osmonda _____ charaqlaydi.

4-guruh.Yer shari rasmini o‘zingiz tasavvur qilgan rangda bo‘yang.





5-guruh.Ortiqcha harflarni o‘chirib, bo‘sh katakka to‘g‘ri so‘zni yozing. Siz qaysi multfilmda ularni ko‘rgansiz? Yodingizda qolganini aytib bering.



Quyosh, oy va yerni tasvirlash loyihasida.

O‘quvchida jonli va jonsiz tabiat haqidagi narsalarni farqlashni, u haqida ozroq fikr mulohaza yuritishni shakllantirishdir. Oy kechasi osmonda ko‘rinishi, Quyosh kunduzi chiqib olamni yorishi, Yer o‘z o‘qi atrofida aylanishini tushuntirishni turli usullar orqali o‘quvchiga yetkazib berishdan iboratdir. Aytolmaydigan fikrlarini bo‘yash, boshqotirma yechish, hikoya tuzish orqali ifoda etishi mumkin. Bu usullar o‘quvchini fanga qiziqtirishga yo‘naltirilgandir.


“Issiqlik va yorug‘lik manbalarini farqlash” loyihasi

1-sinf. Tabiiy fanlar. 8-bob. “Issiqlik,yorug‘lik va tovush”

28- mavzu:amaliy mashg‘ulot


Quyosh issiqlik manbai. Quyosh bizga issiqlik va yorug‘lik beradi. Yorug‘lik sababli atrofimizdagi barcha narsalarni ko‘ra olamiz. Yorug‘lik insonlar, hayvonlar va o‘simliklarning yashash va rivojlanishi uchun zarurdir. O‘quvchilarda bu manbalarni farqlashini quyidagi ishlar bajarish natijasida ko‘ramiz. Buning uchun o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib olamiz. Har bir guruh o‘z jamoasi bilan alohida ishlaymiz .

1-guruh.Quyidagi keltirilgan issiqlik manbalaridan uyingizda qaysilaridan foydalanasiz? Kerakli issiqlik vositasi yonidagi doirachani qizil rangda bo‘yang. Issiqlik manbaini qanday tejash mumkin? Bu haqida fikringizni yozing.




2-guruh.Yorug‘likning tabiiy manbalarini yashil, sun’iy manbalarini qizil qalamda bo‘yang. Yorug‘lik manbai haqida hikoya, ertak aytib bering.






3-guruh. Issiqlik va yorug‘lik manbalari bo‘ yicha o‘quvchilar tajriba o‘tkazishadi va o‘z fikrlarini bayon qilishadi.

	1) Stol chirog‘ini stol ustiga qo‘ying va yoqing
2)Oq va qora matolarni buklab, ularni orasiga termometrni joylang  	 Termometr
3) 5-6 minutdan so‘ng matolarni chiroq tagidan oling.	4.Matolar orasidagi termometrlar ko‘rsatkichni yozib oling.
Xulosa qiling:_____	

4-guruh. Chiroqlarni yorqin ranglarda bo‘yashadi varoq almashadi. Ulardan qaysi biri yonishini topishadi? Chiroqlarga atab she’r yoki qo‘shiq ham aytishadi.



Javobingizni yozing.






5-guruh. Quyida keltirilgan ta’riflarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘risini katakchaga belgilaydi va issiqlik manbaini topishadi. Shundan so‘ngi ssiqlik manbai haqida tavsiyalar yozishadi.

T/r	Ta’rif	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1.		Yorug‘lik ta’sirida qora mato oq matoga nisbatan ko‘proq qiziydi	
2.		Yorug‘lik shaffof jismlardan yaxshi o‘tadi	
3.		Yorug‘lik hayvonlar uchun zarur emas	
4.		Ko‘zlarimizni yumganda ham yorug‘likni ko‘ra olamiz	
5.		Issiqlikni faqat Quyoshdan olamiz	

Zamonaviylik va milliylik mujassam bo‘lgan yangi darsliklar esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni ona Vatanimizga muhabbat va sadoqat ruhida, fidoyi insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ta’limda STEAM yondashuv: maqsad, jarayon va istiqbolli rejalar”xalqaro onlayn ilmiy-amaliy seminar materiallari, Samarand, 2020-yil 30-sentabr,https://t.me/STEAMprogram.

2. “Fan, texnologiya,muhandislik va matematika (STEM) bo‘yicha O‘zbekiston uchun seminar”materiallari, 2020-yil, 24-sentabr.

3. Raximqulova, M. (2021). TA’LIMGA INNOVATSION YONDASHUV–O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 118-121.

Qahramon ESHQORAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

INFORMATIKANI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI VA LOYIHALASH KURSINI KLASTERLI YONDASHUV ORQALI O‘QITISH

Annotatsiya

Maqolada ta’lim texnologiyalarining ilmiy xarakterdaligiga e’tibor qaratgan holda uning amaliy yo‘nalishga xosligi, aniq masalalarni hal qilishda qo‘llash mumkinligi ochib berilgan. Nazariyani o‘quv amaliyoti bilan bog‘lash zaruriyati va ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslarini o‘rganish zamonaviy ta’lim texnologiyalarni aniqlab beradigan qator holatlarni belgilashga imkon berishi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar. Klaster, klasterli yondashuv, ta’lim texnologiyalari, verbal intelekt, noverbal intelekt.

Особое внимание уделяется на научности образовательных технологий, в статье раскрывается их практический характер и возможность использования при решении конкретных задач. Научно обосновано, что необходимость соединения теории с образовательной практикой и изучение теоретических основ образовательных технологий позволяют определить ряд ситуаций, определяющих современные образовательные технологии.

Ключевые слова. Кластер, кластерный подход, образовательные технологии, вербальный интеллект, невербальный интеллект.

Focusing on the scientific nature of educational technologies, the article reveals its practical nature and the possibility of its use in solving specific problems. It is scientifically based that the need to connect theory with educational practice and the study of the theoretical foundations of educational technologies allow defining a number of situations that determine modern educational technologies.

Key words. Cluster, cluster approach, educational technologies, verbal intelligence, non-verbal intelligence.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash ta’limga texnologik yondashuvni talab etadi. Bunda bevosita ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish metodlarini keng joriy etish, ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Respublikamizni rivojlantirishning uzoq muddatli ssenariylarini hisobga olgan holda innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda davlat va jamiyat qurilishiga joriy etish, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta’minlovchi ilmiy tadqiqotlar va ilg‘or texnologiyalarning ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarini rivojlantirishga zarurat mavjud. Hozirgi vaqtda agrar soha mutaxassislarini tayyorlashda ta’limning zamonaviy texnologiyalarini izchil joriy etish hayotiy zarurat bo‘lib qolmoqda.

Innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarning ishlab chiqishni tashkil etish, ilmiy izlanishlar natijalarini targ‘ib qilish va amaliy foydalanish mexanizmlarini shakllantirishda ta’lim texnologiyalarining o‘rni va salmog‘i yuqoriligini ta’kidlash lozim. Ilmiy salohiyatni

oshirish va samarali foydalanish, ularni rivojlantirishda fan va texnologiyalarning hissasini oshirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. “Ta’lim jarayonida oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalari, o‘qitishning innovatsion metodlarini keng joriy etish...” zarurligi ta’kidlanadi. Bu esa ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish asosida yanada takomillashtirishga olib keladi.

Bugungi kunda innovatsion pedagogik jarayonlar ta’lim muassasasi o‘quv faoliyatining muhim komponentlaridan biriga aylanib bormoqda. Chunki innovatsion pedagogik jarayonlar ta’lim xizmatlari bozorida nafaqat u yoki bu ta’lim muassasasining raqobatbardosh bo‘lishiga asos yaratadi, balki, o‘qituvchi va o‘quvchi shaxsini intensiv rivojlantirish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati va muloqotini demokratlashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, o‘quvchini faol ta’lim olish hamda o‘zini shakllantirishga yo‘naltirish, ta’lim texnologiyalari, metod va vositalari hamda ta’limning moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash kabi vazifalarni bajaradi, pedagoglarning kasbiy mahorati, ularning ijodkorligi, izlanuvchanligining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlaydi, o‘quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida muhim o‘rin tutadi.

Ta’lim texnologiyalarining ilmiy xarakterdaligiga e’tibor qaratgan holda, uning amaliy yo‘nalishga xosligini, uni aniq masalalarni hal qilishda qo‘llash mumkinligini e'tirof etish kerak. Demak, nazariyani o‘quv amaliyoti bilan bog‘lash zaruriyatini va ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslarini o‘rganish zamonaviy ta’lim texnologiyalarni aniqlab beradigan qator holatlarni belgilashga imkon berdi:

– zamonaviylik ta’lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajriba sinovlarda tekshirilgan, tahlil qilingan hamda tasdiqlangan didaktikaga oid

– yangiliklarni, tartib qoidalarni joriy etish majburiyligini taqozo etadi;

– o‘quv jarayonini maqbullashtirish;

– ilmiylik ta’limda yangi vositalar va metodlar, didaktik materiallar hamda tashkiliy masalalarning yangi yechimlarini qo‘llash lozim;

– talaba va professor o‘qituvchilarning faoliyatida yuqori hamjihatlikni ta’minlash va kerakli natijalarni qo‘lga kiritishga intilishni talab etadi;

– ta’limni faollashtiruvchi axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy belgilaridan biri hisoblanadi;

– o‘quv jarayoni uchun moddiy-texnik bazaning maqsadga muvofiqligi pedagogik texnologiyalarning navbatdagi ko‘rinishidir;

– o‘quv-tarbiyaviy jarayon natijalarini sifatli baholash pedagogik texnologiyaning o‘z oldiga qo‘ygan natijaviy maqsadidir.

Ta’lim texnologiyalari o‘zining pedagogik va boshqa fan yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega. U birinchi navbatda, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan. Ikkinchidan, o‘qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan, yangi innovatsion metodlardan keng foydalanishga asoslangan pedagog va talabalarning birgalikdagi samarali faoliyatiga zamin yaratadi.

Yuqoridagi qoidalardan kelib chiqib fikr yuritadigan bo‘lsak, ta’lim texnologiyalarning predmeti – ta’lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, o‘quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta’lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topgan. Ma’lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir. Pedagogik tizim o‘zaro bog‘liq bo‘lgan

vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta’sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi.

Ta’lim texnologiyasi – keng sohadir. Ta’lim texnologiyasini o‘rganish, o‘qitishni tashkil qilishning asoslarini o‘rganuvchi, loyihalash fani yoki turli tadqiqot qiziqishlari majmuasi sifatida olinishi mumkin. Shuning uchun ta’lim texnologiyasi turli xil fanlardan olingan nazariy bilimlarga (kommunikatsiya, ta’lim, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, sun’iy intellekt, informatika va h.k.) hamda ta’lim amaliyotidan olingan amaliy bilimlarga tayanadi. Texnologiya ta’lim tizimining o‘rganish jarayonlariga va uning ko‘rsatgichlarini oshirishga ko‘maklashadi bunda ta’lim samarali bo‘ladi. Hozirgi texnologiyalar kompyuterlarda video yozuvlarni amalga oshirish hamda o‘zingizning raqamli kamerangizdagi rasmlarni onlayn tarzda oilangiz va do‘stlaringiz bilan baham ko‘rishingiz mumkin. Bu va shunga o‘xshagan texnologiyalar bugungi kundagi hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi.

Aynan ana shu mazmunda “texnologiya” termini va uning “o‘qitish texologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi”, “ta’limda texnologiya” shakllari pedagogik adabiyotlardan foydalanila boshlandi va mualliflar ta’lim texnologik jarayonining tuzilishi va tashkil etuvchilarini qanday tasavvur etishlariga qarab ko‘plab ifodalarga ega bo‘ldi.

O‘qituvchining samarali faoliyat ko‘rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o‘laroq, ta’lim texnologiyasi ta’lim oluvchilar faoliyatiga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lib, u talabalarning shaxsiy hamda o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Bugungi kunda informatika va axborot texnologiyalari o‘qitishning zamonaviy ta’lim texnologiyalari va metodlari turlicha bo‘lib, ular:

1) ilmiy izlanish metodlari (kuzatish, tajriba, taqqoslash, analogiya, analiz va sintez, umumlashtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish va klassifikatsiyalash);

2) o‘qitish metodlari (izohli-ko‘rgazmali, namoyish, kitob bilan ishlash, reproduktiv, evristik (o‘quv kashfiyoti), muammoli vaziyat, tadqiqot, loyihalash metodi, muayyan vaziyatlarni o‘rganish (keys-stadi) metodi, ma’ruza, hikoya, og‘zaki yo‘l-yo‘riq berish, tushuntirish, suhbat metodlari, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishi;

3) xulosa chiqarish metodlari (induksiya, deduksiya va analitik metod).

Avvalo "interfaol (interaktiv)" tushunchani aniqlashtirib olaylik. ‘‘Interaktiv’’ degan so‘z inglizcha “interact” so‘zidan kelib chiqqan. “Inter” – o‘zaro, “act” – ish ko‘rmoq, ishlamoq degan ma’nolarni anglatadi. Shunday qilib, interfaol o‘qitish – bu, avvalambor muloqotli o‘qitish bo‘lib, jarayonning borishida o‘qituvchi va o‘quvchi orasida o‘zaro ta’sir amalga oshiriladi.

Interfaol o‘qitishning mohiyati o‘quv jarayonini shunday tashkil etadiki, unda barcha o‘quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. Bilish jarayonida o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati deganda, ularni har birining o‘ziga xos aloqada individual hissa qo‘shishi, o‘zaro bilimlar, g‘oyalar va faoliyat usullari bilan almashinishlari tushuniladi. Shu bilan birga, bularning hammasi o‘zaro xayrixohlik va qo‘llab – quvvatlash muhitida amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida yangi bilimlarni olishgagina imkoniyat bermasdan, balki bilish faoliyatining o‘zini ham rivojlantiradi, uni yanada yuqoriroq koopersiya va hamkorlik pog‘onalariga olib chiqadi. Interfaol metod bitta so‘zga chiquvchining, shuningdek, bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishini chiqarib tashlaydi. Dialogli o‘qitish jarayonida o‘quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarni va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko‘rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, diskussiyalarda ishtirok etishga, boshqalar

bilan muloqat qilishga o‘rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o‘yinlar qo‘llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi, ijodiy ishlar qo‘llaniladi. Interfaol o‘qitishni tashkil qiluvchilar uchun, sof o‘quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

– guruhdagi o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari jarayonida boshqalarning qadriyatlarini tushunishi;

– boshqalar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lishi va ular yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;

– o‘quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish shuning uchun interfaol o‘qitish guruhlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan ikkita asosiy funksiyalar amalga oshirilishi lozim:

– o‘qitishning pragmatik jihati qo‘yilgan o‘quv masalasini yechishlikning shartligi;

– tarbiyaviy masalalarni yechish (hamkorlikdagi ish jarayonida guruh a’zolariga yordam ko‘rsatish, xulq-atvor normalarini shakllantirish). Ushbu faktni alohida qayd etish lozimki, o‘qitishning barcha interfaol usullarini verbal intellekt (og‘zaki) va noverbal intelekt (tasvirli)larga ajratish mumkin. Verbal intelektlarga quyidagilar kiradi:

– vizual: yuz ifodasi, gavdaning holati, harakatlar, ko‘zlar orqali aloqa;

– akustik: intonatsiya, ovoz balandligi, tembr, nutq tempi, tovush balandligi, nutqiy pauzalar va hokazo. Verbal intelektlar orasidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

– “oxiri ochiq” bo‘lgan savollar, ya’ni yagona “to‘g‘ri” javobga ega emas, balki muammo (savol) bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni bayon qila olishga yo‘naltirilgan savollarni bera olish qobiliyati;

– o‘quvchilar bilan muloqotda o‘qituvchi tomonidan o‘zining nuqtayi nazarini hal qiluvchi nuqtayi nazar deb emas, balki neytral deb aniqlanishi lozim. Bu narsa mashg‘ulot paytida o‘quvchilarga qo‘rqmasdan “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” nuqtai nazarlarini bayon etish imkoniyatini beradi;

– mashg‘ulot va o‘z-o‘zini tahlil qilishga tayyorgarlik. Ushbu holat mashg‘ulotlarda nima?, qanday? va nima uchun? sodir bo‘lganini, o‘zaro faoliyat qaerda “osilib” qolganini, u nima bilan bog‘liq ekanligini, keyinchalik bunday holatlarning ro‘y bermasligi uchun nimalar qilish kerakligi va boshqalarni tushunib olishga yordam beradi;

– mashg‘ulotning borishini, uning kulminatsiyasini, natijaviyligini va boshqa kuzatish imkonini beruvchi yozma xotiralarni yozib borishi.

Birinchi bo‘limga alohida e’tibor qaratishni istar edik. O‘qituvchining savoli – bu o‘quvchining tafakkurini o‘stirish yoki rivojlantirish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Savolning ikki xil turi mavjud (interfaol o‘qitish nuqtai nazaridan).

1. O‘quvchining fikr doirasini chegaralab, uni bilganlarni oddiy qayta tiklashga keltirib qo‘yadigan savollar. Bunday savollar fikrlash jarayonini to‘xtatib turishga xizmat qilib, o‘quvchiga uning fikri hech kimni qiziqtirmasligini tushunib yetishiga olib keladi;

2. Fikr yuritish, o‘ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi savollar hisoblanadi.

Bunday savollar fikrlash darajasini ko‘tarish bilan birga, o‘quvchilarda ularning ham fikri qimmatga ega ekanligiga ishonch uyg‘otadi.

Interfaol metodlar bo‘yicha o‘qish jarayonini tashkil etilganda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan yana bir holat, bu vazifaning mazmuni. Vazifaning mazmuni o‘qitishning an’anaviy shakllariga qaraganda boshqacharoq bo‘lishi lozim. Masalan, guruhga darslikdagi ma’lum bir paragraf konspektini olish vazifa sifatida berilishi maqsadiga muvofiq emas, chunki har bir o‘quvchi bu ishni o‘zi, mustaqil bajarishi mumkin. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki,

muammoni nostandart qo‘yilishigina, o‘quvchilarni bir-biridan yordam olishga, boshqalarning ham fikrini bilishga, natijada esa, guruhning umumiy fikrini shakllantirishga undaydi. Masalan, dasturlashga oid masala yechilganda, uni kichik masalalarga bo‘lish mumkin. O‘quvchilarni ham kichik guruhlarga bo‘lish va har biriga kichik masalani yechishni va dasturini tuzishni tavsiya etish mumkin. Dars oxirida guruhlarning kichik masalalarini yechimlari asosida berilgan masala yechishini tashkil qilish lozim. Buning natijasida bitta dars davomida murakkab masalani yechish va unga ko‘proq o‘quvchilarni jalb qilish mumkin bo‘ladi.

Klaster texnologiyasini individual va guruhda ishlaganda qo‘llash mumkin. Klasterlarga ajratish texnologiyasi uncha murakkab emas. U metodik jihatdan: doskaning o‘rtasiga ochqich so‘z yozish; o‘quvchilarni xayoliga kelgan so‘z bilan bog‘liq so‘z va jumlalarni uning atrofiga yozish; yangi g‘oyalar paydo bo‘lishi bilan xayoliga kelgan so‘zlarni ham darhol yozish; so‘zlarni yozish jarayoni o‘qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so‘z va tushunchalar tugaguncha davom etadi. Ta’lim klaster texnologiyasini foydalanish uchun bir qator: xayoliga kelgan fikrlarining sifatiga e’tibor bermasdan yozish, orfografiya va boshqa omillarga e’tibor bermaslik, vaqt tugaguncha, iloji boricha to‘xtamasdan yozish, imkon darajasida ko‘proq bog‘lanishlar hosil qilishga harakat qilish kabi qoidalarga rioya qilish zarur bo‘ladi. Bunda g‘oyalar va so‘zlar sonini cheklab qo‘ymaslik lozim.

Xulosa tarzda ta’lim texnologiyalari, loyiha va loyihalash nazariyalari, ta’lim tizimidagi yangi yondashuvlar, “Informatika o‘qitish texnologiyalari va loyihalash” fani maqsad vazifalari hamda kursini o‘qitishning shakli va metodlarini ilmiy-uslubiy tahlil qilish hamda mavjud pedagogik nazariyani inobatga olish ta’lim klasteri sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning verbal intellektini rivojlantirishda pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Высотский Л. С., Лурия А. Р. Этюды по истории поведения. – М., 1993. – С. 224

2. Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari. Fil.fan.nom.dissertatsiyasi. – Samarqand, 1993. – 140-b.

3. Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974.– С. 79.

4. Николаева Г. М., Успенский Б. А. Языкознание и паралингвистика // Лингвистические исследования по общей и славянской типологии. – М., 1966.

5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jild – T.: Akademnashr, 2012. 1 jild. – 416-b.

Rushana TUXTASHEVA,
Samarqand davlat universiteti,‘‘Fakultetlararo pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA’LIMNING INTERAKTIV MULOQOT BILAN UZVIY BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada biz zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalar bugungi kunda masofadan o‘qitish shaklining asosini tashkil etib, bu jarayonda butun faoliyat axborot masalasiga qaratilishi haqida fikr yuritamiz.

Kalit so‘zlar. Masofaviy ta’lim, elektron ta’lim, ta’limni boshqarish tizimi, o‘quv kontentini boshqarish tizimi, bosma va elektron nashrlar, LMS, VLM.

В данной статье речь идет о том, что современные информационно-компьютерные технологии, Интернет, цифровые и широкоформатные телекоммуникации сегодня составляют основу дистанционного обучения, и вся деятельность в этом процессе ориентирована на информацию..

Ключевые слова. Дистанционное обучение, электронное обучение, система управления образованием, система управления учебным контентом, печатные и электронные издания, LMS, VLM.

The article extensively covers the content of specific aspects of the development of methodological competencies of teachers of preschool educational institutions. The readiness of the teacher of preschool educational organizations to carry out pedagogical activities is related to his knowledge, skills and abilities that provide, through the acquired professional competencies, the solution of pedagogical problems arising in the process of preschool education.

Key words. Professional competence, pedagogical skills, mastery, modular learning technology, pedagogical activity.

Masofadan o‘qitish tarixiga nazar tashlasak, uning rivojlanishi axborotlarni qayd etish va yetkazish maqsadida paydo bo‘lgan imkoniyatlar bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin.

Masofadan axborot uzatish tushunchasini turli jarayonlarga oid holatlar va voqelikni ifodalovchi ibtidoiy tasvirlar (tosh tasvirlar)ning mohiyati hamda yozuvning paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘lash mumkin. Insoniyat tomonidan ma’lum axborotlarni qayd etish, makon va vaqt oraliqlarida uni o‘zidan boshqalarga yetkazishga qaratilgan bunday ijodiy faoliyat natijasida axborotni uzatish va tarqatishning birlamchi usuli yuzaga keldi, bu esa insonlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishning dastlabki bosqichini boshlab berdi. O‘rta Osiyoda mahalliy aholining xorazmiy, bohtariy, sug‘diy, qadimgi turkiy yozuvlari orqali toshga, sopolga, charmga, yog‘ochga, metallga, qog‘ozga va boshqa buyumlarga bitilgan shaxsiy maktublar, xo‘jalik, huquqiy va diplomatik hujjatlar, diniy, axloqiy-falsafiy matnlarning parchalari, numizmatika materiallari (tanga yozuvlari)da aks ettirilgan axborotlar, nafaqat makon (o‘z davriga nisbatan), balki vaqt (bizgacha bo‘lgan davrga nisbatan) masofasini ham bosib o‘tgan.

Masofadan turib berilayotgan axborot sifatida maktub yoki she’riy asarlarni ham

sanash mumkin. Shu bilan birga, O‘rta Osiyoda yashab o‘tgan mutafakkirlarimiz tomonidan masofadan turib berilayotgan axborotlarida o‘qitish, o‘rgatish, ma’lum jarayonni boshqarishga yo‘naltirilgan, rasmiy, hissiyotlardan holi, lo‘nda va tushunarli ma’lumotlar aks etgan yozuvlarni ham uchratish mumkin.

Qo‘lyozma shakldagi yozuvlarni ko‘paytirish, ko‘pchilikka va ko‘p hududga yetkazish, sifatli saqlash kabi kamchiliklari bosma nashrlar paydo bo‘lishi bilan barham topdi va shu sababli u odamlarning hayot tarziga shiddat bilan kirib bordi. Yozma axborotni qayd etish va tarqatish uchun arzon material – qog‘oz olinib, XV asr o‘rtalarida ko‘chma literli bosma dastgohning yaratilishi bilan nashr ishlari avj oldi. Bu paytda turli mamlakatlarda axborot yetkazishda muhim vosita hisoblangan pochta aloqasi rivojlanib bordi va XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib yevropaning qator davlatlari hamda Amerikada pochta tizimi orqali yozuv va bosma nashrlardan foydalanib, masofadan o‘qitish rasmiy amalga oshirila boshlandi. Bunday ko‘rinishdagi ta’lim korrespondent ta’lim deb yuritilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida fonoavtograf, fonograf, grammofon kabi ovozli qurilmalarni yaratilishi axborot almashishning yangi davrini boshlab berdi. Ovoz yozish qurilmalarining takomillashib borishi natijasida ovozli axborotlarning axborot qabul qiluvchiga ta’sirini oshirish, bir axborotni ko‘pchilikka va ko‘p hududga yetkazish, voqelik ro‘y berayotgan jarayonning ovozini saqlash imkoniyatlari yuzaga keldi.

Oliy ta’lim o‘quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatidan foydalangan xolda ta’lim olish mumkin.

Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba onlayn va oflayn rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa “vertikal o‘quv guruhi” talabalari bilan muloqotda bo‘ladi. Ma’lum sabablarga ko‘ra, ta’lim muassasalarining kunduzgi bo‘limlarida tahsil olish imkoniyati bo‘lmagan, masalan, sog‘ligi taqozo etmaydigan, mutaxassisligini o‘zgartirish niyati bo‘lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo‘lgan kishilar uchun masofaviy o‘qitish qulay o‘qitish shakli hisoblanadi. Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya’ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog‘liq.

Masofaviy o‘qitish tizimi – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Nima uchun masofaviy ta’lim kerak bo‘lib qoldi? – degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

Ta’lim olishda yangi imkoniyatlar (ta’lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog‘liqmasligi va boshqalar).

Elektron ta’lim, xususan, masofaviy ta’lim jarayonini qo‘llash asosan ikki xil ko‘rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti bu texnik jihozlar bo‘lsa, ikkinchi sharti maxsus dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlanganligidir (1-rasm):

1. Texnik jihozlar bilan ta’minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qurilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, videokonferensiya jihozlari va hokazo.

2. Dasturiy ta’minotga shu soha uchun mo‘ljallangan dasturlar to‘plami kiradi.

Masofaviy ta’limni tashkil etishda o‘quv jarayonini boshqaruvchi tizimlar asosiy o‘rin

tutadi. Xorijiy adabiyotlarda1 keltirilgan o‘quv jarayoni boshqaruv tizimlarining quyidagi abbreviaturalaridan foydalanamiz:

– LMS – Learning Management System (ta’limni boshqarish tizimi);
– CMS – Course Management System (o‘quv kursini boshqarish tizimi);
– LCMS – Learning Content Management System (o‘quv kontentini boshqarish tizimi);
– MLE – Managed Learning Environment (boshqaruvchan ta’lim muhiti);
– LSS – Learning Support System (o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash tizimi);
– LP – Learning Platform (o‘quv jarayoni platformasi);
– VLE – Virtual Learning Environments (virtual o‘quv jarayoni muhiti).

Yuqorida keltirilgan o‘quv jarayoni boshqaruv tizimlarining jahonda eng keng tarqalgan LMS va LCMS tizimlari hisoblanadi.

O‘quv jarayonini axborotlashtirish XX asr 80-yillarining boshlaridan LCMS va LMS-lardan boshlab, personal o‘quv jarayoni muhitlarigacha (PLE – Personal Learning Environments) ulkan yo‘lni bosib o‘tdi. Buning natijasida ta’lim oluvchilar uzluksiz mustaqil ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

LMS har bir talabaga materialni birmuncha samarali o‘rganish uchun maxsus (personal) imkoniyatni, o‘quv jarayoni menejeriga esa ushbu jarayonni ma’muriy jihatdan boshqarishi uchun zarur vositalarni taqdim etadi. LMS administratorining funksional vazifasi foydalanuvchilarni tizimga va o‘quv kontentidan foydalanish huquqiga ega bo‘lishini qayd etish va nazorat qilish; ta’lim oluvchilarni ularga umumiy kurslarni taqdim etish va hisobot olib borishi uchun o‘quv guruhlarini tashkil qilish; auditoriya va professor-o‘qituvchilar resurslarini boshqarish va boshqa vazifalardan iborat.

Shuningdek, LMS o‘quv jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, test sinovlari, ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi ish vositalarini ham integrallashgan tarzda qo‘llab-quvvatlaydi.

LMS o‘quv kontent taqsimoti va undan o‘quv jarayonida foydalanishga javob beradi. Bunday vazifalar toifasiga: o‘quv kurslarning izlash uchun qulay bo‘lgan kataloglarini tashkil qilish, majburiy va tanlov o‘quv kurslarini ajratish, individual o‘quv traektoriyalarini ishlab chiqish, o‘quv kontentini maqsadli taqdim etishning boshqa mexanizmlari, o‘qituvchi bilan o‘zaro munosabatda sinxron va asinxron muloqotni qo‘llab-quvvatlash kabilar kiradi. LMSda ta’lim oluvchilarni ta’lim traektoriyasi bo‘ylab harakatlanishi to‘g‘risida hisobot tayyorlash va nazorat qilish.

Moodle veb-sayti qo‘llab-quvvatlash platformasidan foydalanuvchilarga bepul amalga oshiriladi. Moodle tizimining muayyan doirada funksionallarini kengaytirish imkoniyatlari taqdim etilgan. Vebinar, veb-anjumanlarni tashkil etish uchun tarkibiy qism tizimlarning integratsiyalashuvi hisobiga Moodle funksional imkoniyatlarining sezilarli darajada kengayishiga erishish mumkin. Moodle tizimini qo‘llab-quvvatlash va dizayn namunalaridan tashqari, quyidagi keltirilgan modullarga ham ulanish mumkin:

– o‘quv kurs elementi;
– o‘zlashtirish bo‘yicha hisobotlar;
– administrator hisoboti;
– fanlar bo‘yicha baholarni eksport qilish;
– topshiriq tipi;
– fanlar bo‘yicha baholarni olish;
– autentifikatsiya plaginlari;
– portfolio;
– nazorat materiallari bo‘yicha savollar turlari;

– o‘quv kursi formatlari;
– import/eksport topshiriqlari formati;
– o‘quv kursi bo‘yicha hisobotlar;
– nazorat natijalari bo‘yicha hisobotlar;
– ma’lumotlar bazasi maydonlari;
– fayl saqlagichlar;
– o‘quv kurslariga yozilish plaginlari;
– resurs turlari;
– filtrlar;
– ma’lumot izlash plaginlari.

Moodle LMS virtual muhiti turli dasturlar asosida o‘qiydigan odamlar uchun interaktiv harakatlarni yaratish vositasi sifatida butun jahon o‘qituvchilari orasida juda mashhur bo‘lib qoldi. Ayni paytda Moodle virtual muhitiga oliy ta’limda samarali o‘qitish usuli sifatida qarash mumkin.

Pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

– masofaviy o‘quv kurslari va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarning birlashuvi;

– pedagoglar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishi;

– ta’lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring qilishni taqozo etadi.

Oliy ta’limda masofaviy ta’limning keng joriy etilishi:

● talabalar kasbiy bilimlarni egallashi;

● o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasining chuqur o‘zlashtirilishi;

● o‘quv faoliyatining xilma xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishi;

● interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirish;

● sun’iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish strategiyasini egallashi;

● axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishi;

● o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqish va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, ta’lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta’limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, ta’lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi.

Ta’lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi:

– ta’lim olishni xohlovchilar sonining ortishi;

– sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi;

– xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Yuqorida sanab o‘tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o‘qitishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Masofaviy o‘qitishning ta’lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo‘lib, ular quyidagi qo‘llanish shartlari bilan farqlanadi:

– geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);

– mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;

– kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;

– ta’lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo‘llanish darajasi;

– ta’limda qo‘llaniladigan an’analari;

– masofaviy o‘qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

Umuman olganda masofaviy ta’limning maqsadiga quyidagilar kiradi:

– mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagi barcha o‘quvchilar, talabalar, ta’lim olishni xohlovchilarga birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish:

– yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta’lim muassasalarining ilmiy va ta’lim berish potensiallaridan foydalanish evaziga ta’lim berishning sifat darajasini ortishi;

– asosiy ta’lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo‘shimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish;

– ta’lim oluvchilarni ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va ta’lim muhitini kengaytirish;

– uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini yaratish;

– ta’lim sifatini saqlagan holda yangi prinsipial ta’lim darajasini ta’minlash.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, masofaviy ta’lim elementlarini ta’lim muassasalariga joriy etilishi ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilar uchun qulay. Ta’lim muassasalari uchun xarajatni optimallashtirish imkoniyatini beradi va hududlar aro o‘zaro chegaraviy ta’qiqlarni yo‘q qiladi. Talabalar uyidan uzoqda sarson bo‘lish va ortiqcha oilasi uchun xarajatlardan cheklanadi. Oliy ta’lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1989-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 16-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi hamda Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 250-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida Ta’lim muassasalarida elektron ta’limni joriy etish markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi 228-son qarori.

4. Aloyev R.D. va boshqalar. LMS-ta’limni boshqarish tizimlarining interaktiv imkoniyatlari (MOODLE tizimi misolida). Loyiha ishi. – T.: BIMM, 2016. –17-b.

Davlatboy JUMABAYEV,
Geologiya fanlari universiteti dotsenti
Shuxrat XUDAYBERDIYEV,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Qarshi filiali katta o‘qituvchisi

KLASTERLI TA’LIM MUHITIDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK KOMPONENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH SHAKLLARI

Annotatsiya

Maqolada pedagogik faoliyatning turli xil sifatlari va ko‘rsatkichlari, pedagogik faoliyat orqali o‘qituvchining pedagogik madaniyati darajasini, uning mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, informatika fanida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar talabalarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkon yaratishi haqidagi fikrlar tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar. Klaster, Komponentlik, kasbiy komponent, aksiologik komponent, texnologik komponent, ilmiy komponent, shaxsiy-ijodiy komponent, shaxsiy sifatlar, kreativlilik, akmeologik.

В статье раскрываются различные качества и показатели педагогической деятельности, уровень педагогической культуры педагога через педагогическую деятельность, ее содержание и сущность. Также дается анализ представлений о том, что занятия по информатике удовлетворяют стремление учащихся выразить свое отношение к важным жизненным достижениям и проблемам, дают возможность мыслить, обосновывать свою точку зрения.

Ключевые слова. Кластерность, Компонентность, профессиональная составляющая, аксиологическая составляющая, технологическая составляющая, научная составляющая, личностно-творческая составляющая, личностные качества, креативность, акмеологическая.

The article reveals various qualities and indicators of pedagogical activity, the level of pedagogical culture of a teacher through pedagogical activity, its content and essence. It also analyzes the ideas that computer science classes satisfy the desire of students to express their attitude to important life achievements and problems, give them the opportunity to think, justify their point of view.

Keywords. Clusterism, Competence, professional component, axiological component, technological component, scientific component, personal and creative component, personal qualities, creativity, acmeological.

“Klaster” o‘zbek tilida neologizm bo‘lganligi sababli 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmalarini qamrab olgan 5 jildli ‘‘O‘zbek tilining izohli lug’ati’’ga kiritilmagan. Shunga qaramasdan, so’nggi vaqtlarda ‘‘klaster’’ so‘ziga nafaqat iqtisodiyot, balki pedagogika sohasida ham tez-tez ro‘baro kelayotganimiz sir emas. Davlat rahbari tomonidan bot-bot tilga olinayotgan ushbu so‘z qanday tushuncha, ma’noni anglatadi, uning mohiyati nimadan iborat ekanligi haqida Ma’ruf Toshpo‘latov o‘z maqolasida quyidagicha so‘z yuritgan: ‘‘Klaster – ingliz tilidagi cluster’’ so‘zidan olingan bo‘lib, tarjimada guruu, to‘p, to‘plam, bog‘, shoda kabi ma’nolarni anglatadi. Mazkur atama kompyuter muhandisligida, musiqa, ta’lim, astronomiya, iqtisodiyot kabi sohalarda qo’llaniladi va vazifasi jihatidan bir-biriga bog‘liq va bir ‘‘marjon’’dek tizilgan obyektlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Klaster atamasi amerikalik iqtisodchi, Garvard maktabi professori, raqobat imkoni-

yatlarini o’rganish bo’yicha mutaxassis bo’lgan Maykl Yujin Porter tomonidan ilk bor qo‘llangan. U klasterga geografik jihatdan qo’shni bo’lgan, bir-biri bilan bog’langan, muayyan bir soxada faoliyat olib boradigan xamda bir-birining ishini to’ldiradigan korxona va tashkilotlar birlashmasi sifatida ta’rif bergan.

O‘zbek olimlaridan F.M. Muxamedovning ‘‘Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija’’ nomli maqolasida yanada kengroq yoritib berilgan.

Xodjamqulov Umid Negmatovichning ‘‘pedagogik ta’lim klasteri ilmiy-pedagogik muammo sifatida (pedagogik ta’limni klasterlashtirishning zarurati)’’ nomli maqolalarida ham taxlil qilngan.

Ta’lim muassasalarida ham klaster atamasi keng qo‘llanilmoqda. Ya’ni ta’limni ishlab chiqarish bilan birgalikda olib borish hozirgi kunning muxim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta’lim muassasasi bitiruvchisi o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg‘unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Informatika fani o‘quvchilarning bilim samaradorligini oshirish, dars va ta’lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish:

Birinchidan, tizimda yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini uzlyuksiz va sifatli ravishda oshirib borishga.

Ikkinchidan, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlariga asoslangan uzluksiz sifatli metodik xizmatni tashkil etishga.

Uchinchidan, mavjud fan xonalari, o‘quv laboratoriya asbob-uskunalar, jihozlar va kompyuter texnikasidan, umuman olganda, barcha shart-sharoitlardan samarali foydalanishga.

To‘rtinchidan, sifatli ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, oliy ta’lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va kasb-hunar kollejlari hamkorligida ilg‘or ish tajribalarini klaster asosida amaliyotga joriy etishga.

Eng asosiysi, pedagogik faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi va mahoratiga bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishni samarali qo‘llay olishi-kasbiy kompetentlikning eng asosiy komponentidir. Jumladan,

– dunyo va mamlakatda ta’lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, oliy ta`lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta’minlashda uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;

– kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– o‘quvchilarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh hususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta’lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;

– o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

– o‘quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog‘ligi, texnik hamda axborot xavfsizligini ta’minlashga tayyor bo‘lish;

– dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediaxavfsizlik me’yorlariga amal qilish.

‘‘Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi’’ g‘oyalarini amaliyotga tadbiq etish Respublika

ta’lim tizimida olib borilayotgan islohatlar muvaffaqiyatini ta’minlash ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog‘liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab va qiyin faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Xususan qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, eramizdan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o‘zining ma’naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a’zolari o‘rtasida yuksak hurmat va ehtiromga sazovor bo‘lgan kishilar donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgandir. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamolatini balki jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlaridagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechyapti. O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko‘pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz .

Yuqorida qayd etilgan fikrlarda bugungi kun o‘qituvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglatadi. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi lozim?

O‘qituvchining shaxsiy kasbiy pedagogik yo‘nalganligi bu komponent tizimini tashkil etuvchi element hisoblanadi. U pedagogik jarayonning uning qiziqishlari, layoqati, ishonchi, g‘oyalari orqali pedagog faoliyatini insonparvarlashtirishga qaratilgan mustahkam sabablar to‘plamidan iborat bo‘ladi.

Pedagogik jarayonni tashkil etishda o‘qituvchining kasbiy pedagogik yo‘nalganligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– g‘oyalarni (pedagogik vazifalarni keng ko‘ra olishi, pedagogik fikrlashi, rivojlanishi, o‘zini rivojlantirish bilan shug‘ullanishi, pedagogik o‘zaro aloqalarda professionalizmga erishish);

– qiziqishlari (fanga qiziqishi, psixologik-pedagogik bilimlarini takomillashtirishi, o‘qituvchilarning ta’lim darajasini va umumiy ma’naviy madaniyatlarini oshirish);

– qadriyatli yo‘nalishlari (yuqori bilmga ega bo‘lish, tarbiyalash, o‘qituvchi va rivojlantirish jarayonlarida o‘quvchilarini faollashtirish);

– maqsadlari – bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatida natijalarga erishishga intilishlaridir.

Shunday o‘qituvchi shaxsining kasbiy pedagogik yo‘nalganligi o‘zida uning g‘oyalarini, qiziqishlarini, qadriyatli yo‘nalishlarini birlashtiradi va pedagogning shaxsiy sifatlarini moslashtirishi haqiqiy imkoniyatlarini, uning o‘quv-tarbiyaviy jarayon talablari kasbiy darajasini aks ettiradi.

Dasturchi pedagogining aksiologik komponentlari

Aksiologiya tushunchasi yunoncha so‘z bo‘lib, aksios-qadriyat, logos-ta’limot, so‘z, ya’ni qadriyatlar haqidagi ta’limot ma’nosini bildiradi.

Aksiologiya tushunchasi qadriyat va qadriyatlar haqidagi ta’limotga qaraganda, keyinroq paydo bo‘lgan. Mazkur tushuncha XIX asrning 2-yarmida nemis qadriyatshunosi Eduard Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan.

Qadriyat tushunchasi shaxsning “obyekt” sifatida aksiologik xarakteristikasini va umumiy aksiologik bosqichlari (mazmun, ma’no, ahamiyat, ehtiyoj, motivatsiya, qadriyatlar jamlanmasi)ni o‘z ichiga oladi.

Dasturchi pedagogining akseologik komponenti qadriyatlarga oid bilimlarni shakllantirish, xulq-atvor qadriyatlarini shakllantirish hisoblanadi.

Informatika tizimida pedagogik ziyraklik, O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li mohiyati, beshta tamoyil rivojlanishining ma’naviy-axloqiy negizlarini bilishi, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, peda-

gogik ijod, o‘z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarinj mukammal bilish, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o‘zbek xalqining an’analari, qadriyatlari, urf-odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma’naviyat, adabiyot va san’at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o‘lkashunoslik, texnikaga oid ma’lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo‘lish va hokazo.

Informatika pedagogining texnologik komponentlari

O‘qituvchilar fanlarini o‘qitishda darsning mazmuniga mediamadaniyat va mediaxavfsizlik tushunchalarini singdirib borishi, ularga axborot texnologiyalarining cheksiz ijobiy imkoniyalari, afzalliklari bilan bir qatorda salbiy ta’siri va oqibatlaridan o‘zini himoyalash yo‘llarini ham o‘rgatish lozim. Bunda o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini quyidagilarni inobatga olgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiq:

– axborotlarni saqlash, qayta ishlash, tarqatish va namoyish qilish tamoyillarini bilishi;

– ta’limda qo‘llash mumkin bo‘lgan texnik vositalar va ularning tavsiflarini bilishi;

– ta’lim jarayoni va ilmiy izlanishlarda Internetdan foydalanishi;

– ta’lim jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish metodologiyasini bilishi;

– dasturiy ta’minotning asosiy turlarini bilish va ulardan foydalanishi;

– fan sohasida ilmiy izlanishlarning dasturiy ta’minotidan foydalanishi;

– ta’lim jarayonida amaliy masalalarni yechishda axborot tarmoqlarini qo‘llashi;

– masofaviy ta’lim elektron o‘quv-metodik resurslaridan foydalanishi;

– multimediali hujjat va loyihalarni yaratishni bilishi;

– interaktiv interfeysning asosiy xossalari va vazifalarini tavsiflashi;

– turli darajadagi kompyuter tarmoqlarining imkoniyat va vazifalarini tavsiflashi;

– kompyuter tarmoqlari orqali olinadigan axborot xizmati va turlarini tavsiflashi;

– elektron pochta ishining asosiy tamoyillarini tushunishi;

– Internet ta’limiy resurslari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

– axborot va kommunikatsiya texnologiyalari tuzilmasi va ta’minotini, texnik va dasturiy vositalarini egallashi;

– pedagogik dasturiy vositalari va ularni yaratish tamoyillarini bilishi;

– pedagogik dasturiy vositalarnii yaratish texnologiyasini o‘zlashtirishi;

– pedagogik dasturiy vositalarni tanlay olishi;

– pedagogik dasturiy vositalardan o‘quv jarayonida samarali foydalana olishi.

O‘quvchilarda axborot texnologiyalarining hayot va jamiyatdagi roli, imkoniyatlari va qo‘llash doirasi, shuningdek, uning salbiy oqibatlari va ulardan himoyalanish haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

Informatika pedagogininig shaxsiy- ijodiy komponentalari

O‘qituvchi – maxsus pedagogik psixologik va mutaxassislik ma’lumotiga tayyorgarligiga, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlariga ega shaxs sanaladi.

Pedagogning shaxsiy-ijodiy komponentlari milliy mafkuraviy onglilik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlilik, o‘z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat’iylik, har qanday vaziyatda o‘zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik kelajakka ishonch, xushmuomalalilik kabi fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda yuqorida qayd qilingan milliy pedagogikaning faoliyatga tayyorlovchi shaxsiy-kasbiy sifatlariga ega qilib ta’lim va tarbiyalash lozim. Bu xususiyatlar kasbiy mahorat egasi bo‘lish va kadrlar tayyorlashning milliy dastur talablarini bajarishga yordam beradi.

Avvalo zamonaviy bilimlar, ilg‘or tajribalar hamda pedagogik mahoratni yuqori darajada egallaganligi, pedagogik izlanish vazifasiga mos tadqiqotlar metodlari majmuasini shakllantira olishi, nazariy tadqiqot va amaliy tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish malakasiga ega bo‘lishi namoyon bo‘lishi lozim.

O‘qitadigan o‘quv fanidan o‘quv dasturi, DTS, darsliklar va o‘quv metodik qo‘llanmalar, elektron darsliklar yarata olishi va amalda qo‘llay olishi lozim. O‘zining pedagogik faoliyatini doimiy takomillashtirib borishi, kasbiy sifatlarini rivojlantirishi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash malakasini egallashi, yangi pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqa olish, zamonaviy axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlari talablari asosida metod, shakl va vositalarni yaratish va ularni ta’lim jarayonida uzviy qo‘llash malakalarini bilishi kerak. O‘qituvchi odobli, adolatli hamda “bola qalbining injeneri”dir.

Bizning nazarimizda zamonaviy o‘qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘la olishi kerak:

– o‘qituvchi jamiyat, ijtimoiy, hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli, ma’lumotlarni berib borishi lozim;

– zamoanaviy o‘qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi;

– o‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim;

– o‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak;

– o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim;

– o‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi shart.

– o‘qituvchi yuksak darajada pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga, ega bo‘lishi, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olishga erishishi lozim;

– o‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to‘g‘riligi;

b) nutqning aniqligi;

v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofligi (uning turli sheva so‘zlaridan holi bo‘lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi, jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassislariga xos so‘zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o‘zga millatlarga xos so‘zlarning o‘rinsiz qo‘llanilishi), vulgarizm (haqorat qilish, so‘kishda qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rni bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy nutqda so‘zlar) so‘zlaridan holi bo‘lishi, o‘qituvchi nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi kerak;

d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (so‘zlash jarayonida maqsadga muvofiq tarzda hikmatli so‘zlar, maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan foydalana olish;

– o‘qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi; ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining turli xil diqqatni tez jalb etuvchi bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch

rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o‘zlashtirishga erishish) ega bo‘lishi lozim.

– o‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olishi lozim.

O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarni o‘zida aks ettira olgan qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

Informatika o‘qituvchisining funksiyalari quyidagilardan iborat: o‘qitish, rivojlantirish, tarbiyalash (mehnat, texnologik madaniyat, aqliy, jismoniy, axloqiy, ekologik, huquqiy, estetik, ma’naviy, jamoaviy), diagnostik, boshqaruvchi, muhandislik, nazorat qiluvchi, tadbirkorlik, konstruktor-texnologik, tashkiliy, loyihalash, kashfiyot-ratsionalizatorlik, informatsion, safarbarlik, tadqiqiy va boshqalar.

Pedagogik madaniyat imkoniyat yaratgan pedagogik tajribalarni egallab olish orqali ko‘p qirrali munosabatlar va muammolarni vujudga keltirishga yordam beradi, o‘zini anglashni, o‘zini takomillashtirishni ta’minlaydi.

Pedagogik madaniyat muammolari bo‘yicha F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmin, A.I.Sherbakov, A.A.Slastenin va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bu tadqiqotlarda pedagogik faoliyatning turli xil sifatlari va ko‘rsatkichlari o‘rganilgan va pedagogik faoliyat orqali o‘qituvchining pedagogik madaniyati darajasini, uning mazmuni va mohiyatini anglaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudayberdiyev Sh. K. “Improving methodology of using mobile technologies to improve the quality of education”Education and innovative research 2021. № 6. pp 334-339 https://interscience.uz/index.php/home/issue/view

2. Bill lucas. “How to teach vocational education: a theory of vocational pedagogy”. Centpe for skills development USA. 2012.

3. Исянов Р. Г. Кластерный подход в формировании модульной компетентности представителей высших образовательных учереждений. − Tashkent: TGPU, 2014. − 69 s.

4. Новые педагогические и информационныетехнологии и в системе образованмя / Pod red. YE.S. Polat. – M.: Izd. sentr «Akademiya», 2013.

5. Chen, S.J., Hsu, C.L. and Caropreso, E.J. (2016), “Cross-cultural collaborative online learning: when the west meets the east”, International Journal of Technology in Teaching and Learning, Vol. 2 No. 1, pp. 17-35.

6. “Malaka va innovatsion o‘zgarishlar samarali professional ta’lim tizimiga keng yo‘l ochmoqda” maqola. Zayniddin Xudoyberdiyev, Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. https://xs.uz/uzkr/post/malaka-va-innovatsion-ozgarishlar-samarali-professional-talim-tizimiga-keng-jol-ochmoqda.

7. “Yangi professional ta’lim — yangi missiya” maqola. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri o‘rinbosari Murodullo XOLMUHAMEDOV. 24.08.2020. https://review.uz/oz/post/yangi-professional-talim-yangi-missiya.

Dilafruz QURBONOVA,
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA TALABA QIZLARDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA OILA, TA'LIM MUASSASALARI VA MAHALLA HAMKORLIGI

Annotatsiya

Maqolada qizlarni temuriy malikalar merosi asosida yoshligidan tarbiyasiga e'tibor berish, ilmli qilish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakillantirish, kitob o'qishga da'vat etish haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar qizlarga ta'lim usuli, tarbiya nizomi, go'zal axloq, muomala usuli, o'zini tuta bilish odobi, zehnni poklash yo'llarini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Temuriy malikalar, o'smir qizlar, milliy qadriyat, ayollar ta'limi, kitobxonlik, Sharq allomalari, mahalla, oila, ta'lim, tarbiya, kitob mutolaasi, axloq-odob, afsona, rivoyat.

В статье рассказывается о воспитании девочек с раннего возраста на основе наследия тимуридских принцесс, о том, как сделать их образованными, воспитывать духовно-нравственные ценности, побуждать к чтению книг. Таким образом, духовно-нравственные ценности учат девочек основам образования, порядку воспитания, красивой морали, манере поведения, манерам самообладания, способам очищения ума.

Ключевые слова. Темурские принцессы, девочки-подростки, национальные ценности, женское образование, чтение, восточные алломы, махалля, семья, образование, воспитание, чтение книг, мораль, миф, повествование.

The article tells about the upbringing of girls from an early age based on the heritage of Timurid princesses, how to make them educated, educate spiritual and moral values, encourage them to read books. Thus, spiritual and moral values teach girls the basics of education, the order of upbringing, beautiful morality, demeanor, manners of self-control, ways to purify the mind. Keywords. Those sea princesses, teenage girls, national values, women's education, reading, oriental hello, mahalla, family, education, upbringing, reading books, morality, myth, narrative.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yilda ishlab chiqilgan – Oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasi asosida umumta'lim maktablari bilan o'zini o'zi boshqarish organlari va oila institutlari o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qoyilgan. Bu esa o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini o'z vaqtida aniqlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni ta'limning keyingi bosqichiga yo'naltirishda muhim omil bo'lmoqda. Ayni paytda ''oila-mahalla-maktab'' hamkorligi oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, ularda ulg'ayayotgan o'g'il-qizlarni zamon talablari asosida, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o'z samarasini berayotir. Oila-mahalla-maktab hamkorligining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati kattadir. Yigit-qizlarning oila haqidagi tasavvurini kengaytirishga xizmat qiladigan – Oila – muqaddas tushuncha, ''Oilaviy an'analar'', Ota va ona – oila tayanchi, ''Oilada sharqona sadoqat'' mavzularidagi ma'rifiy tadbirlar, tanlov va davra suhbatlari yoshlarimiz uchun har tomonlama foydali bo'lmoqda Ayniqsa, ta'lim maskanlarida o'tkazilayotga. Bola tarbiyasi – kelajak mevasi, Ilm ol, hunar

o‘rgan, Tanlagan kasbing – sening kelajaging hamda – Yetuk mutaxassis – kelajak mevasi mavzularidagi suhbatlar, savol-javob kechalari yaxshi samara beradi. Ushbu tadbirlarga malakali professor-o‘qituvchilar, iqtidorli talaba-yoshlar hamda ibratli oilalar vakillari jalb etilayotgani ularning ta‘sirchanligini oshirmoqda.

Oilalarning mustahkamligi va turmushning obodligi kelajak avlodning komil inson bo‘lib yetishi uchun tayanch hisoblanadi. Ushbu yilda ham ishlab chiqilgan Davlat Dasturi asosida hamkorlik ishlarini tashkil etish zarur. Bunda oilaning ham, maktab va mahallaning ham tashabbuskorligi va o‘zaro hamjihatliligi talab etiladi.

Oila kabi mahalla ham jamiyatini shakllantirishning ajralmas qismidir.

Vatanimiz tarixi guvohlik beradiki, o‘zbek jamiyatida jamoa bo‘lib yashashning sinalgan shakli mahalladir.

“Mahalla” so‘zi arabcha “Mahallun” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma’noni anglatadi. Mahalla shaharlar ichidagi kichik hududiy birlik bo‘lib, o‘tmishdan meros bo‘lib kelmoqda.

Bilamizki, tarixning turli davrlarida ayollarga bo‘lgan e’tibor alohidaligi bilan ahamiyatlidir. O‘zbekiston tarixi sahifalarida jangovar, shoira, olima, zukko ayollar ko‘p bo‘lgan. Ular hamisha o‘zlarining oqilona fikrlari, donishmandona maslahatlari bilan kishini hayratda qoldirgan. To‘maris, Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Xonzodabegim, Zebunisobegim kabi malikalar fikrimiz dalilidir. Xususan, Amir Temur hazratlari hamisha Bibixonim (Saroymulkxonim) so‘zlariga quloq tutganlar, maslahatlarini e’tiborga olganlar hamda temuriy shahzodalar asosan Bibixonim tarbiyasini olganlar. Malikalarning uzuk-muhrlari ham bo‘lgan. Buyukshoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida 72 ta ayol to‘g‘risida ma’lumot bergan .

Ma’naviyat – insonning hayot tajribasi, mehnati, bilimi, axloq-odobi, avlodlar tajribasi asosida shakllanib boradi. Ma’naviyat insonning hayoti va faoliyatiga maqsad va yo‘nalish beradi. Ma’naviyat insonning o‘z xalqi tarixini, uning madaniyatini chuqurroq bilishi va tushunib yetishiga yordamlashadi. Inson ma’naviyatsiz yashay olmaydi. Ma’naviyat alohida bir inson uchungina emas, jamiki odamlar uchun ham, xalq, el va millat uchun ham o‘ta zarur va muhimdir. Ma’naviyatsiz inson bo‘lmaganidek, ma’naviy yetuk, axloqan pok va mukammal insonlarsiz jamiyat va millat ham bo‘lmaydi. Inson ma’naviyati jamiyat, davlat va millat ma’naviyati bilan uzviy bog‘liq.

Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Shodmulk Xotun Samarqand shahrining quyi tabaqasiga mansub hunarmand oilasida dunyoga keladi. Amir Temurning suyukli nabirasi Xalil Sulton Mirzo (Mironshoh Mirzoning o‘g‘li, 1366—1408) kunlardan bir kun shahar chetidagi bog‘ ko‘chadan otda o‘tib ketayotib, Shodmulkka ko‘zi tushadi va uni sevib qoladi. Xalil Sulton Mirzo (1384—1411) jasoratli, harbiy salohiyatli va iste’dodli yigit bo‘lgan. Balog‘atga yetgach, uni aslzoda xonadon qiziga uylantirishgan. Undan bir o‘g‘li ham bor edi. Ammo Shodmulkni sevib qolgach, o‘z zamonasining taomiliga qarshi o‘laroq, shu qizga uylanadi. Tabiiyki, bunday ‘‘tengsiz’’ nikohga Temur boshliq butun avlod qarshi turishgan. Biroq Xalil Sulton Mirzoning qat’iy qarori g‘olib chiqadi. Amir Temur avvalida qattiq g‘azablangan bo‘lsa-da, keyinchalik nabirasiga bo‘lgan yuksak e’tiqodi tufayli uning gunohini kechiradi.

Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Bobur shohning Dildorbegim nomli xotinidan tug‘ilgan uchinchi qizidir. Gulbadanbegim 1523-yili Kobulda tug‘ilgan. Uning onasi Dildorbegimning haqiqiy ismi — Soliha Sultonbegim bo‘lib, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning amakisi Sulton Mahmud Mirzoning qizi edi. Gulbadanbegim otasi Bobur podshohning farmoniga ko‘ra katta onasi, ya’ni Humoyun Mirzoning onasi

Mohimbegim qo‘lida tarbiyalanadi. Mohimbegim Bobur podshohning eng suyukli katta xotini, hukmdorning xotinlari orasida eng oqila va bilimdoni edi.

Binobarin, 1525 yili Gulbadanbegimni Mohimbegim o‘z tarbiyasiga oladi. Gulbadanbegim har ikkala onasini ham samimiy e’zozlagan. U o‘z asarida onasini ‘‘Dildorbegim’’ deb, Mohimbegimni esa ‘‘onam hazratlari’’ deb tilga oladi.

Zebunnisobegim Zahiriddin Muhammad Bobur podshohning nevarasi Abu Zafar Muhiyiddin Muhammad Avrangzeb (taxtbezagi) Olamgirning qizi. Uning onasi Dilrasbonu Shohnavozxonning qizi bo‘lib, Boburning Gulbadanbegim ismli qiziga borib tutashadi. Zebunnisobegim (1048 hijriy yil shavvol oyi) 1639-yil milodiy, fevral oyida Dehlida tug‘ilgan.

Uning otasi Avrangzeb (1618—1707) yoshligidanoq dindorligi bilan nom chiqargan edi.

Sankt-Peterburg Davlat Ermitajining qimmatbaho ashyolar fondidan temuriy malika Gavharshod begimning uzuk-muhri, XIX asr saroy malikalarining oltindan yasalgan uzuklari, taqinchoqlari saqlanmoqda.

Gavharshodbegim Amir Temurning to‘rtinch io‘g‘li Shohruh Mirzoning suyukli katta xotini edi. U Chig‘atoy zodagonlaridan G‘iyosiddin Tarxonning qizi edi. Rivoyat qilishlaricha, G‘iyosiddin Tarxonning bobokaloni – Qushlik bir vaqtlar Chingizxon mulozimatida bo‘lib, bir jang asnosida uni o‘limdan saqlab qolgan ekan. Shundan buyon Chig‘atoy ulusida bu avlod yuksak e’tibor va hurmatga sazovar bo‘lgan. Gavharshodbegim 1379-yilda tug‘ilib, 1393-yilda Shohruh Mirzo nikohiga kirgan. Undan uch o‘g‘il-u ikki qiz ko‘rgan. To‘ng‘ich o‘g‘li-Ulug‘bek Mirzo ko‘ragon (Muhammad Tarag‘ay, 1394-1449), o‘rtancha o‘g‘li – Boysung‘ur Mirzo (1397-1433) va kichik o‘g‘li – Muhammad Jo‘ki Mirzo (1401 -1445) lardir. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Gavharshodbegim yuksak did-farosatli, oqila, tadbirkor, suxandon, bir so‘zli – qat’iyatli, husn bobida ham benazir ayol bo‘lgan.



“Tillaqosh”. Samarqand, XX asr boshi.

Tabiatan dindor Shohruh Mirzo ko‘p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflardi. Saltanat, devon ishlarini o‘ktam va tadbirkor xotini Gavharshodbegim boshqarardi. Bu ziyrak ayol qaynotasi Amir Temur vafotidan so‘ng, sekin-asta saltanat ishlarini o‘z qo‘liga

oldi. Zotan, Shohruh Mirzoning o‘zi ham xotini Gavharshodbegimning donoligiga tan berar, saltanatni boshqarishda oqilona va tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezib turardi. Shu bois, saltanatga doir ko‘pgina ishlar malikaning nazar-e’tiboriga havola qilingan. Viloyatlarga hokim tayinlash, qo‘shinga sarkarda belgilash, hatto kimga qanday in’om va kimga qanday jazo berish masalalari ham malikaning inon-ixtiyorida edi. Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko Gavharshodbegim mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g‘amxo‘rlik qiladi. Uning dasturida madaniy va ma’rifiy hayot birinchi o‘rinda bo‘lgan. Shu boisdanmi, farzandlari hamda barcha nabiralari ilm-fan muxlislari bo‘lib, hatto g‘azal ham bitganlar.



Ayollar taqinchog‘i. Zebigardon.

Ushbu uzuk – muhr Gavharshod binti G‘iyosuddin Tarxon uchun Hirotda 1457 yilda kumushdan yasalgan. O‘lchamlari: 2.7 x 2.1 sm. Bodom shaklida ishlangan bu uzuk-muhr Gavharshodbegimdan bizgacha saqlanib qolgan yagona buyumdir. Uning otasi G‘iyosiddin Tarxon Chig‘atoy zodalardan bo‘lgan. Amir Temur saroyida bu oilaning mavqei baland turgani bois Gavharshodbegimning muhri, shubhasiz, katta qudratga ega bo‘lgan. Muhr temuriylar davri hunarmandchiligining yorqin namunasi bo‘la oladi. Albatta, temuriylar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotini badiiy hunarmandchiliksiz tasavvur qilish qiyindir. Bu davrda metallga badiiy ishlov berish san’ati nihoyatda rivojlangan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, temuriylar davrida podshoh buyruqlari maxsus farmonlarda qayd etilgan. Farmonlarga qo‘yiladigan muhrlar 5 xil bo‘lib, turli maqsadlarda foydalanilar edi. Ulardan birinchisi amir va beklarga hamda arkoni davlatga unvonlar berish, lavozimlarga tayinlash, mukofotlash haqidagi hujjatlarga qo‘yilgan. Ikkinchisi esa xorijiy davlatlar rahbarlariga yozilgan xatlar va boshqa diplomatik hujjatlarga qo‘yilgan. Uchinchi muhr adliya ishlari borasidagi hujjatlarga bosilgan bo‘lsa, to‘rtinchisi saroy ma’muriyati bo‘limlariga tegishli hujjatlarga va oxirgisi unchalik muhim bo‘lmagan hujjatlarga qo‘yilgan ekan. Shu o‘rinda aytish kerakki, yana bir o‘ta maxfiy sanalgan muhr ham bo‘lib, u uzuk muhr deyilgan. U eng ishonchli shaxslarda saqlangan. Ayrim shohlarning bu muhri ularning suyukli malikasida bo‘lgan. O‘ta muhim farmonlar matnining oxirida shu kabi muhr bosilgan. Shubhasiz, Gavharshodbegimning uzuk-muhri ham ana shunday yuqori qiymatga ega bo‘lgan. Ayollar kiyimining to‘plamini zargarlik

buyumlari ham to‘ldirib turgan. Bular qatoriga suyakdan yasalgan bezaklar, munchoqli, og‘ir kumushdan yasalgan taqinchoqlar, quloq va burun bezaklari, bo‘yin va ko‘krak uchun bezaklar; qo‘l bezaklari-uzuklar va bilakuzuklar; kiyim bezaklari-tugmalar, qadama bezaklar, bezakli kamarlar, tumorlar, ayollar bosh kiyimiga qadaladigan bezaklardir. Ayollarning bezakli bosh kiyimini asosan turmushga chiqqan ayollar mehmonga borganda yoki mehmon kutib olganda taqishgan. Bular; tillaqosh-(Toshkent, Farg‘ona, Buxoro viloyatlari) nafis qilib ishlangan oltin suvi yugirtirilgan, firuza toshlari va mayda rang-barang shishalar bilan bezatilgan; osmado‘zi-(Xorazm viloyati) shakli qoshga o‘xshaydigan shokilali beshona bezagi, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan; tillabargak – (Buxoro, Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari) bog‘ich shakldagi peshona bezagi, atroflari mayda firuza toshlari bilan bezatilgan va ayrim hollarda shokildalari ham bo‘lgan.

Tabiiyki, kitob mutolaasi, o‘smir qizlarda hayo, ibo, iffat, andisha kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi va muhim tarbiyaviy vosita ekanligini uqtiradi. Alloma hakim Ibn Sino tili bilan aytganda ‘‘Insonda doim turadurgan husn va latofat hay oila iffatdur, hayosiz yuz jonsiz jasad kabidur’’. Darhaqiqat, qiz boladagi hayoni dilni ravshan qiladiga nurga qiyoslash mumkin. Yana iffat, hayo ko‘proq qizlar, ayollar uchun olmosdan qimmat, injudan qadrli ziynat va fazilatdir. Aynan ana shu aqidaga amal qilgan Sharq allomalari, dono xalqimiz turli hikoya tvarivoyalarni yaratganlar.

Shu o‘rinda, Sharq xalqlarining, mashhur ‘‘Ming bir kecha’’ kitobida asosiy qahramon, Sharq go‘zali Shahribonu tilidan hikoya qilingan ibratli hikoyalarni misol qilib olishimiz mumkin. Hikoyalarni so‘zlovchi sifatida ayol kishining tanlanishi ham, uning birinchidan, aql-zakovavoti tan olinganligini tasdiqlasa, ikkinchidan, Sharq ayoliga bildirilgan hurmat va ehtirom belgisi ekanligini anglab olish qiyin emas. Shahribonu tomonidan hikoya qilingan bir rivoyat diqqatga sazovordir. Hikoyat ‘‘Kanizak qissasi’’ deb nomlanadi. U kichik, mo‘jazgina bo‘lishiga qaramay, mazmun mohiyati jihatidan katta ma’rifiy-ta’limiy, axloqiy ahamiyatga egadir. Shuning barobarida hikoya qahramoni, hayoli, iboli, bilimli, dono kanizak qiz hisoblanadi. Hikoya bevosita Sharqda mashhurlik – ma’rifat homiysi bo‘lgan, Xorunar-Rashid (763-809) davri va uning nomi bilan bog‘liqdir.

Hikoyada aytilishicha, bir savdogarning Abulhasan nomli o‘g‘li otasidan qolgan bor mol-mulkni qisqa vaqt ichida sarflab tugatadi.

Natijada bisotida bir kanizakdan boshqa hech vaqosi qolmaydi. Hojasining tang ahvolda qolganini ko‘rgan kanizak, og‘ir vaziyatdan chiqishning yo‘lini o‘ylay boshlaydi. Shunda, u hojasiga qarata: ‘‘Meni halifa Xorun ar Xonuran – Rashid huzuriga olib boring va ming oltin qiymatida sotishingizni ayting’’; - deb aytadi. Shuningdek, mening qiymatim ming oltindan ham qimmat turishini uqtiring. Bunga sabab, mening ilmim chuqurligini, qunt bilan o‘rganganimni, ishonmasa imtihon qilishini so‘ragin - deya o‘qtiradi. Abulhasan kanizakni olib Xorunar – Rashid huzuriga boradi va u tayinlagan so‘zlarni takrorlaydi. Xalifa kanizakdan qanday ilmlarni bilishini so‘raganda u bilgan ilmlarini sanab beradi va xalifani hayratda qoldiradi. Kanizak ilmlarni dastlab arab tilining nahv (grammatikasini chuqur o‘rganishidan boshlaganligini, keyinchalik she’riyat, fiqih va tafsir, lug‘at va musiqa, ilmi sitora va shammora (yulduz va quyosh ilmi), ilmi sanoq, qismat va masohat (yer o‘lcham) ilmlarini o‘rganganligini aytadi. Shuningdek, kanizak din ilmini yaxshi bilishini, Qur’onni yetti xil qiroat bilan o‘qishini, hadislar ko‘pini yod bilishini ham isbotlab beradi. Aniq fanlardan handasa ilmi, riyoziyot, falsafa, mantiq, maoniy, shantranjni chuqur bilishini aytadi. Xalifa kanizak qirolar, olimlar, tabiblar, munajjimlar, faylasuflar, qo‘yingki, o‘sha davrda mashhur bo‘lgan olim-u ulamalar

ishtirokida imtihon qiladi.

Alqissa, hamma imtihondan a’lo darajada o‘tgan kanizak halifadan bir necha ming tilloni olib, hojasining davlatini tiklaydi.

Hikoya, xalq tomonidan to‘qilgan afsona yoki rivoyat bo‘lishi mumkin. Lekin, xalq ayol kishilarda ham ilm – fanni o‘rganish qobiliyati borligini, aynan bu ilmlarning sohibasi ayol – kanizak ekanligini, hikoya qilishar ekan, xalqimizning Sharq xotin-qizlariga bo‘lgan hurmat va ehtiromi belgisi ekanligini isbotlab turibdi.

Darhaqiqat, kanizak o‘zlashtirgan ilmlar majmuasi asrlar davomida maktab, madrasalarda o‘rganilganligi haqiqatdir. Eng muhimi hikoyada ilgari surilgan fikrda, kanizakning mazkur ilmlarni o‘rganish uchun mustaqil, har sohaga oid kitoblarni o‘qiganligini, tinimsiz izlanganligini uqtirishdan iboratdir. Haqiqatdan ham, har qanday zamonda ham ilm-ma’rifatni qadrlagan xonadonlar qizlarini savodli, ziyoli, bilimli qilmishiga intilganlar. Dastlab, ichkarida xususiy tarzda ochilgan qizlar maktablarida savod chiqarganlar. Qizlarga saboq beradigan otinoyilar, asosan, o‘qimishli, madrasa ko‘rgan akasi, otasi, bobosi qo‘lida ilm o‘rganganlar yoki ular ham xususiy ustozlar qo‘lida ta’lim olganlar. Shu nuqtayi nazardan oladigan bo‘lsak, otinoyi, muallimalarning bilim berish saviyasi u ta’lim olgan daraja muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan.

“Erta oila qurishning salbiy oqibatlari” mavzusida talaba-qizlarning soha mutaxassislari bilan muloqotlarini uyushtirish ularda erta oila qurishdan saqlanish – sog‘lom farzand ko‘rish, tartibli hayot kechirish garovi ekanligiga ishonch paydo qildi va bu borada salomatlik markazlari bilan aloqa o‘rnatish, ayniqsa ijobiy natijalarga olib keladi.

Zarurat tug‘ilganda o‘quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarni ta‘lim-tarbiya yuzasidan olib borayotgan ishlari to‘g‘risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Hamkorlik kengashi mahalla hududida istiqomat qilayotgan o‘z farzandalari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari,huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma’muriy choralarni qo‘llashi mumkin. Hamkorlik kengashi mahalla hududida o‘zbek milliy tarbiya an’analarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o`tkazish, bolalar va kattalarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o‘yingohlar, madaniyat muassasalari, sport inshootlari, o‘smirlar klublari, maktabgacha tarbiya va maktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi. Hamkorlik kengashi o‘tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Hamkorlik kengashi yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masala va muammolarini mahalla hududidagi o‘quv-tarbiya muassasalari, tashkilotlar va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatliligini ta‘minlaydi. Ta‘lim-tarbiya sohasiga e‘tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, ma‘muriy ko‘rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyati o‘ziga xos pedagogik tizim uslub va shakllarga ega bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. MahkamoyTursunova. Madrasa barpo etgan malikalar. Ilmiy – ommabop risola. – T.: ‘‘Zilolbuyuk’’ nash. 2019, 16-17-bet.

2. Rizouddin Faxriddin o‘g‘li. Mashhur xotinlar. – T.: 2019, 8-bet.

3. Qodirova M. Dilshod (hayoti va ijodi). – T.: Fan 1971 62-bet.

Zafarjon XATAMOV,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI INNOVATSION KLASTER ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida sog‘lom turmush tarzini innovatsion klaster asosida shakllantirish to‘g‘risida fikr mulohazalar bayon etilgan. Jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy barkamollik va undagi vositalar, yo‘l-yo‘riqlar o‘zaro mujassamlashib, bir butun tushuncha – badan tarbiyani tashkil etish haqida aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Jismoniy tarbiya, innovatsion klaster, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy barkamollik, badan tarbiya.

В статье рассматривается идея построения здорового образа жизни в физическом воспитании через инновационный кластер. Физическое воспитание, физическая культура, средства и инструкции в ней объединены в единое понятие – организация физического воспитания.

Ключевые слова. Физическое воспитание, инновационный кластер, здоровый образ жизни, физическая культура, физическое воспитание.

The article discusses the idea of creating a healthy lifestyle in physical education on the basis of innovative clusters. Physical education, physical training and the means and instructions in it are combined to form a single concept - the organization of physical education.

Key words. Physical education, innovative cluster, healthy lifestyle, physical training, physical education.

Mashhur Yunon donishmandi Aflotun baxt haqida zikr etib: “Inson uchun birinchi baxt uning sog‘lig‘i, ikkinchisi – go‘zallikdir” degan ekan. Darhaqiqat, salomatlik barcha boyliklar manbaidir. Nasl-nasabi sog‘lom va ma’naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog‘lom, baquvvat, iymon-e’tiqodli va sadoqatli bo‘ladiki, bu baxt ona-Vatanning shuhrati va qudratining zo‘r omiliga aylanadi. Xalqning ana shunday baxt saodati uchun sog‘lom avlod kerak.

Qadimda xalqimiz badan tarbiyani riyozat deb atashgan. Ibn Sino “Tibbiy doston” asarida riyozat – badan tarbiyasi haqida to‘xtalib, uning bir necha xillari bo‘lishi, bu jismoniy mashqlar bilan o‘rtacha shug‘ullanish sog‘liqqa foydali ekanligini, jismoniy mashqsiz yurish badanda yomon xulqlarning yig‘ilishiga sabab bo‘lishini alohida uqtirib o‘tadi.

Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlikka foydasi cheksizligini D.Adisson shunday ta’riflaydi: “Mutolaa aql uchun qancha zarur bo‘lsa, jismoniy mashqlar ham shuncha zarur”. Suqrot hakim esa bunday deydi: “Gimnastika yordami ila men badanimning muvozanatini to‘g‘rilab olaman”.

Jismoniy rivojlanish – odam organizmining tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o‘zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Tor ma’noda bu antropometrik va biometrik ko‘rsatkichlar: bo‘yi, tana og‘irligi, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pka sig‘imi, qaddi-qomat va boshqalardir. Jismoniy rivojlanish biologik hayot qonunlari – muhit va organizmning birligi,

miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga muntazam ravishda o‘tishga muvofiq tarzda amalga oshadi. Zotan, turmush sharoitini, jumladan, jismoniy tarbiya metodlarini o‘zgartirib, organizmning funksional imkoniyatlari darajasini ancha oshirish, jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish mumkin. Jismoniy tarbiya deganda, eng, avvalo, inson tanasining anatomik tuzilishi, a’zolarning shakllanishi, rivojlanishi va harakat faoliyatlarini (fiziologik) bajarish darajalari tushuniladi. Ular inson tanasini tabiiy harakat malakalari va maxsus mashqlar bilan tarbiyalash, mustahkamlash va o‘stirish tushunchasini bildiradi.

Bugungi kunda xalq ta’limi tizimiga qarashli qaysi turdagi muassasani olmaylik, ularda shifokorlar va malakali hamshiralar xizmat ko‘rsatishmoqda. Umumta’lim maktablari o‘quvchilari salomatligini muhofaza qilish, ularga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, kasal o‘quvchilarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni sog‘lomlashtirish, turli kasalliklarni oldini olish ishlari keng yo‘lga qo‘yilgan.

Jismoniy tarbiya daqiqalarini o‘tkazish uchun 3-4 mashqdan iborat maxsus mashqlar majmuasidan foydalanish mumkin. Ta'lim muassasalarida alohida o‘rganlarga, tizimga va butun organizmga ruhiy va statik og‘irlik qiluvchi mashqlar, darsda umumiy toliqishni oldini olish uchun jismoniy tarbiya daqiqasi va dars davomida taranglashganini hisobga olgan holda turli guruh mushaqlari uchun to‘plangan mashqlardan iborat umumiy ta’sir qiluvchi mashqlar o‘tkazishni talab qiladi. Mashqlar 1,5-2 daqiqa davom etadi.

Maktabda o‘quvchilarni harakatga bo‘lgan biologik talabini qondirish uchun sharoit yaratish lozim. Bu talab 2 soatdan ko‘p hajmdagi bolalar va o‘smirlarni kunlik harakat faolligini qondirishi mumkin. Sog‘lom avlodni shakllantirish va tarbiyalashning turli yo‘l-y‘riqlari, usullari mavjuddir. Ayniqsa, bolalarning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish, turli milliy harakatli o‘yinlar o‘rgatish muhimdir.

Bugungi kunda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ham o‘tgan davrlardagidek muhim hisoblanadi va bu muammo ham o'tgan davrlardagidek ijtimoiy muammo sifatida o‘rganilgan.

Tabiiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, yuk ko‘tarish, uloqtirish va h.k.) va maxsus mashq-o‘yinlarni bajarish insonlarning yoshi, jinsi va jismoniy tayyorgarliklariga qarab belgilanadi. Shu sababdan jismoniy tarbiyada salomatlik darajasi, jismoniy tayyorgarligi, jismoniy rivojlanishi kabi iboralar ko‘p ishlatiladi va mashg‘ulotlarda ular so‘zsiz e’tiborga olinadi. Jismoniy tarbiya vositasi tarkibida umumrivojlantiruvchi mashqlar, turli xil o‘yinlar, sport turlari, sayohatlar, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi ta’sir kuchlari (suv, havo, quyosh) hamda gigiyenik omillar mavjuddir.

Jismoniy ta’lim deganda esa mazkur vositalarni tanlash, maqsad yo‘lida qo‘llash yo‘llari, yaxshi samaralarga erishishni tushuniladi.

Jismoniy tarbiya ta’limotida jismoniy sifatlarga (kuch, tezlik, chidamlilik va h.k.) alohida o‘rin beriladi. Chunki, harakat faoliyatlar faqat tiriklik, tetiklik, baquvvatlikni saqlashgagina qaratilmasdan, balki murakkab bo‘lgan jismoniy mehnat, mashqlar, sport turlarida ishlatiladigan o‘ta murakkab amaliy harakat faoliyatlarni maqsadli bajarishga yo‘naltiradi.

Jismoniy tarbiya jarayonida mashqlarni shakl va mazmun jihatdan ijro etishda usullar asosiy o‘rinda tursa-da, ular ko‘proq madaniyat tushunchasi bilan ham bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bunda asosan ikki yo‘nalish ko‘zga tashlanadi, ya’ni:

1. Mashqlarning chiroyli qilib bajarilishi, o‘zgalarning diqqatini jalb etishi, shug‘ullanuvchining gavda tuzilishi va nafis harakatlari. Masalan, badiiy gimnastika mashqlari, balandlikka sakrashlar, suvda suzish va tramplindan aylanib sakrashlar, to‘pni darvozaga tepib kiritishlar va h.k.

2. Mashq-o‘yinlar va sport turlarida ommaviy bo‘lib bajarishlar (jamoa, guruh va h.k.), bayramlar, nufuzli sport musobaqalarida ko‘rgazma – namoyish chiqishlar. Bu ikki holatda ham san’at bilan (musiqa, raqs va h.k.) jismoniy mashqlar, sportning uyg‘unlashib ketishi jismoniy madaniyat tushunchasini bildiradi. Shu sababdan fanlarda jismoniy madaniyat (fizkultura) umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi deb sanaladi.

Shu jihatdan qaralsa jismoniy madaniyat ham o‘z ichiga turli ommaviy- tarbiyaviy jarayonlarni o‘ziga qaratishi bilan mustaqil yo‘nalishlarga egadir, ya’ni:

– o‘quvchi va talaba-yoshlarning jismoniy madaniyati;

– katta yoshdagi kishilar jismoniy madaniyati;

– xotin-qizlar jismoniy madaniyati;

– aholi istiqomat qiladigan joylarida jismoniy madaniyat va h.k.

E’tirof etmoq lozimki, jismoniy tarbiyaga tabobat ilmining buyuk donishmandi Abu Ali ibn Sinodek hech kim ta’rif va baho bera olmagan. Ya’ni uning tavsifi bo‘yicha badan tarbiya bilan muttasil shug‘ullanuvchilar hech qanday doriga muhtoj bo‘lmaydi.

Shu sababdan Ibn Sino har bir inson doimo sof havoda yurishi, mehnat qilishi, tog‘larga sayohat qilib dam olishi, qayiqlarda sayr etishi va salomatligi hamda tetikligiga qarab kurashga tushishi, ot choptirishi va h.k. faol amaliy harakatlarni bajarishi, unga odatlanishi kerak deb tavsiya bergan. Badan tarbiya mashqlarini me’yorida va o‘z vaqtida bajarish, mashqlardan keyin esa suvda cho‘milish yoki nam sochiq bilan badanni ishqalab artish yo‘llarini ham eng, avvalo, Ibn Sino tajribalarda sinab, o‘zining “Tib qonunlari” kitoblarida yozib, ilmiy meros qilib qoldirgan.

Hozirgi tibbiyot olamida ham jismoniy mashqlarni faqat sog‘lom kishilargina emas, hatto dardman, keksa kishilar va nogironlar ham o‘z holatlariga qarab bajarishni inkor etmaydi. Bu mulohazalarni bayon etishdan maqsad shuki, barcha yoshdagi kishilarning salomatligini yaxshilash, jismoniy barkamollikni tarbiyalash, bemor yoki nogironlarning sog‘ligini saqlashga va jismoniy tarbiya ilmining asosiy mazmunlarini aholi o‘rtasida chuqur singdirish masalalariga e’tiborni yanada kuchaytirish lozim. Bu yo‘lda faqat shifokor va jismoniy tarbiya mutaxassislarigina emas, har bir ijodkor, ziyolilar ham tashabbus ko‘rsatishlari lozim.

Jismoniy madaniyat va jismoniy tarbiya vositalari hamda ularning tarbiyaviy jihatlari haqida o‘y-fikrlar yuritilsa, oziq-ovqatlarning turlari, ularni iste’mol qilish me’yorlari, vaqti va dam olish, hordiq chiqarish, uyqu kabi ehtiyojiy tomonlarni ham aniq bilish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, nosvoy (nos) otish, tamaki chekish, spirtli ichimliklar va turli zararli giyohlarni iste’mol qilishning salomatlik, mehnat qilish va uzoq umr ko‘rishga jiddiy salbiy ta’sirlarini ongli ravishda bilish har qanday kishi, ayniqsa, bolalar, o‘smir-yigitlar uchun albatta zarurdir. Bunda xotin-qizlarga, ularning bo‘lajak farzandlariga zararli moddalarning ta’siri katta asoratlar qoldirishi aniq ekanligini ham unutmaslik lozim.

Jismoniy tarbiya jarayoni ko‘p qirralidir. Bu jarayonda ta’lim ham, tarbiya ham beriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ta’lim berish harakat ko‘nikmalari, malakalarini hosil qilish, takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga, shug‘ullanuvchilarni jismoniy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatiladi. Tarbiyaning hamma turlarining birligi, ularning o‘zaro bir-biriga ta’sir o‘tkazishi tub pedagogik qonuniyatlaridan biridir. Aqliy, axloqiy va estetik tarbiyaning ma’lum tomonlari jismoniy tarbiya jarayoniga uzviy qo‘shilib ketgan. Jismoniy tarbiyaning insonni mehnat va harbiy tayyorgarlik, sog‘lomlashtirish hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillari jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari hisoblanadi. Shu bilan birga jismoniy tarbiya jarayonining ta’lim va tarbiya tamoyillari ham qabul qilingan. Jismoniy tarbiya jarayonida beriladigan vazifalar ma’lum jismoniy mashqlar tarzida bajariladi. O‘qituvchi bajarish uchun mashq berish bilan birga, shug‘ullanuvchilarga nimani bajarish va qanday bajarish kerakligini emas, balki shu mashqni bajarish tavsiya etilishini shu qoidaga rioya qilish kerak ekanligini ham tushuntirishi zarur.

Maqsad va vazifalarni qanchalik tushunib olish shug‘ullanuvchilarning yosh imkoniyatlariga va tayyorgarlik darajasiga bog‘liqligi o‘z-o‘zidan ravshandir. Jismoniy tarbiyaning dastlabki bosqichlarda oddiy tushunchalar tarkib topadi, keyinchalik esa shug‘ullanuvchilar ishning mohiyatini tobora chuqurroq bilib boradilar.

Jismoniy mashqlar aql-idrok bilan nazorat qilinuvchi ixtiyoriy harakatlardir. Harakat

ko‘nikmalarini shakllantirishda harakatlarni bajarish avtomatlashish darajasiga ko‘tariladi. Bu bilan ongli harakat qilinmaydi deb bo‘lmaydi, chunki harakatni avtomatlashish darajasiga yetkazish zaminida jismoniy mashqlarni ongli ravishda o‘rganib turadi. Shug‘ullanuvchilarning harakatlari bajarilishini o‘qituvchi va murabbiylar nazorat qiladilar, baholaydilar va xatolarni tuzatib boradilar. Shunga qaramay shug‘ullanuvchilarning o‘z harakatlarini o‘zlari baholashi va nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bunda harakatlarni oldindan his qilish va sinab ko‘rish usullari ko‘p qo‘llaniladi.

Har qanday bilish, ma’lumki, his etish bosqichidan – xayol qilishdan boshlanadi. O‘rganiladigan harakatlarning jonli obrazi tashqi va ichki retseptorlarning – ko‘rish, eshitish organlari, vestibulyar apparati, muskul retseptorlari va boshqa sezish, idrok qilish retseptorlarning qatnashishi bilan tarkib topadi. Har xil sezgi organlari sezgan va idrok etgan tushunchalarini to‘ldirib jismoniy harakatlar manzarasini tasavvur qiladi. Shuning uchun, hissiy tushuncha qancha boy bo‘lsa mukammal malaka va ko‘nikmalar shuncha tez va oson shakllanadi hamda jismoniy va irodaviy sifatlar samarali takomillashadi.

Jismoniy harakatlarni o‘rganishda quyidagi uslubiyotga amal qilish kerak. Buning uchun mashq haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish va uni amalda bajarish, his etish lozim. Shuning uchun mashq haqida tushunchaga ega bo‘lishda ko‘plab ko‘rgazmali vositalardan foydalanish mumkin. Harakatlarni amalda bajarishda esa murabbiy tavsiyasi va yordami bilan bajarish kerak, hamda xatolarni o‘z vaqtida to‘g‘rilab borish zarur. Jismoniy mashqlarni bajara olish, bir tomondan, shug‘ullanuvchilarni imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning o‘zlari uchun xos bo‘lgan xususiyatlarga biror mashqni bajarish paytida sodir bo‘ladigan obyektiv qiyinchiliklarga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi bajara olish me’yorini belgilar ekan, avvalo, ilmiy ma’lumot va umumlashgan amaliy tajribalar asosida shug‘ullanuvchilarning biror bir kontingenti uchun belgilanadigan dasturlarga va normativ talablarga asoslanadi. Shug‘ullanuvchilar imkoniyatlari jismoniy tayyorgarlik mezonlari orqali sinash, tibbiy nazorat va pedagogik kuzatishlar bilan aniqlanadi.

Jismoniy tarbiyaning har bir bosqichida ko‘rsatib o‘tilgan shartlardan tashqari, bajara olish me’yori tanlangan uslubning maqsadga muvofiqligi hamda umuman mashg‘ulotning tashkil etilishi orqali aniqlab olinadi. Malakava ko‘nikmalar ilgari hosil qilingan malakalar bazasidir. Shuning uchun ham bajara olish masalasi ta’lim va tarbiyaning boshqa uslublari bilan, mashg‘ulotlar davomiyligi va qiyinchiliklarni muntazam oshirib borish uslublari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Jismoniy tarbiya jarayonida bajara olishning hal qiluvchi shartlaridan biri jismoniy mashqning davomiyligidir. Turli harakat shakllari o‘rtasidagi o‘zaro tabiiy aloqalardan hamda struktura jihatdan davomiylikka erishiladi. Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o‘rganiladigan harakat vazifalari kelgusi mashg‘ulot vazifalarini oson o‘zlashtirishni ta’minlasin. Bu qonuniyat ma’lumdan noma’lumga yoki o‘zlashtirilgandan o‘zlashtirilmagan vazifaga o‘tish deb ataladi. Bir topshiriqdan ikkinchisiga, osonidan qiyinrog‘iga o‘tishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shartlardan biri izchillikdir. Organizm imkoniyatlari sekin, demak talablar ham organizm imkoniyatlari haddan ziyod bo‘lmasligi lozim.

Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish tufayli organizmda sodir bo‘ladigan funksional va tarkibiy o‘zgarishlar ziddiyatga uchrashi, paydo bo‘lgan shartli reflektorli bog‘lanish so‘na boshlaydi, funksional imkoniyatlarning erishilgan darajasi pasaya boradi va hatto ba’zi regressiv o‘zgarishlar 5-7 kun mashq qilinmagandayoq bilinib qoladi.

Ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya jarayoni uzluksiz bo‘lishi kerak, ya’ni sababsiz tanaffuslar bartaraf etilishi kerak, shundan so‘nggina jismoniy yetuklikka erishishning sharoitlari yaratiladi. Mashqlarni takrorlash va yangilab turish, jismoniy tarbiya jarayonida, tarbiyaning boshqa ko‘pchilik turlariga qaraganda, takrorlashga ancha keng o‘rin beriladi. Jismoniy tarbiya jarayoni uchun takrorlash bilan bir qatorda, variativlik, ya’ni mashqlarning va ularning bajarilish shartlarining

tez-tez o‘zgartirib turish, yuklamalarni asta-sekin oshirib borish hamda ularni qo‘llanishning rang-barang uslublarini tadbiq etish, umuman mashg‘ulotlarning shakl va mazmunini o‘zgartirib turish ham muhimdir.

Jismoniy tarbiya jarayonida ixtisoslashtirilgan mashg‘ulotlar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Dastlab zaruriy harakatlar, xususan, qo‘l harakatlari malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi, keyinchalik oyoq va gavda harakatlari bo‘lgan asosiy malakalar takomillashtiriladi. Bu bilan tanlangan sport turi bo‘yicha ixtisoslashish yuzaga keladi. Jismoniy tarbiya jarayonida harakat malaka va ko‘nikmalarini ijobiy ko‘chishidan maksimal foydalanib, salbiy ko‘chishini esa imkoniyat boricha bartaraf etish zarur.

Jismoniy tarbiya jarayonida talablarni oshirishning asosiy shartlari yengillik, individuallashtirish, tizimlilik tamoyillarini tahlil qilish ularning o‘zaro muvofiqdaligini ko‘rsatadi. Talablarni oshirib borish yangi topshiriqlar va yuklamalarni bajarishga shug‘ullanuvchilar tayyorgarligi muvofiq kelsa, topshiriq va yuklamalar organizmining funksional imkoniyatlariga mos kelsa, yosh, jins, individual xususiyatlarga mos bo‘lsa ijobiy natijalarga olib keladi. Mashqlarning almashinishi va o‘zaro aloqada bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan izchillik, mashg‘ulotlarning muntazamliligi yuklama va dam olishning optimal almashinuvi ham asosiy shartlardan hisoblanadi.

Hosil qilingan malakalar va ko‘nikmalar mustahkamligi, jismoniy yuklamalarga moslashuvchanlik darajasiga qarab, yangi murakkab bo‘lgan mashqlarga o‘rgatiladi. Bu talablarga amal qilmaslik malakalarni to‘g‘ri shakllanmasligi, jismoniy yuklamalarda kuch kelishi hamda mashqlarni bajarishda tuzatilmaydigan xatolarni vujudga kelishiga olib keladi. O‘z o‘rnida yangi harakatlar malaka va ko‘nikmalarni shakllanishiga to‘sqinlik paydo bo‘ladi. Shuningdek, jismoniy yuklamalar oshirilish dinamikasi bilan organizmning morfofunksional rivojlanishida tafovutlar shakllanadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida o‘qituvchilar o‘quvchilarni harakatlarga o‘rgatish va jismoniy mashqlar texnikasini egallashda ta’lim uslublari yordamida ta’lim bosqichlari vazifalarini hal etadilar. Maktabda jismoniy mashqlarga o‘rgatish jarayoni ta’lim tamoyillari va uslublarining to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Jismoniy tarbiyada ta’lim jarayoni o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va sportga oid maxsus bilimlar bilan qurollantirish hamda jismoniy mashqlar va harakatlar texnikasi, malaka va ko‘nikmasini hosil qilish vazifalarini hal etadi. Jismoniy tarbiyada shuni ko‘rish mumkinki, mashqlarni ko‘p marotaba har xil talablar asosida takrorlash va mustahkamlash jismoniy mashqlar texnikasini bajarishda hech bir qiyinchilik bo‘lmasligini ta’minlaydi. Bu bilan harakat malaka va ko‘nikmalari takomillashib boradi.

Jismoniy tarbiya jarayonida faqatgina jismoniy fazilatlar emas, balki axloqiy sifatlar: jamoatchilik, do‘stlik, botirlik, qat’iylik, hamkorlik, vatanparvarlik xislatlari ham tarbiyalanib boradi. Shuningdek, o‘quvchilarni tartib-intizomga rioya qilish, tashabbuskorlik va faollilik kabi sifatlar ham shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘rinboyev N. “Barqaror taraqqiyot va sog‘lom turmush tarzi”. – Farg‘ona: Jahon nashriyot, 2007, 118-b.
2. Закон Республики Узбекистан “О физической культуре и спорте”. – Т., 2002. – С.25.
3. Теория и методика физического воспитания. Изд. 2-е, исправленноеи дополненное. Под. общ. ред. доктора пед. наук, профессора Л.П. Матвеев ипрофессора А.Д.Новикова.М.,ФиС,1976.
4. Теория и методика физического воспитания. Учеб пос-е. Под ред.Б.А.Ашмарина .М.,Просвещение,1979.

Gulbaxor GAYNAZAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

MAKTABGACHA TARBIYA TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINI METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlarining mazmuni keng yoritilgan, shuningdek, muallif maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi uning bilim, ko'nikma va malakalari bilan bog'liq bo'lib, u egallagan kasbiy kompetensiyalari orqali maktabgacha ta'lim jarayonida yuzaga kelgan pedagogik muammolarini hal qilishni ta'minlanishini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, mahorat, modulli o'qitish texnologiyasi, pedagogik faoliyat.

В статье широко освещено содержание специфических аспектов развития методических компетенций воспитателей дошкольных образовательных учреждений, а также автором отмечено, что готовность воспитателя дошкольных образовательных организаций к осуществлению педагогической деятельности связана с его знаниями, умениями и навыками, а через приобретенные им профессиональные компетенции обеспечивается решение педагогических проблем, возникающих в процессе дошкольного образования.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность, педагогическое мастерство, мастерство, модульная технология обучения, педагогическая деятельность.

The article extensively covers the content of specific aspects of the development of methodological competencies of preschool educators, and the author also notes that the readiness of preschool educators to carry out pedagogical activities is related to their knowledge, skills and abilities, and through the professional competencies acquired by them, the solution of pedagogical problems arising in the process of preschool education is provided.

Key words. Professional competence, pedagogical skills, mastery, modular learning technology, pedagogical activity.

Bugungi kunda jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar sharoitida maktabgacha ta'lim oldida yosh avlodni tarbiyalashga jiddiy talablar qo'yildi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar ta'limda yangi qadriyatlar paydo bo'lishiga olib keldi. Jamiyatda kompetensiyali tarbiyachi-pedagog uchun zamonaviy talablar paydo bo'ldi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuqori darajadagi professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, mustaqil, ijodiy qobiliyatga, yuksak pedagogik mahorat va madaniyatga, ma'naviy boylikka ega bo'lgan tarbiyachilarga muhtoj. Bu nafaqat ta'lim va kasbiy dasturlarning mazmunini sezilarli darajada yangilash, balki bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish zarurligini ham anglatadi. Universitetda bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik ta'lim tizimining nazariy va uslubiy asoslarini faol rivojlantirish, ushbu tizimni qurish funksiyalari va tamoyillari, uning mazmuni, usullari

va takomillashtirish vositalarini ko‘rib chiqish lozim. Jamiyatning ma’naviyatini, madaniyatini rivojlantirish muammosi, ayniqsa, o‘ta dolzarb bo‘lib qolmoqda. MTT tarbiyalanuvchilarning go‘zallik tuyg‘usini rivojlantirishga, ularning sog‘lom badiiy sifatini shakllantirishga, san’at asarlarini to‘g‘ri tushunish va qadrlash qobiliyatiga ko‘proq e’tibor berish kerak.

Oliy ta’limda maktabgacha ta’lim tarbiyachi-pedagoglarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish zarurati bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik omillar bilan belgilanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, tarbiyachilarning kasbiy kompetentliligini tashkil etishda pedagogikaning integratsiyalashuvi bo‘lgan bo‘lajak MTT tarbiyachisining kelajakdagi pedagogik faoliyati tarkibiy qismlarining butun majmuasi hali to‘liq aks ettirilmagan. Shu tufayli oliy ta’limda MTT tarbiyachisini tayyorlash tizimi juda murakkab bir qator komponentlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, pedagogik ilm-fanning zamonaviy darajasi bo‘lgan MTT tarbiyachisining kasbiy tayyorgarlik jarayonining alohida jihatlarini o‘rganish uchun integral yondashuv zarur. Oliy ta’limda MTT tarbiyachisining tayyorgarligini takomillashtirish davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. Bo‘lajak MTT tarbiyachisining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish mazmuni va texnologiyasi asosan aniq shartlar, ta’lim mafkurasi, ustuvor ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Kasbiy tayyorgarlik haqida ham shunday deyish mumkin: undagi o‘zgarishlar jamiyatning rivojlanishi, maktabgacha ta’lim tizimi rivojlanayotgan sharoitlar bilan bog‘liq. Yer yuzida ko‘plab kasblar mavjud. Haqiqiy tarbiyachilar nafaqat mavjud tajribani, to‘plangan bilimlarni efirga uzatish, balki tarbiyalanuvchining ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularning qobiliyatlari va mashhur, an’anaviy chegaralarni bartaraf etish qobiliyatlari bilan doimo mashg‘ul. Pedagogik faoliyatning qiymat xususiyatlari asosan uning gumanitar mohiyatiga bog‘liq bo‘lib, tarbiyachining ijtimoiy ongida ma’naviy, axloqiy qadriyatlarning tashuvchisi bo‘lib, uning shaxsiyatiga nisbatan bir xil standart sifatida qaraydi. Professional pedagogik faoliyatning tabiatiga mos keladigan bu fazilatlar MTT tarbiyachisining ajralmas shaxsini ifodalovchi murakkab tizimli birlikda birlashtirilgan. Ishonch bilan aytish mumkinki, MTT tarbiyachi kasbi eng murakkab va ajoyib kasblardan biridir. MTT tarbiyachisi kasbining muhim vazifasi shundan iboratki, u maktabgacha ta’limda to‘plangan ajdodlarning ma’naviy tajribasini yetkazish va shu asosda tarbiyalanuvchi shaxsiyatining ijobiy xususiyatlarini rivojlantirishga yordam berish bilan shug‘ullanadi. MTT tarbiyachisining asosiy kompetensiyalari. Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi qanday bo‘lishi kerak:

– tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda ta’lim bo‘shliqlarini mustaqil ravishda to‘ldirib o‘rganish;

– mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish;

– tarbiyalanuvchilar bilan turli tadbirlar tashkil qilish va tadbirda qatnashganlarni rag‘batlantirish;

– faoliyatni tashkil etishning turli shakllaridan, shu jumladan, turli xil ish va faoliyatlarga jalb qilib, ularning moyilligi, o‘ziga xos xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini baholash. Muloqot va muhokamalar rejimida mashg‘ulotlarni olib borish, mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini ifoda etishni istagan muhitni yaratish, nafaqat bir-birlari bilan, balki tarbiyachi bilan ham o‘z fikrlarini almashish mumkin;

– bilim malakalariga ega bo‘lish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash; kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan bo‘lajak MTT tarbiyachisini tayyorlash ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy, axborot – kommunikasiya makoniga moslasha oladigan shaxsni shakllantirishga qaratilgandir.

Bo‘lajak MTT tarbiyachisining bilimlariga ega shaxs bo‘lishi bilan bir qatorda u psixolog bo‘lishi, shu bilan bir qatorda bilim va ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi lozim.

MTT tarbiyachisining kasbiy kompetentliligi uning faoliyati kasbiy madaniyat va pedagogik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan turli tarkibiy qismlarni birlashtiradigan kompleks

sifatida tavsiflangan shaxsning integratsiyalashgan sifati hisobdanadi. Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi bir nechta kompetensiyalarni o‘zida mujassam ettirgan bo‘lishi kerak:

– o‘zining madaniyati bilan ajralib turishi kerak;

–juda keng dunyoqarashga ega bo‘lishi kerak;

– MTT tarbiyachisi – psixolog bo‘lishi kerak;

– pedagogik jarayonni zamon talablari asosida tashkil eta olishi kerak;

– musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zida mujassam ettirgan bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik ijodkorlik faoliyati juda keng qamrovli bo‘lib, u tarbiyalanuvchiga yondashuvda tarbiyachining maksimal darajada tashkil etilishi bilan ta’lim jarayonida ta’lim va tarbiyalashning turli shakllari va usullarini pedagogik jihatdan oqilona qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishi, doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda turli pedagogik muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tarbiyachisining kasbiy faoliyatining samarasi ko‘p jihatdan unda kasbiy mahorat va kompetentlilikning tarkib topganligi bilan xarakterlanadi.

Kompetentlilik – bu ko‘pgina ijtimoiy sohalarga va ijtimoiy yo‘nalishlarga tegishli bo‘lgan muammoli vazifalarni bajarilishidagi o‘zlashtirilgan usullar, hayotiy muammolarni hal etilishidagi shaxsning butun tajribasidir. Kompetentlilikni insonni faoliyatiga jalb etilganlik darajasi sifatida belgilash mumkin. Shu sababdan, tarbiyachi pedagogik faoliyatining samarasi, ko‘p jihatdan unda kasbiy mahorat va kompetentlikning tarkib topganligi bilan xarakterlanadi. Muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun har bir MTT tarbiyachisining kasbiy mahorat va kompetentlikka ega bo‘lishi zarur. Kacbiy kompetentlik tarbiyachi kasbiy faoliyatining yuksak darajada taraqqiy etishi, o‘qituvchi tomonidan pedagogik texnikaning egallanishi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi. Tarbiyachining kasbiy kompetentligi – bu uning uclubiy san'ati, shaxsiy sifatlari, ilmiy bilimlari, o‘qituvchilik kasbi ko‘nikma va malakalarining sintezidir.

MTT tarbiyachisi mustaqil ravishda pedagogik jarayon maqsadlarini ishlab chiqishi, o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish uchun axborotlardan foydalana olishi va uni o‘zlashtirishi, axborot-kommunikasiya savodxonligiga ega bo‘lishi, pedagogik faoliyatida innovasion texnologiyalarni ishlab chiqishi va ularni amaliyotga tatbiq etishi zarur.

Maktabgacha ta’lim tarbiyachisining kasbiy mahorati darajasini aniqlash, avvalambor, tarbiyachining o‘zi uchun juda muhim.

MTT tarbiyachilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga qaratilgan jarayon shuni ko‘rsatadiki, kasbiy pedagogik faoliyatning barcha bocqichlarida ular o‘zlarining kasbiy tajribalarini amalda qo‘llaydi, tahlil qiladi va baholaydi, shuningdek, o‘zini o‘zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Xalq so‘zi gazetasining 2017-yil 21-apreldagi 79 (6773).

2. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. –T., 2007. – 315-b.

3. Хуторской А. В. Технология проектирования ключевых и предметных компетенций. eidos.ru›journal/2012/0829-05.html.

4. Safarova R.G.ning umumiy tahriri ostida. Uzluksiz ta’lim tizimida modulli o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash istiqbollari: muammo va yechimlar. Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari: – T., 2018. – 105-b.

Mohichexra ALIMARDONOVA,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARI VA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA KOGNITIV VAZIFALARDAN AMALIY FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kongitiv vazifalar orqali dunyoqarashini shakllantirish, ularning bilim qobiliyatlarini faol holatga keltirishda tarbiyachi tomonidan taklif etilgan usul va metodlar to‘g‘risida fikrlar keltirilgan. Kognitiv muammolarni hal qilishdagi qiyinchiliklar hamda ularni amaliy bartaraf etish yo‘nalish va konsepsiyalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari, pedagog tarbiyachi, kognitiv vazifa, tarbiya, vazifa, tafakkur, ta’limiy o‘yin.

В статье представлены представления о методах и приемах, предложенных воспитателем в формировании мировоззрения дошкольников через сопряженные задачи, приведении их познавательных способностей в активное состояние. Изложены трудности решения познавательных задач, а также направления и концепции их практического преодоления.

Ключевые слова. Дошкольная образовательная организация, Воспитатели ДОУ, воспитатель-воспитатель, познавательная задача, воспитание, задача, мышление, развивающая игра.

The article presents ideas about the methods and techniques proposed by the educator in the formation of the worldview of preschoolers through conjugate tasks, bringing their cognitive abilities into an active state. The difficulties of solving cognitive tasks, as well as the directions and concepts of their practical overcoming are described.

Keywords. Preschool educational organization, Preschool educators, educator-educator, cognitive task, education, task, thinking, developing game.

Ilmiy tadqiqotlarda ‘‘vazifa’’ tushunchasini aniqlashga turli xil yondashuvlar ishlatilgan. Shu bilan birga, tizimli yondashuv (ko‘rib chiqilayotgan konsepsiya bilan bog‘liq) batafsil o‘rganildi, muammoning asosiy xususiyatlari aniqlandi, turli vazifalarni tasniflash mezonlari aniqlandi, kognitiv vazifalar tizimini yaratish uchun turli xil asoslar ishlab chiqilgan, ularning murakkabligi va qiyinchilik darajalari o‘rtasidagi bog‘liqlik, vazifalarning murakkabligini baholash mezonlari o‘rnatildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlari va ko‘nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida ta’limiy o‘yin faoliyatida kognitiv vazifalardan amaliy foydalanish V.V. Ageyeva, I.Y. Lerner, T.V. Napolnova, V.G. Razumovskiylarning asarlarida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

“Kognitiv vazifa” atamasi bilish jarayoni nisbatan mustaqil maqsadga ega bo‘lganda qo‘llaniladi. Kognitiv faoliyatda turli xil vazifalar ajratiladi: sezgi, mnemonik, nutq va aqliy. Tafakkurning bilishdagi aniqlovchi o‘rni “vazifa” tushunchasini yanada tor ma’noga olib keldi. Ko‘pincha, vazifa deganda, muayyan qonuniylik va kategoriyalar bilan bog‘liq bo‘lgan muammoli vaziyatning ma’lum va noma’lum elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni izlab topib, ba’zi amaliy o‘zgarishlarni yoki nazariy savolga javobni talab qiladigan aqliy faoliyat obyekti tushuniladi.

Bu yosh davridagi bolalar ijodiy faoliyatdan tasviriy san’at ayniqsa, rasm chizishni yaxshi ko‘radi. Bolaning nimani va qanday ifodalashiga qarab, uning atrof olamdagi voqelikni qanday idrok qilishi, xotirasi, xayoli va tafakkurining o‘ziga xosligi haqida mushohaza qilish mumkin. Rasmlar orqali bolalar tashqi olamdan olayotgan tassurotlari va bilimlarini yetkazishga harakat qiladilar. Rasmlar bolaning jismoniy va psixologik holatiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. (kasallik, kayfiyat). Aniqlanishicha, kasal bolalar chizgan rasmlar sog‘lomlarnikidan ko‘pgina jihatlari bilan farq qiladi.

Maktabgacha yosh davri badiiy-ijodiy faoliyatida musiqa muhim ahamiyatga ega. Bolalarga musiqiy asarlarni tinglash, musiqiy qatorlarni va tovushlarni turli asboblarda takrorlash quvonch bag‘ishlaydi. Bu yosh davrida birinchi marotaba musiqa bilan jiddiy shug‘ullanishga qiziqish paydo bo‘ladi, u keyinchalik haqiqiy qiziqishga aylanishi va musiqiy qobiliyatni rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar qo‘shiq aytishga, musiqa ostida turli ritmik, raqs harakatlarini bajarishga o‘rganadilar. Qo‘shiq aytish musiqani anglash va vokal qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Pedagogik ensiklopedik lug‘atda kognitiv vazifa yangi bilimlarni, usullarni (ko‘nikmalarni) izlash va o‘qitishda aloqalarni, dalillarni faol ishlatishni rag‘batlantirishni o‘z ichiga olgan ta’lim vazifasi deb hisoblanadi. Kognitiv vazifalar tayyor namunalar bilan hal qilinmaydi, ammo zarur bo‘lgan yangi yechimlarni taxmin qilishadi. Kognitiv vazifada mavzu hal qiluvchi narsaga ega bo‘lgan va takomillashtirishni talab qiladigan ba’zi bilimlardir. Kognitiv vazifa, odatda, ba’zi bir hal qiluvchiga berilgan bilimlarni takomillashtirish vazifasidir.

Ta’limning mustaqillik darajasiga qarab, S.Y. Yakovenko shartli ravishda kognitiv vazifalarni quyidagi toifalarga ajratdi:

– mavjud bilimlar va siz bilishingiz kerak bo‘lgan narsalar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni o‘z ichiga olgan axborot va kognitiv vazifalar (vazifalarning mohiyati yangi bilimlarni egallashdir).

– bilimlarni umumlashtiradigan naqshlarni topishga, ilgari olingan bilimlarni yangi shunga o‘xshash holatlarga o‘tkazish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan kognitiv vazifalarni o‘rgatish. Ushbu muammolarni hal qilishda pedagog tarbiyachi kognitiv vazifani tahlil qilishda bevosita ishtirok etadi.

– o‘rganilayotgan hodisa, jarayonlarni mustaqil baholashga qaratilgani va kognitiv vazifalar. Ushbu turdagi vazifalar bitta hodisaga oid bir nechta qarama-qarshi fikrlarni o‘z ichiga oladi; shu bilan birga, qidiruv va kognitiv vazifalarni ha lqilish butunlay maktabgacha yoshdagi bolalarga yuklanadi.

Bir nechta oddiy tuzilmalardan murakkab tizimlarni yig‘ishni, muhim bo‘lmagan va ikkilamchi narsalarni ajratishni, hodisa yoki vaziyatni tahlil qilishni, vazifa elementlarini birlashtirgan va doimiy o‘zgarib turadigan sharoitlarni hisobga olgan holda ijodiy izlash vazifalari.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kognitiv topshiriqlarni tanlashda I.V Sherbinoy tomonidan aniqlangan kognitiv vazifalar uchun asosiy psixologik va pedagogik talablarga rioya qilamiz:

1) muammoli;
2) nisbiy mustaqillik;
3) maqsadga muvofiqlik;
4) yechimning mavjudligi.

Kognitiv vazifa muammosi birinchi navbatda pedagog tarbiyachi tomonidan tan olinishi kerak bo‘lgan qarama-qarshi vaziyatni yaratishni anglatadi, keyin uni yangi bilimlarga ehtiyoj paydo bo‘lishiga olib keladi.

Vazifaning nisbiy mustaqilligi yoki yaxlitligi – bu erishilgan javob keyingi yangi javobni olishga qadam bo‘lmasligi ma’nosida vazifaning o‘zini o‘zi ta’minlashi hamda vazifaning maqsadga muvofiqligi keng ma’noda (aniq vazifani o‘rganish mantig‘i bilan bog‘liqligi), tor ma’noda (maktabgacha yoshdagi bolaning hayotiy tajribasi va mavzuni bilishi bilan bog‘liqdir).

Vazifaning mavjudligi qiyinchilik o‘lchovidir. Biroq, bu biron bir tarzda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish qobiliyatiga va ularning qobiliyatlariga real, ko‘pincha past darajada moslashishi kerak degani emas. Erkinlik sharoitida doimo maktabgacha yoshdagi bolani rivojlantirish istiqbollariga e’tibor berish kerak.

Kognitiv muammolarni hal qilishni o‘rganish maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining izlanish xususiyatini ta’minlaydigan prinsipga asoslanadi. Ushbu prinsip tarbiyachining bolalarga kognitiv muammolarni qanday hal qilish kerakligini aytishdan bosh tortishini o‘z ichiga oladi. Kognitiv muammolarni hal qilishni o‘rganishning asosiy usuli – bu maktabgacha yoshdagi bolalarga turli murakkablikdagi o‘quv topshiriqlarini taqdim etishdan iborat. Pedagog tarbiyachi tomonidan o‘qitiladigan bilim vazifasini tanlashda hal qiluvchi omil – bu maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv mustaqilligining rivojlanish darajasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan kognitiv muammolarni hal qilishni o‘rganish amaliyotida muayyan muammoni hal qilishda qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Ikki xil qiyinchilik mavjud: bolalar kognitiv vazifani qanday hal qilishni bilishmaydi; bolalar kognitiv vazifani noto‘g‘ri hal qilishadi.

Tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarga muayyan kognitiv vazifani hal qilishda yordam berishning uchta usulini taklif qilishadi. Birinchi usul shundaki, tarbiyachi oldindan javoblarni qidirish yo‘nalishini aniqlab, ushbu turdagi bilim vazifasini beradi. Shundan so‘ng, bola oldingi hal qilinmagan muammoni hal qilishga taklif qilinadi. Ikkinchi usulning mohiyati shundan iboratki, tarbiyachi kognitiv vazifani asosiy vazifani yechimiga aylantiradi. Ammo shuni e’tiborga olish kerakki, har bir vazifani shu tarzda o‘zgartirish mumkin emas. Va nihoyat, maktabgacha yoshdagi bolalarga ma’lum kognitiv vazifani hal qilishda yordam berishning uchinchi usuli, vazifani taqsimlashni o‘z ichiga oladi, bunda ularning har biri qidirish xarakteriga ega va shu bilan birga asosiy, murakkab vazifani hal qilish zanjirining bo‘g‘inidir.

Tarbiyachi maslahatni iloji boricha kamroq ishlatishi kerak, chunki bu maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil ravishda o‘ylash va xulosalar chiqarish imkoniyatidan mahrum qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kognitiv muammolarni yechishga o‘rgatishda, tarbiyachi uchun bolaning fikrini yangi izlanishlarga yo‘naltiradigan qarama-qarshi mantiqiy vaziyatlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Bunday holda, tarbiyachi yechimlarni va uni topish usullarini taklif qilmasligi kerak.

Kognitiv vazifalarni hal qilishning uchta asosiy usuli mavjud:

1. Bolalarga ma’lum kognitiv muammoni hal qilish usuli to‘g‘risida ma’lumot beriladi va uni hal qilish uchun algoritm beriladi, keyinchalik u har qanday bilim muammosini hal qilishga imkon beradi.

2. Bolalarga kognitiv vazifani keyinchalik uni o‘zgaruvchan vaziyatlarda ishlatish bilan hal qilish usuli aytiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar algoritm tuzishni tasavvur qilishadi, ammo ba’zida bu o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan ma’lum kognitiv muammoni hal qilish yo‘lini va yechimini mustaqil izlash, shuningdek, uni hal qilish algoritmni aniqlash.

Kognitiv vazifalarni hal qilish tarbiyachiga maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishini tashkil etish, turli xil ta’lim sohasidagi bilimlarini tizimlashtirishga, kognitiv qiziqishni rivojlantirishga va mustaqil ravishda xulosa chiqarishga imkon beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv topshiriqni qabul qilgandan so‘ng, uning tahlili tarbiyachining rahbarligi ostida tashkil etiladi: ma’lum va noma’lum narsalar aniqlanadi. Kognitiv vazifani tahlil qilishning natijasi – bu maktabgacha yoshdagi bolalarning predmetning xususiyatlari va fazilatlari, tabiiy hodisalarning sabablari haqida taxminlari va ushbu taxminlar to‘g‘ri, xato yoki qarama-qarshi bo‘lishi mumkin.

Tarbiyachi bolalarning barcha taxminlarini tinglashi, ularning nomuvofiqligiga e’tibor berishi kerak. Bolalarning har bir taxminini hisobga olish kerak; agar ular g‘oyalarni taklif qilmasa, tarbiyachi ularni taklif qilishi kerak.

Kognitiv vazifalar tizimi ketma-ketlikda ta’limiy o‘yin faoliyati mazmuni va usullari nuqtayi nazaridan murakkablashadi.

Bizning tushunchamizga ko‘ra, kognitiv vazifa – atrofdagi dunyo haqida ma’lumot olishga va kognitiv qiziqishlarning rivojlanishini ta’minlashga, kognitiv faoliyatni shakllantirishga qaratilgan maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim faolligini oshirish shakli bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkiloti maktabgacha yoshdagi bolalarni kognitiv rivojlanish vazifalarini ta’lim sohalarin ibirlashtirish orqali amalga oshirish imkonini beradi.

Kognitiv vazifalar orqali ilgari olingan bilim va ko‘nikmalar asosida yangi muhitda ma’lum bir harakatni amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Intellektual ko‘nikmalar (fikrlash operatsiyalari) – bu aqliy faoliyatning usullari bo‘lib, u orqali inson aqliy muammolarni hal qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kongitiv vazifalar orqali dunyoqarashini shakllantirish darajasi muayyan tavsiyalar asosida o‘sib borishi tarbiyalanuvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlash, o‘rganilayotgan masalalar mohiyatini chuqurroq anglashga o‘rgatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.“Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining o‘quv dasturi. – T., 2018.

2. Аверин В.А., Дандарова Ж.К., Дергач А.А., Зазыкин В.Г. Психология человека от рождения до смерти: Младенчество. Детство. Юность. Взрослость. Старость. – СПб.: Питер, 2001. – 652 с.Айзенк Г. Психология для начинающих. – Питер: 2000. – С.123.

3. Андрянова В.И. Развитие самостоятельного мышления-ключевая задача соверменного образования /Преподавание языка и литературы. – 2007. - №6. – С. 3-7. .

4. Гальперин П. Я. Психология мышления и учение о поэтапном формировании умственных действий. – Москва: Просвещение, 1966. – С. 446.

5. Гильбух Ю.З. Умственно одаренный ребенок. Психология, диагностика, педагогика.– Киев: НИИ психологии, 1992. – С. 83

6. Савенков, А. И. (2003). Учим детей выдвигать гипотезы и задавать вопросы. Одаренный ребенок, (2), 76-86.

7. Савенков, А. И. (2003). Программа ‘‘Одаренный ребенок в массовой школе’’. Первоесентября, (29).

8. Alimardonova, M. B. (2019). Model of cognitive development preschool children in integrated educational process of preschool educational organization. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(2).

Dilafro‘z MUMINOVA,
Namangan davlat universiteti, ‘‘Boshlang‘ich ta’limda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi’’ kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TA’LIM OLUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarni ijtimoiy faolligini oshirishda kitob o‘qishning intellektual, psixologik va fiziologik jihatlari, ularni kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish muammosining umumiy mohiyati, yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish, kitobni ulug‘lash talabalarda kitobga muhabbat uyg‘otish, kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantiriga doir pedagogik-psixologik ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Vatan, kitoblar, kutubxona, shaxs, talabalar, ijtimoiy, qiziqish, zamonaviy, axborot texnologiyalari, falsafa, badiiy adabiyot, kishilik jamiyati, ma’naviyat, mutolaa, tadqiqot, ilmiy izlanishlar.

В данной статье интеллектуальные, психологические и физиологические аспекты чтения книг в повышении социальной активности учащихся, общая сущность проблемы формирования у них навыков чтения, популяризация чтения среди молодежи, прославление книги, развитие представлены навыки чтения у учащихся, а также развитие навыков чтения.

Ключевые слова. Родина, книги, библиотека, личность, студенты, социальные, интерес, современные, информационные технологии, философия, художественная литература, личное общество, духовность, чтение, исследования, научные исследовательская работа.

In this article, the intellectual, psychological and physiological aspects of reading books in increasing the social activity of students, the general essence of the problem of forming their reading skills, the promotion of reading among young people, the glorification of books, the development of reading skills in students, and the development of reading skills are presented.

Key words. Homeland, books, library, person, students, social, interest, modern, information technology, philosophy, fiction, personal society, spirituality, reading, research , scientific research.

Kitob – inson ma’naviyati va dunyoqarashini yuksaltiruvchi muhim manbaa hisoblanadi. Kitob o‘qigan inson mulohazali, bilimli bo‘lib, yuksak tafakkuri ila boshqalardan o‘zining dunyoqarashi va fikrlashi bilan ajralib turadi. Kitob bilan oshno bola yaxshi inson bo‘lib ulg‘ayadi. Shuning uchun ham oilada, bog‘cha va maktablarda bolalarning kitobga mehrini, adabiyotga qiziqishini oshirish ota-onalarning, o‘qituvchilarning vazifasi.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida insoniyat bir necha mo‘jizaviy ne’mat – moddiy va ma’naviy ashyoga ega bo‘lgan. Ular: ovoz, nutq, yozuv va kitob. Taraqqiyotning turli bosqichlarida evolyusion (asta-sekin oddiydan murakkabga tomon borish) asosida insoniyat qo‘lga kiritgan bu ashyolar sivilizatsiyaning navbatdagi bosqichi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Agar insoniyat ovoz, nutq va yozuv yordamida o‘zaro ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, xohish-istaklarni, intilishlarni bir-biriga bayon qilish

imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, kitob vositasida o‘z ongini boyitish, nutqi, fikrlash va mantiqiy tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantirishga muvaffaq bo‘lgan.

Talabalarni ijtimoiy faolligini oshirishda kitob o‘qishning intellektual, psixologik va fiziologik jihatdan rivojlanishiga yordam beruvchi ta’sirlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kitob o‘qish orqali o‘quvchilarning: nutqi rivojlanadi; boyiydi; tasavvuri o‘sadi; tafakkuri rivojlanadi; xotirasi mustahkamlanadi; hissiyoti (hissiy sifatlar, xususan, hamdardlik hissi) tarbiyalanadi; “ijtimoiy idroki” shakllanadi. Ayni o‘rinda shuni ham qayd etib o‘tish kerakki, shaxsda “ijtimoiy idrok”ning shakllanishi unda yashovchanlik qobiliyatining rivojlanishini ta’minlaydi. Talabalarning kitob o‘qishga ijobiy yondashishlariga erishish dolzarb pedagogik vazifalardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu vazifani hal qilish orqali esa talabalik davridan boshlab shaxs (o‘quvchilar)ni ijtimoiy munosabatlarga izchil, to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi.

Falsafa kategoriyalarining mohiyatiga tayanib aytiladigan bo‘lsa, har qanday oqibat (holat)ning yuzaga kelishi o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, balki aniq sabablar negizida yuz beradi. Shu nuqtayi nazardan olganda O‘zbekistonda yoshlar, xususan, talaba va o‘quvchilar o‘rtasida kitob o‘qishga bo‘lgan salbiy munosabatning shakllanishi, ularning kitobxonlik malakalariga ega bo‘lmasligini bir qator sabablar bilan izohlash mumkin. Chunonchi:

1) badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta’lim muassasalarini ta’minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyondalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil qilish, ta’lim va madaniyat muassasalari uchun kitob xarid qilishga mablag‘lar yetarli darajada mavjud bo‘lgan manbalar hisobidan jalb etish yo‘lida jamiyat miqyosida faollikning yetishmayotganligi;

2) kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta’lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotlarini o‘tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot qilishga qaratilgan tadbirlarning yuksak talablar darajasida emasligi.

Har qanday taraqqiyot ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan mavjud sharoitda shaxs ehtiyojlarini qondiruvchi ma’lumotlarni tarqatuvchi OAV soni, ular qamrab olgan ko‘lamning tobora kengayib borayotganligi kitob va kitobxon mavzusining yanada dolzarblashayotganligida ikki jihatni ko‘rish mumkinligini tasdiqlaydi: “yaxshi tomoni, mutolaa ehtiyoji yuksalib, shaffoflashib borayotganligi; xavotir tarafi ommaviy kitobxonlik susayib, betiyiq kitoblarning rastalarda ko‘payayotganligi”.

Avval aytib o‘tilganidek, badiiy adabiyotlar kishilarga qaysi yosh davrida bo‘lishidan qat’i nazar nutq, tasavvur va dunyoqarashni boyitish, tafakkurni kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, “insonning ma’nan yuksalishiga, salohiyatini boyitishga xizmat qiladi”. Global axborotlashuv sharoitida ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, madaniy qiymatga ega bo‘lmagan kitob mahsulotlarining yaratilayotganligi, badiiy, hatto ilmiy adabiyotlarning yuqori saviya, amaliy qiymatga ega emasligi o‘z navbatida shaxsning fikrlash qobiliyati, tafakkur salohiyatiga ega bo‘lishiga erishishni ijtimoiy ehtiyojga aylanishini ta’minladi. Jamiyat a’zolarining ong, tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo‘lishlariga erishishning muhim omili sifatida kitob o‘qishni, kitobxonlikni keng targ‘ib qilish masalasini tobora dolzarblashishiga olib kelmoqda.

Talabalarni ijtimoiy faolligini oshirishda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish muammosining umumiy mohiyatini yoritishda dastlab tayanch tushunchalarni ajratish hamda ularning mazmunidan xabardor bo‘lish tadqiqiy xarakterga ega pedagogik faoliyat

yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash, sinovdan o‘tkaziladigan nazariy g‘oya va farazlarni aniq ifodalash, kutiladigan natijani oldindan to‘la tasavvur etish imkoniyatini ta’minlaydi. Shu sababli ilmiy tadqiqotni olib borishda muammo asosini tashkil etuvchi, uning mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib olish va ularni pedagogik nuqtayi nazardan yoritishga e’tibor qaratildi.

Pedagogika sohasida shaxs, shu jumladan, talabalar hamda kitobxonlik o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni yoritishda “kitob”, “o‘qish”, “kitob o‘qish” (yoki “mutolaa”), “kitobxonlik savodxonligi”, “kitobxonlik”, “kitobxonlik faoliyati”, “kitobxonlik ko‘nikmasi”, “kitobxonlik malakasi”, “kitobxonlik kompetentligi” hamda “kitobxonlik madaniyati” tushunchalari tayanch tushunchalar – asosiy kategoriyalar sifatida qabul qilingan. Quyida mazkur tushunchalar negizida pedagogika va psixologik yo‘nalishlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda shaxs (xususan, talabalar)ning kitobga, kitob o‘qishga bo‘lgan munosabatining mazmuni ochib beriladi.

Tadqiq etilayotgan muammoga doir manbalarning barchasida arabchadan tarjima qilinganda “yozilgan, muqovalangan asar” ma’nosini anglatuvchi “kitob” tushunchasi deyarli bir xil deya ta’riflanadi: ma’lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 varaqdan kam bo‘lmagan bosma (qadimgi qo‘lyozma) asar; bosma hamda qo‘lyozma (qadimiy) asosidagi matnli va grafikli ma’lumotlarni o‘z ichiga olib, juzlab tikilgan yoki alohida qog‘oz yoki daftar sahifalaridan iborat qattiq muqovali nodavriy chop etiladigan nashr mahsuloti turlaridan biri. Qolaversa, “ko‘p asrlardan buyon insonning yo‘ldoshi bo‘lib kelayotgan qadimgi madaniy atribut” bo‘lgan “kitobdan dastlab voqyeliklar, ilmiy bilimlarni yozib borish uchun foydalanishgan, so‘ngra kitob chop etish va badiiy adabiyotning yaratilishi bilan bog‘liq holda bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazishning elementiga aylandi”.

Anglanganidek, kitoblarning eng muhim xususiyati ularning qo‘lyozma (asosan, qadimgi adabiyotlar) va bosma shaklda bo‘lishi, matnli yoki grafikli ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi, muqovalanishi sanaladi. Global axborotlashuv sharoitida kitoblar, nafaqat qo‘lyozma va bosma, shu bilan birga elektron shaklda ham mavjud bo‘ladi.

Kitoblar orasida bolalar uchun mo‘ljallangan kitoblar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu turdagi adabiyotlar ham boshqa turdagi kitoblar kabi borliq to‘g‘risidagi axborotlarni jamlovchi, kishilik taraqqiyoti tajribasini o‘zida jamlovchi manbadir. Shu sababli talabalarni ham kitobga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishlariga erishishda bolalar adabiyotlarini shunchaki ermak, o‘yinchoq deb emas, balki ularni intellektual, hissiy, axloqiy madaniyatini shakllantirishning eng samarali vositasi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, kitob va kitob o‘qish “yosh avlodning ma’naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san’atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash”da o‘ziga xos o‘rin tutadi. Kitob “bolalarni qiziqtira olishi, zavqlantirishi, hayratlantirishi, to‘lqinlantirishi kerak” .

Bolalar adabiyotlari (bolalar uchun mo‘ljallangan badiiy asarlar)ning eng muhim didaktik ta’sirlaridan yana biri – bolalarda estetik dunyoqarash (estetik ong, his-tuyg‘u, did, ideal, sezgi, tasavvur, tafakkur hamda qarash)ni shakllantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Estetik dunyoqarashning shakllanishi hamda rivojlanishi bolalarning hissiy jihatdan kamol topishiga yordam beradi. Hissiyot rivojlanishining eng muhim jihati – bolalar atrofdagilarga, borliqqa, tabiatga nisbatan befarq, loqayd bo‘lmaydi. Ming afsuski, “bugungi kunda o‘qish umummadaniy, estetik, hissiy ehtiyojlarni qondirishga emas, balki eng oddiy axborot olish ehtiyojini qondirish”ga yo‘naltirilmoqda.

Talabalarning kitob bilan muloqoti uni o‘qishda ko‘rinadi. Mohiyatan o‘qish “ijtimoiy

ahamiyatli axborotlar, kasbiy va kundalik faoliyatni tashkil etishda zarur bo‘lgan bilimlar, avval va hozirda madaniy jihatdan qadrli bo‘lgan tarixiy hamda zamonaviy voqealar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishning muhim usuli”dir.

Pedagogik manbalarda talabalar tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning asosiy turlari o‘yin, mehnat va o‘qish ekanligi qayd etib o‘tiladi. O‘yin faoliyati ixtiyoriylikka asoslanib, o‘quvchilar tomonidan borliqni anglash, amaliy harakatlarni tashkil etish ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish, kattalarning harakatlarini imitatsiyalash uchun imkoniyat yaratiladi. Mehnat va o‘qish faoliyatlari majburiylik xususiyatiga ega. Ular orqali o‘quvchilar mehnat va o‘qish (ta’lim olish)ni ijtimoiy zaruriyat ekanligini anglaydi, muayyan turdagi mehnat faoliyatini bajarishga oid ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradi, uni tashkil etish jarayonida ijobiy fazilatlar – mehnatsevarlik, tartiblilik, intizom, o‘zgalarning mehnati hamda mehnat mahsulotlariga ijobiy munosabatda bo‘lish, ularni asrash, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish, o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlik, mas’uliyat kabilarni o‘zlashtirib boradi.

“Mutolaa” (“kitob o‘qish”) tushunchasi arab tilidan tarjima qilinganda “diqqat bilan o‘qish”, “o‘rganish” ma’nolarini anglatadi. Nazariy jihatdan ushbu tushuncha “diqqat bilan o‘qish, o‘qib tushunib olish”ni anglatadi. Shuni unutmaslik zarurki, kitob o‘qish – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mashaqqatli mehnat sanaladi. V.A.Suxomlinskiyning fikricha, “kitob o‘qish aqlli, fikrlovchi tarbiyachi uchun bolaning yuragiga yo‘l topishga yordam beradigan so‘qmoq yo‘lga o‘xshaydi”. So‘qmoq yo‘ldan yurish esa har doim ham oson kechmaydi. Shu sababli bu jarayonni asta-sekin, biroq, izchil tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Darhaqiqat, mutolaa kitobxon shaxsini shakllantirishning muhim asosi bo‘lib, u muayyan ko‘nikma, malaka va tajribaga ega bo‘lishni taqozo qiladi. Pedagogik yo‘nalish va bolalarda o‘qish ko‘nikmasi, malakasi va madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirilgan holda mutolaa ko‘nikmalari quyidagilardan iborat ekanligini aytib o‘tish mumkin: matnda nima, kim haqida so‘z yuritilayotganligidan kelib chiqqan holda vaziyatni tushunish; muhim axborotni ajratib ko‘rsatish; matn ostida ifodalangan yashirin sabab va mo‘ljallarni tushunish; matnning hal qiluvchi tahlili: matnning turli qismlarini o‘lchash; shaxsiy tajribani qiyoslash; matnning shaklini o‘zgartirish va izohlash: mazmunni chiqarish; matn bo‘yicha muhokamani tashkil etish, o‘qilganlarga asoslangan holda xulosa chiqarish; matnni baholash, muallifning pozitsiyasi (yondashuvi)ni ko‘ra olish, yaxlit holda asarning kayfiyatini his qilish; o‘qilganlarga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish va o‘z tanlovini izohlash.

“Texnika, o‘qish sur’ati, o‘qiganlarni tushunish – kichik yoshdagi maktab o‘quvchisining badiiy, shu bilan birga, umumiy ta’limdagi olg‘a harakatlanishining asosiy tashkil etuvchilari sanaladi”. Talabalarning o‘qish (mutolaa) sur’ati “ta’limning asosiy tarkibiy qismi emas, u ta’lim oluvchining individual xususiyatlari, kuch-quvvati, asab tizimining qo‘zg‘aluvchanligi, temperamentiga bog‘liq. Shu sababli bir daqiqada o‘qiladigan so‘zlarning miqdori har bir bola uchun alohida belgilash” talab etiladi.

Kitob o‘qish (kitob mutolaasi)da eng muhim omil – qiziqish sanaladi. Asar syujetining qiziqarliligi, bayon etish usulining sodda, ravonligi bolalarni kitobga bo‘lgan e’tiborini tortadi. Shu sababli talabalarni kitob o‘qishga majburlash emas, balki ularda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish hamda tizimli ravishda rivojlantirib borish zarur. Qanday omillar talabalarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni yuzaga keltiradi?

Shaxsning kitobga bo‘lgan ijobiy munosabati u tomonidan izchil, samarali tashkil etiladigan kitobxonlik faoliyatida namoyon bo‘ladi. “Kitobxonlik faoliyati – shaxsning

kundalik faoliyati va hayot tarzini tashkil etishga bo‘lgan yondashuvi”ni anglatadi. Bu o‘rinda keltirilgan ta’rif, bizning fikrimizcha, kitobxonlik faoliyati mohiyatini yetarlicha yoritmaydi, chunki “kundalik faoliyat” tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, yo‘nalishi, xarakteri, qolaversa, shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi tufayli bir necha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv-bilish faoliyati, ijtimoiy faoliyati, kasbiy faoliyati va boshqalar. Shu sababli berilayotgan ta’rif aniq ifodalanishi zarur. Bu o‘rinda tushunchani quyidagicha ta’riflash mumkin: kitobxonlik faoliyati – shaxsning kitob tanlash, uni o‘qish, asar g‘oyasi va mazmunini tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, asar syujetiga nisbatan munosabat bildirishdan iborat xatti-harakati.

Kitobxonlikda nimalar ko‘zga tashlanadi? Yoki boshqacha aytganda, haqiqiy kitobxon qanday sifatlarga ega bo‘ladi?

Tadqiqotni olib borish davrida hayotiy tajriba, pedagogik kuzatish hamda kitoblarni, shu jumladan, badiiy kitoblarni ko‘p o‘qiydigan shaxslar faoliyatini kuzatish natijasida o‘qish va kitoblarga mehr qo‘yishgan shaxslar quyidagi sifatlarga ega bo‘lishlari aniqlandi: asar mazmunini tushunish; asar voqeliklari o‘rtasidagi izchil bog‘liqlik va aloqadorlikni ko‘ra olish; asar qahramonlarining kechinmalari, o‘y-fikrlari, hayotiy intilishlarini tushunish va ularga hamdardlik bildira olish; o‘zini asar qahramonining o‘rniga qo‘yib, u duch kelgan muammolarni hal qilishga urinish, muammoni hal qilishning yo‘llarini izlash; asar mazmuni va voqeliklariga nisbatan shaxsiy munosabatni ifodalash.

Xulosa qilib aytganda, shaxsda kitob o‘qish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab, kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qiymatini tushunishlari uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil., 6-son, 70-modda.
1. Бородина В. А. Культура чтения – универсум развития личности и модернизация образования // Культура чтения в контексте модернизации Российской школы: материалы Второй науч.-практ. конф. – СПб.: 2003. – С. 7-9.
2. Бунеева Е.В., Чиндилова О.В. Технология работы с текстом в начальной школе и 5-6 классах (технология формирования типа правильной читательской деятельности) // Образовательные технологии. Сборник материалов. – М.: Баласс, 2008. – С. 77.
3. Мосунова Л.А. О теоретических основах развития полноценного восприятия художественной литературы // Ж. Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. – Вятск: 2009. - №1. – С. 136-141.
4. Нечаев А.П. Психологические основы разных типов процесса чтения у детей // Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии. – М.: Изд-во МГУ, 2000. – С. 8-11.
5. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Минск: Народная асвета, 2001. – С. 287.

Orzigul ASLONOVA,
Qarshi davlat universiteti dotsenti

RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM MAZMUNINING PSIXOLOGIK ASOSLARI VA UNING O'QITISH JARAYONIDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi o'quv matnining, didaktik materialning har qanday maxsus qurilishini va didaktik yordamning mavjudligini o'ziga xosligi, rivojlantiruvchi ta'limning psixologik asoslari, rivojlanish taraqqiyoti haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, rivojlantiruvchi ta'limga yondashuv, maktabda maxsus tashkil etilgan o'qitish ta'siridan ancha oldin rivojlanadigan subyektiv tajribaning faol tashuvchisi sifatida bolaning individualligi, o'zini o'zi qadrlashi, o'ziga xosligiga ustuvorlik berilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, rivojlantiuvchi ta'lim, ta'lim amaliyoti, tizim, didaktik tuzilma, yondashuv, taraqiyot.

В статье высказывается мнение о том, что технология развивающего обучения, ориентированная на обучающихся, предполагает специфику содержания учебного текста, дидактического материала и наличие дидактической помощи, психологические основы развивающего обучения, прогресс в развитии. Также в подходе к развивающему обучению приоритет отдается индивидуальности, самооценке, самобытности ребенка как активного носителя субъективного опыта, который развивается задолго до воздействия специально организованного обучения в школе.

Ключевые слова. Образование, Развивающее образование, образовательная практика, система, дидактическая структура, подход, прогресс.

The article expresses the opinion that the technology of developmental learning, focused on students, assumes the specifics of the content of the educational text, didactic material and the availability of didactic assistance, the psychological foundations of developmental learning, progress in development. Also, in the approach to developing learning, priority is given to the individuality, self-esteem, identity of the child as an active carrier of subjective experience, which develops long before the impact of specially organized schooling.

Keywords. Education, Developing education, educational practice, system, didactic structure, approach, progress.

Hozirgi vaqtda rivojlantirish ta'limining o'ziga xos g'oyalari "qayta tug'ilish"ni boshdan kechirmoqda. Chunki, unga butun ta'lim tizimini samarasini ta'minlash uchun katta ijobiy imkoniyatga ega bo'lgan haqiqiy texnologiya sifatida qiziqish yuzaga kelmoqda.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi endigina ishlab chiqilayotgan 1960-1970-yillarda u bilan maktab amaliyoti o'rtasida sun'iy to'siq o'rnatildi. Ilmiy jamoatchilik va amaliyotdagi o'qituvchilar tomonidan yangi tizim keng e'tirof etilganiga qaramay, maktab ta'limi tizimiga rivojlantiruvchi ta'limni haqiqiy joriy etishning barcha qiyinchiliklarini yengib o'tish mumkin emas edi.

1980-yillarning oxirida rivojlantiruvchi ta'lim tobora ko'proq tadqiqotchilar tomonidan sinovdan o'tgan yopiq laboratoriya tizimidan ommaviy maktab sharoitida takrorlanishi

mumkin bo‘lgan haqiqiy texnologiyaga aylana boshladi. Bu jarayon sezilarli ko‘lamga egaligi bir qator izlanishlardan ko‘rish mumkin. Bunga ko‘ra, V.S.Bibler o‘zining (1991) “Madaniyatlar muloqoti maktabi” ta’lim tizimini taklif etdi. Uning o‘ziga xosligi rivojlantiruvchi ta’lim nafaqat boshlang‘ich maktabni, balki o‘rta maktabning barcha sinflarini ham o‘z ichiga olishi lozimligini tushuntirish edi.

V.S.Bibler tizimi madaniyatning u yoki bu turi bilan belgilanadigan turli xil tafakkur turlarining dialogi orqali maktab o‘quvchisining rivojlanishini aniqlash pozitsiyasiga asoslanadi. Ta’lim jarayonida obyektlar, hodisalar, tushunchalar turli madaniyatlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Dastlabki ikki sinfda bolalarni raqam, so‘z, tabiiy narsa yoki hodisa, san’at asari va boshqalar kabi asosiy tushunchalar bilan dastlabki tanishtirish amalga oshiriladi. 3-4 sinflarda bu tushunchalar antik madaniyat “prizmasi orqali”, 6-7 sinflarda o‘rta asrlar, yettinchi va sakkizinchi sinflarda yangi davr, 9-10 sinflarda zamonaviylik tushunchalari ko‘rib chiqiladi. Quyi sinflarda darslarning g‘ayrioddiy xususiyati “madaniyatlar muloqoti”ni o‘rnatish uchun ularga katta yoshdagi o‘quvchilar va o‘qituvchilarni boshqa fikrlash turlarining “tashuvchilari” sifatida taklif qilishdir.

“Rivojlantirish ta’lim” konsepsiyasini ko‘rib chiqishda shuni ta’kidlash kerakki, uning paydo bo‘lishini faqat ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichi bilan bog‘lash kerak emas. Bugungi kunda ta’limni rivojlantirish ta’limga qaratilgan yondashuvlarning ilmiy-psixologik asoslari L.S.Vigotskiy S.L.Rubinshteyn, D.B. Elkonin va boshqalar pedagogik faoliyatda ta’limni rivojlantirish tamoyillarini ham taklif qilishganligi bilan ahamiyatli.

Mamlakatimizda ham rivojlantiruvchi ta’lim faoliyati bilan R.Jurayev, T.G‘afforova, B. Adizov, N. Muslimov, M. Usmonboyeva, Sh. Nurullayeva va boshqalar tomonidan bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan rivojlantirish ta’lim tizimini loyihalash bo‘yicha ancha boy tajriba to‘plangan.

Turli xil nazariy tushunchalar va amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish dasturlarini birlashtiradigan eng muhim umumiy xususiyatlardan biri bu rivojlanishni o‘z-o‘zini rivojlantirish, bolaning kattalar bilan hamkorlikda amalga oshiradigan faol ijodiy jarayon sifatida tushunish g‘oyasi muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, o‘quvchining rivojlanishi umumiy qonunlarga bo‘ysunadi. Bu qonuniyatlardan biri shundaki, bolada yangi aqliy shakllanishlarning paydo bo‘lishi, albatta, bolaning o‘z faoliyati, uning o‘rganish va harakat qilish istagi bilan bog‘liq. Bu faqat bilim bola uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lganda mumkin bo‘ladi. Rivojlanish optimal tarzda amalga oshishi uchun uning o‘z-o‘zini rivojlantirishga aylanishi kerak.

Bolaning o‘z-o‘zini anglashining rivojlanishi tashqi tartibga solish, unga kattalar (o‘qitish, tarbiyalash) tomonidan qo‘yiladigan talablar tizimi va uning (bolaning) o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan faoliyati o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish orqali amalga oshiriladi. Bola o‘sib ulg‘aygani sari rivojlanish manbai shaxs ichida harakat qiladi, xulq-atvorning tashqi belgilanishi ichki xususiyatga aylanadi. Bunda harakat qiluvchi va aks ettiruvchi o‘rtasida shaxs ichidagi qarama-qarshilik paydo bo‘ladi, bu ijodiy darajaga ko‘tarilish dvigateliga aylanadi. L.M.Mitina (1994) o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishning ushbu mexanizmiga ishora qiladi. Agar biron sababga ko‘ra bu jarayonning rivojlanishi sodir bo‘lmasa, inson o‘z hayotiy faoliyatining subyektiga aylana olmay, tashqi ta’sirlar obyekti bo‘lib qoladi.

Zamonaviy pedagogika bevosita psixologiya bilan bog‘liq bo‘lib, psixologik aspektda bir qator muhim savollar saqlanib qolmoqda, ular hali eksperimental ravishda tasdiqlanishi mumkin bo‘lgan aniq va to‘liq nazariy javobni olmagan. R.S. Nemov (1993) fikriga ko‘ra, zamonaviy rivojlanish psixologiyasining bir nechta markaziy muammolarini

ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Bola psixikasining rivojlanish omillari muammosi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, bizi kki omil – biologik (irsiy) va ekologik (ijtimoiy)ning aqliy rivojlanishiga ta’siri haqida gapiramiz. Psixologlar o‘rtasida inson yetukligining organik, anatomik va fiziologik xususiyatlari va ijtimoiy (atrof-muhit) ta’sirining psixikasining rivojlanishiga ta’sir darajasi to‘g‘risida haligacha kelishuv mavjud emas.

2. Spontan (tasodifiy) ta’sirlar va maqsadli o‘qitish vatarbiyalashning ta’siri muammosi. Boshqacha qilib aytganda, insonga nima kuchliroq ta’sir qiladi: ba’zi odamlar bilan tasodifiy munosabatlar, o‘qilgan kitob, qayerdadir eshitilgani yoki ta’lim muassasalari tizimi orqali tashkil etilgan trening. Muayyan muammo – bu oila va maktab ta’siri o‘rtasidagi munosabatlar.

3. Moyillar va qobiliyatlar nisbati muammosi. Iste’dodlarni “o‘stirish” mumkinmi yoki barchasi organizmning tabiiy xususiyatlariga bog‘liqmi?

4. Intellektual va shaxsiy rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlar muammosi. Nimaga ta’sir qiladi va ularning umumiy aqliy rivojlanishdagi nisbati qanday?

Bu muammolarning barchasi rivojlantiruvchi ta’limning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilishda alohida ahamiyatga ega.

Keling, faqat biologic va ekologik omillarning rivojlanishiga ta’sir qilish muammosini ko‘rib chiqishga to‘xtalamiz.

Zamonaviy psixologik-pedagogika fanida ta’limni rivojlantirishni nafaqat ijtimoiy-madaniy tajribani avlodlarga yetkazish jarayonida uzluksizlik nuqtayi nazaridan, balki zamonaviy o‘quvchining o‘zi tarix va madaniyatni o‘rganish qobiliyati nuqtayi nazaridan ham ko‘rib chiqishga urinishlar mavjud. Ushbu fikrlar ta’limning turl idarajalarida bolani o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga madaniy-tarixiy yondashuvning ahamiyatini ko‘rish mumkin.

L.S.Vigotskiyrivojlantiruvchi ta’limtizimlariniuchundastlabkishartlarbo‘libxizmatq ilganmuayyan qoidalarni taklif etdi va ularningmohiyatiquyidagicha asosladi. Inson taraqqiyotining mahsullari uning tarixi davomida tabiatni o‘zgartiruvchi turli xil mehnat qurollari va uni o‘zgartiruvchi belgilar tizimiga aylandi. Belgilar (birinchi navbatda, so‘zlar, tasvirlar, raqamlar) yordamida inson o‘ziga ta’sir qildi, o‘zgartirdi, barcha aqliy funksiyalarini tikladi. Bu odamga hayvonlarga nisbatan tubdan yuqori darajaga o‘tishga imkon berdi.

Bolaning individual rivojlanishi faqat ijtimoiy sharoitda, vosita va belgilarni o‘zlashtirish jarayonida, ya’ni o‘rganish jarayonida ko‘rib chiqilishi mumkin. Natijada, bola o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida kattalar bilan birgalikda faoliyat, u bilan hamkorlik, muloqot, yuqori aqliy funksiyalarni shakllantiradi. Birinchidan, bu tashqi tekislikdagi ob'ektiv faoliyatda sodir bo‘ladi, so‘ngra bu funksiyalar ichki tekislikka o‘tib, shaxsiy ichki aqliy jarayonlarga aylanadi. “Bolaning madaniy rivojlanishidagi har bir funksiya sahnada ikki marta paydo bo‘ladi, ikkita tekislikda, birinchi navbatda ijtimoiy, keyin psixologik, birinchi navbatda odamlar o‘rtasida ... keyin bolaning ichida”, deb yozadi Vigotskiy. Bunday, masalan, ichki nutqning paydo bo‘lish usuli. Bu jarayon interiorizatsiya deb ataladi.

L.S.Vigotskiyning fikriga ko‘ra, ta’lim bolaning proksimal rivojlanish zonasiga va yetakchi rivojlanishiga qaratilishi kerak. Haqiqiy rivojlanish zonasi bolaning test topshiriqlarini qanchalik muvaffaqiyatli bajarayotganini baholash orqali aniqlangan bo‘lsa, u holda proksimal rivojlanish zonasi rivojlanishning “ertaga”ni belgilaydi, bu uning yordami bilan kattalar bilan qanday ishlashi bilan baholanishi mumkin.

L.S.Vigotskiyning ushbu g‘oyalari bugungi kunda ishlab chiqilayotgan bir qator rivojlanayotgan ta’lim tizimlarining asosini tashkil etdi, ularning mohiyati va asosiy tamoyillarini biz qisqacha tavsiflaymiz.

Rivojlantirish ta’lim nazariyasi Elkonin-Davidov tizimi deb nomlangan yangi ta’lim texnologiyasining asosini tashkil etdi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning mazmuni nazariy bilimlar (ularni zamonaviy falsafiy va mantiqiy tushunishda), usul – kichik yoshdagi o‘quvchilarning birgalikdagi ta’lim faoliyatini tashkil etish (va birinchi navbatda, o‘quv muammolarini hal qilishni tashkil etish). Rivojlanish mahsuli kichik maktab yoshiga xos bo‘lgan asosiy psixologik neoplazmalardir ”.

L.V.Zankov rivojlantiruvchi ta’limning uchta asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatadi. Birinchidan bolaning kuzatishi, aqliy faoliyati hamda amaliy harakatlarni rivojlantirish. Bundan aytish mumkinki, mazkur didaktik tizim quyidagi asosiy g‘oyaga asoslanadi: agar o‘quv jarayoni maktab o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun eng samarali bo‘lsa, u bilimlarni ongli va doimiy o‘zlashtirish uchun ham ishonchli asos bo‘ladi. Shu bilan birga L.V.Zankov rivojlantirishning didaktik tizimi bo‘yicha o‘qitish quyidagi muhim tamoyillarga asoslanadi:

1. Yuqori qiyinchilik darajasida mashq qilish.
2. Nazariy bilimlarning yetakchi roli.
3. Tez sur’atda oldinga siljish.
4. O‘quvchining o‘quv jarayonidan xabardorligi.
5. Barcha o‘quvchilar bilan maqsadli va tizimli ish olib borish.

Rivojlantiruvchi ta’lim tizimida ijtimoiy-genetik psixologiyaga mos ravishda yaratilgan asosiy konsepsiyani ta’lim muhiti konsepsiyasi deb hisoblash mumkin. Ushbu yondashuvga ko‘ra, bolaning rivojlanishi ong va faoliyatning turli shakllariga xos bo‘lgan ko‘p o‘lchovli va ko‘p qirrali vositalarni o‘zlashtirish jarayonida sodir bo‘ladi. Bu holat bizga ushbu turdagi maktabning ta’lim maydonini madaniy va tarixiy normalar sifatida ijtimoiy normalarni o‘zlashtirish imkoniyatlari maydoni sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии / Выготский Л.С. – Х.: Ранок, 2000. – С. 112

2. Занков Л. В. Избранные педагогические труды [пособие для преподавателей] / Занков Л.В. – К.: Нач. школа, 2001. – С. 122

3. Зинченко В. П. Человек развивающийся: Очерки украинской психологии / Зинченко В.П.– Х.: Ранок, 2004. – С. 368

4. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения / Давыдов В.В., Эльконин Д.Б. – К.: Освита, 2006. – С. 240

5. Калмыкова З.И. Продуктивное мышление как основа обучаемости / Калмыкова З.И. – К.:Нач. школа, 2001. – С. 240

Maftuna XO‘JAMBERDIYEVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

EYDEKOLOGIYA TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING PSIXO-FIZIOLOGIK JARAYONLARI MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida eydekologiya tamoyillarini qo‘llashning o‘ziga xosligi, o‘quvchilarining kognitiv qiyinchiliklarining asosiy sababini bartaraf etish va ularning asab tizimidagi individual xususiyatlarni o‘rganishi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Psixologiya, asab tizimi, o‘quvchi, sistema, kompetensiya, kognitiv, sabab, oqibat.

В статье излагается специфика применения принципов эйдекологии у младших школьников, устранение основной причины когнитивных трудностей учеников и изучение индивидуальных особенностей нервной системы.

Ключевые слова. Психология, нервная система, ученик, система, компетентность, познавательный, причинный, следственный.

The article describes the specifics of the application of the principles of ecology in younger schoolchildren, the elimination of the main cause of cognitive difficulties of students and the study of the individual characteristics of their nervous system.

Keywords. Psychology, nervous system, student, system, competence, cognitive, causal, investigative.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida eydekologiya tamoyillaridan foydalanish o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, bu faqagina pedagogik sharoitlar bilan emas, psixo-fiziologik jihatlar bilan ham xarakterlanadi. Ma’lumki, miya faoliyati jarayonlarining individual namoyon bo‘lishi, asab tizimining asosiy xususiyatlari bilan bog‘liq xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, asab tizimi xususiyatlarining namoyon bo‘lishining asosiy belgisi – doimiylik, shunga o‘xshash holatlarda individual xatti-harakatlarning takrorlanishi. Asab tizimining individual xususiyatlariga quyidagilar kiradi: asabiy jarayonlarning kuchi va zaifligi, harakatchanlik va inersiya, tezlik va sekinlik, muvozanat va beqarorlik, sezgirlikning ortishi va pasayishi, hissiy qo‘zg‘aluvchanlik va letargiya.

Funksional xususiyatlar psixologiyada chap-o‘ng yarim sharning, chap-o‘ng qo‘lning dominant kognitiv jarayonlar bilan bog‘lanishini o‘z ichiga oladi. Ular tashqi belgilar (qo‘l) bilan aniqlanishi mumkin bo‘lgan narsalar nuqtayi nazaridan o‘ziga xosdir, bu esa o‘qituvchilarga tashxis qo‘yishni osonlashtiradi. Ma’lumki, o‘ng qo‘li erkaklar nevrotizmga kamroq moyil. Chap qo‘llar hissiylik bilan ajralib turadi, lekin o‘zini o‘zi boshqarish va ijtimoiy moslashuvning past darajasi. Chap qo‘llar badiiy fikrlash turini ko‘rsatadi, og‘zaki mantiqiy muammolarni yaxshiroq hal qiladi, o‘ng qo‘llar esa vizual-majoziy fikrlashda muvaffaqiyat qozonadi. Individual farqlar muammosini hal qilishning neyropsixologik yondashuvi individual farqlarni bir vaqtning o‘zida ko‘plab ruhiy jarayonlar va tegishli xususiyatlar bilan tasniflash imkonini beradi.

Psixolog M.K.Akimova kuchli-zaif, harakatchan inert bolaning psixologik portretini

taklif etadi. Shunday qilib, kuchli asab tizimiga ega bo‘lgan bolada ular quyidagilardan ajralib turadi: quvnoqlik, o‘ziga ishonch, zo‘riqishning yo‘qligi, tasavvur va harakatning qulayligi, charchamaslik, faoliyatga to‘liq singib ketish, chidamlilik, vaqt va kuchni oqilona va tejamkorlik.

Psixofiziologiya asab tizimida sodir bo'ladigan fiziologik va biokimyoviy o'zgarishlarni ham o'rganadi. U ularni faoliyatning turli jihatlari bilan bog'lashga harakat qiladi: xotira faoliyati, hissiyotlarni tartibga solish, uxlash va orzu qilish. Tadqiqot usullari juda xilma — xildir-elektrodlarni miyaga joylashtirishdan tortib fiziologik namoyonlarni qayd etish uchun maxsus asboblardan foydalanishgacha.

Ushbu tadqiqotlar ‘‘ibtidoiy’’ miya tuzilmalarining, hayvonlar va odamlarda mavjud bo'lgan, hissiy jarayonlar, instinktlarning namoyon bo'lishi, uyqu va hokazolarning markazlari bo'lib xizmat qiladigan eng muhim rolini aniqladi. Psixofiziologiyaning yutuqlari klinik amaliyotda, psixofiziologik jarayonlarning kibernetik modellarini qurishda, shuningdek psixofiziologiyaning mehnat psixofiziologiyasi, sport psixofiziologiyasi va boshqalar kabi amaliy sohalarida keng qo'llaniladi.

Asab tizimi zaif bo‘lgan bola quyidagilar bilan ajralib turadi: xotirjamlik, ehtiyotkorlik, itoatkorlik, charchoqning kuchayishi, aniqlik, shovqinga toqat qilmaslik, ta’sirchanlikning kuchayishi, noaniqlik, qo‘rquv va muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi. Bu xususiyatlarning haddan tashqari ko‘rinishi sifatida ular o‘qituvchining keskin gapidan so‘ng, “sinf aylana boshladi, so‘zlarning yarmi o‘tib ketdi, lekin quloqqa yetganlari yetarli, oyog‘i bukilib, yarmidan bexabar o‘tirdi” degan ta’rifni beradi.

Tadqiqotchi harakatchan asab tizimiga ega bo‘lgan bolaning asosiy tipik xususiyatlarini ko‘rib chiqadilar: bezovtalik, diqqatni jamlashning yetishmasligi, beparvolik, o‘tkir va tartibsiz jismoniy harakatlar, tez moslashish va o‘zgaruvchanlik qobiliyati. Inert asab tizimiga ega bo‘lgan bola butunlay boshqacha yo‘l tutadi: xotirjamlik, mas’uliyat, harakatlarning tartibliligi, arzimas narsalarga qiziqish, turli ogohlantirishlarga zaif reaksiyalar, ta’sirchanlik, imo-ishoralarsiz sekin nutq va boshqalar.

Nerv tizimi tipining xususiyatlarini shaxsning genetik, fiziologik nisbatan barqaror xususiyatlari sifatida ta’kidlab, muallif o‘quvchilarning psixologik qiyofasi nafaqat asab tizimining xususiyatlari, balki ularning butun majmuasi va xususiyatlari bilan ham ajralib turishini ta’kidlaydi. U o‘z mulohazalarini quyidagi o‘xshatish orqali keltirgan: “Shaxsning individual xususiyatlarining bevosita fiziologik asosi so‘zning keng ma’nosida hayot tarbiyasi jarayonida shakllangan murakkab va barqaror aloqalardir. Ammo bu bog‘lanishlar sistemalarining shakllanishi ham, faoliyat ko‘rsatishi ham mohiyatan nerv sistemasining tabiiy xususiyatlariga bog‘liq, xuddi ma’lum bir yerdagi o‘simliklarning tabiati tuproq xususiyatlariga bog‘liq bo‘lganidek.

Bu yerda bolaning asab tizimining individual xususiyatlarining ham pedagogik, ham ijtimoiy muhit ta’siriga ochiqlik darajasi muammosi paydo bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, rivojlanish tendensiyasi yoki ijobiy o‘zgarishlar bolalarning fiziologik xususiyatlarining o‘zgarishi maktabning o‘quv va tarbiyaviy faoliyati muhitini yaxshilashda ko‘rinadi. Aytaylik, atrof-muhitni bolaga erkin rivojlanish va kattalar hayotining ijtimoiy normalari bilan tanishish imkoniyatini beradigan tarzda o‘zgartirish mumkin.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining individual yoki tipik yosh xususiyatlarining namoyon bo‘lishining yana bir shakli – bu jamiyatda, maktabda, oilada o‘rnatilgan va ularga qo‘yilgan normalar va talablarga bolalarning himoya xatti-harakatlari. Z.Freydning “Psixologiya va himoya mexanizmlari” asarida maktab o‘quvchilariga xos bo‘lgan xulq-atvor reaksiyalari va ularning o‘zlarini ijtimoiy bosimdan yoki kattalarning boshqa

tartibga soluvchi talablaridan himoya qilishga urinishlari tavsiflanadi. Ular orasida:

– kattalarning o‘z muammolariga e’tibor, g‘amxo‘rlik va qiziqish yetishmasligi holatlarida yaqin munosabatlar va muloqotdan voz kechish (gospitalizm sindromi);

– kattalarning me’yorlari, talablari, adolat va ularning g‘amxo‘rlik, e’tibor va erkinlik huquqlarini ta’minlashga faol norozilik bildirishda ifodalangan muxolifat;

– taqlid – o‘zini yanada muvaffaqiyatli, erkin, sevimli va baxtli odam bilan identifikatsiya qilish, yuzaga kelgan noxush holatlardan xayoliy qochish;

– kompensatsiya – bir sohadagi muvaffaqiyatsizlikni boshqa sohadagi muvaffaqiyat bilan almashtirish, yanada muvaffaqiyatli, qiziqarli va o‘z rejalari va imkoniyatlariga yaqinlik;

– o‘z-o‘zini tasdiqlash uchun kurash shaklida ozodlik, “Men o‘zim nima qilishni bilaman” pozitsiyasi, lekin ichki norozilik, tashvish va noqulay ahvolim uchun tashvishni saqlab qolish bilan;

– kattalar talablarini e’tiborsiz qoldirish, kattalar ta’siridan ajralish shaklida begonalashtirish;

– salbiy reaksiyani erishib bo‘lmaydigan yoki erishish qiyin bo‘lgan obyektdan ko‘proq kirish mumkin bo‘lgan narsaga o‘tkazish sifatida almashtirish, bu impulsivlik, asabiylashish, qo‘pollik, jahldorlik va tanqidga toqat qilmaslik bilan birga keladi;

– qadriyatlar o‘zgarishi bilan yo‘naltirilgan stressni bartaraf etish sifatida katarsis, “Men usiz qila olaman”, “Men yangi hayot boshlayman”. Ushbu mexanizmlarning har birida psixologik xususiyatlar tashqi ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin, ammo ular barcha bolalarda bir xil tarzda ifodalanmaydi. Agar biz ushbu mexanizmlarni asab tizimining xususiyatlari bilan solishtirishga harakat qilsak, hatto ularning namoyon bo‘lishini imkon qadar tasniflashimiz mumkin. Asab tizimi zaif bo‘lgan bolalar hech qanday tarzda qarshilik, rad etish, katarsisva boshqalar haqida qaror qabul qila olmaydi.

Maktabda, oilada, jamoat joylarida bolalar hayotida individual reaksiyalar va ulardan himoyalanish usullari bilan bir qatorda noqulay sharoitlar, tashvishli vaziyatlar va o‘quvchining erkinligini himoya qilishda guruh birdamligi shakllari ham mavjud. Shu bilan birga, kattalar va bolalarda adolat o‘lchovi va erkinlik darajasini tushunishda qarama-qarshilik aniqlanadi. Ushbu pozitsiyalardan biz quyidagilarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Kattalarning bolalarga to‘g‘ri e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatmasligi natijasida uysizlik. Shu bilan birga, bolalar birlashib, o‘zlarining huquqiy va axloqiy me’yorlarini ishlab chiqishga va o‘z standartlariga muvofiq hayotni o‘rnatishga harakat qilishadi. Shu bilan birga ularga e’tibor yetishmasligi jamiyatdan ichki norozilik va qasos tuyg‘usini saqlab qolishadi. Buning natijasida bolalar maktabni tashlab ketishadi, antiijtimoiy guruhlar vujudga keladi.

2. Oiladan mustaqil shaklida yoki oilaning noto‘g‘ri sharoitlariga norozilik sifatida yuzaga keladigan emansipatsiya. Achchiqlanish, nochorlik va turmush sharoitining umidsizligi o‘rganish natijalarini pasaytiradi va ularning o‘qishga bo‘lgan munosabatiga salbiy ta’sir qiladi. Ushbu hodisalar natijasida bolalarda deviant (me’yordan chetga chiqadigan) xatti-harakatlar paydo bo‘ladi, ular ta’lim va tarbiyaning maxsus usullari va vositalariga muhtoj

3. O‘yin-kulgiga, kattalar hayotining afzalliklariga, ommaviy madaniyat namunalariga e’tibor qaratgan bolalar submadaniy guruhlari/

4. Mehnat, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishning oddiy me’yorlariga o‘rganmagan, ota-onasining e’tibori, mehr-muhabbati, g‘amxo‘rligidan mahrum bo‘lgan, barcha qadriyatlarni mehr-oqibat bilan o‘lchashga odatlangan guruhlar tashkil qiladi.

5. Kattalar ta’siri ostida bo‘lgan bolalar, ularni turli oqimlarga, diniy guruhlarga jalb qilish, giyohvandlik, tilanchilik, o‘g‘irlik, ba’zan yosh xususiyatlari sifatida ularga xos bo‘lgan bolalarning qiziquvchanligi, romantikasi va tasavvurini qondiradi.

Bunday hollarda bolalarning noqulay hayoti va deviant xatti-harakatlariga maktab, oila va atrof-muhit tomonidan e’tibor va g‘amxo‘rlikning yetishmasligi sabab bo‘ladi.

Bu hollarda eydekologiya tamoyillarini qo‘llashning o‘ziga xosligi ijtimoiy-madaniy, oilaviy va pedagogik muhitni yaxshilash hisoblanadi. Bu borada maktab va ota-onalar, shuningdek, bolalarning o‘zlari uchun o‘qishga bo‘lgan munosabati, ularning ta’lim yutuqlariga, o‘rganish, ta’limning muhimligini tushunish, ta’limning tuzilishi va mexanizmlarini bilish, tarbiyaviy bilimga egalik hissini rivojlantirish muhim. Bunday pozitsiyalardan o‘quvchilarga nisbatan ruxsat etilgan narsalarning chegaralari eydekologiya tamoyillari asosida uchta yo‘nalishda belgilanadi:

– o‘rganishni istamaydigan o‘quvchilar bilan ishlash;

– o‘rganishni bilmagan o‘quvchilarning o‘quv idrokini tashkil etish;

– o‘qitish qiyin bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashning maxsus usullari. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning bilish faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishdagi qiyinchiliklari eydekologiya tamoyillari asosidagi psixologik sabablar bolalarning motivatsion sohasidagi kamchiliklar yoki kognitiv faoliyatdagi kamchiliklar yoki asab tizimining fiziologik xususiyatlarining kognitiv qobiliyatga ta’sirini yetarli darajada bilmaslik bilan bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv qiyinchiliklarining asosiy sababini bartaraf etmaslik ularning motivatsion va rivojlanayotgan, ijodiy faoliyat sohalarida jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan, ushbu sabablarni aniqlash va o‘quv muammolari bo‘lgan o‘quvchini qo‘llab-quvvatlash, uning bilish va qadriyatlar dunyosiga kirishining dastlabki bosqichlarida dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акимова М.К., Козлова В.Т. Индивидуальност учашегося и индивидуальный подход. – М.: Знание, 1992, №3. – С. 80.

2. Xo‘jamberdiyeva M.N Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik kompetensiyalarini shakllantirish zarurati. Муғаллим ҳэм узлуксиз билимлендириў 2021жыл № 2.

3. Khojamberdiyeva Maftuna Norkobilovna. Scientific Basis Of Development Of Eydecoloical Relations In Primary Classes. Eurasian Scientific Herald (ESH) June 2022.

4. Xo‘jamberdiyeva M.N. Pedagogik bilimlar tizimida eydekologiya. Муғаллим ҳэм узлуксиз билимлендириў 2022жыл № 1/1.

Gulnoza SALIXOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Surdopedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

OILADA NOGIRONLIGI BO'LGAN O'SMIR BOLALARNI IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHTIRISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Maqolada nogironligi bo'lgan o'smir bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvini rivojlantirishda oila, mahalla va maktab hamkorligining muhim ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Oila, mahalla, nogironlik, maktab, o'smir, ta'lim, odob axloq, imkoniyat.

В статье подчеркивается важность сотрудничества семьи, соседства и школы в развитии социальной адаптации подростков с ограниченными возможностями здоровья.

Ключевые слова. Семья, соседство, инвалидность, школа, подросток, образование, манеры, шанс.

The article emphasizes the importance of cooperation between families, neighborhoods and schools in the development of social adaptation of adolescents with disabilities.

Key words. Family, neighborhood, disability, school, teenager, education, manners, chance.

Ma'lumki, oilada kar bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida oila, maktab va mahallaning hamkorligi o'qituvchilar, oila, maktab hamda mahalla tomonidan hamkorlik talablarini yakdil bo'lishini ta'minlash nihoyatda muhim ijtimoiy pedagogik va ijtimoiy psixologik jarayon hisoblanadi. Umuman olganda, oilada kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish muammolarini hal etish bilan bog'liq tashabbus va ishlarini qo'llab-quvvatlash, ularning kelajagi, qobiliyati, hayotga munosabati, shaxsiy imkoniyatlariga ishonch bilan qarash kutilgan natijalarni berish omillaridir. Zero, oilada kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida oila, maktab va mahallaning hamkorligida ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl va metodlari, maqsad va vazifalar bir-birini to'ldirib, mukammallashtirib boradi. Dars jarayonida berilgan ijtimoiy hayotga moslashish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida yanada takomillashadi, mazmunan boyib boradi.

Oilada kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida oila, maktab va mahallaning hamkorligida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlardagi izchillik va tizimlilik shundan iboratki, har bir tarbiyaviy ish oila, maktab, mahallaning umumiy maxsus tarbiyaviy rejasiga asosan ma'lum izchillikda amalga oshiriladi, bir xilda maqbul shart-sharoit yaratiladi, ota-onalar, mahalla mutasaddilari, o'qituvchi-tarbiyachilarning bir xilda mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishini, munosabatlarning, maqsad va vazifalarning bir xilligini ta'minlash taqozo etiladi.

Oilada kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida oila, maktab va mahallaning hamkorligi mexanizmlari qo'yidagi tizimda bo'lishi lozim. Jumladan, oila – maktab – mahalla; ota-ona – o'qituvchi – mahalla mutasaddisi. Ushbu

toifa bolalar, avvalo, ijtimoiylashtirish jarayonini oilada yosh va psixologik xususiyatlarga ko‘ra, avvalo, ota-onalar, oiladagi katta yoshdagilar, keksa avloddan bosqichma-bosqich o‘rganib boradi. Ya’ni, dastlab organizmni harakatlantirish uchun jismoniy rivojlantirib borish, shaxsiy gigiena qonun-qoidalariga rioya etish, ovqatlanish, muloqotda bo‘lish, kiyinish, o‘zini tutish madaniyatiga amal qilish, oilaviy kasb-hunar an’analarini egallab borish va boshqalar bo‘yicha ota-onalardan bilim, malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Oilada kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida oila, maktab va mahallaning hamkorligi mexanizmlari samaradorligini ta’minlashda ularning yoshi va o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Ularning yoshi kattalashgan sari hayotga nisbatan ijtimoiy-huquqiy ongi bilan turmush tarzi o‘rtasida uyg‘unlik vujudga keladi, ma’naviy madaniyati, atrof-muhitga nisbatan xatti-harakati o‘zgaradi va hayotga qiziqishi muhabbati oshib boradi. Shuning uchun ham nogiron bolalarning yoshi rivojlanish darajasiga ko‘ra ularga beriladigan ijtimoiy hayot borasidagi ta’lim va tarbiyaning mazmuni ham takomillashib boradi. Ular bilan olib borilgan ta’lim-tarbiyaviy ishlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ularning mustaqilligiga tayanib ish ko‘rish ijobiy natija beradi. Masalan, turli yoshdagi, turlicha psixologik xususiyatga ega, turli xil nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ijtimoiylashtirish shakli, metodi, vositalari bir xilda bo‘lmasligi lozim chunki u ijobiy natija bermasligi mumkin. Ayrim oilada kar va zaif eshituvchi bolalar ijtimoiy hayotga moslashish jarayonida atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lishi, ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya-qilish fazilatini tezda bilib, unga amal qiladi, ikkinchisi esa unga amal qilmaydi, ayrimlari esa bu xildagi sifatlarni asta-sekinlik bilan qabul qiladilar. Demak, har bir kar va zaif eshituvchi bolalarni hayotiy qobiliyati, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi va boshqa ijtimoiy psixologik va pedagogik jihatlarini aniqlab, ijtimoiy hayotga moslashtirish ishlarda hisobga olish o‘z samarasini beradi.

Davlat nogironligi bo‘lgan bolalarning oilaga va oila muhitiga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash, ixtisoslashtirilgan muassasalarga joylashtiriladigan nogironligi bo‘lgan bolalar sonini qisqartirish, ularning oilaviy sharoitlarda va nogironligi bo‘lgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllari doirasida qarindoshlarini jalb etish hisobidan muqobil parvarish qilinishini ta’minlash choralarini ko‘radi.

Davlat nogironligi bo‘lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalarga moddiy, maslahatga oid va boshqacha tarzda yordam beradi hamda ularni qo‘llab-quvvatlaydi.

Yuqoridagilardan tashqari, oila, maktab va mahallaning hamkorligida kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishning o‘ziga xos bir qator xususiyatlari borki, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonini tashkil etishda ularni e’tiborga olish ijobiy natija beradi. Jumladan, bizning nazarimizda, bosqichma-bosqichlik xususiyati, oila, maktab va mahallaning hamkorligida kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish juda tez va qisqa vaqt mobaynida ro‘y bermaydi. Aksincha, ular ulg‘ayib borgan sari ijtimoiy hayotga moslashish va atrof-muhit voqea hodisalarining mohiyatini asta sekinlik bilan anglab boradi. Jamiyatning rivojlanishi, yoshining ulg‘ayishi, hamkorlikning kuchayishi, tarbiyaviy ishlarning maqsadga yo‘naltirilganligi, uzluksizligi ular ongiga ham asta-sekinlik bilan ta’sir etib, ma’nan va jismonan rivojlanib borishiga olib keladi.

Nogiron o‘smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda individual yondashish. Oilada kar va zaif eshituvchi bolalarni oilada, mahallada yashayotgan yoki bir maktabda ta’lim olayotgan o‘smirni ekologik-huquqiy ongi, madaniyati va ma’naviyati ham ikki xil bo‘ladi. Shu sababli ular bilan olib boriladigan ta’lim tarbiyaviy

ishlar ham individual tarzda olib borilmog‘i lozim. Buning sababi ularga munosabatning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor beriladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda jinsiy toifalashish asosida yondashish. Bu o‘rinda qiz bolalarning, o‘g‘il bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari (o‘smirlik,o‘spirinlik,balog‘at davri) inobatga olinmog‘i zarur.

Nogiron o‘smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda amaliy xatti-harakat, mimika metodlarining kuchliligi. Chunki ushbu toifa o‘smir bolalar uchun ota-ona, katta yoshdagilar, o‘qituvchilar, mahalla ahli namunasi, o‘rgatiladigan ijtimoiy qoidalarning shakllanishida shaxsning tasviriy-amaliy holati ko‘proq ta’sir etadi.

Shunday qilib, kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda o‘quvchilarga maktab, oila va mahalla hamkorligini mustahkamlashda, ularni mustaqil hayotga qadam qo‘yishida va kelajakdagi bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yuqorida ko‘rsatilgan o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish ijobiy natija beradi.

Sog‘lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarda ham ijtimoiylashuv uchun zarur hayotiy ko‘nikmalar, ijtimoiy malakalar taqozo etiladi. Olib borilgan tadqiqot ishlarimiz davomida kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiylashtirish ishlarini rejalashtirishda maqsadli mo‘ljal olish uchun qator sifatlarni ajratdik.

Ijtimoiy hayotga tayyor nogironligi bo‘lgan bola qanday sifatlarga ega bo‘ladi:

1. Ilmiy, falsafiy, diniy dunyoqarashga ega bo‘lish. Insonning keng dunyoqarashga ega bo‘lishi, uning aqliy jihatdan o‘sishiga bog‘liq. Bolalarning aqliy faoliyati avloddan-avlodga o‘tib keluvchi tajribalarni, tabiat qonunlari hamda jamiyatdagi munosabatlar mazmunini o‘zlashtirishi uchun qo‘yilgan har bir qadami zamirida amalga oshadi. Shu jumladan, bola o‘zini tabiatning bir bo‘lagi, jamiyatning a’zosi ekanligini o‘quv fanlarida keltirilgan, ilmiy isbotlangan, tajribalarda sinalgan o‘quv materiallari orqali anglaydi. Sog‘lom bolalardan farqli ravishda nogiron o‘smir bolalar afsuski, faqatgina maxsus tashkil etilgan dars va mashg‘ulotlar jarayonidagina bilim, ko‘nikma va uquvlarga ega bo‘lmoqdalar. Ular ta’lim jarayonidan tashqarida nazariy ma’lumotlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega emaslar. Natijada, kar va zaif eshituvchi o‘smir bolalarda axborotlarni qabul qilish ko‘nikmalarining rivojlanish ko‘rsatkichi oshdi, ularning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirishlarida sifat o‘zgarishlari sezildi. Maxsus tashkil etilgan korreksion-pedagogik jarayon hamda sog‘lom bolalar ta’limiga yaqinlashtirilgan yondashuvlar mazmuni nogironligi bo‘lgan bolalarda ilmiy (o‘quv fanlari mazmuni asosida), falsafiy (tabiat va jamiyat qonunlarini o‘zlashtirish orqali), diniy (tarbiyaviy mashg‘ulotlar jarayonida) dunyoqarashni shakllantiradi. Ushbu mezon kar va zaif eshituvchi o‘smir bolalarning mahallalarda o‘zini tutishida va atrofdagilar bilan muloqoti davomida namoyon etgan ko‘rsatkichlari asosida tahlil etildi. Kar va zaif eshituvchi o‘smir bolalarning ijtimoiylashuvining muhim omili sifatida muloqotga kirishuvchanlik tanlangani bois, mazkur bolalarning lug‘at boyligi ko‘rsatkichi, ularda nutqiy zaxiraning hajmi va ko‘lami bilan baholanadi.

2. Ma’naviy yetuk, axloqan pok bo‘lish. Kar va zaif eshituvchi o‘smir bolalar shaxsining o‘ziga xos xususiyatlari shuki, ularda axloqiy tasavvurlar, tushunchalar, ijtimoiy motivlar, o‘zlariga tanqidiy qarashlar yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Chunki aksariyat bolalar oilalarida ta’limiy va tarbiyaviy yondashuvlar yo‘lga qo‘yilmagan. Oilalarda nogiron o‘smir bolalarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtayi-nazari bilan qarash munosabati kuchli bo‘ladi. Bunday munosabat nogiron o‘smir bolalarni hayot jabhalaridan chetda qolishiga olib keladi. Natijada, bolalarda sog‘lom bolalardagi kabi muomala, muloqot, mehnat qilish, turli faoliyatlarda ishtirok etish ko‘nikmalari

rivojlanmay qoladi. Aynan mana shu jihat ham ota-ona uchun va ham pedagog uchun qiyinchilik tug‘diradi. Ya’ni pedagog-tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni bolalarda kundalik hayot uchun zarur oddiy elementar axloq me’yorlarini shakllantirishdan boshlashi taqozo etiladi. Shuning uchun ham nogiron o‘smir bolalar umumiy ta’limi muddati sog‘lom bolalar umumiy ta’limi muddatidan ko‘p bo‘ladi. Hozirgi zamon bolasi ekologik ong, gigienik malakalar, iqtisodiy ko‘nikmalar va huquqiy savodxonlikka ega bo‘lmasa, mustaqil hayotda emin erkin xavfsiz harakatlanishi qiyin kechadi. Chunki tez rivojlanayotgan murakkab zamon shaxs oldiga qator talablarni qo‘ymoqdaki, bularsiz inson o‘z kelajagini, bu bilan bog‘liq holda oilasi farovonligini ta’minlashi oson kechmaydi. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limi va tarbiyasi masalasi davlat siyosatining alohida muhim yo‘nalishi sifatida qaraladi.

Ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish nafaqat pedagoglar, balki psixolog, ota-onalar va bolalarning yaqinlari hamda hamkor tashkilotlar zimmasidagi vazifalardandir. Ya’ni ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar maqsadli va psixologik yo‘nalgan holda tashkil etilsa, bolalarda quyidagi sifatlarni shakllantirish imkoniyati keng bo‘ladi:

– umuminsoniy va milliy qadriyatlar hamda urf-odatlarni hurmat qiladigan;

– axloqiy me’yorlarni anglagan va ularga rioya etadigan;

– Ona Vatanga sodiq, fidoyi, fuqarolik burchini his qiladigan.

3. Jismonan sog‘lom bo‘lish. Hozirgi kunda nogironligi bo‘lgan, imkoniyati cheklangan bolalar har tomonlama mustaqil hayotga tayyor bo‘lishlarining muhim omillaridan biri – jismoniy jihatdan me’yorda rivojlanishdir. Ma’lumki, mazkur toifa bolalarning qator ikkilamchi yetishmovchiliklar kelib chiqadi. Bu jarayonda oilalarda yo‘lga qo‘yilgan ovqatlanish tartibi va ratsion holati alohida o‘rin egallaydi. Tajriba-sinov ishlari davomida oilalar bilan ishlash jarayonida bu masalaga ham e’tibor qaratildi.

4. Ruhan tetik, barkamol bo‘lish. Nogironligi bo‘lgan bolalarning psixologik rivojlanishida differensial va yakka yondashuvning ta’siri kattadir. Ma’lumki, oilada, mahallada, dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlar jarayonida kar va zaif eshituvchi o‘smir bolalar turli topshiriqlarni bajaradilar. Qachonki, o‘quv va hayotiy, maishiy topshiriqlar bolalarning uquvlari hamda nutqiy rivojlanish imkoniyatlaridan kelib chiqib tayyorlansagina, ta’lim-tarbiya va ijtimoiylashtirish jarayoni mashq maydoniga aylanadi. Agar aksincha bo‘lsa, bola jarayondan zerikadi va hatto muloqotga kirishmaydi, o‘qishdan soviydi.

Nogironligi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy hayotga ruhan tayyor bo‘lish mezonlari talablariga, avvalo, ota-onalar, o‘qituvchi va tarbiyachilar tayyor bo‘lishlari muhimdir. Zero, ularning qanchalik psixologik bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari, shunchalik ta’lim jarayonining kar va zaif eshituvchi o‘smir bolalar uchun qulay muhitga aylanishida muhim omildir.

Kar va zaif eshituvchi o‘smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashishga yo‘naltirilgan jarayon modelida ayniqsa, muhim yondashuvlarning o‘rni alohida aks etgan. Xususan, yakka va differensial yondashuvlar, ularga erishish omillari hamda soha rivojiga hissa qo‘shgan olimlarning ta’limotlariga asoslanishning muhimligi yaqqol namoyon qilingan. Kar va zaif eshituvchi o‘smir bolalarning atrofdagilar bilan muloqot ko‘nikmalari quyidagi omillar ta’sirida shakllanishini kuzatdik. Bular quyidagilar:

– nogironlikning qaysi darajasiga taalluqliligi;

– oilalarda va ta’lim muassasalarda korreksiya ishlarining to‘g‘ri va vaqtida olib borilishi, o‘qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi hamda ota-onalarning pedagogik savodxonligi;

– ota-onalarning farzandi bilan oilada maxsus shug‘ullanishining ahvoli hamda

maktab va oila hamkorligi.

Sanab o‘tilgan omillarning barchasi kar va zaif eshituvchi o‘smir bolalarda nafaqat muloqot ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy ko‘nikma va malakalar: o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini namoyon qilish, yaqin va uzoq muddatga maqsad belgilash, qadriyatlarni aniqlash, vaziyatni tushunish va baholash, imijga ega bo‘lish, axborot vositalari bilan ishlash, o‘zgalarga ta’sir etish va jamiyatning turli boshqa munosabatlarida faol bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirishda hamda ularning valeologik, huquqiy va iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishda ham bevosita ta’sir va hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Nogironligi bo‘lgan o‘smir kar bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvini rivojlantirish modeli oila, mahalla va maktab hamkorligiga asoslanadi. Bu jarayonda ota-onalarning o‘rni muhim ahamiyatga ega sanaladi. Chunki ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, majburiyati, mas’uliyati yuqori baholash mumkin. Shu bois, mahalla faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida 2020-yil 18-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ-4602-son qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla” o‘quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazi negizida ‘‘Mahalla va oila’’ ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi va vazirlik tuzilmasiga o‘tkazildi. Bunday o‘zgarishlar orqali mahalla va oila institutining ish faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirishga imkon yaratildi va kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, oila, mahalla hamkorligi asosida ko‘pgina samarali o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Antipyeva N.V. Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish. – M., 2008. – 280-b.
2. Garan A.G. Nogironlarni reabilitatsiya qilish. – M., 2009. – 350-b.
3. Goncharova L.A. Nogironlar uchun ijtimoiy yordam. – M., 2008. – 245-b.
4. Guseva N.K. Rossiya Federatsiyasida kasal va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish asoslari. – M., 2009. – 508-b.
5. Dementieva N.F., Modestov A.A. Pansionatlar: xayriyadan reabilitatsiyagacha. – M., 2013 – 195-b.

Jasur MAMATOV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI doktoranti

G‘IYOSIDDIN JAMSHID KOSHIYNING MATEMATIKA FANIGA QO‘SHGAN HISSALARI VA BINOM FORMULASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimizdan biri al-Koshiyning qoldirib ketgan ma’naviy meroslarini, ilmiy kashfiyotlarini ta’lim-tarbiyaga tadbiqi, ularning amalga oshirgan ishlari va bugungi kunda bizgacha yetib kelgan asarlarining mazmun mohiyati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Ma’naviyat, tarixiy, kelajak, meros, matematika, astronomiya, risola astrologiya, riyoziyot, trigonometriya.

В данной статье рассматривается применение духовного наследия и научных открытий одного из наших великих предков, аль-Каши, к образованию, их работа и содержание произведений, дошедших до наших дней.

Ключевые слова. Духовность, история, будущее, наследие, математика, астрономия, брошюра, астрология, математика, тригонометрия.

This article discusses the application of the spiritual heritage and scientific discoveries of one of our great ancestors, al-Kashi, to education, their work and the content of works that have survived to this day.

Key words. Spirituality, history, future, heritage, mathematics, astronomy, brochure, astrology, mathematics, trigonometry.

G‘iyosiddin Koshiy – O‘rta Osiyolik atoqli matematik va astronom. To‘liq ismi Jamshid ibn Mas’ud ibn Maxmud G‘iyosiddin al-Koshiy. Taxminan 1430-yilda Samarqandda vafot etgan. Uni “Koshoniy” ham deb atashadi, chunki u Eronning Koshon shahrida tug‘ilgan. Islom davrining buyuk matematigi va fizigi hamda Eronning mashhur shaxsiyatlaridan biri G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy qadimda mavjud bo‘lgan hisoblashning to‘rt amalini yanada takomillashtirgan va isloh etgan olimdir. Koshiyning tarjimai holi haqida deyarli ma’lumotlar yoq. Ba’zi matematika tarixchilarining yozishicha, u boshlang‘ich ma’lumotni o‘z ona shahri Koshonda olgan. XV asrda Koshon ancha rivojlangan shahar bo‘lgan, u o‘zining olimlari, ayniqsa qo‘li gul ustalari bilan butun Sharqda dong taratgan.

Mazkur buyuk donishmand borasidagi ma’lumotlar uning asarlari hamda otasi va Koshon xalqiga yozgan ikki maktubi orqali olingan. Uning bolalik, o‘smirlik va yoshlik davri Temur Kuragoniyning Eronga qilgan yurishlari vaqti bilan to‘g‘ri keladi. Ushbu og‘ir sharoitga qaramay, Jamshid tahsil olish va ilm o‘rganishdan hech vaqt to‘xtagan emas.

Koshoniy boshlang‘ich matematik ma’lumotni o‘sha vaqtdagi Eronning markaziy shaharlari, xususan, Fors va Koshonda olishga erishgan. O‘rta asr olimlari singari Koshiy ham fanning juda ko‘p sohalari bilan shug‘ullangan. U qiziqqan fanlar qatorida tibbiyot ham bo‘lgan. Shu sababli uni Temurning nabirasi – fors xokimi Jamoliddin Iskander o‘z saroyiga ishga taklif qilgan. Shundan, Koshiy yaxshigina tabib ham bo‘lgan, deyish mumkin. XV asr boshida Ulug‘bekning taklifi bilan Samarqandga kelgan; bu yerda Qozizoda Rumiy bilan birga Ulug‘bek rasadxonasi va madrasasi qurilishiga

rahbarlik qilgan. Koshiy Ulug‘bek qo‘l ostida ishlagan Husayn Birjoniy, Ali Qushchi va boshqalarning kamolotga yetishishiga katta hissa qo‘shgan. Koshiyni Ulug‘bek o‘zining Astronomiya maktabida ishlashga taklif qilgan. Astronomiya maktabi uchun ilmiy kadrlar zarur edi. Shu sababli Ulug‘bek Astronomiya maktabi qoshida Madrasa ochdi. Koshiy Ulug‘bek madrasasida astronomiya va matematikadan dars berdi. Bir vaqtning o‘zida u Ulug‘bek maktabida olib borilayotgan ilmiy ishlarda ham ishtirok etdi. Koshiy astronomiyaga oid “Ziji Hoqoniy dar takmili ziji Elxoniy“ (“Elxoniy astronomik jadvalini takomillashtirishda Hoqoniy astronomik jadvalining ahamiyati”), “Sullam us-samo” (“Osmon narvoni”), “No‘zxat ul-xadoiq” (“Bog‘lar sayri”) va matematikaga oid “Risola al-muhitiyya” (“Aylana haqida risola”), “Risola ul-atvor nal-jayb” (“Vatarlar va sinus haqida risola”), “Miftoh ulhisob” (“Arifmetika kaliti”) asarlarini yozgan. Koshiy birinchi bo‘lib matematikaga pozitsion asosda o‘nli kasrlarni kiritdi va nazariy asosdagi, ixtiyoriy ko‘rsatkichli ildiz chiqarish – hozir “Ruffini – Gorner” usuli deb ataladigan usulni va “Nyuton binomi”ning koeffiniyentlarini topishda formulaga to‘g‘ri keladigan adlitin usulni qo‘lladi. Koshiy sinα va π (pi) sonini o‘nlik sistemada 17 xona aniqlik bilan hisobladi. Koshiy O‘rta asr Sharq matematikasini yuqori bosqichga ko‘tarishga katta hissa qo‘shdi.

Bundan tashqari, Jamshid Al-Kashi Evropada Simon Stevindan 150 yil oldin o'nlik kasrlarni kiritgan va ishlatgan. Ulug'bek va qozi-Zade bilan birgalikda Rumiy Evropada faqat 19-asrda frantsuz matematikasi E. Pikar tomonidan qayta kashf etilgan ketma-ket taxminlar usulini ishlab chiqdi. Al-Kashi bugungi kunda Nyuton binomi deb nomlanuvchi formulaga asoslanib, o'zboshimchalik darajalarining ildizlarini taxminiy topish usulini ishlab chiqdi. Shuningdek, u polinomning qiymatlarini hisoblash usulini ishlab chiqdi, keyinchalik "Horner sxemasi"sifatida keng tarqaldi. Al-Kashi birinchi bo'lib o'nlik kasrlar nazariyasi va ular bilan ishlashning asosiy qoidalari, oltmishinchi raqamlar tizimi va oltmishinchi kasrlarni o'nli kasrlarga va aksincha tarjima qilish usullari – "arifmetika kaliti"ning tizimli ekspozitsiyasini nashr etdi.

Koshiyning matematika sohasida qilgan kashfiyotlari juda katta. Uning zamonida hisoblash ehtiyojlari uchun oltmishli sanoq sistemasidan foydalanilar edi. U birinchi bo‘lib o‘nli kasrlarni kashf qildi va ular ustida amallar bajarish qoidalarini ko‘rsatib berdi.

Jamshid Koshiyning fan rivojiga qo‘shgan hissasi butun dunyoda tan olingan va munosib baholangan. Uning asarlarining ko‘plab ko‘chirma nusxalari Berlin, Leyden, Sankt Peterburg, London va boshqa davlatlar kutubxonalarida saqlanmoqda. U haqda G. Zuter (Germaniya), V. V. Bartold (Rossiya), E. Kennedi, D. Knut (AQSh) va boshqalar yuqori fikr bildirishgan.

Koshiyning ikkinchi kashfiyoti sonlardan n-darajali ildiz chiqarish amali edi. Koshiyning bu usuli hozir “Ruffini-Gorner” (Ruffini Paolo, 1765-1822-y.) – italyan matematigi, ingliz matematigi Gorner Vilyams (1786-1837-y.) usuli bilan mohiyatan ustma-ust tushadi. Bu usul yordamida sonlardan ildiz chiqarish uchun hozir “Nyuton binomi” deb ataluvchi formulani, ya’ni istalgan ikki hadni ixtiyoriy daraja bo‘yicha yoyishni bilish lozim. Koshiy Umar Xayyom asarlari orqali ana shu formulani ixtiyoriy natural darajalar uchun bilgan va undan ixtiyoriy sondan natural darajali ildiz chiqarishda foydalangan. Bu metod Koshiygacha bo‘lmaganmi, degan savolga matematika tarixchisi P. Lyoqey bu usul kub ildiz chiqarish uchun Ahmad an-Nasaviyda (taxminan 970 - taxminan 1070) uchrashini aytadi (Nasa Turkmanistonning hozirgi poytaxti Ashxobod yaqinida bo‘lgan shahar). Lyoqey Nasaviy bilan Koshiy orasidagi davrda bu usul bilan Umar Xayyom shug‘ullangan bo‘lishi kerak deb taxmin qiladi. Lekin bu usulning

istalgan natural n lar uchun umumlashtirilishi shubhasiz, Koshiyga taalluqli. Shulardan kelib chiqib G‘iyosiddin al-Koshiy usulini ko‘rib chiqamiz. G‘iyosiddin al-Koshiy binom formulasini quyidagicha hisoblagan.

Ushbu butun sonlarni olib qaraymiz:

$d_0, d_1, d_2, \ldots, d_n$ (1)

Bu sonlardan quyidagi sonlarni tuzamiz:

$S_0 = d_0$

$S_1 = d_0 + d1$

$S_2 = d_1 + d_2$ $S_n = d_{n-1} + d_n$ (2)

. . . . . .

$S_{n+1} = d_n$

Bu (2) dan

$S_0 + S_1 + S_2 + \ldots + S_{n+1} = 2(d_0 + d_1 + d_2 + \ldots + d_n)$

ekanligi ko‘rinib turibdi.

Ta’rif. Agar (1) sonlar sistemasi uchun

$$d_k = d_{n-k},\ k = (0, n) \quad (3)$$

tenglik bajarilsa, u holda (1) simmetrik sonlar bo‘ladi.

Agar (1) simmetrik sonlar bo‘lsa, u holda (2) ham simmetrik sonlar bo‘ladi, ya’ni

$$S_k = S_{(n+1)-k}\ k = 0, 1, 2, \ldots, n+1 \quad (4)$$

Endi faqat bitta 1 son olib $S_0 = d_0 = 1$ deb yozamiz va buni nolinchi qator deb ataymiz. Bundan (2) ketma-ketlik bo‘yicha S_0 , S_1 qatorni tuzamiz, bunda S_0 = d0 = 1, S1 = d0 = 1 dan iborat (chunki Sn+1 = dn bo‘lgani uchun bizda S1 = d0 = 1 bo‘ladi). Shunday qilib 1, 1 qatorni tuzdik. Buni birinchi qator deb ataymiz. Bu birinchi qatorni d0 = 1, d1 = 1, (S2 = d1) deb qarab (2) bo‘yicha S0 = 1, S1 = 2, S2 = 1 (chunki (2) ning oxirgisi dn = Sn+1 ga asosan 1 = d1 = S2). Shunday qilib biz 1, 2, 1 qatorni hosil qildik. Buni ikkinchi qator deb ataymiz. Bu oxirgi qatordan (2) ketma-ketlik tuzamiz.

S0 = 1, S1 = 3, S2 = 3, S3 = 1 (chunki Sn+1 = dn, bizda d0= 1, d1= 2, d2 = 1 bo‘lganidan S3 = d2 = 1). Shunday qilib, 1, 3, 3, 1 qatorni hosil qildik. Buni uchinchi qator deb ataymiz.

Shunday qilib to‘rtinchi qatorni tuzamiz. U esa 1, 4, 6, 4, 1 ketma-ketlikdan iborat bo‘ladi.

Bu jarayonni davom ettiramiz. Hosil qilinayotgan qatorlardan keyingi qatorga sonlar miqdori undan oldingi qatordagi sonlar miqdoridan bitta ortiq. Masalan, ikkinchi qatorda 3 ta son bor bo‘lib, uchinchi qatorda to‘rtta son bor. Buni umulashtirib n qatorda (n+1) ta son bo‘ladi deb tasdiqlaymiz. Shu bilan birga bu sonlarning yig‘indisi 2n ga teng deb tasdiqlaymiz.

Masalan:

1) Ikkinchi qatorda turuvchi sonlar yig‘indisi 1 + 2 + 1 = 22 ;
2) Uchinchi qatorda turuvchi sonlar yig‘indisi 1 + 3 + 3 + 1 = 23 ;

Bu mulohazalar biror birga turuvchi ixtiyoriy qatorda turuvchi sonlar simmetrikdir. (3) ga qarang), ya’ni birinchi o‘rinda turuvchi son va oxirgi o‘rinda turuvchi son bir xil va ikkinchi o‘rinda turuvchi son bilan oxirgidan bitta oldinda turuvchi son bir xil (teng).

Yuqoridagi sonlar qatorini quyidagicha jadvalga joylashtiramiz (1-jadval). 10 ta qator va 19 ta ustundan iborat katak chizamiz.

1-jadval

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	Qator o‘rni
0										1										Nolinchi
1									1		1									Birinchi
2								1		2		1								Ikkiinchi
3							1		3		3		1							Uchinchi
4						1		4		6		4		1						To‘rtinchi
5					1		5		10		10		5		1					Beshinchi
6				1		6		15		20		15		6		1				Oltinchi
7			1		7		21		35		35		21		7		1			Yettinchi
8		1		8		28		56		70		56		28		8		1		Sakkizinchi
9	1		9		36		84		126		126		84		36		9		1	To‘qqizinchi

Yuqorida hosil qilingan nolinchi qatordagi 1 sonni 10-ustunga yozamiz. So‘ngra birinchi qatordagi 1 va 1 sonlarni 9 va 10-ustunlarga yozamiz. Ikkinchi qatordagi 1, 2, 1 sonlarni mos ravishda 8-ustun, 10-ustun, 12-ustunga yozamiz. Xuddi shunday uchinchi, to‘rtinchi qatorlarni yozamiz.

Beshinchi qatordagi sonlarni yozishda 5-qator, 5-ustunga 1 o‘zi, 4-qatordagini 6-ustundan 1 sonni va 8-ustundan 4 sonni qo‘shib 1+4=5 soni 5-qatorning 7-ustuniga yozamiz.

4-qatorning 8-ustunidagi sonni va 10-ustundagi 6 sonni qo‘shib 4+6=10 sonni 5-qatorning 9-ustuniga yozamiz. 4-qatorning 10-ustunidagi 6 sonni va 12-ustundagi 4 sonni qo‘shib 6+4=10 sonni 5-qatorning 11-ustuniga yozamiz. 4-qatorning 12-ustunidagi 4 sonni va 14-ustundagi 1 sonni qo‘shib 4+1=5 sonni 5-qatorning 13-ustuniga yozamiz. Nihoyat 5-qatorning 15-ustuniga 1 yozamiz.

Endi ixtiyoriy qatorning sonlarini yozish qiyin emas. Bu jadvaldagi sonlarning hosil bo‘lishidan ko‘rinib turibdi, chunki (n+1) qatordagi sonlar n – qatordagi sonlar asosida aniqladi va yozish tartibi yuqoridagi muhokama asosida bajariladi. Tuzilgan bu jadvalni G‘iyosiddin al-Koshiy jadvali deb ataymiz. Jadvaldagi sonlar simmetrikdir, ya’ni dastlabki va oxirgisi bir xil, ikkinchi va oxiridan bitta oldingisi bir xil va hokazo. Bu esa (3) tenglikning bajarilishini ko‘rsatadi. Bu jadval (a+v)n ni yoyilmasida koeffitsiyentlarni aniqlash jadvalini G‘iyosiddin al-Koshiy quyidagi jadval asosida tuzgandir.

1	2	3	4	5	6	7	8
9							
36	8						
84	28	7					
126	56	21	6				
126	70	35	15	5			
84	56	35	20	10	4		
36	28	21	15	10	6	3	

9	8	7	6	5	4	3	2

Binom (a+в)^n ning yoyilmasi ushbu

$$(a=b)^n - a^n = C_n^1 a^{n-1} b + ... + b^n$$

Binom koeffitsiyentlarini ketma-ket hisoblash uchun

$$C_n^m = C_{n-1}^{m-1} + C_{n-1}^m$$

Formulani ko‘rsatdi va binomning 9-darajasigacha bo‘lgan koeffitsiyentlar jadvalini tuzib ko‘rsatdi.

G‘iyosiddin al-Koshiy (2) jadvali asosida (a+в)n ning yoyilmasini yozamiz. Yoyilmasida birinchi va oxirgi had koeffitsiyentini 1 son deb olib qolganlarini jadvaldan olamiz.

Masalan, $(a+b)^2$, $(a+b)^3$, $(a+b)^5$ larni yozamiz. 8-ustundan foydalanib

$$(a + b)^2 = a^2 + 2ab + b^2$$

Tenglikni 7-ustundan foydalanib

$$(a + b)^3 = a^3 + 3a^2b + 3ab^2 + b^5$$

Tenglikni 5-ustundan foydalanib

$$(a + b)^5 = a^5 + 5a^4b + 10a^2b^3 + 5ab^4 + b^5$$

Tenglikni yozamiz.

Xuddi shunday 1-ustun sonlari buyicha

$$(a + b)^9 = a^9 + 9a^8b + 36a^7b^2 + 84a^6b^3 + 126a^5b^4 + 126a^4b^5 + \\ + 84a^3b^6 + 36a^2b^7 + 9ab^8 + b^9$$

ga teng bo‘lar ekan.

Bundan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, G‘iyosiddin al-Koshiy uchburchagi bilan tanishar ekanmiz, biz foydalanib kelayotgan Nyuton binomi aslida G‘iyosiddin al-Koshiy binomi ekanligini aytish mumkin. Buyuk qomusiy olimlarimizning matematika faniga qo‘shgan hissalari matematika sohasini rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ular yaratgan, ixtiro qilgan kashfiyotlaridan hozirgi kunda ham dolzarb muommolarni hal etishda foydalanib kelinayotgani tahsinga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asadova M. O‘rta Osiyo mashhur olimlari va ularning matematikaga oid ishlari. – T.: O‘qituvchi, 1983.

2. Afonina S. I. Matematika va go‘zallik –T.: O‘qituvchi, 1987.

3. Otajonova 3. R. Matematika ukitishda osiyolik o‘rta asr olimlari ijodidan foydalanish. – T.: O‘qituvchi, 1981.

Айгул АБДУРАХМАНОВА,
Термезский государственный университет, преподаватель кафедры ‘‘Психология’’

РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТНЫХ УБЕЖДЕНИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Annotatsiya

Maqolada ta’lim konsepsiyasi bilim sohalari bo‘yicha keng va chuqur bilimlarni egallash bilan qadriyatlar, odob-axloq va ezgulik tarbiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash tarafdori

Kalit so'zlar. Ta’lim, kontseptsiya, ta’lim, bitiruvchi, psixologiya, dunyqarash, odob-axloq.

В статье идет речь о образовательной концепции, лежащая в основе ценностного образования, выступает за усиление связи между приобретением широких и глубоких знаний в областях знания и воспитанием ценностей, морали и добродетели.

Ключевые слова. Образование, концепция, обучение, выпускник, психология, мировозрение, поведение.

On this basis, the Educational concept underlying value education advocates strengthening the connection between the acquisition of broad and deep knowledge in the fields of knowledge and the education of values, morality and virtue.

Key words. Education, concept, training, graduate, psyhology, outlook, behaviour.

Цель закона об образовании – это воспитание гармонично развитую личность. Разработана системная концепция ценностного воспитания, с целью продвижения образования к академическому и ценностному совершенству, которое отвечает требованиям 21 века и способствует культивированию общих ценностей в обществе.

Цель воспитания ценностей состоит в том, чтобы вырастить молодое поколение, которое должно быть как личностью и как гражданин, который вносит свой вклад в себя и в свою страну. Для достижения этой цели общественное образование должно предоставить учащимся возможности, которые позволили бы им осуществлять оценочное суждение в своём свободном выборе. Предпосылка этой концепции заключается в том, что образование, способствующее развитию личности учащегося, должно включать как передачу дисциплинарных знаний и ценностных вопросов. Системная концепция образования направлена на воспитание ценностей педагогом у студента, разъясняя значение ценностей в наследии гуманистических и демократических концепциях. Обучение ценностям в системе образования ведёт студентов к критическому, информированному и изучение поведения, передаваемых традиций, конфликтам, с которыми они сталкиваются, и выбору, которому они должны сделать. Воспитание ценностей происходит все время: в учебных классах, в общественной деятельности, которая имеет дело с ценностями сознательно и открыто, и в других образовательных контекстах, где воспитание ценностей происходит скрыто.

Важнейшим структурным компонентом, своеобразным смысловым «ядром» мировоззрения многие ученые считают «убеждения» как некое духовно-психическое

образование личности. Убеждения, не противопоставляясь другим структурным компонентам, таким, как взгляды, знания, идеалы и др., выстраиваются в определенную логическую зависимость друг от друга. Причем в одном случае знания являются той ориентировочной и необходимой основой, на которой происходит становление и развитие мировоззренческих взглядов и убеждений личности. В другом случае, знания, не ставшие личностными убеждениями, носят отвлеченный характер и, не имея эмоциональной окрашенности, скоро забываются.

Многие авторы определили ценности как важный и влиятельный элемент, связав понятие ценностей, хотя и нечетко, включая социальную память, трансформацию, управление, адаптация и управление на основе устойчивости. С психологической точки зрения, ценности — это глубоко укоренившиеся когнитивные элементы, связанные с предпочтительными состояниями. Шварц основывается на работе Рокича и определяет ценность как ‘‘убеждение, относящееся к желаемым конечным состояниям или способам поведения, которое выходит за рамки конкретных ситуаций, направляет выбор или оценку поведения, людей и событий и упорядочено по важности’’. В частности, они подчеркивают преимущества установления междисциплинарного понимания значения и использования ценностей в данной области, чтобы избежать недопонимания: ‘‘эффективное общение’’, ‘‘сотрудничество’’ и ‘‘хорошая наука’’ зависят от четкого определения основных конструкций.

Изучение ценностей личности — неуловимая область, особенно в эпоху постмодернизма. В этот век множество нормативов и субъективных интерпретаций, которые заняли место истин и представлений о принятой реальности. Есть чёткие границы между религиозным и светским, между Востоком и Западом. Сегодня учащийся ищет соответствующий смысл и личную связь. Эта ситуация требует переосмысления смысла ценностей и воспитания ценностей.

Выбор темы исследования обусловлен тем, что в настоящее время происходит изменение ценностей личности, убеждения определяют его поведение. В данной работе начато изучение особенностей индивидуально-психологических изменений, ценностей личности, личностные качества и особенности, социально-психологические факторы, помогающие и мешающие развитию, к которым приводят изменения в личности, обществе.

Психология – это совокупность ценностей, принципов и правил, регулирующих поведение учащийся и касающихся того, как действия субъекта могут существенно повлиять не только на его личную жизнь, но и на жизнь других людей.

Очень трудно определить поведение учащихся полным образом, отвечающим различным связанным с ней представлениям на протяжении всей истории человечества. В широком смысле под психологией поведения понимается любой организованный, сознательный образ жизни людей и социальных групп, соответствующий определенным регулирующим принципам. Предлагается определение, которое позволяет усвоить основную, возможно, наиболее психологическую концепцию социального института, регулирующего поведение, поскольку оно касается индивидов действующего субъекта.

Что следует принять во внимание, так это социальный характер психологических процессов, касающихся отношений между людьми. Принимаем ли, что эти процессы также должны регулировать поведение людей по отношению к другим живым или неживым существам, зависит от конкретной моральной теории,

которую принимаем. Особые черты принципов и правил, из которых состоит весь институт, будут выделены в ходе определения и оценки ряда регулятивных теорий. Но уже из одного этого простого определения ясно, что психология ценностей не может касаться исключительно мудрости поведения субъекта, т. е. интереса к обеспечению его индивидуальной защиты и процветания. Новая концепция мышления, подразумевающая способность к чисто эгоцентрической ориентации, гораздо уже, чем аристотелевское понятие умственной добродетели благоразумия, рассматриваемое как ‘‘истинная метафора практического человеческого блага’’, которое должны всегда идти рука об руку с моральными добродетелями. Однако фактом является то, что древнегреческая мысль, по-видимому, не отделяла нравственность от стремления к личному благополучию, хотя, как правило, она не касалась возможности конфликта.

Гегель определил различие между конкретной ‘‘моральной жизнью’’, ценностями, которые реализуются в рамках существующих социальных институтов, и ‘‘ролями’’, которые диктуются членам общества.

Основные регулятивные теории принципов относятся к построению этого абстрактного кода (формула сознания и поведения), являющегося объектом автономной личностно-ориентированной рефлексии. Концепции, акцентирующие внимание на формировании характера и, согласно интерпретации, относящиеся к более древним, древнегреческим и средневековым общностям, представления отражают реализованную форму ‘‘нравственной жизни’’. Можно предположить, что даже несмотря на то, что разнообразие конкретных ценностей различных обществ не должно мешать поиску набора принципов, обладающих объективной, вневременной и универсальной значимостью, и существует проблема их удовлетворительного исполнения.

Для лучшего понимания явлений нравственности необходимо обратиться к некоторым понятиям практической философии, которые также являются основой для синтеза категорий: а) ценности, понимаемые как особые качества вещей, состояний и лиц, которые могут быть объектом рационального желания. Это, конечно, не касается неонтологии и когнитивной теоретической проблемы. И тогда будет достаточно сначала различать нравственные ценности, определяемые контекстами нравственного измерения, и во всех остальных материальных и духовных ценностях, например, экономических, религиозных, и т.д. Когда говорим о ценности ‘‘хорошего’’, следует понимать в общих чертах ощущение положительного качества своих вещей. б) принципы и правила рационального определения наших действий направляют поведение, в той мере, в какой они выражают способ, которым он намеревается и стремится осуществить его самостоятельно. Некоторые из этих принципов и правил, которые выводятся, являются частью этического пространства и выражают то, что можем назвать ‘‘моральным отношением’’ или ‘‘моральным соображением’’ (учащийся). Одной из их основных характеристик является ‘‘религиозность’’, т.е. могут быть применены ко всем подобным ситуациям, а также ко всем подобным субъектам, которые должны быть вовлечены в ситуации. в) добродетели, обычно описываемые как добродетели (предрасполагающие) и во многом приобретающие характеристики субъектов деяний. Они позволяют наилучшим образом выразить их потенциал и реализовать желаемые ими ценности. В последние годы возродился интерес к принятию практики ‘‘моральной добродетели’’ по отношению к каким-либо

принципам и правилам.

Другими важными факторами являются понятия моральных обязанностей, обязательств и прав, которые можно считать производными и связанными с моральными ценностями и принципами. Понятие моральной ответственности, связанное с понятием моральной совести, существенно для понимания морального опыта. Его условием, по-видимому, является автономия и, по мнению многих, свобода воли, ценностей личности.

При изучении ценностей как мотивационных целей, которыми руководствуются студенты в целом и в частности при выборе поведения. Ценности, как и личностные структуры, выражают личностные различия и отражают идентичность личности. В исследовании, проведённом в рамках диссертации на кафедре государственного управления Хайфского университета, изучалась взаимосвязь между личными ценностями и стратегией поведения. Исследование показывает, что ценностью связанной со стратегией поведения является ценность достижения, входящая в состав ценностей самовосхваления, за которой следует только ценность самонамерения из группы ценностей открытости к изменениям. То есть студент с более высоким баллом самовосхваления будет более инновационным, чем студент с более высоким баллом открытости к изменениям.

Связь между измерением самопрославления — ценностями достижений и ценностями власти — с стратегией поведения еще не рассматривалась в исследовательской литературе. Ценности достижений включают в себя ценности: амбиции, успех, способности и влияние. Студенты с этими ценностями стремятся к личному успеху в соответствии с существующими социокультурными стандартами и получают социальное одобрение успеха. Поэтому успешные студенты будут прилагать особые усилия для достижения успеха в своей работе и будут проявлять чрезмерную вовлеченность как в рабочий процесс, так и в процесс принятия решений, демонстрируя при этом знания и способности. В результате этих достижений они также согласятся выполнять действия, которые не являются частью их работы.

Ценности достижения, к которым относятся: амбиции, успех, способности и влияние, могут способствовать стратегии поведения — реализации идеи. Поведение должно быть проактивным и самомотивированным без намерения старшего члена организации. Чтобы добиться успеха, учащийся должен прилагать большие усилия, чтобы с энтузиазмом подходить к задачам и справляться с трудностями на работе. студенты, не достигающие успеха, скорее всего, избегают такой деятельности, прикладывают немного усилий и быстро сдаются.

Тот факт, что ценности самопрославления способствуют более инновационному поведению, чем открытость к изменению ценностей, противоречит интуиции. Почему амбиции, успех, способности и влияние оказывают большее влияние на выбор стратегии поведения, чем стремление к независимости в мышлении и поведении и открытость к инновациям и вызовам? Одно из возможных объяснений заключается в том, что совокупность сложности, необходимой для стратегии поведения, и необходимость преодоления всех трудностей делают достижение наиболее важным показателем в этом процессе.

Действительно, исследование показало, что ценности соответствия являются негативными предикторами стратегии поведения. Учащийся, который послушен, вежлив и соответствует системе, а также сдерживает действия и импульсы,

которые могут разозлить или навредить другим, будет трудно вести новаторское поведение, которое требует прорыва в мышлении и поведении и преодолении возражений во всех отношениях. Студенты с самонаправленными ценностями менее подвержены влиянию стереотипов или предубеждений, потому что предпочитают формировать независимые суждения об окружающей среде, основываясь на своём личном опыте, а не на опыте других. Кроме того, у них есть внутреннее желание исследовать, понимать реальность и испытывать способность контролировать события помимо внешних вознаграждений. Эти описания соответствуют восприятию людей-новаторов, движимых внутренним стремлением к переменам и получающих удовольствие от самостоятельного решения проблем.

Таким образом, предикторы ценности имеют большое значение для выбора, стратегии поведения. Особенно, когда возникает идея от студента требуется новаторское мышление, калейдоскопическое мышление, реконструирующее реальность, не опасаясь воздействия на окружающую среду. Активные студенты со стимулами — это учащиеся, которые ищут разнообразную и увлекательную учебную жизнь, возможности и изменения, чтобы поддерживать высокий уровень азарта на учёбе. Их природное любопытство помогает им находить больше возможностей и искать новые источники информации по сравнению с другими. Кроме того, любопытство и стремление к автономии повышают вероятность выбора стратегии поведения.

Использованная литература:

1. Шерри Эрлих, Влияние личных ценностей и психологического контракта на инновационное поведение работников высоких технологий. Диссертация - Хайфский университет, Школа политических наук, 2011-2011 гг.

2. Коста, П.Т., младший, и МакКрей, Р.Р. (1992). Нормальная оценка личности в клинической практике: Опись личности NEO. Психологическая оценка, 4, 5-13

3.Кантер, Р. М. (1988). Когда расцветает тысяча цветов: структурные, коллективные и социальные условия для инноваций в организации. В BM Staw & LL Cummings, (ред.). Исследование организационного поведения, Том 10 (стр. 169–211). Гринвич, Коннектикут: JAI

Зафар АБДУРАХМАНОВ,
УзНИИПН им. К.Ниязий, самостоятельный соискатель

ДИДАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ МАГИСТРОВ СПЕЦИАЛИСТОВ В УСЛОВИЯХ ИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Annotatsiya

Maqolada magistrlarni tayyorlash jarayonining didaktik tahlili va ularni hal qilish yo‘llari bayon etilgan. Shuningdek, magistrlarni tayyorlash jarayonida o‘qitishning ‘‘bilim’’ konsepsiya ustunlik qilishi va ta’lim tizimini kompetentlik yondashuvga o‘tish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar. Magistratura, kompetentlik yondashuv, “bilimli” konsepsiya, didaktik tahlil, o‘quv reja, o‘qu metodik majmua.

В статье приводится дидактический анализ процесса подготовки магистров и пути решения их. Отмечается, что в процессе подготовки магистров доминирует “знаниева” система подготовки и необходимость перехода на компетентностные основы обучения.

Ключевые слова. Магистратура, компетентностный подход, “знаниевая” концепция, дидактический анализ, учебный план, учебно-методический комплекс.

The article provides a didactic analysis of the process of preparing masters and ways to solve them. It is noted that in the process of preparing masters, the “knowledge” system of training dominates and the need to switch to the competence-based basis of training.

Key words. Master's degree, competence approach, “knowledge” concept, didactic analysis, curriculum, educational and methodological complex.

Анализ становления и развития магистратуры в республике показывает, что за истекший период достигнуты определенные успехи, затронувшие все аспекты и составляющие этой подготовки, в частности: создано нормативно-правовое, научно-методическое и материально-техническое обеспечение магистратуры; разработаны государственные образовательные стандарты компетентностной направленности; внедрены в процесс обучения современные педагогические и информационно-коммуникационные технологии.

Наряду с достижениями имеется ряд нерешенных теоретико-прикладных проблем по дальнейшему совершенствованию и повышению эффективности деятельности магистратуры, в частности, актуальной является проблема по обновлению содержания магистерской подготовки в направлении компетентностного подхода. Не секрет во многом под компетентностным подходом подается подход, базирующийся на ЗУНы.

Структурный анализ дидактического обеспечения процесса подготовки будущих магистров позволяет выделить следующие его компоненты: цели и содержание образования; методы и технологии обучения; способы и средства оценки результативности обучения. Оценка уровня обоснованности этих компонентов предопределяется качеством подготовки следующих компонентов учебно-воспитательного процесса:

– учебные планы подготовки магистров;

– учебно-методические комплексы по дисциплинам;

– методическое обеспечение учебного процесса;
– педагогические технологий и методы обучения;
– проведение аудиторных и самостоятельных занятий;
– методы и средств оценки результатов образования.

В государственных образовательных стандартах высшего образования (ГОС ВО) и учебных планах подготовки магистров отражаются цели и содержание образования. Под учебным планом подразумевается нормативный документ, определяющий: виды учебной деятельности, состав учебных предметов и курсов, последовательность их изучения и объем в часах по конкретному направлению специальности магистратуры.

Качественный и количественный анализ содержания и структуры существующих учебных планов подготовки магистров позволяют утверждать, что в учебных планах реализуется “знаниевая” концепция, характеризующаяся следующими дидактическими противоречиями:

1. Основой для разработки учебных программ служат квалификационные требования, которые не учитывают профессионально-значимые качества выпускника.

2. Структура учебных программ разделена на блоки учебных предметов (гуманитарные, профессиональные, специальные аттестационные и др.), которые не способствует реализации процесса интеграции знаний.

3. Много предметность учебных программ не позволяет эффективно реализовывать принцип индивидуализации в обучении.

4. В учебных планах не заложены временные ресурсы для поэтапной диагностики формирования компетентности.

5. Предметная структура учебных программ не создает психолого-педагогических условий для формирования у студентов магистратуры целостной научно-практической основы профессиональной деятельности.

Это следствие того, что на стадии разработки учебных планов знаниевой направленности, в них в недостаточной степени учтены современные требования социально-экономических и научно-технических тенденций развития (ориентация на развитие социально значимых личностных качеств, интегративность знаний, индивидуализированный подход в обучении, непрерывность диагностики уровня формирования групп компетентности, формирование системного и творческого мышления и др.).

Выявленные противоречия обуславливают модернизацию учебного плана, способствующую формированию системного профессионального мышления и созданию психолого-педагогическую основы для становления и развития творческой личности.

Анализ структуры и содержания учебно-методических комплексов, показал, что выполняемые студентами магистратуры практические задания и самостоятельные работы, в большинстве своем не несут в себе практическую и целевую направленность, а также в учебно-методических комплексах (УМК) от магистрантов не требуется поиска решений новых проблем и проявление творческих способностей. Содержание УМК в основном, ориентируется на репродуктивные, шаблонные учебные цели, и поэтому магистранты, получая высокую теоретическую подготовку, не имеют необходимого опыта применения теоретических знаний в решении профессиональных задач. Это обстоятельство требует модернизации УМК в направлении проявления у студентов магистратуры творческих качеств.

Анализ результативности когнитивной педагогической технологии, применяемой в учебном процессе, показывает, что её содержание, в основном, направлено на

получение магистрантами определенной суммы готовых знаний, а не практических и профессиональных умений и навыков. В большинстве высших образовательных учреждениях (ВОУ) республики доминирует форма передачи «знаний» – от преподавателя к студенту. Сегодня лекционные занятия информационно-иллюстративного характера носят пассивный вид обучения, который нацелен на усвоение готовых знаний, не способствует самостоятельному их приобретению и не требует у магистрантов использования механизмов системной и творческой мыслительной деятельности. По специальным исследованиям, известно, что сразу после информационной лекции, студенты помнят менее 20% учебного материала, и большая часть материала забывается после первой недели, поэтому информационная лекция является мало эффективной.

Основной направленностью когнитивной педагогической технологии является передача максимального объема профессиональной информации. Последняя, вследствие быстрого её устаревания, в значительной степени, теряет свою актуальность и методическую ценность. Избыточность сведений в информационных занятиях ограничивает у магистрантов самостоятельность в поиске эффективных решений профессиональных задач В когнитивной педагогической технологии характерны следующие признаки: целеполагание, которое направлено на формирование познавательных способностей обучаемых; содержание, направленное на приобретение профессиональных ЗУНов; методы и средства, нацеленные на репродуктивную деятельность. Это позволяет утверждать о том, что обучение магистрантов носит экстенсивный характер и не способствует формированию и развитию у них творческих способностей, а также приобретению ими творческого опыта для решения научно-исследовательских профессиональных задач.

Для интенсификации процесса обучения магистрантов целесообразно применять креативные педагогические технологии, способствующие активизации и индивидуализации обучения.

Качество усвоенной магистрантами основной образовательной программы оценивается в следующих видах контроля:

– текущий (осуществляется непрерывно);

– промежуточный (несколько раз в семестр или модульно);

– в виде зачетно-экзаменационной сессии (2 раза в год);

– в виде итоговой государственной аттестации выпускников (включает государственные экзамены и защиту магистерской диссертации).

Существующая система контроля качества знаний определяет, в основном, профессиональную подготовку магистров в соответствии с нормативными требованиями. Однако современные требования диктуют нацеленность системы контроля на определение уровня развития его личностных (профессионально значимых) качеств (коммуникативных, эмоциональных, волевых, духовных, культурных и др.).

Итоговая государственная аттестация магистра – это оценка качества выполненного им учебного плана в соответствии с квалификационными требованиями к академической степени магистра. Проведенный нами анализ итоговых государственных аттестаций выпускников магистратуры в ВОУ республики показывает, что в структуре аттестации нет процедур, направленных на установление уровня развития личности магистра, его профессионально-значимых личностных качеств.

В нижеследующей таблице представлена сравнительная характеристика содержание дидактического обеспечения знаний и компетентностного подходов.

Таблица

Сравнительная характеристика содержание дидактического обеспечения знаниевого и компетентностного подходов

Сравниваемые положения	Знаниевый подход	Компетентностный подход
Цель обучения	Формирование системы знаний, умений, навыков и научного миропонимания, основ культуры.	Реализация творческих способностей и познавательных интересов личности.
Содержание обучения	Знания о предмете той или иной учебной дисциплины (предметные знания).	Дидактически адаптированный социальный и научно-профессиональный опыт решения практикоориентированных проблем и задач.
Методы обучения	Формирование у студентов определенной "суммы знаний" эмпирического, теоретического и аксиологического (ценностного) содержания.	Развитие у студентов интегративных знаний, позволяющие глубоко осмысливать взаимосвязь предметов и создать целостное представление об объекте.
Применяемые педагогические технологии	Репродуктивные, трансляции "готового" знания предметного характера, его запоминания и воспроизводства.	Индивидуализированные и исследовательские методы, накопления студентами опыта самостоятельного решения проблемно-профессиональных задач.
Система контроля качества знаний	Оцениваются только ЗУНы, профессиональные качества.	Диагностика уровней сформированности у будущих магистров различных компетентности (групп компетенции).
Принцип организации системы обучения	Субъект-объектное отношение.	Субъект-субъектное отношение.
Форма обучения	Иллюстративная, информационная	Проблемно, исследовательская, креативная
Применяемые задания	Репродуктивного характера, познавательные	Проблемные творческого характера
Позиция обучающегося	Пассивная, обучаемая, потребительская	Активная, исследовательская, продуктивная

В исследованиях отечественных ученых Ш. Э. Курбанова и Э. А. Сейтхалилова раскрыта идея управления качеством образования, которая состоит в создание

психолого-педагогических условий для развития у магистров творческой деятельности. Для создания системы объективной оценки качества обучения должны быть разработаны новые научные подходы к определению системы критериев и показателей. Новая система оценки качества образования будет эффективная только тогда, когда её структура и содержание будут нацелены на приобретение прочных, глубоких и надежных ЗУНов по изучаемой дисциплине. Для этого необходимо, чтобы в её структуре были заложены психологические механизмы стимулирования активной самостоятельной творческой деятельности, непрерывности формирования высокой мотивации к учёбе, а также высокие дифференцирующие способности, объективности, достоверности и надежности оценок, полученных магистрантами при проведении контроля их ЗУН[6].

Таким образом, на основе дидактического анализа существующей системы подготовки магистров и её сравнения с концепцией компетентностного подхода можно утверждать, что, традиционное дидактическое обеспечение направлено на подготовку специалистов для репродуктивной, а не для творческой деятельности по ниже следующим психолого-педагогическим причинам:

– учебные планы ориентированы на учебно-познавательную деятельность, а не на реализацию активной учебно-творческой деятельности студентов;

– предметные знания не способствует формированию у студентов магистратуры интегративных знаний, а также целостного научного осмысления реальных научно-технических и социальных проблем;

– существующие когнитивные педагогические технологии направлены на формирование у магистрантов репродуктивного типа деятельности и не способствуют самораскрытию и самореализации их творческого потенциала;

– учебно-методические комплексы не способствуют индивидуализации учебного процесса, его практико-ориентированности и творческой организации;

– существующие средства контроля качества обучения направлены, прежде всего, на проверку объема знаний и навыков, а не на определение уровня компетентности;

– в квалификационных характеристиках выпускника магистратуры отражаются только его профессиональные, а не профессионально значимые личностные качества.

В заключении отметим, что данная статья является дискуссионной, в ней не предложено однозначное решение обозначенных проблем. Однако затронутые вопросы назрели для широкого обсуждения. И авторы с благодарностью примут конструктивные замечания и предложения по обсуждаемой проблеме.

Использованная литература:

1. Eshbayev O., Maxmudov A., Rozikov R. an overview of a state of the art on developing soft computing-based language education and research systems: a survey of engineering english students in Uzbekistan. 2021:The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems, ACM- Association for Computing Machinery. December 15, 16, 2021, Dubai, United Arab Emirates. Pages447–452.

2. Махмудов А.Х., Абдурахмонов З.Б. Таълимда замонавий рақамли технологияларидан фойдаланишнинг ютуқлари ва муаммолари // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference3. С. 97-99.URL: https://cyberleninka.ru/article/n/talimda-zamonaviy-ra-amli-tehnologiyalaridan-foydalanishning-yutu-lari-va-muammolari.

3 .Махмудов А.Х., Анарбаева Ф.У. Рақамли таълимда педагогик технологияларни қўллаш имкониятлари //Development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – С. 476.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Baxtiyor SAIDOV, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Shamsiyeva Maftuna Muxiddin qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2022.